




OXUNJON SAFAROV

ЎЗБЕК ХАЛҚ БОЛАЛАР ЎЙИНИ





BARKAMOLLIK  KUTUBXONASI

OXUNJON SAFAROV

ЎЗБЕК XALQ
BOLALAR
ЎYINLARI



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT – 2013

UO‘K 821.512.133-3

KBK 74.100.57

S 37

S – 37 **Safarov, Oxunjon**


O‘zbek xalq bolalar o‘yinlari. — T. «Sharq», 2013. — 176 b.

Xalq dahosi yaratgan bolalar o‘yinlar asrlar davomida navqiron naslni chiniqtirish va tarbiyalash vazifasini o‘tab kelayotir. Ularda xalqning an’anaviy turmush tarzida sinalgan, o‘zbekona milliy ruh bilan yo‘g‘rilgan jismoniy-tarbiyaviy va ma’naviy-axloqiy qarashlar o‘z aksini topgan. O‘zbek bolalarining xalqona o‘yinlari jamlangan ushbu kitob katta tadqiqot sifatida diqqatni tortadi.

ISBN 978-9943-00-976-9

UO‘K 821.512.133-3

KBK 74.100.57



ISBN 978-9943-00-976-9

© «Sharq» NMAK Bosh tahririyati, 2011, 2013



XALQ O'YINLARI — BOLALAR UCHUN HAYOT MAKTABI

«O'yin» va «raqs» tushunchalarini farqlamay qo'llash odat tusiga kirgan, go'yoki ular bir hodisaday, ular orasida hech qanaqa tafovut yo'qday. Aslida-chi? Aslida ular bir-biriga mohiyatan o'xshamaydigan hodisalar bo'lib, har biri o'z tabiatiga ega, o'ziga xos qonuniyatlar asosida yashaydi, rivojlanadi. Rost, har ikkalasi ham harakat zahirida qurilgan, qolaversa, raqs, qisman esada, o'yindan o'sib chiqqan. Shu vajdanmikin, «o'yin» nisbatan keng ma'noli tushunchaga aylangan, raqs hodisasini anglatadigan ma'noda ham qo'llanaveirilgan. Buni xalqona o'yinlar misolida ravshanroq ko'rish mumkin. Aytaylik, «Chittigul» harakatni so'z boshqarishi asosida qurilgan qizaloqlar o'yini. Qizaloqlar uni erta bahorda (endigina nish otib ko'kara boshlagan gul-u sabzalarini ko'rib quvonch va hayajondan entikib) «chittigul» — aslida ular chuchuk tilida chiqqan, hayajonga limmo-lim «chiqdi gul!» iborasi ekanligini inobatga oling, qo'l ushlab davra hosil qilgan holda aylana turib, o'zaro jo'rovozklikda qo'shiqni kuylashadi. Bunda aylanish harakati qo'shiq uchun ritmik — ohangdorlik asos vazifasini bajargan:

*Etagingga gul bosay,
Bir yonini yon bosay.*

Naqorat ijrosi jarayonida esa aylanayotgan yondosh qizaloqlar shiddat bilan juft-juft bo'lishi, bir-birlarining kaftlariga kaftlari bilan uch marta urib kuylashda davom etishgan:

*Ha-yu, chittigul,
Ha-yu, chittigul!*

O'yin nihoyasida oxirgi marta kaftlarni urishtirib, har bir qizaloq o'z o'rnida gir aylanib turib:

*Ha-yu, chittigul,
Ha-yul!.. —*

der ekan, barchalari birvarakayiga gurra tarqalishgan (O'yin qaytarilganda yana yuqoridagi tartibga amal qilingan).

Ko‘rinib turibdiki, «Chittigul»da ham o‘yin, ham raqs, ham qo‘shiq unsurlari o‘zaro singishib ketgan. Shunday ekan, uning o‘zi nima? O‘yinmi? Raqsmi? Yoki qo‘shiq? Undagi raqsga xos harakatlar butunlay raqs deyishga asos bo‘lolmaydi. Chunki ularda nafas yetishmaydi (Ular hammabop, odmi harakatlar). Raqs esa nazokatga yo‘g‘rilgan jozibali harakatlar majmui bo‘lib, har kim ham ijro qilavermaydigan san‘at darajasidagi hodisadir. Shu mantiqning o‘ziyoq «Chittigul» raqs-ga xos ibtidoiy harakatlarga ega esa-da, hali tom ma‘nodagi raqs darajasiga o‘sib chiqolmaganini ayonlashtiradi. Unda harakatning hammaboplik xususiyati ustuvor ekan, shuning o‘ziyoq ommaboplik fazilati ustuvor bo‘lgan o‘yinga mansublik alo-matini kuchaytiradi. Qolaversa, «Chittigul» shunchaki qo‘shiq ham emas. Undagi qo‘shiq — o‘yinning ajralmas uzvi, xolos. Shu qo‘shiq bo‘lmasa undagi harakat ham yuzaga kelmaydi. Bu shunday qo‘shiqki, butun o‘yin davomida harakatni ta‘minlabgina qolmay, balki ravishini boshqarib turadi, shu asosda kompozitsion yaxlitlikni yuzaga keltiradi, shu bois «Chittigul» harakatni so‘z boshqaradigan behad ommaviy o‘yin turi. Uning o‘yinligini tasdiqlovchi yana bir muhim alomati — o‘yin ham, tomoshabin ham ijrochilarning o‘zlari ekanligidaki, raqsda bunday uyg‘unlik yo‘q. Raqsda bir-biriga ma‘naviy emotsionallik rishtalari bilan bog‘lan-gan raqqos yoki raqqosa olami va undan zavq-u surur olishga chog‘langan tomos-habinlar olami bor. Ular alohida-alohida olamlar-ku, lekin purma‘no harakatlarni kuzatuvchi nigohlar vositasida o‘zaro tutashgan.

Bolalar o‘yinlarida esa bunday emas, ularda o‘yin ham, tomoshabin ham bo-lalarning o‘zlari, bunda o‘yinchi va tomoshabin yagona bir siymoda namoyon bo‘ladi, ular o‘zaro tutashgan. Shu bois har bir o‘yin o‘ziga xos dramatik asarday, hayotning qay bir parchasi, qay bir dardi, qay bir muammosini aks ettiruvchi sah-na asariday bo‘lib, uning muallifi ham, ijrochisi ham tag‘in o‘sha bolalarning o‘zlari... Bunda bolalarning ijodkorlik salohiyatlari haqiqatan namoyon bo‘ladi. Zero, bolalar o‘ynab zavq oladi, o‘ynab kurashga tushadi, o‘ynab mag‘lubiyat alamini totadi, o‘ynab g‘oliblik nashidasini suradi, o‘ynab o‘rganadi, o‘ynab kashf etish va ijod qilish ilmini o‘zlashtiradi, o‘ynab kuylaydi, o‘ynab hamdardlik va hamkorlik tuyg‘usini tuyadi, o‘ynab birlashadi va birlashmoq manfaatdorligini his qiladi, hatto o‘ynab judo bo‘ladi, yolg‘izlanadi va yakkalik iztirobini tortadi. O‘yinda harakat hayot ma‘nolarini ifoda etuvchi ma‘no kasb etsa-da, asosan, taq-lidiy mohiyatga ega. Chunki bolalar kattalarga taqlid qila turib o‘ynaydilar, taqlid ular uchun olamni va odamni o‘zlashtirish vositasiga aylanadi. «Xalq ommasi bag‘rida kechayotgan bolalar turmushining alohida nuqtalari bor, — deb yozgan edi rus folklorshunosi G.Vinogradov. — Bolalar o‘zlarini ayrim ajratilgan alohida olam sifatida anglashadi va yashashadi. Kattalar ishtirokisiz ham o‘yin o‘ynay bilishadi, o‘ynab turib o‘rganadi, bevosita kattalardan emas, o‘z akasidan ular me-

rosini o'zlashtiradi, raqsni o'rganadi — yana o'sha kattalardan emas, ko'pincha ulardan olamshumul sir tutgan holda shu tariqa atrofni o'rganan muhitni anglash har gal ham kattalar ta'siri va rahbarligida kechavermaydi¹. Shunga qaramay, bolalar faoliyatida taqlidchilikning yetakchi tamoyilligi rad etib bo'lmas haqiqatdir. Har bir taqlidiy harakat ularning o'yinlarida turmushning qay bir qirrasini aks ettiruvchi ma'no kasb eta boradi. Aytaylik, uzun xivichni toychoq qilib minib olgan va har gal: «Chu!» — deya unga qamchi bosib chopqillagan bolakay quvonchi haqiqiy chavandoznikidan kam emas. U hatto entikkanidan toychoqday kishnab ham qo'yadi. «Urush-urush»ga o'ynab o'yinchoq to'pponchasi (miltiqchasi)dan «paq» etib otarkan, haqiqiy g'oliblik nash'asini surganday sezadi o'zini. O'yinchoq moshinchasida tuproq solib olib, o'zi «qurgan» yo'lakchadan sudrab turib «bib-bib»lab chopayotgan bolakay tuygan zavq haqiqiy shofyornikidan kam emas. Qo'g'irchog'ini allalab uxlatayotgan yoki unga «ovqat yedirayotgan» qizaloq kayfiyatida haqiqiy onalarnikidan qolishmaydigan surur bor. Yoxud o'shal qizaloq loydan «xamir» qorib, «kulcha»lar pishirib, mehmondorchilik taomilini o'ynab turib ado etarkan, bundan tuygan sururida kattalarning haqiqiy mehmonnavozlikda his qiladigan jonbaxsh safo bor, albatta.

Chelakchasida suv tashiganida, loydan uycha qurganida, tuproqdan xirmon uyganida bolakay shunchaki o'ynamaydi, kattalarga taqlid qila turib mehnat qilgan bo'ladi. Bu shunchaki taqlidiy mehnat emas, balki unga xos jarayonlarni o'zlashtirish, mehnatning mohiyatini idrok etishdan iborat hayot sabog'idir. U hayotni o'ynab turib o'zlashtiradi, o'ynab turib ijodiy salohiyatini shakllantiradi va toblaydi, o'ynab turib bunyodkorlikni o'rganadi va kelajakning bunyodkori bo'lib yetishadi. Binobarin, o'yin — bolalar uchun hayotni o'rganish va o'zlashtirish alifbosi, donolar iborasi bilan aytganda, «har qanday bilimning alifbosi, ular fan va bilimdonlikning birinchi darajali buyuk pillapoyalari» hisoblanadi. Bolalar o'ynab turib yashashadi, bu shunday hayotki, bolalarning ham vujudini chiniqtiradi, ham ongini shakllantiradi va o'stiradi. Olamni anglash va o'zlashtirish mashqlaridan tarkib topgan bunday hayot — bolalar uchun jiddiy mashg'ulot ham.

O'yinlarning xalq tarixiy qismati, olis o'tmishga xos turmush tarzi, urf-odatlari zuhur topgan. Bola o'yin jarayonida ajdodlarining ana shu tarixidan voqif bo'ladi, bunday voqiflik zamirida esa Vatanni anglash, unga mehr bilan qarash hissi uyg'onadi, o'zligini anglashga yo'l ocha boradi. «Qo'rg'on olish» shunday tarixiy jangovar o'yinlardan. U, asosan, qisqagina dialog negizida qurilgan. Ammo unda o'ynoqi ritm mayjud, shu ritm savol-javobning poetik ohangini ta'minlagan:

¹ Виноградов Г. Детский народный календарь // Сибирская живая старана. Этногр. Сборник. Вып. II. Иркутск, 1924. с. 59–60.

- *Abdurahmon qoqvosh.*
- *Labbevosh.*
- *Tuyang qayda?*
- *Ola tog'da.*
- *Qatig'i qani?*
- *Yontoq.*
- *Nima beradi?*
- *Moyi qani?*
- *Moylonda.*
- *Suti qani?*
- *Sutlonda.*
- *Qatlonda.*
- *Nurmat akaning qiziga Karnaymi, surnaymi?*
- *Moy.*

Nomi tutilgan bola (istalgan nom) kamay deyilsa — karnay, surnay ovozi-ga taqlid qilishi lozim. O'zbek bolalari repertuaridagi «Yashinmachoq» o'yini yurtimizning barcha shahar va qishloqlariga keng tarqalgan. Uni bugungi kunda ham faollik bilan o'ynashadi; ba'zi joylarda sof sport o'yini shaklida o'ynashsa, boshqa bir qator joylarda o'yinning ayrim qismlari qo'shiq jo'rligida bajariladi. Chunonchi, buxorolik qizaloqlar yashirinish jarayonida jo'rovoz tarzida o'z-o'zlariga shunday murojaat qilishadi:

*Opa-opa anjil,
Darvoza zanjil.
Darvozani ochinglar,
Cho'lga qarab qochinglar.
Cho'lning yo'li keng ekan,
Bizni (meni) tutib olinglar!..*

Qo'shiqning «Yashinmachoq» o'yinining har ikkala turida ijro etilishi uning mazmunidan anglashilib turibdi: birinchi turida bolalar ikki qarama-qarshi teng guruhga — toparmonlarga va yashirinuvcilarga bo'linsalar, ikkinchi turida bunday guruhlariga bo'linmaydilar. Unda birgina navbatda turuvchi toparmon bo'lib, qolgan barcha bolalar yashirinadilar. O'yinning mana shu turi nisbatan kengroq tarqalgan; unda yashirinish niyatida aytiladigan tarqalish qo'shig'i ham bo'lakcha:

*Agar hushyor bo'lsangiz,
Yig'lamasdan kulsangiz,
Tarqalishib ketdik biz,
Izlab-izlab toping siz.*

Yashirinib bo'lishgach, toparmonga shu xususda ogohlantiruvchi ishora beriladi. Ko'p hollarda «puq» yoki «pub» deyilgan ishora berilsa, ayrim hollarda qo'shiq shunday ishora vazifasini o'taydi:

*Oq sovun, ko'k sovun,
O'rtasi atirsovun.
Pub-pub, pishdi,
Pub-pub, pishdi...*

Yoki:

*Ana man, ana man,
Echki boqib kelaman.
Shu yerdan tulki o'tdimi?
Dumi loyga botdimi?
Gulbutaning tayiga
G'azal aytib yotdimi?*

Shuni ham aytish kerakki, «Yashinmachoq» o'yinidagi qo'shiqlar butun o'yinning tub mohiyatini belgilamaydi, aksincha, o'yin kompozitsiyasidagi biror qismgagina daxldor bo'ladi, o'sha qismga xos harakatga omuxta tarzda ijro etiladi. Aytaylik, yuqorida keltirilgan to'rt qo'shiqdan dastlabki ikkitasi faqat yashirinish uchun tarqalayotgan paytda aytilsa, so'nggi ikkitasi yashirinib bo'lgandan keyin yashiringanlik haqida ishora tarzida aytiladi. Bunday hollarda qo'shiq o'yin kompozitsiyasining uzviy qismiga — biror tarkibiy bo'lagiga aylanadi, xolos.

O'zbek bolalari repertuarida qo'shiq kompozitsiyasiga aylangan o'yinlar butun bir silsilani tashkil etadi... «Yashirganimni top», «Chopa turib o'tirish», «Yoshlam-yoshlam», «Oltin darvoza», «Xurmacha bog'i», «Mehmon-mehmon», «Moy kulcha», «Chap berish», «Besh tosh» «To'y-to'y», «Sakra-sakra», «Otish-otish», «Urush-urush», «Jik-jik», «O'y o'ylash», «Bozor-bozor», «Quv-lashmachoq», «Otilgan do'ppini kim oldin olib keladi?», «Tez qaytish», «Kim chopag'on», «Zum-zum», «Mushuk-sichqon», «Pishakvoy», «Quyoning» va boshqalar ana shunday xarakterga ega.

«Xurmacha bog'i», «Mushuk-sichqon», «Yoshlam-yoshlam» ko'p variantli o'yinlar sifatida o'tgan asrlardanoq bolalar repertuarini muzayyan etib kelmoqda. Ular davr ruhiga yo'g'rib, yangi motivlarni ifodalab, hamon bolalarning sevimli o'yini bo'lib qolmoqda. Bolalar o'ylashni o'yinga aylantirganlarida ham Vatan dushmanlariga qasoslari borligini yashirishmaydi. «O'y o'ylash» o'yinidagi qo'shiqda shu motiv ifodalangan:

*— O'y o'ylasang,
O'ying o'ngisin,*

*Tog' bag'rida yotib olsa,
Qo'ychi o'ngisin.
Qo'ychi bo'lsang,
Qo'ylaringni birga boqaylik.
Dushmanlarning ko'kragiga
O'tlar yoqaylik.*

O'ylay bilish — katta san'at, uning vositasida voqelikni idrok qilish yo'li ochiladi. Bu o'yinda ham shunday bo'layotir. O'yinchi shunchaki o'ylamayotir, balki o'yinga parvoz berganidan yuksak tog' xayolini chulg'agan. Tog' bag'ridagi qo'ychi va qo'ylar — mehnatkash inson va el boyligi unga muqaddas tuyulganidan, ular bir ipda tizilganday, pirovard-oqibatda shularga zavol keltirmoqchi bo'lgan dushmanga nafrat va qasos o'yinga aylangan. Bu o'yinlarning barchasida vatanparvarlik pafos darajasiga ko'tarilgan.

«Kim chopag'on», «Zum-zum», «Tez qaytish» «Quvlashmachoq», «Ushlama» va boshqa shunga o'xshash o'yinlar bolalarning jismoniy chiniqishlariga ma'naviy ko'rk bag'ishlaydi; ularni chaqqon, epchil, sezgir bo'lishga, aniq mo'ljal olishga, vaziyatni baholay bilishga o'rgatadi. «Kim chopag'on»da tez chopish mu-sobaqasining mohiyati o'yin (ona) boshi qo'shig'ida shunday ifodalanadi:

*Karim kamonga ketdi,
Sobir somonga ketdi.
Tolib, Tesha — ikkovi
Ikki tomonga ketdi.
Qaysisi kelsa oldin
Manov sovg'ani olsin,
Husht!*

«Zum-zum» o'yin chillak o'yinining bir ko'rinishi bo'lib, yutqizgan to-mon zum chopib dovni bermog'i lozim. Bunda yutgan tomon chillakni yerga tushirmay, muallaqligicha chillakdasta bilan necha marta ura olsa, shu sanoq dara-jasigacha uni uzoq masofaga yo'naltirib zarb bilan uradi. Yutqizgan shu masofaga bir nafasda «zum» degancha chopib kelmog'i shart. Albatta, avvalo, u shu ma-sofaning uzoq-yaqinligini chamalab, uning qancha qismigacha nafasi yetishini inobatga olmog'i, so'ngra, o'sha masofaning ma'lum qismini quyidagi qo'shiqni aytish hisobiga chopib o'tmog'i kerak:

*Shoyi ko'ylak kiymayman,
Hilpillatib yurmayman.
Kalish-mahsi kiymayman,
G'irchillatib yurmayman.*

*Botinkamni kiymayman,
Do 'qillatib yurmayman,
Oyoqyalang chopaman.
Chopaman, diving beraman.
Zum...m...m...*

Ana shu zum bilan marraga yetib kelish shart. Aks holda uzilgan joydan o'yin qayta boshlanadi.

«Kattalarning o'z o'yinlari bo'lganidek, — deb yozadi professor G. Vinogradov, — bolalarning ham o'z o'yinlari bor. ular o'zaro juda ko'p umumiyliklarga ega bo'lsalar-da, bir-birlaridan shunchalik ajralib turadilarki, ana shu farqlarni o'rganish lozim»¹. Zotan, o'yin ko'p hollarda kattalar uchun jiddiy ishlardan ma'lum muddatga chekinish, hamma narsadan qimmatli vaqtni zoye ketkizmaslik uchun hordiq chiqarish va o'z aqliy-intellektual hamda jismoniy kuchlarini yig'ib yangidan bir shiddat hosil qilish vositasi. Bundan kattalar orasida qaror topgan musobaqa xarakteridagi o'yinlar mustasno, albatta.

Rost, aslida har qanday o'yin asosida kurash va tortishuvda zuhur topgan musobaqa yotadi. Biroq shu kurash va tortishuvning shiddati pirovard-oqibatda shu musobaqa tabiatini belgilaydi, shu bois qay bir o'yin shunchaki hordiqqa xizmat qilsa, qay biri chinakam kurash negizidagi musobaqa tusini olgan. Kurash, ko'pkari, chavandozlik singari qator o'yinlar sport o'yinlari shaklini olgan. Bolalar o'yinlari esa tamoman o'zgacha mazmunga ega. U — turli yoshdagi bolalar hayotining ajralmas tarkibiy qismi, o'sish va ulg'ayish, chiniqish va toblanish pillapoyalari.

O'yin bolalar beshikdaliklaridayoq hayotlariga kirib boradi: «Bordi-bordi»yu, «Havzak-havzak»lar bo'lib, shaqildog'-u tutanchiq singari o'yinchoqlar bo'lib, bolalar ulg'aygan sayin o'yinlari ham beshikdan uyga, uydan hovliga, hovlidan ko'chaga, keng maydonlarga ko'cha boradi, ham shaklan, ham mazmunan murakkablashadi, hayotning barcha qirralarini muqallidan ilg'ay boradi, qolaversa, hatto bolalarning jinsiga ko'ra tafovut hosil qila boshlaydi, kechki yoki kunduzgilikdan iborat vaqt tamoyilini kasb etadi, hatto yilning qaysi faslida o'ynalishi qat'iyatlash boradi. Shu tufayli bolalikning har bosqichiga muvofiqlashgan o'z o'yinlari bor: qizlarning o'g'il bolalardan, o'g'il bolalarning esa qizlardan farq qiladigan, eyni zamonda har ikkala jinsning aralash holda o'ynashlariga muvofiqlashgan o'yinlari turkumlashgan. Ularning faqat bahorda, faqat yozda, faqat kuzda yoki faqat qishda o'ynaladigan turkumlari shakllangan. Bu, albatta, u yoki bu o'yinning fasllar o'zgarishi bilan yuz beradigan mehnat jarayonlari, ularga daxldor urf-odatlar irim-sirimlarga muqallidiy xatti-harakatlari natijasida yuzaga kelganligi oqibatidir.

¹ Виноградов Г. Детский народный календарь. С. 59–60.

Shu bois poliz qo‘riqchiligi, bog‘dorchilik, chorvachilik, quruvchilik, kulolchilik, ovchilik, baliqchilik, novvoylik, pazandachilik, harbiy va boshqa kasb-u korlarga muqallidan yuzaga kelgan o‘yinlar bisyordir.

Shuni ta’kidlash joizki, majburiylik — o‘yin tabiatiga yot. U bolalardagi ijodkorlik salohiyatini so‘ndiradi. Shu bois bolalar qaysi o‘yinni istasalar — uni ixtiyoriy tanlaydilar. O‘yin tanlash — o‘yin maylini, zavqini yuzaga keltirishi shart. Shundagina bolalar shunchaki o‘ynamaydilar, balki o‘yinda yashaydilar, o‘yin ular uchun olamshumul zavq-u shavqqa, turmush darsligiga aylanadi.

O‘yinlarning turmush darsligi sifatidagi mohiyatini anglash — bolalarda unga nisbatan mas’ullik tuyg‘usini, o‘yin qoidalariga qat’iy rioya qilish burchini shakllantirgan. Shu boisdan bolalar o‘yin intizomiga qat’iy amal qiladilar. Shu zaminda asrlar davomida o‘yinlarning o‘z ichki qonuniyatlari shakllanganki, bu bolalarning ahillik, hamkorlik, birodarlik, tezkorlik, chaqqonlik, epchillik, bardoshlilik, matonatlilik, jamoatchilik, topqirlik fazilatlarini tarbiyalovchi mohiyat kasb etishini ta’minlagan. Shu zaminda o‘yinlar ko‘p vazifali hodisaga aylangan: ular hayot sabog‘i sifatida ijtimoiy mazmun kasb etsa, bolalarni jismonan va ma’nan chiniqtirib, axloqiy-tarbiyaviy vazifani o‘tagan. Shu fazilati bilan etnopedagogik mohiyat kasb etgan. Xalq urf-odatlarini, rasm-rasumlarini ifodalab, etnografik vazifa bajargan. Aytaylik, hozir ham shofirkonlik keksalar orasida bolalarning erta bahordagi o‘yinlariga qarab yilning qanday kelishini bashorat qilish udumi mavjud. Ular e’tiqodicha, bolalar erta bahorda tuproqni uyib «xirmonlar» yasashsa, «yo‘lkalar solishsa» — yil to‘kin va farovon kelarmish, bordi-yu bolalar yerni o‘ydim-chuqur qilib o‘ynashsa — yil og‘ir kelarmish, o‘lim ko‘p bo‘larmish...

O‘yin intizomiga qat’iy amal qilish — bolalarda burch va mas’uliyat tuyg‘usini uyg‘otadi, shu fazilati tufayli bolalarda huquqiy ong kurtak yozilishiga zamin tayyorlanadi. Bolalar jamiyatdagi o‘z mavqelarini idrok qila boradilar.

O‘yinlarda harakat ritmik mutanosiblikka ega. Bu, o‘z navbatida, harakatga omuxta ritmik o‘ynoqi qo‘shiqlar vositasida bolalarda go‘zallikni his qilish malakasini shakllantiradi, ularda go‘zallik tuyg‘ularini junbushga solib, estetik vazifani bajaradi.

Qolaversa, bolalar o‘yinining o‘zigagina emas, balki uni boshlash va yakunlashga ham alohida ahamiyat beradilar. Avvalo, birgina bolaning o‘zi yolg‘iz holda kamdan kam o‘ynaydi. Garchi o‘zbek bolalari o‘yinlarida yolg‘iz bolaga mo‘ljallangan o‘yinlar bor ersa-da, behad kam. O‘yinlarning aksariyati ikki va undan ortiq bola faoliyatiga mo‘ljallangan. Shu boisdan o‘ynagani ko‘chaga chiqqan yolg‘iz bola darhol sherik izlashga tushadi, tengqurlarini o‘yinga chorlaydi. Aytish mumkinki, o‘yin ana shu chorlamdan boshlanadi, aslida.

Nihoyat, bolalar yig'ilishgach, qaysi o'yinni o'ynash masalasi jumboqqa aylanadi. Bu masala o'yin tashkilotchilari sifatida tanilgan, shu bolalar to'pida e'tirof etilgan, tan olingan sarkorlar maslahati bilan hal qilingan. Bunday o'yin tashkilotchilari O'zbekistonning turli joylarida «o'yinboshi», «onaboshi», «jo'raboshi», «boshliq» atamallari bilan nomlanadi.

Shularning irodasi bilan tanlangan o'yinni xarakteriga qarab, demokratik asosda tashkil etishga kirishiladi. Aytaylik, o'yin qarama-qarshi taraflarga bo'lingan holda o'ynaladigan bo'lsa — cheklanish; alohida galda (navbatda) turuvchini aniqlash asosida o'ynaladigan bo'lsa — sanashish tadbirlariga amal qilinadi, bu bolalarda norozilik kayfiyati tug'ilishining oldini oladi, g'irromliklarga to'siq soladi, o'yinchilarni o'z guruhlari atrofida jipsroq uyushuvini va shu guruh (jamo'a) oldida mas'ullik tuyishni ta'minlaydi, o'yinning demokratik mohiyatini kuchaytiradi. Shu tariqa chorlama, cheklashmachoq va sanamalardan iborat an'anaviy o'yin boshlamalari yuzaga kelgan.

O'yinni boshlamay chala tashlab ketishga, yutqiza turib tan bermay qochishga hech bir ishtirokchining haqqi yo'q. O'yin hamma ishtirokchilar uchun baravar va bir vaqtda tugaydi. Binobarin, bolalar o'yinni yakunlamoqchi bo'lishsa, uning tugaganini e'lon qiladilar.

Ko'rinadiki, o'yin kompozitsion tarkibiga ko'ra an'anaviy debocha (chorlama, cheklashmachoq va sanama, o'yinning o'zi va intihosi (tarqalmachoq)dan iborat, shu qismlar birgalikda uning kompozitsion yaxlitligini ta'minlagan¹.

O'yinlarda harakat ikki vazifani ado etadi: birinchisi — bola tanasi va a'zolarini jismoniy jihatdan chiniqtiradi, bolani epchil qiladi, chaqqonlikka, tezkorlikka, chidamlilikka, uddaburonlikka, o'z kuchiga ishonishga o'rgatadi; ikkinchisi — bolalarni mushohada qildirtiradi, ma'naviy nigohini o'tkirlashtiradi, teranlashtiradi, kutilmagan qarorlar qabul qilishga chog'laydi, xullas, har ikkala holatda ham topqirlikka o'rgatadi, ham jismoniy, ham ma'naviyliги mohiyatiga ko'ra o'zbek xalq bolalar o'yinlarini ikki katta guruhga bo'lish mumkin:

¹ Bu hodisalar tabiati haqida kitobning keyingi sahifalarida maxsus to'xtalib, namunalar ham keltiriladi.



Harakatli o'yinlar

Bu xil o'yinlarda harakatni yuzaga keltiruvchi vositalar turlicha namoyon bo'ladi. Shu xususiyatiga ko'ra ular uch ichki xilma-xillikka ega:

a) Sof harakatdan iborat o'yinlar. Bularni taqlidiy o'yinlar ham deyish mumkin. Chunki harakat taqlid asosida yuzaga keladi. «Almash qadamlar», «Sirg'anchiq yoki toyinishma», «Ona tovuq va hakka», «Jik-jik», «Bekinmachoq», «Puqmipuq», «Yashirinmachoq», «Duk-duk», «Quvlashmachoq», «Shax-shax» va boshqa juda ko'p shu xildagi o'yinlarda harakat u yo bu hodisaga taqlid zamirida voqelikka aylangan.

To'g'ri, taqlidu boshqa turga mansub o'yinlar uchun ham begona emas, lekin ularda harakatni yuzaga keltiruvchi vositaga aylanmagan, sof harakatdan iborat o'yinlarda esa u harakatni voqelikka aylantirgan vosita, o'ziga xos mehvar darajasida, binobarin, uningsiz o'yin ham yuzaga kelmagan bo'lurdi.

Shuni ham ta'kidlash o'rinliki, sof harakatdan iborat o'yinlarning ko'pligi maktabgacha yoshdagi kichikintoylar va kichik yoshdagi o'quvchilarga mosligi bilan ajralib turadi.

b) Harakatni predmet boshqaradigan o'yinlar. Bular kichik hamda o'rta yoshdagi bolalar hamda o'smirlarga mos bo'lib, ulardagi harakatni tuproq, toshcha, tanga, loy, hango'z, oshiq, danak, yong'oq, ro'mol, chillak va chillakdasta, jirttak, lanka, to'p, koptok, qo'g'irchoq, turli-tuman o'yinchoqlar yuzaga keltiradi. Bu turdagi o'yinlarda narsa (o'yinchoq) harakatni yuzaga keltiradi va boshqaradi. Taassufki, o'zbek xalq o'yinlarini to'plash va o'rganishga kam e'tibor berilganligidan ularga daxldor milliy an'anaviy o'yinchoqlarni yig'ish va tadqiq qilish ham nazardan qolib keldi. Bu sohada E.M.Peshcherovaning 1957-yilda e'lon qilgan «Tojiklar va o'zbeklarda bolalar o'yinlari va o'yinchoqlar (1924–1935-yillardagi materiallar asosida)» maqolasidan boshqa biror jiddiy ish yo'q¹. Binobarin, bu turdagi o'yinlarga xos o'yinchoqlar (qo'g'irchoqlar, sopol va metall hushtaklar, yog'och g'ildirakli itarma aravachalar, g'arg'aralar, kamonlar, toshdan va yog'ochdan yo'nilgan ishti va hango'zlar, akkol va akkoldastalar, soqqalar,

¹ Qarag: Сборник Музея антропологии и этнографии. Институт этнографии им. Н.Н. Маклухо-Маклай. АН СССР, Т. XVII. М. – Л., С. 22–94.

varraklar, parraklar, jun to'pchiqlar, suv solib puflanganda sayraydigan bulbulchalar, uch g'ildirakli gav g'altaklar, halo'ngilar, g'altag-u g'altakchalar va h.k.) to'planmog'i va ularning bolalar ijodkorlik salohiyatini rivojlantirishdagi mohiyati o'rganilmog'i zarur. Bu alohida, biroq kechiktirib bo'lmaydigan tadqiqot mavzularidan hisoblanadi.

Shunisi muhimki, o'tmishda bu o'yinchoqlarning aksariyatini bolalarning o'zlari yasashgan, yo'ngan, tikkan, xullas, tayyorlashgan. Bu ham bolalarda ijodkorlik malakasini shakllantirishga xizmat qilgan, pirovard-oqibatda esa yo'qni yo'ndirib bo'lsa-da, o'yinni tashkil etuvchi topqirlikka o'rgatgan. Qizlar qo'g'irchoq yasamoqchi bo'lishsa, bir tugma, ozgina ip va matoh, ikkita cho'pchak topishsa bo'ladi, o'zlari uni tayyorlayverishgan. Toychoq mingisi kelgan bolakay uchun uzun novda topilsa — yetarli sanalgan. Suv va tuproq bor joyda istagancha loy o'yinchoqlarni tayyorlay olganlar. To'pchiqqa ehtiyoj sezganlarida tullagan sigir junini olib, kaftlariga hovuchlab, ozgina suv sepib ho'llab ishqalasalar bo'ladi — jun to'pchiq tayyor! Xullas, o'yin taqozo etgan istalgan vaziyatdan bolalar ana shunday topqirlik va sinchkov ijod yoki ixtirolari tufayli chiqa olganlar.

Afsuski, 50–60-yillardan boshlab tayyor «madaniy o'yinchoqlarga ruju qo'yish bolalarda ana shunday topqirlik va ijodkorlik ruhini birmuncha zaiflaltirdi. O'g'il bolalarning topgani tayyor futbol, qizaloqlarning topgani «mama» deguvchi tayyor qo'g'irchoqqa aylandi. O'zbek milliy o'yinchoqlar vositasida xalqimizga xos milliylikni anglab yetishlariga monelik yuzaga keldi. Endilikda zudlik bilan ana shu kemptiklikka barham berish milliy istiqlolimiz taqozo etayotgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

d) Harakat so'zi boshqaradigan o'yinlar. Bunday o'yinlar kompozitsiyasida qo'shiq harakatni yuzaga keltirishi va boshqarishi bilan muhim uzvga aylangan, aniqrog'i, qo'shiq yo ular kompozitsiyasining asosini tashkil etadi, yo o'yin yo'nalishida biror vazifani bajaradi. Shu zaylda u estetik qimmatini oshiradi va folklorlik ruhini kuchaytiradi. Shu vajdan bu xildagi o'yinlarni nuqul sport namunalari sifatida xarakterlash — ularning folkloristik xususiyatlarini inkor etishga olib keladi. Chunki har qanday qo'shiq, avvalo, og'zaki poetik ijod namunasi bo'lib, harakatning unga omuxtalashuvi folklor va sportning o'zaro mantiqan uyg'unlashuvining zuhuri hisoblanadi. Binobarin, bunday o'yinlarga shunchaki o'yin sifatida emas, o'yin-qo'shiqlar sifatida qarash to'g'riroqdir.

O'yin-qo'shiqlardagi poetik matn dialog va monolog shaklida bo'lib, ijrosiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Dialog shaklidagi poetik matnlar aksariyat hollarda jo'rovoz holatida ijro etilsa, monologlar kuylanmaydi, balki shovqin solib deklamatsiya qilingan. Shunisi ham borki, jo'rovoz bo'lib ijro etiladigan dialog shaklidagi poetik matnlarning aksariyatida buyurish ohangi yetakchidir. Chunonchi,

«Oq terakmi, ko'k terak?» o'yin-qo'shiqni ko'zdan kechiraylik. Bu o'yin-qo'shiq bolalar repertuarida uzoq zamonlardan beri o'ynalib kelinadi. Bu jihatdan er-xotin V. va M. Nalivkinlar bergan ma'lumot alohida qimmatga ega. Ana shu ma'lumotga ko'ra, bundan yuz yilcha ilgari ham bu o'yinni bolalar o'ynaganlar va uning ijro tartibi quyidagicha bo'lgan: «Bolalar ikkita teng guruhga bo'linganlar. Guruhlarning har biri o'zaro qo'lma-qo'l ushlashib, o'zicha saf hosil qilishadi; ikkala saf ham yuzma-yuz turishadi. Bir safdagilar ikkinchi safdagilardan jo'r bo'lib so'rashadi:

*Oq terakmi, ko'k terak?
Bizdan sizga kim kerak?*

Kimnidir so'rashadi. So'ralgan qarshi safni yorib o'tish niyatida unga chopib borib tashlanadi; agar u yorib o'tolsa, unda o'sha safdagi bolalardan birini yetaklab borib o'z safiga qo'shadi, aks holatda esa o'zi o'sha safda qoladi va o'yin davom etaveradi»¹. Oradan bir asrdan ziyod vaqt o'tganiga qaramay, o'yin tartibi hamon shu holicha saqlanib kelmoqda. Lekin o'yin qo'shig'i transformatsiyaga uchrab, xilma-xil variantlar kasb etganini ta'kidlash lozim. Mana shunday variantlardan biri:

*— Qamar, qamar, qamchini,
Qovurg'aning yanchini.
Oq terakmi, ko'k terak?
Bizdan sizga kim kerak?*

Ikkinchi safdagilar ham shu ohangda jo'r bo'lishib, shunday javob qaytarishadi:

— Kichkina Salim kerak.

Odatda, qarshi tomon kichikroq, kuchsizroq yoki o'zlariga yoqqan bolani da'vat etishi an'anaviydir. Shu sababli da'vat etiluvchi bola nomi turlicha sifatlanmog'i mumkin, biroq bu javob satri ritmining savol satrlari ritmiga mos monelik qilmasligi lozim. Shunisi xarakterliki, savoldan iborat ikkilik deyarli barcha variantlarda turg'un holatda saqlangan bo'lsa-da, o'sha ikkilikka yo olddan, yo oxiridan goh bir, goh ikki va undan ham ortiq o'yinchilar holatini ifodalovchi satrlar qo'shilgan:

*— Sohibjamol uydan chiqsa,
Hammani qaratadi.*

¹ *Наливкин В., Наливкина М. Очерк одной женщины оседлого туземного наследия Ферганы.*

*Oq terakmi, ko 'k terak?
Bizdan sizga kim kerak?
Jilmayibgina turgan
Bo 'tako 'z Zumrad kerak.*

*O 'ynab-ynab kuylaymiz,
Kuylab-kuylab o 'ynaymiz.
Oq terakmi, ko 'k terak?
Bizdan sizga kim kerak?
Erkin qo 'zichoq kerak.*

*Ola-bula kapalak,
Orqa sochim jamalak.
Oq terakmi, ko 'k terak?
Bizdan sizga kim kerak?
— Xayri qizaloq kerak.*

Keyingi variant ikkala tarafning tugal poetik dialogi hisoblanadi. Birinchi taraf an'anaviy poetik so'roqqa o'yin muddaosini ifodalovchi baytni qo'shgan bo'lsa, ikkinchi taraf nozik parallelizm asosida o'yinchilar holatini ifodalovchi bayt qo'shgan. Sochga jamalak urilganda «ola-bula» kapalakni eslatishi tabiiy. Ayni choqda «ola-bula»likda parokandalik holati ham ifodalanishi mumkin. Shunday ekan, yutqiza turib safning siyraklashayotganiga ham ishora qilinayotganday. Tag'in shunday varianti ham borki, unda har bir satr o'zicha mustaqil poetik so'roq va uning poetik javobi shaklidir. Bunda qofiyalanuvchi so'zlardagi ohangdoshlik muhim rol o'ynagan:

*Oq terakmi, ko 'k terak?
— Bizdan sizga kim kerak?
— Sayrab turgan dil kerak.
— Dillarni(ng) qaysi biri?
— Gulandomdir o 'tkiri!*

Qo'shiq matni davr ruhiga yo'g'rilib transformatsiyaga uchrashi natijasida xilma-xil variantlari yuzaga kelgan. Ammo o'yinning o'zidagi tartib-qoida qat'iyligicha qolavergan; safni yorgan — g'olib, yutqizgan tarafdin bir bolani o'zi mansub safga qo'shib, uni mustahkamlaydi, kuchaytiradi; yorolmagan — mag'lub, o'sha safning bandisiga aylanib qoladi va o'z safni kuchsizlantiradi. G'olibning bo'ysundirishi, mag'lubning itoati o'yinning huquqiy xosiyati sifatida bolalarga huquq asoslarini idrok qilishga yo'l ochsa, ayni choqda har bir o'yin ishtirokchisini o'zi mansub safdoshlari oldida mas'uliyat sezishga undaydi. Eng

muhimi, safni yorishi zarur topilgan bola qarshi tarafning kuchsiz joyini mo'ljallay olishga, o'sha joyni yorib o'tishga kuchi yetishini his qilishga, demak, taktik jihatdan aniq mo'ljal ola bilishga va o'z kuchiga ishonch hosil qilishga ham o'rganadi.

O'yin-qo'shiqning xuddi shu xususiyatlarini chuqur his qilgan ilg'or muallimlar, bolalar shoirlari, bog'cha murabbiyalari unga alohida rag'bat bilan qarab, bir qadar kitobiyroq bo'lsa-da, yangi variantlarning yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatganlar. Quyida keltiriladigan ana shunday qo'shiqlarning birida an'anaviy savoldan iborat bayt aynan saqlangan bo'lib, a'lo o'qish sharaflanadi:


— *Biz boyagi hovlida
Bo'lib tarafma-taraf.
Navbat bilan aytishdik
Taraf-tarafga qarab.
Oq terakmi, ko'k terak?
Bizdan sizga kim kerak?*
— *Bizga kerak maktabda
Eng a'lochi Alisher.
Oq terakmi, ko'k terak?
Bizdan sizga kim kerak?*
— *Bizga Alisher kerak!*

Ikkinchisida o'sha an'anaviy savoldan iborat bayt ritmi saqlangan holda bayt uchlik bandga aylangan va mazmun ham o'zgarmagan:

— *Oppoq-oppoq ko'rak,
Ko'm-ko'k, ko'm-ko'k, ko'k ko'rak,
Bizdan sizga kim kerak?*
— *O'zi a'lo o'qiydi,
Tartibli ham odobli,
Hammani sevar,
Tikishda chevar,
Barchadan chaqqon,
Hammaga yoqqan
Go'zal Ozoda kerak!*

Paxta — milliy iftixorimiz ekan, an'anaviy savoldagi «terak» so'zining o'rniga ohangdosh «ko'rak» so'ziga almashtirilishi o'yin vositasida shu iftixor tuyg'usini murg'ak qalblarga indirishni ko'zlashi tufayli muhim ijtimoiy-estetik fazilat kasb etgan.

Kompozitsiyasining asosini qo'shiq tashkil etadigan o'yinlarning aksariyati improvizatsion xarakterga ega. Ular bolalarning o'z ota-onalari turish-turmushiga



taqlid qilishlari natijasida yuzaga kelgan. Binobarin, improvizatsion o'yinlar bolalar kuzatuvchanligi samarasigina bo'lib qolmay, o'ziga xos hayot eksprimentlari ham. Aytaylik, «Olmacha do'm-do'm», «Osmondagi oy» o'yinlari uchun dehqonning o'zi yetishtirgan olmani sotishga bolalar taqlidi asosga aylangan bo'lsa, «Bog'lam-bog'lam», «Guldur-gup», «Chilliktoy», «Qo'rg'on olish», «Cho'pon va shaqal», «Boylandi» o'yinlari uchun chorvachilik bilan shug'ullanuvchilar faoliyatiga taqlid qilish o'yinning zamini hisoblangan. Bu o'yinlarning muhim xususiyati shundaki, ular «Oq terakmi, ko'k terak?» singari qarama-qarshi tarf-larga bo'linmagan holda o'ynalsa-da, poetik dialog o'yinga xos harakat man-tiqiga omuxtalashgan bo'ladi. Bunday o'yinlar, odatda, rollarga bo'lingan holda o'ynaladi. «Cho'pon va shaqal» o'yinida bolalar rolga kirib, o'yinning dramatik konfliktini yechadilar. Bunda cho'pon va shaqal qiyofasida harakat qiluvchi o'yin ishtirokchilarning harakatga omuxta poetik dialogi dramatismning kuchaytirgichi hisoblanadi:

Cho'pon: — Sho'rdan¹ shaqal o'tdimi?

Dumi loyga botdimi?

Gulbutani(ng) tayiga²

Bacha³ ochib yotdimi?

Shaqal: — A... a?..

Cho'pon: — Sho'rdan shaqal o'tdimi?

Dumi loyga botdimi?

Gulbutani(ng) tayiga

Bacha ochib yotdimi?

Shaqal: — Ha... a...

Cho'pon: — To'xta, shaqalni uray man,

Qulog'ini buray man.

Bachasini obqochib,

Uyga qochib ketay man.

Bu xildagi o'yinlarning maxsus tomoshabini bo'lmaydi, ularning ijrochisi ham, tomoshabini ham o'sha ishtirokchilarning o'zi. O'yinning har bir ishtirokchisi o'zi ijro etadigan rolni juda mas'uliyat sezgan holda tabiiy bajarishga intiladi. Ular o'zlari ijro etayotgan rolning tashqi qiyofasiga ham, xatti-harakatiga ham, xususan, ovozining taqlidan tabiiy chiqishiga ham alohida e'tibor berishadi. «Bo'rilar va echkilar», «G'ozlarim», «Muzlatamiz», «Ot sug'orish», «Muqallid» va yana talay o'yinlarga ana shu xususiyatlar yorqinroq joziba baxsh etgan.

¹ Shu yerda.

² Tagida.

³ Bola.

«Muzlatamiz» — bolalarni sovuqdan qoʻrqmaslikka, dadillikka daʼvat etuvchi oʻyin. Umumiy yoʻnalishini aka-uka muzlar qiyofasidagi ikki oʻyinboshining xatti-harakati va dialogi belgilagan. Oʻyinboshi (muz)larning biri: «Men burun yaxlatman», ikkinchisi: «Men quloq muzlatman», — deb bolalarni sovuqdan qoʻrqitishadi. Bundan choʻchigan bolalar «panada qaltirashib», oʻynagani chiqishmaydi. Shunda aka-uka muz (oʻyinboshi)lar oʻz poʻpisasidan mamnun boʻlib:

— *Botir bola boʻlsa-chi?*

— *Yoʻl safariga chiqsa-chi? —*

deya kerila boshlaydilar. Bu bolalarga pisanda boʻlib tegadi. Ularning gʻururi qoʻzgʻab:

— *Biz doʻqingdan qoʻrqmaymiz,*

Muzni pisand qilmaymiz, —

deya yoppasiga qiy-chuvlashib, otilib maydonga chiqadilar. Oʻyinboshi (muz)lar chekinishadi. Shu tarzda bolalarda jasorat tuygʻusi tarbiyalana boshlaydi. Bu oʻyinda bolalar soni cheklanmagan, qancha koʻp boʻlsa, shuncha yaxshi. Ammo «Ot sugʻorish» oʻyinida ikki kishi yetarli: biri — boshlovchi, ikkinchisi — ijrochi:

Oʻyinboshi: — Zamira, Zamira, Zamira,

Otni qaqqqa boylading?

Zamira: — Suvxariga boyladim.

Oʻyinboshi: — Necha gramm suvberding?

Zamira: — Ikki gramm suv berdim;

Bir grammni oʻzim ichdim,

Qolganini chol ichdi.

Oʻyin shunday yengil yumoristik ruhga ega. Unda yalqovlikdan kulinadi. Eng muhimi, bu kulgi bolalar tabiati mantiqiga mos.

Bu turdagi oʻyinlarning muhim xususiyati shundaki, ular zamiridagi taqlidiylikni qoʻshiq «yopadi» va harakatni oʻz zimmasiga oladi hamda boshqaradi. Qoʻshiqning joʻrovoz tarzda kuylanishi bu vazifani ado etadi.

Bunga harakatni yuzaga keltirishni va boshqarishni ham qoʻshmoq lozim. Shundagina oʻyinda joʻrovoz boʻlib kuylashning toʻla maʼnosini toʻgʻri ifodalash mumkin. Joʻrovozni ikki va undan ortiq bola ijro etar ekan, bolalarning maʼnaviy jihatdan birlashuvlariga zamin hozirlanadi, bolalar oʻzaro maslakdosh hamkorlarga aylana boradilar, ayni choqda jamoa boʻlib uyushuvlarida ijtimoiy-estetik muhit yuzaga keladi.



Ma'naviy (so'z) o'yinlar

Sirasini aytganda bular harakatni so'z boshqaradigan o'yinlarning davomiday, ulardan o'sib chiqqanday tuyuladi. Lekin ulardan tubdan farq qiladilar. Bu farq shundaki, ma'naviy (so'z) o'yinlarida harakat jismoniylik mohiyatini butkul yo'qotadi, fikrni harakatga soluvchi mohiyat kasb etadi. Shu sababli ularni ma'naviy yoki so'z o'yinlari tarzida atash ma'quldir.

Ma'lumki, bolalar yoshi ulg'aygan sayin ma'naviy o'yinlarga ehtiyojlari ham kuchaya borgan. Boshda bolalar ma'naviy ehtiyojga xos bunday o'yinlarni kattalarning o'zlari ijod etishgan. Tez aytish (tutal)lar va topishmoqlar aslida xuddi shu kattalar ijodkorligi namunalari bo'lgan ma'naviy (so'z) o'yinlaridir¹. Davrlar o'tishi va ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot taqozosiga ko'ra bu o'yinlar bolalar ma'naviy mulkiga aylanib bormoqda. Kattalarning bunday ijodiy ta'siri bolalarning o'zlaridagi ijodiy imkoniyatlarni harakatga sola bordi. Natijada ular xilmaxil shakl va mundarijaga ega talay ma'naviy (so'z) o'yinlarni ijod eta oladilar. Chandishlar va guldur-guplar — bolalarning o'zlari bevosita ijod qilgan ana shunday folklor hodisalari hisoblanadi².

Xullas, bolalar kattalardan o'rganganlari ta'sirida o'zlari ham topishmoqlar to'qib va yechib — topqirlikni mashq qilganlar, shu jarayonda narsa va hodisalar haqida fikr yuritishni, ularning muhim xususiyatlarini sezgirlik bilan fahmlay bilishni o'rganganlar³, tez aytish (tutal)lar yordamida nutqlaridagi g'alizliklarni bar-taraf etib, so'zlarning to'g'ri talaffuzini, so'zdagi har bir tovushning o'z o'rnidagi ohangi va ma'no tovlanishlarini his qilishga uringanlar; til, so'z, tovush, ma'no va ohang ustidagi mashqlarini yanada takomillashtirib, yashirin tilni o'ylab topgan-

¹ Kattalar shartranj, shaxmat, shashka, domino, loto, karta singari o'nlab predmetli ma'naviy o'yinlarni ham ixtiro qilganlar. Bulardan ham ayrimlari, chunonchi, shaxmat va shashka bolalar repertuariga o'tib barqarorlashmoqda.

² Ma'naviy (so'z) o'yinlarda tez aytishlar, chandishlar va guldur-guplar tabiati haqida kitobning keyingi qismida batafsil to'xtalangani va namunalar keltirilganligi sababli shu muxtasar mulohazalar doirasida cheklanishni ma'qul topdik.

³ Bu haqda filologiya fanlari nomzodi Z. Husainova maxsus tadqiqot yaratgan. Qarang: O'zbek topishmoqlari. Toshkent: Fan, 1966. Shu sababli bu xususda to'xtalmaymiz.

lar, bahri bayt (bayt-barak) o'ynab o'z xotiralarini chiniqtirishga urunganlar¹, nihoyat, bir-birlarini so'zda chandib, so'zlarning o'zaro ohangdoshlikdagi ilmoqdor va nishdor ma'nolarini anglashga intilganlar.

Shunday ijtimoiy-axloqiy va etnopedagogik ahamiyatga egaligiga qaramay, o'zbek xalq bolalar o'yinlarini to'plash va ilmiy-amaliy qimmatini o'rganishga yetarli e'tibor berilmay kelindi. Bu ham kamlik qilganday, ularga eskilik sarqiti tarzida qaralgani ham inkor etib bo'lmas faktdir. Ne ajabki (gorodki) shahargi o'yinini o'rganishdi, lekin akkol (chillik) o'yiniga kelganda «feodal turmush sarqiti», deya undan voz kechildi. Holbuki, ularning har ikkisi mohiyatan yaqin va bir-birini to'ldiradi. Amerikacha golf o'yiniga suqlanib qaraymiz-u, lekin o'zimizdagi o'yinlarni xayolga ham keltirmaymiz. Turli-tuman musobaqalarda gandbol o'yinini miriqib tomosha qilamiz, lekin o'zimizning ehtimolki shu o'yinga asos bo'lgan milliy qadimiy hango'zni allaqachon eslamay qo'yanmiz. Oldingdan oqayotgan suvning qadri yo'q, degani shu bo'lsa kerak-da!

Xayriyatki, istiqlol milliy qadriyatlarga yangicha qarash, ularni qayta baholash, xalqqa o'zligini anglatishga xizmat ettirish talabini kun tartibiga qo'ydi. O'zbek xalqining asrlar davomida yaratilib va turmishda sinalib, qo'llab kelina-yotgan an'anaviy milliy o'yinlarga munosabatini ham o'zgartira boshladi. Ularni to'plashga, ilmiy-tarbiyaviy xususiyatlarini umumlashtirishga, shu asosda istiqlol kun tartibiga qo'yan sog'lom avlodni tarbiyalab yetishtirish dasturida kengroq qo'llashga zaruriyat tug'dirdi. Mazkur kitob ana shu zaruriyatni qondirish istagidagi dastlabki urinish sifatida bunyod etildi. Binobarin, uning ayrim noqisliklari bo'lishi tabiiy. Shularni bartaraf etish yo'lidagi har bir qimmatli maslahatni minnatdorlik bilan qabul qilishga tayyormiz.

¹ Q a r a n g : Sadriddin Ayniy. Esdaliklar. I–II qismlar. 8 tomlik, 5-tom. Toshkent: Badiiy adabiyot mashriyoti 1963, 153–156-b. Yana: Shotursun Shomaqsudov, Shuhrat Shorahmedov. Bahri bayt. // Guliston. 1969-y. 12-son. 28-b.



CHORLAMALAR, CHEKLASHMACHOQLAR, SANAMALAR



Harakatli o'yinlar, o'yin debochalari, chorlamalar

G'. Jahongirov bu xildagi o'yin qo'shiqlarining tabiatiga mos keluvchi ixcham folkloristik terminni taklif etmasa-da, ammo ularning voqe bo'lish shart-sharoitlari, vazifasi va ijro xususiyatlarini to'g'ri belgilaydi. U yozadi: «Shahar va qishloq bolalari, odatda, kechqurunlari to'planib, oydin kechalari uzoq vaqtgacha gaplashib o'tiradilar, ertaklar aytadilar, olamdagi hamma narsalar haqida fikr yuritadilar, turli xil o'yinlar o'ynaydilar. Shunday paytlarda bolalarni to'plash, o'yinlarni uyushtirish ayrim bolalar tomonidan tashabbuskorlik ko'rsatishni talab qiladi. Biroq bolalarni uydan chiqarishga ota-onalarning munosabatlari turlicha bo'ladi: bolaga javob osonlikcha tegishi yoki tegmasligi ham mumkin. Bolalar esa kattalarning shunday munosabatini biladi va shundan kelib chiqib o'rtog'ini uyidan chiqarib olish chorasini topadilar. Ular ikki-uchtadan bo'lib, hovlilarga boradilar, ko'chadan turib chaqira boshlaydilar:

- *Kel, o'rtoq, qo'rchoq-qo'rchoq o'ynaymiz.*
- *Yur, bekinmachoq o'ynaymiz.*

O'g'il bolalar o'rtog'ining laqabini aytib chaqirishi mumkin:

- *Laylak, chiq, o'ynaymiz.*

Shunisi xarakterliki, bu xildagi o'yinga chaqiriqlar shu holicha qolib ketmagan, bolalikning chorlov bilan bog'liq xilma-xil tuyg'ularini ifodalovchi qo'shiq sifatida ham keng tarqalgan. G'. Jahongirov bunday qo'shiqlarning beshtasini e'lon qilgan. Biz o'n bitta namunasini yozib olganmiz. Ularning aksariyati to'rt misralik bo'lsa-da, ikkilik, uchlik, beshlik, oltilik va sakkizlik shaklidagi namunalari ham bor. Ularda qofiyalanish izchil shaklga ega emas, misralardagi

bo'g'inlar miqdori ham hamisha teng bo'lavermaydi. Biroq bolalarning o'yinga chorlov kechinmalarini konkret vaziyatga bog'liq holda ifodalaydi va hamisha bolalarni o'yinga chaqiruvchi poetik lavhalar sifatida qarab, chorlamalar deb atash to'g'ri bo'lur edi. Shunda mazkur folkloristik hodisa mohiyatini ifodalovchi termin aniqligiga va bu termini folklorshunoslikda qo'llashning o'ng'ayligiga erishish mumkin bo'lur edi.

Zotan, bunday chorlamalarning ijrosi har xil xususiyatga ega, ayrimlari yakka ovozning hayqirig'iga mo'ljallangan:

*Bacha, bacha, hozi,
Kim qora qozi?
Kim o'yinga chiqmasa.
Bo'yniga tosh-tarozi.
Bacha bo'bang, kelaver,
O'ynab-o'ynab kelaver.
Kel-ho, kel,
Kel-ho, kel...*

Chorlama ohangi yolg'iz bolaning ko'cha bo'ylab sakrab-sakrab chopish harakati ritmiga mos. Unda o'yin istagi bahonasida bolalikka munosabatdagi shafqatsizlik kinoyaviy ishoralarda fosh qilingan: lirik qahramon o'yinga hakamlik qiluvchini qozining qora ishini qilmaslikdan ogohlantirayotganday — «kim qora qozi?» O'yinga chiqmayotganlarini esa kattalar singari qarg'ayotganday — «bo'yniga tosh-tarozi».

Ayrim chorlamalarda o'yinga chaqirilayotgan bolalarning holati va vaziyatidan kulish zaminida quvnoq yumor voqe bo'ladi. Bunda u konkretlashadi, adreslilik kasb etadi. Masalan, quyidagi chorlamada Rahima o'yinga chaqirilmoqda. Nimagadir u hadeganda o'yinga chiqmayapti. Shunda dugonalari uni «Rahima xola» deya chaqirishib, uning keksalar kabi o'yinga hafsalasizlik ko'rsatayotganiga piching qilishadi:

*Kun botdi-yu, kun botdi,
Rahima xola yotdi,
Yotdi-yu, dong qotdi.*

Gohida yumoristik adreslilik parallelizm asosida ham namoyon bo'ladi:

*Chumchuqcha chirillaydi,
Qanoti pirillaydi.
Sidiqaxon uydan chiqsa,
Otasi g'urullaydi.*

Parallelizm chorlamalarda turlicha g'oyaviy-estetik vazifalarni bajaradi.

Yuqoridagi chorlamada chumchuqning chirillashi, qanotining pirillashi bolalarda noxushlik tug'dirgan. Binobarin, Sidiqaxonning o'ynagani chiqishiga otasining g'urullashi ham shunday assotsiatsiya uyg'otishi tabiiy. Tubandagi chorlamada esa o'ynagani to'planishgan, ammo o'yin tashkilotchisi — onaboshi chiqmagani-dan o'ynash ehtirolari yonib-jo'shib turgan bolalar holati parallelizm vositasida teran ifodalanib turadi:

*O'zbargani suvi bor,
Daraxtlari xuddi dor.*

*Onaboshi, qani chiq,
Bachalaring senga zor.*

Chindan ham onaboshisiz nima qilishlarini bilmay turgan bolalar holati dorga osilib muallaq qolganga o'xshaydi.

Jo'rovoz bo'lib aytiladigan chorlamalar ham anchagina, ularni ham bir bola emas, balki ikki-uchtasi birgalikda hayqirib aytishadi. Jo'rovoz tarzida aytiladigan bunday chorlamalar ko'pchilikka qaratilganligi, konkret bolani emas, balki umuman hammani o'yinga taklif etish xarakteriga egaligi bilan ajralib turadi:

*Hoy bolalar, bolalar,
Bekinmachoq o'ynaymiz.
Tarqalishmang har tomon,
Qochib nima qilasiz?*

Shuni ham aytish kerakki, bolalar repertuarida chorlamalar ancha siyraklashib qoldi. Buning sababini sotsial voqelikning bolalar turmushiga, aniqrog'i, o'yin faoliyatiga o'tkazgan ta'siri bilan izohlash mumkin. Shunga qaramay, hozirgi sharoitda ham zamonamiz nafasiga yo'g'rilgan chorlamalar yaratilmoqda. Chunonchi:

*Bizlar o'ynayapmiz,
Davra qurayapmiz.
Davraga kelinglar,
Bizlarga qo'shilinglar.
Bu davrani qurgan
Gulnorani ko'ringlar.*

Albatta, bu yagona zamonaviy chorlama emas, bolalar repertuarida ular anchagina bo'lib, yangicha g'oyaviy fazilatlar kasb eta boshlagan holda badiiy jihatdan takomillashuv jarayonini kechayotgani shubhasiz. Binobarin, bunday jarayonni muttasil kuzatish, chorlamalarni yanada aktivroq to'plash, ilmiy asosda o'rganish va nashr etish folklorshunoslik e'tiborida turishi lozim.



N a m u n a l a r

Bacha, bacha, bozi,
Kim qora qozi,
Kim o‘yinga chiqmasa,
Bo‘yniga tosh-tarozi.

O‘yinboshi-onaboshi nomi o‘zgarib turadi.

* * *

Tokchaga bug‘doy sepuvdim,
Undimikan-o, undimikan.
Mashrabboy uydan chiqmaydi,
Yotdimikan-o, yotdimikan?

* * *

Tomda tovuq yotarmi,
Oyog‘ingdan tortarmi?
O‘yin yoqmas bolalar
Namozshomdan qotami?
Kel-ho!

* * *

Tomda tovuq yotarmi,
Oyoqlari qotarmi?
Kichkina bachalar
Namozshomda yotarmi?

* * *

Keragida paxta bor,
Uyqung kelsa, yotavor.
Onang qurg‘ur qo‘ymaydimi,
Mushtday qorning o‘ymaydimi?
Kel-ho!

* * *

Oylar oydin bo‘libdi, dugona,
O‘ynagingiz kelib, dugona.
Yoki onangiz qo‘ymaydimi, dugona,
Mushtak qorningiz to‘ymaydimi, dugona?

* * *

Bizlar o‘ynayapmiz,
Davra qurayapmiz.
Davraga kelinglar,
Sizlar ham qo‘shilinglar!
Bu davrani qurgan
Gulnorani ko‘ringlar.

* * *

Bacha, bacha, bozi,
Dumi xari qozi,
Bacha bo‘lsang, kelaver,
O‘ynab-o‘ynab ketaver.
Onang qurg‘ur qo‘ymaydimi,
Mushtday qorning to‘ymaydimi?
Kel-ho!
Kel-ho!

* * *

Hoy bolalar, bolalar,
Bekinmachoq o‘ynaymiz,
Tarqalishmang har tomon,
Qochib nima qilasiz?

* * *

Kun botti-yu, kun botti,
Rahima xola yotti.
Yotdi-yu, dong qotdi.

* * *

Kun botti, Oyjon momo yotti,
Yotishi bilan uyg'onmay qotti.
Bacha bo'lsang, kelaver,
O'ynab-o'ynab ketaver.
To'yga onang qo'ymaydimi,
Qorniginang to'ymaydimi?
Ho bale-bale, ho bale!

* * *

Sarimsoq, dumi choq,
O'yinga kel, kel, o'rtoq.

* * *

Do'st, otalar qo'ydi mani,
Do'st, bolalar qo'ydi mani.
O'ynamoqqa, kulmoqqa
Xumor-xumor qildi mani.

* * *

Malakcha bog'i-yo,
To'kildi yog'i-yo.
Cho'lga chiqoli-yo,

* * *

Chodir quroli-yo,
Echki sog'oli-yo,
Tulum chololi-yo.

* * *

O'zbargani suvi bor,
Daraxtlari xuddi dor.
Onaboshi, qani chiq,
Bachalaring senga zor.

Chumchuqcha chirillaydi,
Qanoti pirillaydi.
Sidiqaxon uydan chiqsa,
Otasi g'urullaydi.

* * *

U burji — bu burji,
Uydan chiqmagan gurji.
Hoy bolalar, bolalar,
Kelingiz o'ynashaylik.
Qo'shiq aytib baralla,
Do'stligimiz kuylaylik!

Cheklashmachoqlar



O'zbek bolalari orasida shunday o'yinlar ko'pki, ularni faqat ikki guruhga bo'lingan holda bajarish mumkin. Bunday o'yinlar jiddiy musobaqa xarakterida bo'lib, o'ziga xos ichki qonun-qoidalarga ega. Bolalar shu qonun-qoidalarga g'ayriixtiyoriy tarzda amal qiladilar va bu jarayonda ichki intizom, tartiblilik va o'ynash huquqi mas'uliyatini sezish ruhida tarbiyalanadilar.

O'ynashning shunday ichki qoidalaridan biri — o'ynagani to'planishgan bolalarni ikki raqib guruhga taqsimlash masalasidir. Bu g'oyat jiddiy bo'lib, bolalar uni aniq ichki intizom, tartib va quvnoqlik bilan hal qilishda cheklashishga amal qiladilar.

Cheklashish xalqimiz orasida qadimdan ma'lum. M.Qoshg'ariy «cheklashdi» so'zining «qur'a tashlash» ma'nosi borligini qayd etgan. O'tmishda qur'a tashlab tole sinashgan, fol ochib taqdirini oldindan bashorat qilishgan. Folbinlar faoliyatida qur'a tashlab fol ochish an'anasi hamon uchraydi.

Ayni choqda qur'a tashlash hozirgi zamon sportida ham keng qo'llanilmoqda. Bu hodisa bolalar o'yinidagi cheklashish asosida yuzaga kelgan. Bolalar o'yinlar ichki mantiqiga ko'ra cheklashishni kattalardan o'zlashtirganlar va o'z o'yinlari xarakteriga moslashtirib takomillashtirganlar.

Cheklashish bo'lajak ikki raqib guruh onaboshilari tanlangandan so'ng amalga oshiriladigan o'yin muqaddimasi bo'lib, ko'p hollarda qur'a tashlash yo'li bilan hal qilinishi an'anaviydir.

Qur'a tashlash — cheklashishning predmetli shakli: unda konkret narsalar — oshiq, tanga, yog'och tayoqchanning uchi va oxiri, to'rtburchak toshchanning yoki boshqa istalgan predmetning belgilangan tomoni qur'a vositalari sanaladi. Onaboshilarning biri oshiqning olchi, tanganing old, yog'och tayoqchanning uchini, ikkinchisi shu predmetlarning aksini «o'ziniki» qilgan bo'ladi. O'ynamoqchi bo'lgan bolalar juft-juft bo'lib, biri oshiqning olchi tomonini «o'ziniki» qilib, uni otadi; oshiq olchi tursa, olchi tomoni «o'ziniki» bo'lgan bola olchini tanlagan onaboshi yoniga o'tadi, tovvva tursa, tovvva tomoni «o'ziniki» bo'lgan bola tovvvani tanlagan onaboshi yoniga o'tadi.

Ijtimoiy taraqqiyot ta'sirida bolalarning o'yin bilan bog'liq estetik ehtiyojlari ham o'sa bordi. Buning oqibatida qur'a tashlash predmetlilik doirasida qolib ketmay, qur'a predmeti harakati ritmiga omixta qo'shiq bilan sintezlasha bordi. Ikki bola yog'och tayoqchani navbatma-navbat tutib, tubandagi qo'shiqni aytadilar:

*Ol tiyoq,
Olmon tiyoq.
Burgut tiyoq,
Jarang-jurung.*

«Tiyoq» so'zi aslida «tayoq» so'zining bolalar jonli so'zlashuvidagi shakli bo'lib, ko'pincha toldan kesib olingan 50–70 sm uzunlikdagi novda. Uni hovuchlab tutamlash, pastdan yuqorilab borish shart. Bolalarning har biri o'z galida tayoqchani tutamlayotganida qo'shiqning bir satrini aytadi. «Jarang-jurung» satri aytilganda tayoqchani tutamlash joyi qolmagan tomon tayoqcha tutamida turgan raqibining tutama ustiga kafti bilan uradi; tayoqcha tushsa, o'zi tayoqchani tushirmaganlar tomoniga, tushirolmasa — tushirganlar tomoniga o'tadi. Tayoqcha qo'lida bo'lgan bola esa tayoqchani urgan qay tomonga o'tsa, u o'shanga raqib tarafga qo'shiladi. Shu zaylda g'oliblar va mag'lublardan tashkil topgan ikki o'zaro raqib taraf shakllanadi va o'yinga kirishiladi.

Bora-bora cheklashishning bu murakkab shakli oʻrnini predmetdan xolilashgan badiiy soʻz, obrazli ibora va qoʻshiq egallay boshladi. Shu zaylda cheklashmachoqlar yuzaga keldi. Rus folklorshunosligida folklorning bu hodisasi «jerebyevka» mavhum ostida alohida janr sifatida qaraladi. Oʻzbek tilidagi «cheklash» soʻziga «machoq» qoʻshimchasi qoʻshish evaziga yasalgan «cheklashmachoq» mavhumi mohiyatan «jerebyevka»ga teng ekvivalent, ayni choqda, oʻzbek bolalar repertuarida uchraydigan cheklanishning poetik shakldagi namunalarini maxsus folklor hodisasi sifatida aniq, ixcham ifodalaydi, janrning ilmiy-estetik mohiyatini loʻnda va tugal aks ettiruvchi termin boʻla oladi.

Cheklashmachoq odatda ikki bolaning oʻzaro yashirincha kelishuvi — til biriktirib oʻzlariga yasama «ot qoʻyishlari» asosida yuzaga keladi. Bu ular va onaboshi oʻrtasidagi savol-javoblarning sirliligini taʼminlaydi. Cheklashmachoq aksari hollarda onaboshiga murojaat qilish bilan boshlanadi:

— *Mati, mati,
Kimi navbati?*
— *Meniki. (Onaboshilardan biri)*
— *Toji tillo xoʻrozni olasanmi
Yo chala mullo tovuqni?*
— *Toji tillo xʻrozni.*
— *Men — toji tillo xoʻroz.*
— *Oʻt men tomonga.*

Bunday cheklashmachoqlar murojaat va savollardan iborat boʻlsa-da, savol hal qiluvchi ahamiyatga ega. Savollar gap shaklida boʻlib, hamisha ikki qismdan tashkil topadi va oʻzaro intonatsiyasi asosida yo, yoki, yoxud bogʻlovchilar vositasida bogʻlanadi:

— *Onaboshi, onaboshi,
Yigitlarning qalam qoshi.
Nima yeysan, ne olasan?
Atalami? Palov oshi?*

Bunday hollarda murojaat va savolni «Nima yeysan?», «Ne olasan?», «Kimni olasan?» singari qoʻshimcha savollar oʻzaro bogʻlaydi, shu asosda savolning soʻroq intonatsiyasi yanada kuchaytiriladi:

— *Boshla, boshliq,
Qalam qoshlik.
Kimni olasan:
Tovuqnimi? Xoʻroznimi?*

E'tibor qiling-a, bolalar cheklashishni ta'minlagan barcha sirli nomlarning o'zaro mutanosibligiga ahamiyat berganlar. Bu cheklashmachoqlarda poetik fazilat kuchaytirilgan, ular estetik zavqni tarbiyalovchi vositaga aylangan.

*Ol tiyoq,
Olmon tiyoq.
Burgut tiyoq,
Jarang-jurung.*

* * *

— *Ona, ona, kim ona?*
— *Men ona (Biz ona).*
— *Sizga osmondagi oy kerakmi,
Kishnab turgan toy kerakmi?*
— *Bizga kishnab turgan toy kerak.*
— *Kishnab turgan toy menman,*
— *O't, bizdan ekansan!*

* * *

— *Biz ikki gul-u lola,*
Kimga gul, kimga lola?

* * *

— *Mati, mati,*
Kimning navbati?
— *Meniki. (Onaboshilardan biri.)*
— *Tarvuzni olasanmi*
Yoki qovunni?

— *Qurulloq qurbaqani olasanmi,*
Tarilloh toshbaqani?

* * *

Toji tillo xo'rozni olasanmi,
Yo chala mullo tovuqni?

* * *

— *Onaboshi, onaboshi,*
Yigitlarning qalam qoshi.
Kimni olasan,
Tovuqnimi, xo'roznimi?

* * *

— *Kimga olma, kimga nok?*
* * *
— *Kimga ot, kimga aroba?*

* * *

— *Tog'mi, daryo?*

* * *

— *Oftobmi, yulduz.*

* * *

— *Daraxtmi, gul?*

* * *

— *Olchimi, tovva?*

Sanamalar



Ruslarda — schitalka, tojiklarda — shumurak, turkmanlarda — sanavoch, tatarlarda — sanashu, ozarbayjonlarda — sanama terminlari bilan ataluvchi bu o'yin turi respublikamizning turli joylarida «sanashlar», «she'riy sanoq», «sanash qo'shig'i», «sanoq», «sanama» nomalari bilan yuritilsa-da, G'. Jahongirov uni «sanoq termalari» deb ataydi. Termaning mustaqil janr ekanligi inobatga olin-sa, mazkur iborada terminlik mohiyati ko'rinmaydi. «Sanoq» terminida arifmetik ma'no bo'rtib turadi, shu sababli folklor hodisasi mohiyatini ifoda etish xususiyati zaif. Binobarin, «sanam» mavhumi bolalar folklorlariga xos hodisa mohiyatini to'la va ixcham shaklda poetik ko'tarinkilikda aks ettirgan holda yuqorida qayd etilgan boshqa xalqlar folklorshunosligida taomilga kirgan atamalarga teng ekvi-valent sifatida ilmiy muomala uchun ham g'oyat qulay termin bo'la oladi.

Sanamalar behad keng tarqalgan o'yin boshlanishi oldidan uni boshlab beruv-chini aniqlash, biror bola galini tayinlashdan iborat. Sanamalar butun o'yinga kompozitsion asos bo'lolmasa-da, muqaddima sifatida o'yin kompozitsiyasi — uzv (komponenti)ini tashkil etadi va o'sha o'yinning umumiy yo'nalishiga poy-devor soladi. Bu mas'ul vazifa sanamalarda raqamlarni «poetik raqsga tushirish», so'z yoki so'qma (ma'nosiz) so'zni raqam o'rni-da sanash intonatsiyasida qo'llash asosida ritmik o'ynoqlikka erishish negizida amalga oshiriladi. Bunda sanamalar-ning leksik xususiyati qanchalik bo'rtib ko'rinsa-da, ularni ritmik ohangdorlikdan xoli holda tasavvur etish yaramaydi. Shu xususiyatiga ko'ra sanamalarning uch turini ko'rsatish mumkin:

1. Voqeaband sanamalar. Bu turga mansub sanamalar asosini sanash ritmiga omixta sujet tashkil etadi. Bunday sujetlar mo'jazzgina bo'lib, bir-biriga mantiqan bog'langan ikki-uch harakatnigina ifodalaydi. Harakatning mantiqan izchil tar-tibi sanash ohangini yuzaga keltiradi. Leksik vositalarning barchasi shu sanash ohangini kuchaytirishga bo'ysundirilgan bo'ladi. Natijada sanash ritmi raqamlar vositasida ham, sanoq ottenkasidagi ma'noli so'zlar vositasida ham qalqib yuzaga chiqib turadi. Shu xususiyatiga ko'ra voqeaband sanamalar ikki ko'rinishga ega:

a) Raqamlar ritmik asos bo'lgan voqeaband sanama. Bularda raqamlar «po-etik raqs»ga tushadilar. Poetik ijodning boshqa biror turida ular bunchalik nu-fuzga ega bo'la olmaydilar. Raqam harakatning mantiqan tartibinigina emas, balki ritmini ham ifodalovchi ohang kasb etib, voqeaband sanamaning kompozitsion yaxlitligini ta'minlovchi «qon va jon»iga aylanadi. Janrning sanama deyilishida

ham shu bosh xususiyat inobatga olingan. Raqamlar shunchaki tilga olinmaydi, balki ritmik asosni hosil qilish niyatida vaznga solinadi. Shu sababli bu xildagi poetik sanashlarda barcha raqamlar qatnashmaydi. Ko‘pincha birdan yettigacha, birdan o‘n ikkigacha va birdan o‘n oltigacha bo‘lgan raqamlar qatorigina aktiv qo‘llanadi. Biroq birdan ikkigacha, uchgacha, to‘rtgacha... yettigacha va nihoyat ba‘zan o‘ngacha to‘liq sanalsa-da, qolgan hollarda ritmik ehtiyoj va qofiya ohangdoshligi talabiga ko‘ra sakrab o‘n ikki yoki o‘n olti sanog‘i aytib ketilaveradi:

*Bir, ikki... aylana,
Aylangani kir yana.
Anqov bo‘lma, ey o‘rtoq,
Doving keladi yana.*

Yoki:

*Bir, ikki... o‘n... o‘n ikki,
O‘n ikki deb kim aytdi?
O‘n ikki deb men aytdim,
Ishonmasang, sanab boq:
Birim — bilak,
Ikkim — elak.
Uchim — ichak,
To‘rtim — terak.
Beshim — beshik,
Oltim — olganim,
Yettim — yetganim,
Sakkizim — jonon qizim,
To‘qqizim — qizilyuzim,
O‘nim — ishimdagi unum,
O‘n birim — aytilmagan sirim.
O‘n ikkim — chiqa tur san, ukkiml*

b) Sanoq intonatsiyasidagi ma’noli so‘zlar asosida qurilgan voqeaband sanamalar. Bunda raqam o‘rnini so‘z egallagan bo‘ladi. Xo‘sh, nega raqam chekindi ekan? Buning ijtimoiy ildizlarini turli xalqlar etnografiyasiga xos taqiqllovchi irim-sirimlarda yaqqolroq ko‘rish mumkin. Ma’lumki, qadim zamonlarda raqamlarga sig‘inish, ularni muqaddaslashtirish va fol vositasi sifatida qo‘llash ayrim taqiq — (tabu¹)larni yuzaga keltirgan. D.K. Zelenin «sanashning taqiqlanishi sirlilikni ta’minlovchi vosita» sifatida talay xalqlarda xilma-xil tabularni paydo qilganligiga doir qator misollar keltiradi: ruslarda ovni, ukrainalarda asalari uyasini, chukchi-

¹ Табу слов у народов Восточной Европы и Северной Азии. 1-том. Сбор. Музея антропологии и этнографии. Л., 1926. — стр. 85-87.

larda bug‘uni sanash taqiqlangan. Bunday sanash o‘sha narsalarning barakasini uchirarmish. Xuddi shunday aqidaga ko‘ra, sibirliklar tuxum va jo‘jani sanashmaydi, ruminlar faqat dushanba kunida narsalarni sanashni xosiyatsiz hisoblashadi. Ular eng yomon ko‘rgan kishisining narsalarini ovoz chiqarib dushanbada sanashsa — bu qarg‘aganlari bo‘larkan. Yahudiylar barcha jonlilarni sanashni gunoh hisoblasa, polyaklar bola o‘g‘irlovchilarni ilohiy kuchlar nomini sanab aytish evaziga qarg‘ashadi.

Sanashga oid bunday tabu Sharq xalqlari, jumladan o‘zbek xalqi turmushida ham uchraydi. Islom aqidalarining odamni sanashni man etganligi, shuningdek, barakasi o‘chmasligi uchun yana talay tirikchilik vositalarini oldindan sanamaslik an‘analari ana shunday taqiqlar silsilasini tashkil etadi.

Sanamalarda esa bevosita inson, aniqrog‘i, o‘yinchilar sanalganidan ana shunday tabularga javob tarzida davrlar o‘tishi bilan raqamlar o‘rnida so‘zlarni qo‘llash majburiyati orta borgan. Natijada sanamalar sifatida o‘zgarishlarga uchrab, leksik jihatdan takomillasha borgan; ularda oshkora raqamlar o‘rnida sirlikni ta‘minlovchi so‘zlar, hatto so‘qma so‘zlar qo‘llana borishi poetik an‘anaga aylangan.

Biroq so‘z ham, so‘qma so‘z ham sanash intonatsiyasida qo‘llangan holda sanamaning ritmik poydevori vazifasini o‘tab kelgan. Eng muhimi, bunda so‘z ikkita asosiy ma‘noga ega: o‘z, ya‘ni aynan tarkibiy qismiga xos ma‘nosi va umumiy ma‘nosi. Birinchisi — sanoq-o‘lchov, ikkinchisi — logik. Hatto bolalar raqamlarni qo‘llamaydigan so‘z — matnlarda ham sonlar naqd fakt bo‘lib turishadi, bu sanamalarda so‘zning chinakam o‘z ma‘nosi hisoblanadi: shovqin solish asosida ta‘kidlangan har qanday o‘lchov birligi ayni choq birligidir.

Qovun palak Chuvak qovun

Guvak otdi. Shirin ekan.

Guvak emas, safdan chiqsin

Chuvaq otdi. Qo‘lim tekkan!

Ko‘rinayotirki, sanamadagi har bir so‘z, avvalo, sanoq ohangidagi o‘z ma‘nosida qo‘llangan bo‘lib, logik ma‘nosi¹ ikkinchi o‘ringa chekingan. Har bir so‘z ikki hijoli tuproq sifatida ta‘kidlanuvchi urg‘u olib, sanash intonatsiyasini hosil qilgan. Shu sababli uni faqat shovqin solib aytish mumkin. Bu sanamalar ijrosining xarakterli belgisidir. Sanamalardagi sanash ohangi qo‘l yoki oyoq harakatlari bilan to‘ldirilib, tasdiqlanib turiladi. Yuqoridagi sanama ijrosi jarayonida qo‘l harakati ritmni boshqaruvchi vosita vazifasini o‘tashi lozim. Undagi har bir so‘zni onaboshi o‘yin ishtirokchilari ko‘ksiga qo‘lini navbatma-navbat tekkiza turib aytmog‘i, shu asosda sanoq ritmini bo‘rttirib ta‘kidlashga erishmog‘i lozim. Shu zaylda sanash intonatsiyasi asar ritmik asosiga aylanib, mazmunini xiralash-

¹ Logik ma‘nosi — shunchaki yo‘l-yo‘lakay, ikkinchi darajali ma‘nosidir.

tirmagan, bil'aks, so'zning ikkinchi qirrasi — logik mazmunini yarqiratib, voqea-bandlikni ta'minlagan. Bunda bolalarcha tafakkur shiddatini aks ettiruvchi poetik leksika e'tiborga loyiq. Chunonchi harakat shiddatini anglatuvchi «guv» so'zi bola poetik nutqida ritmik ehtiyojga ko'ra «guvak» shaklini olib, qovun palagining gul-lab o'sganini yorqin ifodalasa, «oriq» ottenkasidagi «chuvak» so'zi qofiya ohang-doshligini ta'minlagani holda «uzunchoq» ma'nosida qo'llangan, chunki oriqlik uzunchoqlik holatida namoyon bo'lganidan qovun shaklini eslatuvchi assosiatsiya uyg'ota oladi.

2. Kumulyativ sanamalar. Uch yoshdan o'n ikki yoshgacha bo'lgan bolalarning fikrlashlari, bayon etishlari ayni holatdagi kayfiyatlariga bog'liq ravishda turlicha kechishi psixologik jihatdan asoslangan. Bu yoshdagi bolalar g'oyatda ta'sirchan bo'lganlaridan ehtiroslar girdobida o'z fikrlarini ravon va mantiqan izchil ifodalashga qiynaladilar. Ular kuchli ifodalansalar yoki aksincha, qattiq xafalansalar — fikrlari to'zg'iganday bo'ladi, aslida esa o'sha ichki taassurotning xush yoki noxushligini chuqur idrok qilib turadilar, faqat uni ifodalashda allaqan-day portlashga o'xshagan fikriy sochiqlik yuzaga keladi. Chunonchi, o'pkasi to'lib yig'layotgan bolaning baqir-chaqirishlarini eslaylik: uning baqir-chaqirishlarida mantiqiy izchillik ko'rinmasa-da, so'zlar bor, iboralar bor, biroq bular poyma-poy, mantiqan tartibsiz. Bola ana shu poyma-poy, mantiqan tartibsiz so'zlar, iboralarda o'z arazini, noroziligini to'lib-toshib arz etgan bo'ladi. M.N. Melnikov bolalar fikrlashlari va nutqiga xos bunday psixik jarayonning maktab ta'limidagi xususiyatlarini shunday ta'riflaydi: «Boshlang'ich sinflarda, ba'zan hatto 5–6-sinflarda ham o'qituvchilar bolalarning o'zaro bog'lanmagan, poyma-poy, tushunib bo'lmaydigan nutqini uchratib turadilar. Bu o'zlariga behad yoqqan urush haqidagi, sarguzashtlarga oid kitoblarni» hikoya qilib berayotgan o'g'il bolalar uchun g'oyat xarakterlidir. Bolaning ichki olamida voqealar shiddat bilan yoyilib gavalanadi, biroq nutq ana shu hayot ko'rinishlarining barcha rang-barang qirralarini ifodalashga ulgurmay qoladi, u ayrim o'zaro bog'lanmagan yoki kam bog'langan kartinalarni, obrazlarni beradi»¹. Bu kattalarga mantiqsizday ko'rinadi, biroq bolalarning fikrlash yo'sinlariga xos mushtarak psixik xususiyatdir.

Bolalar o'yin jarayonidagi zavq-shavq ta'sirida mantiqsizliklarga tabiiy ravishda yo'l qo'yadilar; hayajonlanib, quvonchlarga to'lib-toshib huzurlanadilar. Bu hol sanamalarning kumulyativ turida chuqur iz qoldirgan. Zotan, ular bolalarning o'yin boshlashdan hayajonlanishlari oqibatida sochilib ketgan fikr-tuyg'ularining mantiqan bog'lanmagan so'z va iboralarda ifodalana turib, sanash ritmiga qat'iy bo'ysungan holda poetik ohangdorlik kasb etib tizmalanishi, to'planishi tufayli yuzaga kelgan an'anaviy o'yin badihalaridir. «Kumulyativ» so'zi bu xil-

¹ «Русский детский фольклор», Иркутск, 1930, стр. 106.



dagi sanamalarning yetakchi xususiyati — tartibsiz va mantiqsiz soʻz-u iboralar-ning sanash ritmida toʻplanishini toʻla aks ettirishini nazarda tutib, M.N.Melnikov kumulyativ sanama atamasini qoʻllaydiki, buning toʻgʻriligini nafaqat rus, balki oʻzbek sanamalarida ham shunday ichki turning keng tarqalganligi fakti tasdiqlab turibdi. Chunonchi:

*Avak-avak, Boy talogʻi
Doʻstim tavak. Boy kuchugi.
Shoh hoʻkizi, Qachon kelar?
Shoh kapalak. — Yozi kelar.
Turna qaro, San tur,
Tur kuchugi. San chiqʻ!*

Shu holatida sanamada yaxlit bir manzarani tasavvur etishda nimadir yetishmayotganday, sintaktik konstruksiyasi sanash ritmida boʻlganidan mantiqdorlik bir qadar chekinganday. Shunga qaramay, unda hayvonlar, qushlar va hasharotlar-ni ifodalovchi epitentli obrazlar tizimi mavjud. Bolalar shunday obrazlar vosita-sida tabiatga munosabatlarini ham yashirmaydilar. Ular tushunchasidagi «Shoh hoʻkizi», «Shoh kapalak» obrazlari oʻsha hayvon va hasharotning shohga qarash-liligini anglatmaydi, balki «hoʻkizlar shohi» — eng zoʻri, yaxshisi, «kapalaklar shohi» — eng chiroylisi, goʻzal ottenkalarini ifodalab, bolalarning estetik didlari kategoriyasini namoyon etadi.

3. Soʻqma sanamalar. Bu xildagi sanamalarning farqli xususiyati shundaki, bularda voqeabandlik (sujet) yoʻq, raqam, maʼnoli soʻz butkul chekingan, faqat soʻqma (maʼnosiz) soʻz hal qiluvchi poetik mohiyat kasb etgan.

Xoʻsh, hech qanaqa mazmuni boʻlmagan soʻqma soʻz qanday qilib poetik mo-hiyat kasb etishi mumkin? Prof. G.S.Vinogradov bolalar nutqida soʻqma soʻzning paydo boʻlishi sabablarini shunday izohlaydi: «Bolalar ongli va ongsiz ravishda ku-zatuvchandirlar: ular olam goʻzalligini va undagi turli xil xususiyatlarni koʻradilar va his qiladilar, lekin ularning ixtiyorlarida oʻzlarining olamni qanday anglagan-liklarini ifodalovchi bizlarga tushunarli vositalar kam. Oʻz tushunchamizdagi olam-ni biz oʻz tilimizdagi soʻzlar orqali ifodalaymiz, ular vositasida oʻsha hodisalarning xilma-xilligini ifodalashga intilamiz. Bola uchun bunday imkoniyat cheklangan: bunday kezlarda u hech qanaqa chaqiriqlarsiz, ogʻziga kelgan soʻz bilan qanoat-lanadi. Narsalar, hodisalar va harakatlar nomlarini oʻrganish oʻzicha boʻlmaydi, ularni kimlardandir oʻrganish lozim, bolalar esa ularni juda kam bilishadi. Aftidan, tovushlarning aytilishi, soʻzlarning ifodalanishi hamisha kuchlariga mos kelaver-maydi, goho hatto ogʻirlik qiladi, tovushlarni, bolalar oʻzlarini oʻrab olgan olamdan tayor holda idrok etishadi, idrok eta turib imkoniyatlari darajasida yangilashadi, goʻyo oʻsha olingan holatida hech qanaqa oʻzgarishsiz yana olamga qaytarmoqqa

intilishadi»¹. Shu tariqa, bolalar nutqida «oʻzlarini oʻrab olgan olamdan, oʻz imkoniyatlari darajasida idrok etilgan va yangilangan» tovushlardan soʻz shaklida tovush birikmalari paydo boʻladi. Ular hech qanaqa maʼnoga ega boʻlmasa-da, ohangdorligi jihatidan bolalar qalbiga yaqindir, ularning olamga munosabatlarini ifodalovchi oʻziga xos vositalardir. Shu sababli soʻz shaklidagi bunday tovush birikmalarini soʻqma soʻz tarzida nomlash anʼanaga aylangan. Sirasini aytganda, «soʻqma soʻz, aniqrogʻi, soʻz shaklidagi tovush birikmalari shartli nom, har xil hodisalarni yopadi» (G.S.Vinogradov), bolalar idrok etgan olamni tovushlar ohangdorligi silsilasida ifoda etadi. «Ehtimol, bolalar oʻzlari ijod etgan soʻzlarni boshqacha idrok qilishar. Aftidan nimadir oʻylashlariga salgina xalal berganidan ular uchun isteʼmollaridagi merosga aylangan soʻqma soʻzlar zapasi bizlar oʻylagandan koʻra xiyla koʻproq koʻrinar, ehtimol, kattalarning juda koʻp soʻzlari ularga shunday mazmunsiz tuyular. Ammo bolalarda oʻz soʻqma soʻzlari, kattalarga qaraganda, kamroq darajada mazmunsizdir: bu — koʻp hollarda kattalar uchun ularning diskursiv (sermulohaza, serandisha — O.C.) tafakkurlarida har qanday mazmundan mahrum etilgan tovushlar yigʻmasi, tafakkuri butun boʻlgan, oʻzaro munosabatlar olamida soʻzlarning ichki shakli va tovushlari obrazlilik oraligʻida hech qanday uzilish koʻra bilmaydigan bolalar uchun soʻqma soʻz — tilning asl poydevori — mazmuniga toʻqdir va ehtimolki, bizlargina uni shunchaki shartli ravishda oʻzimizning arshinimizda oʻlchab, kattalarning idrok etishlariga muvofiqlashtirib mazmunsiz deya atagandirmiz». (G.S.Vinogradov). Aslida esa, soʻqma soʻzlar bolalar nutqiga xos hodisa sifatida faqat ulargina anglaydigan mazmunga egaki, bu xilma-xil tovushlarning yigʻilishib, bir butunlikka aylangan holda tovlanishlari asosida paydo boʻluvchi sehrli ohangdorligida boʻrtib turadi. Soʻqma soʻzlardagi ana shu sehrli ohangdorligida boʻrtib turadi. Soʻqma soʻzlardagi ana shu sehrli ohangdorlik ritmga osongina koʻchganidan uni ustomonlik bilan sanash intonatsiyasida qoʻllay boshlaganlar, shu asosda soʻqma sanamalar yuzaga kelgan.

Soʻqma soʻzning sanamalar «qurilish materiali»ga aylanishi — janrning toʻla-toʻkis bolalar repertuariga oʻtish jarayonining tugaganligini, kattalar ijodkorligiga xos raqamlarga sigʻinish anʼanalaridan batamom tozalanib, bolalar ijodkorligi namunasiga aylanganligini tasdiqlovchi muhim faktdir. Shu maʼnoda soʻqma sanamalar janrning takomillashgan turi sifatida bolalar poetik folklori arsenalini boyitib, bugungi kunda ham aktiv ijod qilinmoqda:

*Abadayni,
Shabayni,
Shab-shabadayni.
Dumala qoq,
Sen chiq-u boq.*

¹ «Русский детский фольклор», Иркутск, 1930, стр. 106.

Sanamalar o‘zbek bolalar folklorining necha asrlik tarixga ega bo‘lgan va keng tarqalgan, bugungi kunda ham aktiv davom etayotgan janri hisoblanadi. Hech bir janr bolalaridagi RITM TUYG‘USINI tarbiyalashda sanamaga tenglasha olmaydi. Shu xususiyatga ko‘ra, u bolalar shoirilari va kompozitorlari diqqatini tortib, adabiy janrga aylanish jarayonini kechmoqda. Samuil Marshak, Daniel Xarmslar rus bolalar poeziyasida sanamalarning ko‘rkam adabiy namunalarini yaratgan bo‘lsalar, M.A’zam, T.Adashboyev, A.Obidjon, Q.Uzoqovlar uni o‘zbek bolalari poeziyasi arsenaliga kiritish yo‘lida izlanmoqdalar. Bu o‘zbek bolalar adabiyotining folklor bilan ijodiy sintezlashuvi jarayonining yana bir perspektiv omili hisoblanadi.

N a m u n a l a r

* * *

Yig‘lama, qiz, yig‘lama,
Sani hech kim olmaydi,
«Pobeda»ga solmaydi:
Bir, ikki, uch, to‘rt,
Besh, olti, yetti,
Olib ketdi!

* * *

G‘ujum-g‘ujum pomidor,
Oyim bergan pomidor,
Qani sanab ko‘ray-chi!
Bir, ikki, uch, to‘rt,
Besh, olti, yetti — ketdik!

* * *

Bir, ikki, uch, to‘rt,
Besh, olti... o‘n olti.
O‘n olti deb kim aytdi?
Oppoq kuchukcha aytdi.

* * *

Aziz ko‘chaga chiqdi,
Arobasi buzildi,
Unga nechta mix kerak?
Bir, ikki, uch, to‘rt,
Besh, olti, yetti — ketdi!

* * *

Bir, ikki, uch... o‘n ikki,
O‘n ikki deb kim aytdi?
Babala kuchukcha aytdi.
Babala kuchukcha o‘lsin,
Bolasi bizga qolsin!

* * *

Oppa-oppa,
Halima — hoppa.
Tilla-milla,
Tilla-pilla...
Hoy!
Tilla poyezd o‘tdimi?
Halima xolam kelibdi,
Murodiga yetibdi,
Bir, ikki.. uch, to‘rt...
Besh, olti... besh, olti...
Yetti... yetti...
Yetaklab ketdi!

* * *

O‘n, yigirma,
O‘ttiz, qirq,
Ellik, oltmish,
Yetmish, sakson,
To‘qson, yuz.

Yuzga kirgin
Oppoq qiz!

* * *

Bir-u bir, qo‘ying qisir,
Ikki-ikkov, keldi birov,
Uch-u uch, qorinchang puch,
To‘rt-u to‘rt, kallang mo‘rt.
Besh-u besh, men senga esh.

* * *

Bir bug‘doy,
Ikki bug‘doy,
Uch bug‘doy,
Puch bug‘doy.

* * *

Bir hallam,
Ikki hallam,
Uch hallam,
To‘rt hallam,
Besh hallam.
Mushkul jo‘yman!

* * *

Bir, ikki, o‘n olti...
O‘n olti deb kim aytdi?
O‘n olti deb men aytdim.
Ishonmasang, sanab boq:
Birov,
Ikkov,
Uchov,
Qochov!

* * *

Bir, ikki... aylana,
Aylanaga kir yana.
Anqov bo‘lma, ey o‘rtoq,
Doving keladi yana.

* * *

Bir, ikki, uch, to‘rt,
Besh, olti, yetti, sakkiz
To‘qqiz, o‘n... o‘n-u o‘n,
Tulkiga to‘n,
Tulki to‘nning bahosi
Bir-ikki so‘m!

* * *

Bir-u bir, yerginaga kir,
Ikki-ikkov, choptir bedov,
Uch-u uch, qorinchang puch,
To‘rt-u to‘rt, kallang mo‘rt.
Besh-u besh, tugmangni yech!

* * *

Yakshanba, dedim, yotdim,
Dushanba, dedim yotdim,
Seshanba, dedim, yotdim,
Chorshanba, dedim, yotdim.
Payshanba, dedim, yotdim,
Va juma, dedim, yotdim.
Hamma yasanib chiqdi,
Men xumga kirib yotdim.

* * *

Ellig-u ellik bo‘lar yuz,
Yuzdan chiqqan oppoq qiz.
Oshga tashla ozroq tuz.
Tez bo‘l, damla, tezroq suz!

* * *

Odina-badina, yagona,
Misli Vali jahona.
Jahon-jahon qizining
Otini qo‘ydim Fozila.
Fozilaning otini
Darvozaga qoqibdi,
Bo‘ri kelib o‘qibdi,
Chumchuq kelib cho‘qibdi.

Besh, olti, yetti,
Yetaklab ketdi!

* * *

Bir qop, ikki qop,
Uch qop, to'rt qop,
Besh qop, olti qop,
Yetti qop, sakkiz qop,
To'qqiz qop, o'n qop,
Go'ng qop!

* * *

Bitta, bitmonta,
Kalonta, kapusta,
O'ttizta!

* * *

Birim — bilak,
Ikkim — elak,
Uchim — ichak,
To'rtim — to'shak,
Beshim — beshik,
Oltim — oshiq,
Yettim — yelkang,
Sakkizim — sarmog'ing,
To'qqizim — to'qmog'ing,
O'nim — o'ymog'ing,
O'n birim — o'n bog'im!

* * *

Bir qay, ikki qay,
Uch qay, to'rt qay,
Besh qay, olti qay,
Yetti qay, sakkiz qay,
To'qqiz qay, o'n qay.
To'nqay!

* * *

O'n olti deb kim aytdi.
O'n oltini sanaguncha

Tishim bir tushib chiqdi,
Yoshim sakkizga yetdi.
Endi maktab boraman.
Besh bahoni olaman.
Onamni quvontirib,
Muzqaymoqni olaman.

* * *

Bir, ikki...
Olma tekki,
Safar oyi,
Sariq chumchuq,
Tez uchib chiq!

* * *

O'n bilan o'n
Yigirma.
Yigirmata
Childirma.

* * *

Bir, ikki, uch,
Daraxtning
Tomiri puch.

* * *

Bir, ikki, uch,
Birlikdadir kuch.
Dumbur-dumbur,
Dambir-dumbir,
Birlikdadir kuch.

* * *

Bir anor, ikki anor,
Uch anor — uchginasi,
To'rt anor — to'rtginasi,
Besh anor — chambarda,
Oltisi omborda...
Alag'ay-palag'ay,
Uchdi-yu ketdi!

* * *

Pista chaqdim dona-dona,
Sen ketasan Hindistona.
Olti mushuk so'ydim,
Ko'zini senga qo'ydim.
Bir, ikki...
Olma tekki,
Sen tur,
Sen chiq!

* * *

Chumchuqcha uyga kirdi,
Odilcha uni quvdi,
Chumchuqcha, eshik ochiq,
Eh, naq uni tutuvdi!
Hoy, chumchuq, mana eshik,
Qani, tezroq uchib chiq.
Bir, ikki, uch, to'rt,
Besh, olti, yetti...
Chumchuqcha uchib ketdi!

* * *

Sakkiz, sakkiz — o'n olti!
O'n olti deb kim aytdi?
Oqqina kuchukcha aytdi.
Oqqina kuchukcha qani?
Oqqina kuchukcha o'ldi,

Bachasi kimga qoldi?
Bachasini bering-chi!
Qani olib ko'ring-chi?
Salim qochdi,
Halim tutdi!

* * *

Igna-igna
Uchi tugma,
Samarqandning qaldirg'ochi
Igna qoshlim
Chiqsin gulim!

* * *

Avak-duvak,
Eshim kavak
Safar, Lola,
Lingak-lingak,
San tur, san chiq!

* * *

Oq tovuq, ko'k tovuq,
Oyoqlari shiqirtovuq.

* * *

Otang kimchi,
Onang kimchi.
O'tir,
Oyog'ingni chimchi!



SOF HAKATDAN
IBORAT O'YINLAR. HAKATNI NARSALAR ORQALI
BOSHQARADIGAN O'YINLAR. HAKATNI SO'Z BOSHQARADIGAN
O'YINLAR. TARQALMACHOQLAR

SOF HAKATDAN IBORAT O'YINLAR



Ot ustida kurash

Bu o'yin dalalarda, maysazorlarda yoz faslida o'tkaziladi, unga kattaroq yoshdagi to'rt yoki sakkiz bola qatnashadi. Ular bir-birlarining ustlariga chiqib, o'zaro ikki raqiblarday kurashishadi. Qaysi bola o'rtog'ining ustidan oldin yiqilsa — o'sha yutqizgan sanaladi. O'yin o'rinlarini almashtirish asosida davom ettiriladi.

Kim kuchli?

Bu o'yinda ikkita o'g'il bola qatnashadi. Yerga aylana chizilib, ichida ikki bola bir-biriga oyog'ini uzatib o'tiradi. Ularning oyog'ining kafti bir-birinikiga tegib turishi kerak. So'ngra ular 1, 2, 3 deb, ikki oyoqlab bir-birovining oyog'ini itarishadi. Shu taxlitda o'rtog'ini aylana ichidan itarib chiqarolgan kuchli deb topiladi.

O'yin yoz faslida hovlida o'ynaladi.

Olatoy-bulatoy

O'yinchilar tomonidan ikkita onaboshi saylanadi. Ular qo'llarini yuqoriga ko'tarib, xuddi eshikka o'xshatib ushlab turadilar. Bolalar qator turishib, ularning qo'li ostidan aylanib o'taveradilar. Onaboshilar har safar oxirida qolgan bolani ushlayveradilar. Onaboshilar o'zlariga nom qo'yishgan bo'ladi. Masalan, qizil gul,

sariq gul kabi. Oxirida qolgan bolaga qizil gul kerakmi, sariq gul, deb so‘rashadi onaboshilar. Bola «qizil gul kerak», desa — «qizil gul» otlig‘ onaboshi tomonga o‘tadi. O‘yinga qatnashuvchi hamma bolalar shunday qilib ikki guruhga ajralib onaboshilar guruhlarning boshida turishadi. Bolalar bir-birlarining bellaridan mahkam ushlab turib tortishadi. Qaysi guruh chiziqdan o‘tsa, o‘sha yutqazgan hisoblanadi. O‘yin ochiq havoda, bahor va yozda o‘ynaladi.

Darvoza-darvoza

Bu o‘yinni o‘n-o‘n beshta o‘g‘il va qiz bolalar to‘planib o‘ynaganlar. O‘yin-boshining ruxsati bilan ikki bola chetga chiqib o‘zlariga nom qo‘yganlar. Masalan, biri o‘ziga «olma» deb, ikkinchisi «anor» deb nom qo‘yadi. Keyin qo‘lma-qo‘l ushlab qo‘llarini yuqoriga ko‘targan holda darvoza shaklini hosil qilib turganlar. Qolgan bolalar esa bir-birlarining ko‘ylaklarining orqa etagidan tutib, qator bo‘lib tizilishgan. Darvozabonlar «Kelinglar, darvozamiz ochiq!», degach, bolalar o‘zlari yaxshi ko‘rgan biror qo‘shiqni aytib darvozadan birma-bir o‘ta boshlaganlar. Darvozabonlar eng orqadagi bolani tutib undan so‘raganlar:

— Olmani olasanmi yoki anorni?

Shunda bola olmani, desa — ismi «olma» bo‘lgan darvozabon tomon, anorni olaman, desa — ismi «anor» bo‘lgan darvozabon tomon o‘tadi. Shu zaylda barcha bolalar ikki tomonga taqsimlangach, o‘rtadan uzun chiziq tortiladi. Ikki darvozabon chiziq ustiga keladilar, salomlashganday bo‘lib qo‘lma-qo‘l ushlab turadilar. Ularning orqalaridan sheriklari bir-birlarining bellaridan qo‘llarini o‘tkazib mahkam ushlagan holda torta-tort qila boshlaydilar. Shu paytda qaysi tomon kuchlilik qilib, raqib tomondagilarni tortib chiziqdan to‘la o‘tkazsa — o‘sha tomon g‘olib hisoblanadi. Mag‘lub tomon darvozabonlarini almashtirgach, yana bolalar o‘yinni davom ettiradilar.

Jigar-jigar

Bu o‘yinda o‘n ikki yoki undan ortiq bola ishtirok etadi. Ular orasidan ikkita novchasi chiqib onaboshilik qiladi. Onaboshilar yashirincha o‘zlariga nom qo‘yadilar: birinchi onaboshi — «olma», ikkinchisi — «anor» kabi. Ikkala onaboshi bir-birining qo‘lini ushlab, bolalarga qarab, birgalikda shunday murojaat qiladilar:

Onaboshilar: — Jigar-jigar.

Bolalar: — Joni jigar.

Onaboshilar: — Kel, o‘ta qol!

Bolalar: — Kimmi qo‘lidan?

Onaboshilar: — Bizzi qo‘limizdan.

Bolalar bitta-bitta onaboshilar yoniga boradilar. Onaboshilar kelgan har bir boladan: — Olmani? Anor? — deb soʻraydilar. «Anor», deganlar — «anor» tarafiga, «olma», deganlar — «olma» tarafiga oʻtishadi. Shu xildagi taqsimlanishgandan keyin oʻrtaga chiziq tortishib, taraflar aʼzolari bir-biriga qarama-qarshi turgan onaboshilari orqasidan belma-bel qoʻl ushlab tizilishadi va kuch sinash uchun ishga kirishadilar... Har bir taraf «raqibi»ni chiziqdan oʻzi tomonga oʻtkazishga harakat qiladi. Chiziqdan oʻtgan taraf yengilgan hisoblanadi. Oʻyin, asosan, yoz faslida koʻchada oʻynaladi.

Almash qadamlar

Bu oʻyinda juda koʻp bola qatnashishi mumkin. Bolalar uzunasiga saflanadilar, soʻngra tartib bilan tortilgan chiziq ustidan qadamlarini chillik qoʻyib oʻtadilar. Kim shu oʻyinni toʻgʻri, chaqqon va xatosiz bajarsa — oʻsha gʻolib sanaladi. Oʻyin shu zaylda davom ettiriladi.

Sirgʻanchiq yoki tayinishma

Buni bolalar juda sevib oʻynaydilar. Oʻyinda bolalar balanddan pastga qarab sirgʻaladilar. Avval bitta-bitta sirgʻalishsa, keyin hammalari orqama-keyin oʻtirib, bir-birining belidan qoʻl bilan ushlab sirgʻalib suvga tushadilar.

Oʻyin yoz oylarida kichik yoshdagi bolalar ishtirokida suvda, soni cheklanmagan holda oʻynaladi.

Xoʻroz-xoʻroz

Bu oʻyinda bola qancha koʻp boʻlsa — shuncha qiziqarli boʻladi. Unda bolalar ikki tomonga boʻlinib oʻynaydilar. Oʻyin boshlamasdan oldin ikkita onaboshi saylaydilar. Ulardan biri kelishgan holda qoʻliga xas yopishtiradi, kimki shu xasni topsa, birinchi tarafga, topmagani esa ikkinchi tarafga oʻtadi. Shu tariqa ular cheklashishadilar. Tomonlar teng ikkiga boʻlingach, bir-birlariga yuzma-yuz qarab turadilar. Oʻrtaga bittadan oʻyinch chiqadi. Ular qoʻllarini orqaga tutib bir oyoqlab sakrashib, yelkalari bilan bir-birlarini itara boshlaydilar. Shunda qaysi bola oldin oyogʻini yerga qoʻyishga majbur boʻlsa, oʻsha yengilgan sanaladi. Oʻyin davomida bir oyoqni yerga qoʻyish yoki orqasidagi qoʻlini boʻshatib oʻynash mumkin emas. Oʻyinda faqat oʻgʻil bolalar qatnashadi, chunki oʻyinning asosiy maqsadi kuch sinashdan iboratdir. Oʻyin bahor, yoz va kuzda oʻynaladi.

* * *

«Xoʻroz-xoʻroz» oʻyining boshqa bir turida ikkita oʻgʻil bola qatnashadi. Dastlab yerga doira shakli chiziladi. Shu doira ichida har ikkala bola ham qoʻllari

orqasida, bir oyog'ini ko'tarib, ikkinchi oyog'ida sakrab-sakrab, bir-birini yelkasi bilan turtib o'ynaydi, doira ichidan chiqib ketgan yoki ko'tarilgan oyog'ini yerga qo'ygan bola yutqizgan hisoblanadi. «Xo'roz-xo'roz» o'yini yoz oylarida hovlida yoki ko'chada o'ynaladi.

Ona tovuq va hakka

Bu o'yinda bolalar aralash holda qatnashsalar-da, qiz bolalar ko'proq o'ynashadi. Bir bola — ona tovuq, qolganlari — jo'ja, yana bir bola hakkadan hi-moya qilishi kerak. Agar hakka jo'jalarning yarmisini o'ziga tortib olsa, ona tovuq bilan hakka yerga uzun chiziq tortib ikkovi bir-birlarining qo'lidan ushlab torti-shadi. Qaysi biri chiziqdan o'tsa — o'sha yutqizgan hisoblanadi.

«Eshak» mingash

O'yinga ikki yoki undan ortiq o'g'il bola qatnashadi. Sanama aytilib, oxirida qolgan bola «eshak» bo'ladi. O'yin tutash tomlarda o'ynaladi. «Eshak» balandroq tomning bo'g'otini ushlab turadi. Boshqa o'yinchilar birin-ketin kelib unga ustma-ust mingashaveradilar. Shunda kim mina olmay yiqilsa o'sha «eshak» bo'lib nav-batda turadi.

O'yin shu zaylda bolalar charchaguncha davom etadi. «Eshak» mingash, aso-san, bahorda o'ynaladi.

Shaftoli shakar

Qadimda o'troq-bog'dor aholining «Meva sayli», «Qovun sayli», «Shaftoli pishdi», «Uzumxo'rlik» kabi iboralar bilan aytilib kelingan o'yin turlari bor. Ha-qiqatan ham to shu paytgacha shaharliklar meva pishig'ida dehqonlarning meh-moni bo'lganlar.

Meva pishig'i bolalarga adoqsiz quvonch va xursandlik bag'ishlaydi. Ular bu mavsumda «shaftoli shakar» o'yinini o'ynashgan. O'yinda bolalar boshlig'i biron kishining bog'ini mo'ljalga olib:

*Shaftoli pish, og'zimga tush,
Shaftoli shakar — bog'da bitar.
Borib-borib
Do'smat otaning bog'iga girr —*

deydi. Bolalar aytilgan bog'dagi daraxtlar yoniga yugurib kelishadi. Olib kelingan meva baham ko'riladi. Bu — o'g'irlik hisoblanmaydi.

O'yinda o'g'il bolalar qatnashadi, ular to'rt-beshta bo'ladi. O'yin yoz faslida o'ynaladi.

Jik-jik

Bu o'yinda bolalar oyoq uchida o'tirgan holda sakrab-sakrab yurish qiladi. Har bir sakraganda jo'rovoqlikda bir satr qo'shiq aytib, to'xtaganda yana baravari-ga: «Jik-jik, jik!» deb qo'yishadi:

— Erta dadam shahar borala...

Jik-jik, jik!

Manga kavush olib kelala...

Jik-jik, jik!

Kiyib uni man to'y beraman,

Jik-jik, jik!

Tomoshani dadam qilala...

Jik-jik, jik!

Tizzasi og'rib, horiganlar safdan chiqaveradi, boshqalar shu zaylda aytaturib olg'a sakrab boradi. Kim uzoqqa borolsa — o'sha chidamli va g'olib sanaladi.

Bekinmachoq

Bu o'yinda kamida uch bola ishtirok etishi kerak. Ular to'planishgach, quyi-dagi sanamani aytib, galdagi turuvchini aniqlashadi:

Pop, pop, pop,

Boshingga qalpoq,

Ustingga ko'k qop,

Biz bekindik,

Sen top!

«Sen top» sanog'i tushgan bolaning ko'zi bog'lanib, unga o'ttizgacha sa-nash topshiriladi. Boshqalar u sanab bo'lguncha biror yerga berkinadilar. Ko'zi bog'liq bola o'ttizgacha sanab bo'lgach, ko'zidan ro'molni ochib oladi va ber-kingan bolalarni qidirishga tushadi. Berkinib o'tirganlar ikki yuzgacha sanaydilar. Shu sanoq tugaguncha galdagi bola ularni topolsa, birinchi topgan kishisining ko'zini bog'lab, o'z vazifasini unga topshiradi. Agar topolmasa, yana o'zining ko'zi bog'lanadi. O'yin shu tariqa davom etadi. O'yin bahor, yoz, kuz fasllarida o'ynaladi. Bunda qiz va o'g'il bolalar aralash o'ynaydilar.

Bu o'yinning boshqa bir turida uch-to'rt kishi qatnashishi mumkin. Bunda shunday sanama aytiladi:

Musa ko'chaga chiqdi,

Aravasi buzildi.

Unga nechta mix kerak?

*Bir,
Ikki,
Uch,
To‘rt,
Besh,
Olti,
Yetti,
Yetaklab ketdi!*

Sanama to navbatda qoluvchi bola aniqlanguniga qadar takror-takror aytilaveriladi. Nihoyat, davradagi bolalarning qay biriga oxirgi so‘z tog‘ri kelsa — o‘sha galda qoladi. U bola yuzini devorga o‘girib turadi. Bolalar esa berkinishadi. Ular berkinib bo‘lishgach, «Puq!» deb ovoz berishadi. Ana shundan keyin navbatda turgan bola ularni qidiradi. Birortasini ko‘rgach, darrov chopib kelib: «To‘q-to‘q, Zamira», — deya devorga uradi. Zamira chiqadi. Shunday qilib kim oxirida qol-sa, navbatdagi o‘yinda o‘sha bola dov berish galini oladi. O‘yin shu tariqa davom etadi. O‘yin bolalardan ziyraklik va chaqqonlikni talab etadi. O‘yin yilning to‘rt faslida ham o‘ynaladi.

«Puqmi? Puq!»

Buni o‘yinboshining o‘zi boshlab beradi. O‘yinboshi boshini tizzasining orasiga qo‘yib, ko‘zlarini yumgan holda o‘tiradi. Bolalar esa yaqin atrofdagi pana joylarda yashirinadilar. Birozdan keyin o‘yinboshi boshini baland ovoz bilan «Puqmi?» (ya‘ni joylashib bo‘ldingizlarmi?) deb so‘raydi. Bolalar joylashib olgan bo‘lsalar, yashiringan joylarida turib «puq» deb javob qaytaradilar. Shundan so‘ng o‘yinboshi joyidan turib, yashiringanlarni axtara boshlaydi. O‘yinboshi bolalarni birma-bir topib, bir joyga to‘playdi. Oxirida qo‘lga tushgan bolani o‘z joyiga qo‘yib, o‘zi bolalarga qo‘shilib yashirinadi. Bolalar shu taxlit almashib o‘ynaydilar.

Yashirinmachoq

O‘yinga qizlar va o‘g‘il bolalar aralash qatnashadilar. Qatnashuvchilar soni cheklanmagan. Avval hamma bolalar qator tizilishadi, xohlagan bittasi chiqib qatordagilarni sanay boshlaydi:

*Nemis chiqdi o‘rmondan,
Pichog‘ini oldi karmondan,
Yo o‘lasan, yo qolasan,
Kim bilan do‘st bo‘lasan?*

Yoki:

*Ko 'prikning tagida bir ayiq
Semichka sotib o 'tiribdi.
Semichkaning bahosi
Necha so 'm? —*

deb o'sha sanoqqa to'g'ri kelib qolgan boladan so'raladi. U bola xohlagan raqamini, masalan, 10 deb aytishi mumkin. Sonni aytgan bolaning biqinidagi boladan boshlab 1, 2, 3... deb sanaladi. O'ninchi bo'lib turgan bola safdan chetga chiqib turadi.

Bolalar shu tarzda sanalib bo'lgach, oxirida bittasi qoladi. O'sha bola ko'zini ataylab berkitib turadi. Ma'lum muddatda boshqa bolalar turli joylarga yashirib qoladilar. Ko'zi berk bola yashiringan bolalarni topib quvadi va biror narsa bilan topgan bolani yengilgina uradi. Agar u hech kimni quvib yetolmasa — yengilgan hisoblanadi. O'yin bolalar xohlagancha davom etishi mumkin. Bu o'yin ko'pincha marosimlar, yig'inlar yoki to'ylarda o'ynaladi.

Duk-duk

Bu o'yinda besh-oltita bola to'planib, devorga katta aylana chizadilar. Bolalardan xohlagani birinchi bo'lib «duk-dukchi» bo'lgan va peshonasini aylana ichiga qo'yib, qo'llari bilan ko'zlarini yashirib turib yigirmagacha sanagan. Shu paytda boshqa bolalar har joy-har joyga yashirinishga ulgurishgan. «Duk-dukchi» yigirmagacha sanab bo'lgach, uzoqqa bormay qidira boshlaydi. Birorta bola ko'ziga ko'rinsa, yugurib devordagi aylana yoniga keladi-da, shu bolaning ismini baland ovoz bilan aytib:

— *Duk-duk, Yusuf.*

Yoki:

— *Duk-duk, Po 'lat, —*

deydi. Buni eshitib boshqa bolalar ham yashiringan joylaridan chiqib keladilar va birinchi ko'ringan bola «duk-dukchi» vazifasini zimmasiga oladi. O'yin paytida, ya'ni «duk-dukchi» bolalarni endi qidirayotgan paytda ulardan birontasi «duk-dukchi»ga sezdirmay kelib undan oldin devordagi aylana ichiga qo'lini urib «Duk-duk, dukchi», desa, o'zi «dukchi» bo'ladi. Avvalgi «dukchi» esa bolalarga qo'shib yashirinadi. Shu tartibda o'yin davom etadi.

«Qora» koʻrdim

Bu oʻyin yashirinmashoq oʻyining bir turi hisoblanadi. Bunga ham xohlagancha bola qatnashadi.

Yashirinmashoq oʻyinidagidek bolalar sanaladi va oxirida bir bolaning koʻzi bogʻlanadi, qolganlar yashirinadi.

Koʻzi bogʻlangan bola yashiringan bolalarni topishi va ulardan qay birining ismini Bahrom yoki Komil deb aniq aytishi kerak. Shunda ismi aytilgan bola yutqizgan hisoblanadi va u yashiringanlarni topish vazifasini zimmasiga oladi. Oʻyin shunday davom etaveradi. Oʻyinni bolalar charchab zerikkunlaricha davom ettiradilar. Oʻyin zamirida ijtimoiy mazmun va maqsad yotadi. U aslida razvedka xarakterlariga oʻxshab ketadi. Bunda bolaning chaqqonligi, serharakatligi, eshituv organlarining rivojlanishi koʻzda tutiladi. Oʻyin ochiq havoda koʻpincha kechqurun, qorongʻi tushganda oʻynaladi.

Quvlashmashoq

Oʻyinda asosan toʻrt-beshta bola qatnashadi. Oldin chek tashlanadi, nechta bola boʻlsa, shuncha raqamlar alohida qogʻozlarga yozilgan boʻladi. Eng keyingi raqam kimga tushsa, oʻsha quvlaydi, qolganlari esa qochadi. Qochayotganda har bir bola tutqich bermaslikka intilib, quvongʻichga qarab shovqin solgan holda shunday deydi:

*Baliqchi, baliqchi,
Bizni tutib koʻring-chi!*

Yoki:

*Laka-lak, lak-laka-lak,
Shamolda uchdi kapalak.
Qochishing, ho qochishing!
San tut boʻlmasdan halak.*

Shu taxlitda quvongʻich mazax qilinadi.

Quvlagan kimni tutsa — navbatdagi oʻyinda oʻsha bola boshqalarni quvlaydi. Oʻyin shu taxlitda davom etadi. Oʻyinda oʻynovchilardan chaqqonlik talab qilinadi.

«Man pet»

Bu o'yinda besh yoki undan ortiq bola qatnashadi. Bir bola o'rtaga chiqib say boshlaydi:

*Bog'da olma pishibdi,
Hovuzchaga tushibdi,
Ikkita baliq suv ichdi,
Qolganini kim ichdi?
Iq, biq,
Sen chiq!*

Bolalar bir-bir chiqaverishadi, eng oxirida qolgan bola barcha chiqqanlarni quvib tutishi kerak. Qochayotgan bola biror to'ntkaningmi yo daraxtningmi ustiga chiqib, «Man pet», desa, quvayotgan bola uni tutmay o'tib ketadi. Agar qochayotgan bola balandga chiqolmay yoki «Man pet», deyishga ulgurmay qolsa — quvib kelayotgan bola uni tutib oladi. Ana shundan keyin tutilgan bola boshqalarni quvib tutishi kerak bo'ladi. O'yinda qizlar ham, o'g'il bolalar ham ishtirok etadilar.


Shax-shax

Bu o'yin uchun o'n ikki yoki o'n beshta bola kerak bo'ladi. Oldin ikki toifaga bo'ladi. Buning uchun tubandagi sanama aytiladi:

*Misha dalaga chiqdi,
Aravasi buzildi,
Unga nechta mix kerak?
Bir,
Ikki,
Uch,
San davradan ko'ch!*

«Ko'ch» so'zi kimga to'g'ri kelsa, birinchi bo'lib davradan o'sha chiqadi va 1-taraf a'zosi bo'ladi. Shu tarzda taraflar aniqlanadi. Shax bir ko'chaning chetiga chizilgan yarimdoira shakli bo'lib, tutilgan asirlarining ichida turishi mo'ljallangan shartli joy.

Shundan so'ng 1-taraf a'zolari 2-taraf a'zolarini quvlaydilar. Tutilganlarni shaxga keltiradilar, shaxning oldiga poyloqchi qo'yiladi. Qo'riqchi asirlarni qochirmaslik uchun aylanib yuradi. Qochoqlar fursatdan foydalanib, shax oldiga keladilar va asirlarning biriga qo'llarini tekkizadilar. Asirlar qochadilar. Agar qo'riqchi asir yoki qochoqlarga qo'lini tekkizsa — hammalari asirlar qatoriga qo'shiladilar, boshqalari qochadi. Bu o'yinda qizlar va o'g'il bolalar aralash qatnashadi. O'yin bahor va kuz fasllarida o'ynaladi.



Tiriltirishma

Bu o'yin ham dog'-dog' o'yiniga o'xshaydi. Unga ham o'n ikkitadan yigirmatagacha o'g'il bola qatnashadi, ular cheklashmachoq asosida ikki raqib tomonga teng bo'linishadi. Bu o'yinlarning bir-biridan farqi tiriltirishmada. Bunda bir tomondagilar ikkinchi tomondagilarni quvlab tutishi kerak. Bir bola Rashidni tutsa, «Rashidni tutdim», deydi. Shunda uni o'yindan chetga chiqarib, yoniga bit-ta qorovul qo'yadi. Rashidni qorovul qo'riqlab turadi. Rashid bo'lsa do'stlaridan yordam kutadi. Bir do'sti kelib Rashidning qo'liga astagina urib, «jon», deydi. Shu payt qorovul Rashidning do'stini ushlasa, u ham Rashidning yonida turishi kerak, agar ushlab olmasa, ikkovi ham qochib yana o'yinga kiradilar. Shunisi borki, tiriltirishmada bolalar yashirinishmaydi, balki bir-biridan qochib yuradilar. Raqib tomon u tomon a'zolarining hammasini tutib olsa — tomonlar o'zaro o'rin almashtirishadi. Shu zaylda charchaguncha o'yin davom etadi.

Topag'on

Bu o'yinni katta yoshdagi bolalar o'ynaydilar. Ular katta doira hosil qilib turadilar. O'rtaga bir bola chiqadi, avvaliga u hammani yaxshi tanib olmog'i shart. Shundan keyin esa uning ko'zini bog'laydilar. Bu ish tugaganiga qanoat hosil qilingach, u topishi lozim bo'lgan bola nomi e'lon qilinadi. Bu orada doiradagi bolalar sekin-sekin o'rin almashtira boshlaydilar. Ko'zi bog'liq bola doira atrofidan nomi e'lon qilingan bolani to'g'ri topib, qo'lidan ushlab olsa — u bilan o'rin almashtiradi. Unda toparmonlik to'g'ri tutilgan bola zimmasiga o'tadi. Uning ko'zlari bog'lanadi. Bordi-yu topolmasa yoki noto'g'ri topsa yana o'zi toparmonlikda qolaveradi. O'yin shu zaylda davom etadi.

* * *

O'yinning yana bir turida o'nta bola o'ynaydi. Hammalari to'g'ri. bir tekisda tizilishadi. Oralaridan birovi o'yinboshi bo'ladi. U: «Bir chetdan sanang!» — deb buyruq beradi. Bolalar «bir», «ikki», deb chiqadilar. Kuzatuvchi bolalarning tartib raqamlarini bilib olishi kerak. Masalan: Karim — to'rtinchi, Ahmad — topag'on bolaga: «Ko'zingni yum!» — deydi. U yumib turadi. Shunda u bolalarning tartib raqamini aytadi. Topag'on to'g'risini topib aytsa, aytaylik «oltinchi» deyilganda, topag'on «Salim» deb topolsa — yutadi. Agar yanglishsa — yutqazadi. Kimki ko'p to'g'ri topolsa, o'sha «topag'on» nomini oladi.

Kim urdi?

O'yinda besh yoki undan ortiq bola ishtirok etadi. Ulardan eng bo'yi uzuni bir qo'lini yuqoriga ko'tarib, kaftini yerga qaratgan holda tutadi. Qolganlar bittadan ko'rsatkich barmoqlarini uning kaftiga tegizib turadilar. U 1, 2, 3 deyishi bilan

hamma barmog'ini tutib olsa, o'sha devorga qaragan holda chap qo'lini o'ng kurgining ustiga qo'yib turadi. Qolgan to'rt boladan biri uning qo'li kaftiga sekin uradi va so'raydi: «Kim uradi?» Bola o'zini urgan sherigini to'g'ri topsa — urgan bolaning o'zi teskari qarab turadi. Bu o'yin deyarli barcha fasllarda uyda va hovlida o'ynaladi. O'yinda qiz bolalar ham, o'g'il bolalar ham ishtirok etishi mumkin.

«Qani kim, top-chi?»

Bu o'yinda bolalar qancha bo'lishsa ham o'ynayveradilar. Faqat ular yosh jihatdan tengqur bo'lishlari kerak. O'yinda onaboshi o'rta chiqib, dastlab o'zidan boshlab tubandagicha sanaydi:

— Bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, ketdi!

«Ketdi» sanog'i qaysi bolaga tushsa, o'sha chiqib turadi. Eng oxirida chiqmay qolgan bola o'sha chekkada tizilishib turganlarning oldida bir qo'lining kaftini qulog'iga qo'yib turadi. Ikkinchi qo'lini esa tirsagi pastidan kaftini ochgan holda tashqariga qaratib cho'zib turadi. Tizilishib turgan bolalardan biri o'zini sezdirmay, kafti bilan o'sha cho'ziq ochiq kaftga uradi. Shunda hamma bolalar baravariga: «Qani kim, top-chi?» — deb o'zlarini ko'rsatib turadilar. Bordi-yu, u kaftiga urgan bolani to'g'ri topsa — o'zaro o'rin almashishadi-da, topolmasa — yana o'zi navbatda turaveradi. Shu tariqa davom etuvchi bu o'yinni yilning hamma faslida ham o'ynasa bo'ladi.

Qaldirg'och

O'yinda o'n ikki yoki undan ortiq bola ishtirok etadi. Ular qator tizilib, 1-bola — «oymoma», 2-bola — «oftob»... deya eng oxirgi bolagacha sanashadi. Shundan so'ng «oymoma» deganlar — bir tomonga, «oftob» deganlar — ikkinchi tomonga ajralishadi va ikki tomonda qator tizilishib turishadi. Har bir tomonning eng bo'yi baland a'zosi o'z tomoniga onaboshilik qiladi. Onaboshilar o'z a'zolarining har biriga yashirincha nom qo'yadilar. Birinchi bo'lib nom qo'yib bo'lgan onaboshi raqib tomon a'zolaridan birining ko'zini yumib, o'z tomonidagi bir bolaning yashirincha nomini aytib chaqiradi. Masalan: «Chumchuq». Chaqirilgan bola borib ko'zi yumilgan bolaning peshonasiga chertib, yana o'z joyiga borib o'tiradi. Ko'zi yumilgan bolaga qarab barcha bolalar birgalikda «Qaldirg'och, g'och-g'och, topganingni olib qoch», deyishadi. Bola chertganini to'g'ri topolmasa — uni o'z tomoniga olib o'tadi va uning onaboshisi bu tomondagi bolalardan birini ko'zini yumadi. Agar chertganni topolmasa — o'zi ham shu tomonga o'tadi. Keyingi holatda o'yinni yana birinchi tomon davom ettiradi. O'yin toki bir tomondan faqat bitta bola qolguncha davom etadi. Birgina a'zosi qolgan tomon yutqizgan hisoblanadi. O'yin yil davomida hovlida va ko'chada o'ynaladi.

Urdi-qochdi

O'yinga qatnashuvchi bolalar bir, ikki hisobi bilan ikki guruhga bo'linadilar. Guruhlar orasidagi masofa 12–13 qadam bo'ladi. Oldin birinchi guruh o'yinni boshlaydi. Ikkinchi guruhdagi bolalar qo'llarini uzatib turadilar. Birinchi guruhdan bir bola borib qarshi guruhdagi biror bolaning qo'lga urib qochadi. Ular uni tutishga chog'langan bo'lib, bu niyatlarini qo'lga urish paytida amalga oshirishga ulgurishlari kerak, tutolmasalar, u o'z guruhiga borib qo'shiladi. Tuta olsalar — shu urib qochgan bola o'yindan chiqadi. Ikkinchi guruh ham shu ko'rinishda o'yinni davom ettiradi. O'yinchilar soni kamayib boraveradi. Qaysi guruh ko'p bolani urib chiqarsa, o'sha tomon g'olib hisoblanadi. O'yinni yoz faslida o'ynaydilar.

Urib qochish

Bu o'yinda o'n ikki yoki undan ortiq bola ishtirok etadi. Ular qator tizilishib «atochka», «batochka», deya chek tashlashadilar. «Atochka» deganlar — birinchi komanda, «batochka» deganlar — ikkinchi komanda bo'ladi. «Atochka» komandasi davra hosil qilgan holda turib shunday qo'shiq aytadi:

*Atochka,
Batochka.
Oyoq-qo'li
To'qmoqcha.*

Qo'shiq tugashi bilan «batochka» komandasining bir a'zosi yugurib kelib davradagi qo'shiqchilar birini «urib» qochadi. «Urilgan» bola urib qochgan bolani to u o'zi komandasiga yetib borib qo'shilguncha olib kelib qo'shadi; ulgurmasa — o'zi ham raqib komandasiga «asir» bo'lib qoladi. O'yin yutqizayotgan tomonning birgina a'zosi qolguncha davom etadi. Birgina a'zosi qolgan komanda yengilgan hisoblanadi. O'yin yoz, kuz fasllarida ko'chada o'ynaladi.

Topdim

Bu o'yinda o'nta bola qatnashadi. Ular aylana bo'lib, qo'shiq aytib turishadi. Shu payt bir bola yig'lab keladi.

- Hoy bola, nega yig'layapsan? — deb so'raydi aylanadagi bolalardan biri.
- Oyimni yo'qotdim, — deydi yig'lab kelgan bola.
- Kel, biz bilan o'yna, oying hozir keladi, — deydi aylanadagi ikkinchi bola va uni o'rtaga o'tqazib qo'yadi. Shu payt ana bir bola yig'lab keladi:
- Nega yig'layapsan? — deb so'rashadi.
- Bolamni yo'qotdim, — deydi u.
- Bolang huv ana u yerda! — deyishadi bolalar jo'rovoqlikda. So'ngra yana davom etishadi:

— Bitta o‘ynab ber, keyin bolangni ko‘rasan?

Bolaning «onasi» o‘ynab bergach, endi uning ko‘zini bog‘lab davraga chiqaradilar, so‘ngra unga: «Men shu yerdaman», — deya qichqirib turadilar. Ona o‘zining bolasini topa olsa, onasi — bola va aksincha, bolasi — ona bo‘lib o‘yinni qaytadan boshlaydilar.

O‘tir — tur!

Bu o‘yin buyruqni teskari bajarish asosida qurilgan. Sanama orqali o‘yinboshi aniqlangach, u barchaga:

— O‘tir! — deb buyuradi. Shunda hamma sakrab o‘rnidan turishi kerak. «Tur!» degan buyruq berilganda esa hamma o‘tirib olishi lozim. Kimda-kim shu buyruqlar talabini aynan ijro etsa, o‘yindan chiqariladi. O‘yin to oxirgi bola qolguncha davom etadi va g‘olib ham shu oxirida qolgan bola hisoblanadi. O‘yinda yetti-sakkizta bola qatnashadi. U bolalarni sezgirlik va hushyorlikka o‘rgatadi.

O‘tira-o‘tir

Bu o‘yinga xohlagancha bola qatnashadi. O‘yin qoidasi: hamma bolalar qo‘l ushlab, davra hosil qilib, biror qo‘shiqni aytib turadilar. Bir bola davraga chiqadi va «Bir, ikki, uch!» — deb sanaydi. «Uch», deganda hamma bola o‘tiradi, qo‘shiq to‘xtaydi. Biror bola o‘tirishga ulgurolmay qolsa, davradagilar uni o‘rtaga chiqaradilar. Yangi chiqqan bola ashula, she‘r yoki ertak aytib beradi. O‘yin shu tartibda davom etadi.

Labbay-labbay

O‘yinda besh-oltita bola qatnashadi. Beshta bola bir qatorda turadi. O‘yinboshi esa ulardan birining nomini aytib chaqiradi. O‘yinboshi ismini olib chaqirganda o‘sha bola «labbay» deb aytmasa, yana o‘z o‘rnida qoladi. O‘yinboshi unga: «5 qadam qurbaqa», desa, bola qurbaqa yurish qilib besh qadam bosadi.

Masalan: O‘yinboshi

— Mastura! 1

— Labbay, 1

— 3 qadam ayiq! 1

— Xo‘sh! 1

Mastura uch qadam ayiqning yurishini qilib, qatordan oldinga siljiydi. O‘yinboshi hammaga shu xilda buyruq beradi. Bolalar qadam tashlayverib o‘yinboshiga yaqinlashadilar. «Labbay», demagan bola o‘z o‘rniga qaytadi. Kim

birinchi bo'lib o'yinboshining oldiga kelsa, o'sha bola onaboshi bo'ladi. O'yin bahor, yoz, kuz fasllarida, qiz va o'g'il bolalar aralash holda o'ynaydilar. Bu yangi o'yin hisoblanadi.

Kelinchak

Bu o'yinni qizlar o'ynaydi. Ular soni qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi. Qizlar doira shaklida o'tirib olgach, o'yinboshi qo'shiq aytib shunday shart qo'yadi:

*Shokir Shokirga ketdi,
Tillo kalishga ketdi.
Tillo kalish kiymayman,
So'pirlatib yurmayman.
O'tirgan qiz, turgan kelin!*

Kim o'rnidan tursa, o'sha «kelinchak» deb ustidan kulinadi. Yana qaytib shu qo'shiqni aytish evaziga o'yin davom ettirilaveradi.

O'n odim

O'rtada diametri ikki metrcha hajmdagi doira shakli chiziladi. Sanama aytib navbatda qoluvchi aniqlanadi:

*Ko'prikning tagida bir ayiq,
Semichka sotib o'tiribdi.
Semichkaning bahosi
120 so'm!*

Yoki:

*1, 2, 3, 4... 10...
O'nim — o'n, Telefo'n,
Telefo'nning bahosi
120 so'm!*

Galda qolgan bola o'yinboshi sanalib, doiradan o'n odim narida turganlarga: «Doiraga kir!» — deb buyruq beradi. Bolalar shu zahoti doira ichiga kirishlari shart. Kim kechiksa, o'sha yutqizgan sanaladi.

O'yinda besh-oltita bola qatnashadi, tashqarida — keng maydonda o'ynaladi. O'yin bolalardan epchillikni talab etadi.

Qovun palak

O'yinga ikki, to'rt va undan ortiq juft miqdordagi o'g'il bolalar qatnashadi. Ular cheklashib, ikki tarafga bo'linishadi.

O'ynash uchun tuproqli tom tanlanadi. O'yin yashirilgan narsa yoki to-pishmoqlarni topgan taraf boshlab beradi.

Galni olgan taraf bo'yiga qarab qator turadi. Raqib taraf ham bo'yiga qarab qorni bilan cho'zilib yotadi, har birining oralig'i bir metrcha bo'lishi shart. Shunda boshlovchi taraf yotganlar ustidan sakrab o'tadi. Oyoqlari tegmay sakrab o'tishsa, yotganlar qo'llarini yerga tirab, tizza bo'yi cho'kkalab turishadi. Bunda endi «kozyol»dan sakraganday, ular ustiga qo'lni qo'yib, oyoqlarni kerib sakrab o'tish zarur. Yana oyoqlari tegmay sakrab o'tishsa, cho'kkalanganlar endi tizzalarini bukmay to'nqayishib, qo'llarini yerga tirab turadilar. Boshlovchi taraf bu to'siqdan ham muvaffaqiyatli o'tsa, qo'llari bilan to'piqlarini, oxiri biqinlarini ushlab, boshlarini sal egib turadi. Bordi-yu, sakraganda yiqilishsa, o'sha zahoti o'rinlar almashtirilgan holda o'yin qayta boshlanadi.

Bunda ikki holatni esda tutish shart: sakrayotganlar yiqilishi yoki cho'kkalagan (to'nqaygan)larning bosilishi. Sakrayotganlar yiqilishsa — yotish gali ularniki bo'ladi, cho'kkalagan (to'nqaygan)lar bosilishsa — yotish gali ularniki bo'lib, o'yin qayta boshlanadi. O'yin, asosan, bahorda ko'p o'ynaladi. Bu o'yindan maqsad — tomni tepib pishitish.

Elak-elak, charxi palak

Bu o'yinda o'g'il va qiz bolalar aralash ishtirok etadilar. Unda qatnashuvchilar bir joyga to'planishadi. Bir bola kaftini ochib turadi, hamma bolalar shu bolaning kaftiga bir barmog'ini qo'yib turadi. Haligi bola: «Elak-elak, charxi palak», — deb kaftini yumadi. Qaysi bolaning barmog'ini ilintirsa — o'sha bola boshqalarni quvlab tutishi kerak. U hammasini tutgandan keyin o'yin yana shu xilda takrorlanaveradi.

O'yin bahor, yoz fasllarida o'ynaladi. Bolalarni chaqqonlikka, ziyoratlikka o'rgatishda o'yinning ahamiyati katta. Uni sakkiz-o'nta bo'lib o'ynaydilar.

O'rta qo'l topishmachoq

O'yin ikki va undan ortiq o'g'il va qiz bolalar aralashiga, asosan, qishda o'ynaladi.

Bunda o'yinchilar o'ng qo'l barmoqlarini bir joyga juftlab, chap qo'llari bilan uni ushlab berkitishadi. Hatto tirnoqlari ham ko'rinmasligiga erishishlari lozim. Faqat barmoqlarining uchigina ko'rinishi mumkin.

Barmoqlarini shu xilda yashirgan o'yinchi sherigiga:

— Oʻrta qoʻlimni top-chi? — deya qoʻlini koʻrsatadi. Topolmay adashsa, qoʻlini yashirgan topolmaganning oʻng qoʻlini ushlab:

— Kimnikiga tushding? — deydi.

— Qozinikiga, — javob beradi u.

— Qozi nima berdi?

— Qozi qarta berdi.

— Qartani Ahmadga (oʻtirganlardan birini koʻrsatib) berdim.

— Ahmad, qancha non yopding?

— Bitta, ikkita... oʻn beshta non yopdim.

Ahadning javobiga qarab yutqizgan bola qoʻliga shuncha marta chertiladi. Qoʻlni topsa — uni topgan qoʻlini berkitgan oʻyinchiga shu savollarni berib, belgilangan miqdorda uning qoʻliga chertadi. Oʻyin shu xilda davom ettirilaveradi.

Barmogʻingni top!

Bu oʻyinda ikki-uchta bola ishtirok etadi. Bir bola qoʻlini barmoqlarini ikkinchi qoʻl orasiga olib, faqat ustalik bilan ularning uchini koʻrsatib, qolgan barmoqlarini yashirgan holatda tutadi. Toparmon yanglishib uning boshqa barmogʻini tutib koʻrsatib aldanib qoladi. Topa olsa — yashirish galini oʻzi oladi: topa olmasa — yana yashirish gali avvalgi bolada qolaveradi. Shu tariqa oʻyin davom etaveradi.

Aboʻlakam-dubulakam

Bu oʻyin qish faslida uyda, sandal (tancha) atrofida oʻynalgan. Olti-yettita bola bittadan qoʻlini sandal ustiga qoʻyadi. Kimning qoʻli kichkina boʻlsa, oʻsha oʻrtadagi qoʻllarni sanay boshlaydi:

*Aboʻlakam-dubulakam,
Pista chaqar shu qoʻlakam.
Poʻchogʻi soʻkilmasin,
Tort, qoʻling ezilmasin! —*

deyishi bilan hamma qoʻlini tortib olishi kerak. Sanovchi kimning qoʻlini tutib qolsa, oʻsha bola ertak, topishmoq, qoʻshiq yoki sheʼr aytib berishi kerak. Oʻyin shu tarzda davom etadi.

«Kim gʻolib?»

Oʻyinda yigirmata bola qatnashadi. Oʻttizgacha sanaguncha 200 metr masofaga ikkita bola yugurib borib kelishi kerak. Belgilangan vaqt ichida borib kelgan bola gʻolib sanaladi.

Oʻyin shu tarzda davom etadi.

To'rtburchak yoki to'rt muyush

«Muyush» dialektal soʻz boʻlib, adabiy tilda burchakdir. Oʻyinga qiz va oʻgʻil bolalar aralash holda qatnashadi. Bu oʻyin toʻrtburchak bor joyda — yangi qurilayotgan uylarning ichida oʻynaladi.

Oʻyinda beshta bola qatnashadi, ular toʻrtburchakning oʻrtasida turadilar. Beshovlarining ichidan xohlagan birisini buyruq beruvchi qilib belgilashadi. Buyruq beruvchi: «Burchaklar egallansin!» — deydi. Bolalar burchaklarga qarab yugurishadi. Toʻrttasi burchaklarni egallaydi. Biriga burchak yetmaganligidan uni egalay olmay qoladi. Burchak egallagan bolalar esa bir-birlari bilan oʻrin almashadilar. Oʻrin almashish paytida burchak ololmagan bola gʻoyat hushyor turishi kerak. Oʻrin almashish paytida kim ulgurolmay qolsa, u chaqqonlik bilan oʻsha burchakni egallab olishga oshiqadi... Oʻyin shu xilda davom etaveradi. Bolalarni hushyor va chaqqon, ziyrak qilib tarbiyalashda bu oʻyinining ahamiyati katta.

Yulduz

Oʻyinda oltita bola ishtirok etadi. Bu oʻyin besh qirrali yulduz shaklida oʻynaladi: besh burchakda bittadan bola turadi, oltinchisi markazda. Markazdagi bola atrofdagi bironta bolaning oʻrniga borib turadi. Nomi aytilgan bola esa markazga qarab yurishi kerak. Kim oldin borsa, oʻsha yutgan boʻladi va oʻyinga boshchilik qiladi. Yetib kelolmagan oʻyindan chiqadi, oʻyinga boshqa bola kiradi.

Mushuk

Oʻyinda besh kishi qatnashadi. Xonaning toʻrt burchagida toʻrt bola turadi. Beshinchisi — «mushuk» deyiladi va oʻrtada turadi. Burchakdagilar joylarini almashtiradilar. Shu payt «mushuk» bironta burchakni egallab olishga harakat qiladi. Burchakni qoʻldan bergan bola «mushuk» boʻlib oʻrtaga tushadi.

Ostini olma, ustini ol

Oʻyin qoidasi boʻyicha besh-oltita bola oʻtirib, qoʻllarini bir-birining ustiga qoʻyadilar. Oʻyimboshi:

— Ostini olma, ustini ol! — deyishi bilan hamma qoʻlini tortib oladi. Kech qolgan bolani «eshak» qilib minadilar.

Oʻyin bolalardan chaqqonlikni, sergaklikni talab qiladi. Oʻyinda asosan oʻgʻil bolalar qatnashadi. Oʻyin ochiq havoda soya-salqinda, qish faslida esa uyda oʻynalishi mumkin.

Jon berdik

O'yinda bolalar ikki guruhga bo'linadilar. Bir guruhi qochadi, ikkinchisi quvadi. Agar birinchi guruhdan birorta bola tutilsa — u o'yindan chiqmaydi, balki o'z sherigidan «jon» olishga harakat qiladi, ya'ni o'z sherigining qo'lidan ishlasa — «jon» olgan sanaladi. Ikkinchi guruhdagi bolalar esa «jon» oldirmaslikka harakat qiladilar. Hamma tutulgandan keyin ikkinchi guruhdagilar qochishadi. O'yin shunday davom etaveradi. O'yin ochiq havoda, bahor, yoz oylarida o'ynaladi.

Tufli-tufli

O'yinda olti-yetti bola qatnashadi. Sanama aytib, o'yinboshi aniqlanadi. O'yinboshi bolalardan uzoqda turadi. Bolalar bir-birlariga narsalarning nomini aytadilar. O'yinboshi yaqin kelib, ularga savol beradi. Agar bolaning javobi savolga to'g'ri kelmasa, tufisini yechtirib oladi. Hammaning tufisi yechilgandan so'ng tufilarni olishadi. Kimning ikki oyog'idagi tufli to'g'ri kelsa. o'sha bola navbatdagi o'yinning boshlovchisi bo'ladi. Tufilar egalariga qaytariladi. Har gal o'yin shu taxlitda davom etadi. O'yin bahor, yoz faslida o'ynaladi. Bu yangi o'yin hisoblanadi.

«Kun» va «tun»

Bolalar bo'y-bo'ylariga qarab, juft bo'lib turadilar. Bir, ikki hisobi bilan ikki guruhga ajraladilar. Guruhlarning biri — «Kun», ikkinchisi — «Tun» deb nomlanadi. Bolalar tomonidan bir bola guruhlar onaboshisi qilib saylanadi. Guruhlar ajratilgan chiziqdan 2 metr masofada bir-biriga qarama-qarshi turadilar. Har ikkala guruh ma'lum bir joyni o'z uyi qilib oladi. Onaboshi guruhlardan birining nomini aytadi. Nomi aytilgan guruh shu lahzada tezlik bilan o'z uylari tomon qochishlari zarur. Keyingi guruh esa ularni tutishga harakat qiladi. Qaysi guruh ko'p «asir» olsa — o'sha tomon g'olib hisoblanadi.

O'yin ochiq havoda, kuzning issiq kunlarida o'ynaladi.

* * *

Boshqa bir turida esa sakkiz yoki o'nta bola chizilgan to'g'ri chiziqning ikki tomonida bir-biriga teskari turib olishadi. Chiziqning bir tomoniga — «Kun», ikkinchi tomoniga — «Tun» deb nom beriladi. Bolalardan biri qay bir tomonning nomini hayqirib aytadi. Shu zahoti o'sha tomon bolalari oldinga qarab qochishadi. Nomi aytilmagan tomondagilar esa tezda orqalariga o'girilib, o'sha qochayotgan bolalarni quvishlari kerak. Quvganlar qochganlarni ushbu marragacha keltira olishsa yoki qochganlar tutqich berishmasa, bunda qaysi tomon a'zolaridan ko'proq quvib tutilsa yoki ko'proq tutqich berishmasa, o'sha taraf yutgan hisoblanadi.

Kunduz-kecha

O'yinda o'n-o'n ikki yoshli bolalar qatnashadi. Bola nechta bo'lsa hammasi qator tizilib: — 1, 2, 3... deb sanaydilar. Toq sondagilar — bir tomonga, juft sondagilar — ikkinchi tomonga o'tadilar. Bolalardan eng bo'yi balandi boshqaruvchi bo'ladi. O'yin boshlanganda bolalar ikki joy da to'g'ri burchak hosil qilib turishlari kerak. Boshqaruvchi: «Kunduz», deyishi bilan har ikkala tomon a'zolari yugurib borib o'z o'rinlarini almashtiradilar, ya'ni avvalgidek burchak hosil qilib turishlari kerak. O'rinlar almashtirilib, burchak hosil qilgan paytda oralari ochilib qolsa yoki egri-bugri burchak hosil bo'lsa, bunga yo'l qo'ygan tomon yutqizgan hisoblanadi.

O'yin boshqaruvchi «Kecha», desa, har ikkala tomon ham o'rnidan jilmasligi kerak. Ba'zilar «Kecha» deganda ham yugurib ketishlari mumkin. Bunda ular yutqazgan sanaladi. O'yin hushyorlikni talab qiladi va asosan, yoz faslida o'ynaladi.

Ajina-bajina

Bu o'yinda sakkiz-o'nta qiz bola to'planib bittadan oyog'ini o'rtaga qo'yadi. Bir, ikki, uch deyilishi bilan hamma oyog'ini tortib olishi shart. Kim orqada qolsa — o'sha «ajina» bo'lib yerga o'tiradi, qolganlar esa uning atrofida aylanib:

*Ajina, bajina, kakona,
Sochi yuluq janona.
O'g'ling otini Eshmat qo'y.
Mulla kelib o'qisin,
Chumchuq kelib cho'qisin! —*

deyishlari bilanoq «ajina» ularni quvib ketadi. Kimni tutsa — o'sha o'rtaga tushib «ajina» bo'ladi. Aks holda yana o'zi «ajina» bo'lib qolaveradi. O'yin shu zaylda to'qizlar zerikkuncha bir necha marta takrorlanadi. U, asosan, bahor, yoz, kuz fasllarida ko'chada o'ynaladi.

Bo'rivoy va g'ozlar

Bu o'yinda oltita bola qatnashadi. Ulardan eng kattasi — «Bo'rivoy» (o'g'il bola bo'lishi kerak), undan sal kichikrog'i — «Katta g'oz», qolganlari — «g'ozchalar» bo'ladi. Yerga doira shakli chiziladi. Shu doiraning ichida «g'ozchalar» turadi. 18–20 metr uzoqlikda «Katta g'oz»ning doirasi chiziladi, unda «Katta g'oz» turadi. Ikki doira oralig'ida «Bo'rivoy» yuradi. «Katta g'oz» o'z doirasidan turib shunday deydi:

*Katta g'oz: — G'ozchalar, g'ozchalar!
G'ozchalar: — G'a-g'a-g'a-g'a!
Katta g'oz: — Kelinglar!
G'ozchalar: — Qo'rqamiz.*

Katta g'oz: — Nimadan?

G'ozchalar: — Bo'ridan.

Katta g'oz: — Uchib-uchib kelinglar?

«G'ozchalar» qo'llarini qanotdek silkitib «Katta g'oz»ning doirasi tomon yugurishadi. «Bo'rivoy» ularni quvib, bittasini tutib oladi va o'zining doirasiga «qamab» qo'yadi. «G'ozchalar»ning qolgani yana o'z doirasiga ketadilar. «Katta g'oz» ularni yana chaqiradi, yana yuqoridagidek hol takrorlanadi. O'yin to bitta «G'ozcha» qolguncha davom etadi. Oxirida «Bo'rivoy» tutolmay qolgan «G'ozcha» g'olib hisoblanadi. Bu o'yin bahor, yoz, kuz fasllarida ko'chada va hovlida o'ynaladi.

Tarvuz-tarvuz

Bu o'yinda qiz va o'g'il bolalar aralash qatnashadilar. Bir bola — magazinch, boshqa birov — o'g'ri bo'ladi. Qolganlari «tarvuz» bo'ladi. O'g'ri tarvuz olgani keladi, magazinchini aldab, boshqa bir magazinga jo'natadi. So'ngra o'zi «tarvuz»larni olib qochadi. Magazinch qaytib kelib qarasa, «tarvuz»lar yo'q. O'g'rini izlashga tushadi. O'g'rini ushlab keladi. «Tarvuz»larni ham olib kelgin, deb ozod qiladi. O'g'ri jazo sifatida «tarvuz»larni ko'tarib kelishi lozim.

O'yin shu taxlitda davom etadi. O'yinboshi sanama yordamida aniqlanadi. O'yin bahor, yoz, kuz fasllarida o'ynaladi.

Hakka-jukka

Bu o'yinni kopro'q qizlar o'ynaydi. Ikki qiz bir-birlariga orqa o'girilgan holda ikkala qo'lini bir-birlarining qo'ltiqlari ostidan o'tkazib, mahkam ushlaydi. So'ngra galma-gal biri ikkinchisini ko'tarib: «Hakka-jukka», deydi.

O'yinning ikkinchi turida birini ikkinchisi ko'tarib tushirishi tubandagi dialog asosida bo'ladi:

Ko'tarib turgani: — Osmonda nima (nuvvi) bor?

Ko'tarilgani: — Oy.

Ko'tarib turgani: — Yerda nuvvi bor?

Ko'tarilgani: — Choy.

Ko'tarib turgani: — Choyni nimaga solib ichding?

Ko'tarilgani: — Choynakdan piyolaga.

Ko'tarib turgani: — Choy bilan nechta non yeding?

Ko'tarilgani: — O'nta.

Shundan keyin uni o'n qadamga ko'tarib borishi va yerga tushirishi lozim. So'ngra almashinadilar. O'yin shu tarzda davom etadi va bolalarni jismonan chiqirtiradi.

Qarsak

O'yinda sakkizta qiz qator tizilib turadi. Ular «lilicha, lolacha», «lolacha, lili-cha», deb cheklashishadi. «Lilicha» deganlar — bir tomon, «lolacha» deganlar — ikkinchi tomonga ajraladilar. O'rta chiziqli chiziladi. Taraflar chiziqning ikki tomonga bir-biriga qarab yaqin o'tiradilar. Har kim o'z qarshisidagining kaftiga urib, qarsak chalib, shunday kuylay boshlaydi:

*Qarsagim qarsak,
Bog'larga borsak,
O'ynasak, kulsak,
Taq-tuq,
Tasadduq!*

«Tasadduq!» deyilishi bilanoq hamma qo'lini ko'tarib ro'parasidagiga boshini qimirlatmay, kiprik qoqmay qarab turishi kerak. Agar qaysi tarafning a'zosi kiprik qoqsa yoki kulib yuborsa, o'sha taraf yutqizgan hisoblanadi. Yutqizgan taraf har bir a'zosi she'r aytishi yoki qo'shiq kuylashi, yoki o'ynab berishi shart.

O'yin yilning deyarli barcha fasllarida uyda, hovlida va ko'chada o'ynalishi mumkin.

Jo'ravoy-jo'ppi

Bu o'yinda bolalar aylana bo'lib tizilishadi. O'rta bir bola chiqib, ko'rsatkich barmog'i bilan:

*Jo'ravoy-jo'ppi, 1,
Jo'ravoy-jo'ppi, 2,
Jo'ravoy-jo'ppi, 3. —*

deydi. «Uch», deyishi bilan bolalar har tomonga yugurib ketishadi. O'rtadagi bola «Bir, ikki, uch», deya yana sanay boshlaydi. «Uch» sanog'i aytilishi bilan bolalar to'xtashadi. Keyin o'zi bilan yugurib ketgan bolalar o'rtasidagi oraliqni qadamlab o'laydi. Kim ko'p yugurgan bo'lsa, o'sha g'olib deb e'lon qilinadi. G'olib bola o'rta chiqadi va o'yinboshilik qiladi. O'yin shu tariqa davom etadi.

«Kim bu?»

Bu o'yinda katta doira chiziladi. Doira ichida bolalar paydo bo'lib, aylana boshlaydi. O'yinchilarning eng bo'yi pastini doira ichiga qo'yadilar. U hamma bolalarni yaxshilab ko'rib olishi kerak. Keyin uning ko'zini bog'lashadi. U ko'zi bog'liq holda doira ichidagi bolalardan birini ushlab, kim ekanligini aytishi kerak; to'g'ri topsa — topilgan bolaning ko'zi bog'lanadi, topolmasa — yana o'zi qoladi. O'yinni hamma fasllarda o'ynash mumkin.

Mehmonmisiz?

Bu o'yinda ikkita qiz bola qatnashadi. Ulardan bittasi ikkita qo'lining kaftini ochib, o'rtog'iga uzatib turadi, ikkinchisi esa:

*Tog'da lola,
Bir qiz bola,
Ko'chaga chiqing,
Bir qiz kelyapti,
Sochi mayda,
Qo'li belda.
Voy qo'lim-ey, voy belim-ey,
Omonmisiz, esonmisiz,
Bugun bizga mehmonmisiz?*

deya uning qo'liga urib qochadi. O'rtog'i uni quvib tutib olsa (belgilangan maraga yetguncha), yuqoridagi qo'shiqni aytadi, tutilgan qiz esa qo'lini ochib tutib turadi. Bu o'yin yoz oylarida ko'chada va hovlida o'ynaladi.

To'y-to'y

Bu o'yinda o'g'il va qiz bolalar to'planib, qizchalardan biri «kelin», o'g'il bolalardan biri esa «kuyov» bo'lgan. «Kelin» boshiga ro'mol tashlab, ona yoki buvilarining birorta uzunroq kamzulini paranji qilib yopinib olgan. «Kuyov»ning boshiga esa salla o'ralgan. Biror devorning burchagiga kattaroq eski sholni «chimildiq» qilib osib qo'yganlar. So'ngra bolalar to'planib «kelin-kuyov»ni bittabitta «chimildiq»qa o'zlaricha «salomnoma» aytib kiritganlar. «Kelin-kuyov» «chimildiq»qa kirib o'tirgach, «chimildiq»ni ko'tarib qo'yib, o'zlari o'yin-kulgi qilganlar. Navbat bilan qo'shiq aytib o'ynaganlar.

Bola-bola

Bu o'yinda to'rt-beshta o'g'il va qiz bola to'planishgach, o'zlaricha lattalarni o'rab o'zlariga «bola» yasaganlar. Bittalari «bola»ning onasi, bittalari otasi, bittalari — buvisi bolib, uni ota-onalariga taqlid qilgan holda goh yo'rgaklab, goh ko'tarib, goh alla aytib uxlatib o'ynab o'tirganlar.

Do'kon-do'kon

Bu o'yinda to'rt-beshta bola to'planib avval, «do'kon» yasaganlar. Taxtalar-dan uycha yasab, xuddi magazinga o'xshatib «peshtaxta» yasaganlar. «Peshtaxta» ustiga hamma narsani to'plaganlar. Masalan: tosh, kesak, siniq piyola, shisha

parchasi, temir, qum, lattalar, boringki, qo'llariga tushgan keraksiz narsalarni to'plaganlar. Endi bolalar navbat bilan sotuvchilik qilganlar. Qolganlar esa xaridorlar bo'lib, do'kondan qog'oz parchalarini pul sifatida ishlatib, to peshtaxta ustidagi ashqol-dashqollar tugaguncha xarid qilib ketaverganlar. Do'konning mol-lari tugagach, bolalar yana olib ketgan narsalarini do'konga topshirib sotuvchini almashtirganlar. O'yin shu xilda davom etgan.

Do'konchi

O'yinga qatnashuvchi bolalardan biri do'konchi bo'lgan. Qolganlari o'yinchoq va unga xaridorlar bo'lishadi. Bir xaridor o'yinchoq sotib olgani keladi. Xaridor sotuvchidan qo'g'irchoqning narxini so'raydi. Sotuvchi necha so'm desa, shuncha kaftiga uradi. Bu orada qo'g'irchoq qochadi. Xaridor uni tutadi. O'yin shunday davom etaveradi. Bolalar soni cheklanmagan bo'ladi.

Quyoniimni sotaman

O'yinning borishi: o'yinda yetti-sakkizta bola ishtirok etadi. Qiz va o'g'il bolalar aralash qatnashadilar. Bular soni toq bo'lishi kerak, uchta bola quyon bo'ladi. Har quyonga bitta sotuvchi bo'ladi, bir bola esa xaridor bo'ladi. Xaridor quyonlarning bahosini so'raydi. Ma'lum masofada tayoqcha qo'yilgan bo'ladi. Sotuvchi bir so'm degan zahoti xaridor sotuvchi qo'liga bir, ikki, uch, to'rt deb sanab urishi kerak. Shunda ikkalasi ham birdan yugurib, tayoqcha atrofidan «bir so'm» degancha gir aylanib quyonchani olishlari kerak. Qay biri uni ololsa — quyoncha o'shaniki bo'ladi. Ololmagan bola ikkinchi sotuvchi yoniga boradi. O'yin shunday davom etadi.

O'yin to'rt faslda ham o'ynaladi. Qish havosi yaxshi bo'lgan, yog'ingarchilik bo'lmagan paytlarda o'ynaladi.

Doktor-doktor

Bu o'yinda bolalar olti-yettita bo'lib to'planishgach, birgalikda «doktorxona» yasaganlar. So'ngra bittasi — «doktor», qolganlari — «kasal» bo'lib o'yinni boshlashgan. Yashikdan «doktor stoli» sifatida foydalanib, ustiga har xil «dorilar»ni: kesakchalar, toshchalar qog'ozga o'rab-o'rab qumni terib qo'yanlar. Bir qarich uzunlikdagi uchi mayin cho'pcha «doktor»ning ukoli bo'lgan. «Kasallar» navbat bilan «doktor» huzuriga kirib, «doktor» so'ragach, o'zining «kasalini» aytadi. «Doktor» esa «kasal»dan nima yeganini, ichganini, nima ish qilganini so'rab, ukol qilib, «stol» ustidagi dorilardan «ichasiz» deb berib yuboradi. «Doktor» kasallarni ko'rikdan o'tkazib bo'lgach, boshqa bola «doktor»lik galini olgan. Shunday qilib o'yin davom etgan.

Qiziq aytishmalar

Bu o'yinda bola soni cheklanmaydi, qancha bo'lsa, shunchasi o'ynayveradi. Bir bola o'yinni boshlab beradi. O'yinchilar bir tomonga qator bo'lib turadilar. O'yinni boshlab beruvchi ularning gaplarini eshitmay turadi. Bolalar o'zlariga har xil nomlar qo'yadilar. Masalan: eshak, sichqon, maymun, olma, hokazo. O'yinboshlovchi kelib ularning birinchisidan: «Sen bugun nima yeding?» deb so'raydi. U: «Sichqon», — deydi. Bu bilan u o'ziga qo'ygan nomni aytgan bo'ladi. Bolalar kulib yuboradilar, ikkinchi bolaga: «Sening o'rtog'ing kim?» — desa, u: «Maymun», — deydi. Uchinchi bolaga: «Nima yeding?» — desa, u: «olma», — deydi. Umuman, qaysi bola mazmunli gap aytsa yoki savollarga to'g'ri, mantiqli javob bersa, o'sha g'olib hisoblanadi va u o'yinboshlovchi bilan o'rin almashadi. Bu o'yin yozning salqin paytlarida o'ynaladi.

Davom ettir...

Bu o'yin, asosan, maktab o'quvchilari tomonidan o'ynaladi. O'yinda o'n-o'n beshta bola qatnashadi. Ular o'rtaga chiqib davra bo'lib turadilar. Davradagi bolalardan biri o'yinni boshlaydi. U biror qoida yoki maqolning yarimini aytib, yonidagi bolaga: «Davom ettir», — deydi. Bordi-yu, u bola o'sha qoida yoki maqolning davomini aytolmasa — o'yindan chiqadi, davom ettira olsa, u ham biror-bir qoida yoki maqolni aytib, o'yinni davom ettirishi mumkin. Eng oxirida hamma shartlarni bajargan bola g'olib bo'ladi.

Kim ko'p biladi?

O'yinda o'n-o'n ikkita bola qatnashadi. Ular doira hosil qilib o'tiradilar. Bi-rovi oldindan bir nechta qushlarning patini olib kelgan bo'ladi. U shu patlarni bolalarga ko'rsatib: «Bu nimaning pati?» — deya so'raydi. Javobda bolalar bir qush nomini ikki marta takrorlamasliklari kerak. Bir bola aytganini ikkinchisi takrorlasa — u jazolanadi. O'yinboshi istagiga ko'ra u yo she'r aytilishi, qo'shiq kuy-lashi yoki o'ynab berishi shart. Kim to'g'ri topsa va ko'p bilsa, o'sha «bilag'on» sanaladi. Bu o'yinni hamma faslda hovlida, ko'chada va xohlagan joyda o'ynasa bo'ladi.

Karnaymi, surnay?

Bu o'yinga nechta bola to'plansa, hammasi qatnashaveradi. Ayniqsa, yosh bolalar ko'p bo'lgani va ishtirok etgani yaxshi. Bolalar doira bo'lib, qo'l ushlab, biror she'rnimi yoki ashulanimi ayta turib aylanishlari asosida boshlanadi. Nogoh o'yinboshi: «Karnaymi, surnay?» deb luqma tashlaydi. Bolalar darhol aylanishdan

to‘xtab, qo‘lma-qo‘l ushlaganlari bilan o‘zaro tortisha boshlaydilar. Tortishuv birlarining qo‘llaridan chiqib ketgunlarigacha davom etadi. Sherigi qo‘lini qo‘yib yuborgan bolalar doira o‘rtasiga o‘tirib turadi. O‘yin o‘rtaga o‘tirgan bolalar doiraga sig‘may qolguncha davom etadi. Eng oxirida davraga sig‘may qolgan bola bitta o‘ynab yoki qo‘shiq aytib, barcha tutqunlarni ozod qiladi. So‘ng o‘yin qayta boshlanadi.

Chichi-chichi

O‘yinda to‘rt-beshta bola qatnashadi. Quyidagi sanama yordamida o‘yinboshi aniqlanadi:

*Laylak uchdi,
Tuxum qo‘ydi,
Nechta?
1, 2, 3, 4, 5, 6, 7...
Ketdi!*

So‘nggi so‘z kimga tushsa, o‘sha o‘yinboshi bo‘ladi. O‘yinboshi biror bola ismining bosh harfini aytadi. O‘tirganlardan biri o‘sha ismni topadi. O‘yinboshi esa ismni topganga «To‘xta», degancha, ismni topgan bola chopadi. Shunda bola chopib o‘tgan masofasining necha qadamligini aytib, o‘yinboshi tomon yuradi. Aytgani to‘g‘ri chiqsa o‘yinni o‘sha bola davom ettiradi. Bu o‘yin «shahar-shahar» o‘yiniga o‘xshab ketadi. Bunday o‘yinlarda qiz va o‘g‘il bolalar aralash o‘ynayveradilar. Bu o‘yin yilning to‘rt faslida ham o‘ynaladi.

Davom et

Bu o‘yinga besh-o‘nta bola qatnashadi. Bolalar davra bo‘lib turadilar. Davradagi bolalardan biri o‘yinni boshlaydi. U biror she‘rning yarmini aytib, yonida turgan bolaga: «Davom et!» deydi. Shu bola she‘rning qolgan qismini aytolmasa, o‘yindan chiqadi, davom ettirsa — unga she‘r aytish huquqi beriladi. Shu tariqa bilganlar davrada qolib, bilmaganlar davradan chiqariladi. Davrada qolgan bolalar qaytadan o‘yinni boshlaydilar. Oxirida bir bola o‘yin g‘olibi bo‘lishi kerak.

Kim birinchi topadi?

Bu o‘yinda qancha bola bo‘lsa ham o‘ynayveradi. Bir bola biron narsaning birinchi harfi bilan oxirgi harfini aytadi. Masalan, «daraxt»ni «d-t» deb ketadi. Qolgan bolalar nima ekanligini topishi kerak. Birinchi bo‘lib so‘zni topgan bola g‘olib chiqadi va u o‘yinni davom ettirish navbatini oladi.

«Som-som»

Ikkita qiz va ikkita o'g'il bola qatnashadi. Qizlar — bir tomonga, o'g'il bolalar — ikkinchi tomonga bo'linadilar. Birinchi tomon sherigining qulog'iga birdan o'ngacha bo'lgan sonlardan birontasini aytadi. Ikkinchi tomondagilar uni to'g'ri topib aytishi kerak. Topgan bola sherigining qulog'iga biror kiyimning nomini aytadi. Aytgan bola g'olib chiqadi. Keyin yana sheriklar almashtiriladi, o'yin yana davom etadi.

Nuqta-vergul

O'yinda o'n yoki undan ortiq bola qatnashadi. Ular o'zlariga o'yinboshi saylash uchun quyidagi sanamani aytadi:

*Bozor bordim, ot oldim,
Otinga qamchi oldim.
Ra'no degan qizchadan
Yetti metr ip oldim:
Bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti...
Ketdi!*

«Ketdi» so'zi tushgan bola o'yinboshi bo'ladi. U yerga katta doira chizadi. Qolgan bolalar shu doira ichida aylanib (yurib, yugurib, o'ynab, ishqilib, biror harakatni bajarib) turishadi. O'yinboshi ularga «nuqta», deyishi bilan hamma-lari o'z joylarida qotib qolishlari, «vergul», desa, yana harakatga kelishlari shart. O'yinboshi bu so'zlarni tez-tez takrorlay boshlaydi. Har gal «nuqta» deganda birdan to'xtay bilmagan yoki «vergul» deganda qimirlab ulgurmagan bola o'yindan chiqadi. O'yin to aylana ichida ikkita bola qolgunga qadar davom etadi. Bolalar xohlasa yana qaytadan o'yinni boshlashlari mumkin. «Nuqta-vergul» o'yini kuz, bahor, yoz fasllarida ko'chada o'ynaladi. Unda qiz bolalar ham, o'g'il bolalar ham ishtirok etishi mumkin.

«Zina, mina, stop!»

Bolalar qo'l ushlab aylanadi. Shu payt bittasi «Zina, mina, stop!» — deydi. Hamma turgan joyida qotib qolishi kerak. Kim qimirlab ketsa, o'sha bola yutqizgan bo'ladi. U shartga muvofiq biror yumushni bajaradi. O'yin yana davom etadi.

Quyon inga kirolmadi

Bu o'yinni maktabda o'ynash mumkin. O'yinda o'ttiz bitta bola qatnashadi. Ulardan yigirmatasi ikkitadan bo'lib qo'l ushlab, davra shaklida in bo'lib tura-di. Qolgan o'n bitta bola davraning ichiga kiradi. Hakam hushtak chaladi. (Hakam

o‘yinchilar safiga qo‘shilmaydi.) Bolalar hushtak chalinishi bilan inlariga kiradilar, inga kira olmagan quyon ashula aytadi yoki o‘ynab beradi.

Bu o‘yin kichik yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan. O‘yin hamma fasllarda o‘ynaladi.

Tuta-tut

O‘yinga to‘rt-beshta bola qatnashadi. Biri chiqib:

— *Ikki baliq suv ichdi,
Qolganini kim ichdi?
Angi, pangi, piq,
San chiq! —*

deydi. «Chiq!» so‘zi kimga tushsa — o‘sha chiqaveradi. Oxirida bir bola qoladi. Qolganlari yashirinadi. U qidirib topishi kerak. Kimni birinchi bo‘lib topsa, o‘sha bola qolganlarni topishga kirishadi. O‘yin shu yo‘sinda bolalar charchagunlaricha davom etadi.

Almoyi-aljoyi yoki suvga cho‘mganni ushlash

Bolalar soni cheklanmagan bu o‘yinda, asosan, o‘g‘il bolalar qatnashadi. Suvga hammadan keyin tushgan bola suvning tagiga g‘oyib bo‘lgan — yashiringan bolalarni axtarib topishi va ushlashi kerak. Bunda suvga avval tushuvchilar:

— Almoyi, — deb sho‘ng‘ib yashirinadilar. Ularni topuvchi esa:

— Aljoyi, — deya ulardan so‘ng suvga tashlaydi o‘zini.

Bordi-yu, bolalar charchab, dam olishni istashsa, u holda suvdan chiqishdan oldin:

— Tilimga igna! — deydi. Shu so‘zdan so‘ng u o‘yindan tashqari holatda sanaladi.

O‘yin shu xilda bolalar istaguncha davom ettiriladi. U bolalarni dadil, bardoshli, hushyor, epchil va chaqqonlikka o‘rgatadi.

Olma menda...

Bu ham suzish o‘yinlari turiga kiradi. Bir necha bolaning suvga tushishi bilan o‘yin boshlanadi. Ulardan biri: «Olma menda», deya suv tagiga sho‘ng‘ib ketadi. Keyin go‘yo olma qalqiyotganday suvdan faqat boshini chiqarib yuradi. Qolgan bolalar uni tutishga urinadilar.

«Olma menda!» degan bola yana suv ostiga kirib, qochishda davom etadi. Kim oldin haligi bolaning boshiga qo‘l tegizsa, «olma»ni shu olgan hisoblanadi. U bola qochadi. Boshqalar uni tutishga urinadilar.

Bu o'yin yozda o'ynaladi, ishtirokchilari — o'g'il bolalar. Ularning soni besh-ta, ba'zan ko'proq bo'lishi ham mumkin. Bu o'yin azaldan bolalarning sevimli mashg'uloti hisoblanadi. Bolalarni epchillikka, chaqqonlikka, balandlikdan suvga sakrashga, suv tagida uzoq vaqt tura olishga o'rgatadi.

Qoloq

Bu o'yinni hamma bolalar yoz faslida suvda o'ynaydilar. Suvga tushishdan oldin kim orqada qolsa, suvga hammadan keyin tushsa, «qoloq» shu bola bo'ladi.

Suvga tushilgach esa, o'yin tugamasdanoq undan kim birinchi chiqsa, o'sha ham «qoloq» sanaladi.

«Qoloq» bola suvdagi bolalarni quvlab tutishi kerak: tutsa-tutilgan bola «qoloq» bo'ladi va o'yinni davom ettiradi.

O'yin bolalarni tez suzishga va sabr-chidamlilikka o'rgatadi. O'yinga qatnashuvchilar soni cheklanmagan.

Yaxmalak uchish

Yaxmalak uchish qish mavsumida o'ynaladigan o'yin. Yaxmalakni ko'pincha katta yoshdagi bolalar uchishadi. Kichik yoshdagi bolalar yiqilishi mumkin. Bolalikdan o'rganishsa, yiqilmasdan, bemaolol sirpanaveradilar.

Bolalar qishki yaxob suvi berilgan keng dalalarda yaxmalak uchishadi. Ular ikkitadan bo'lib, biri o'tirib ikkinchisini tortadi yoki uchtdan bo'lib, birining qo'llaridan ikkitasi ushlab tortadi. Navbat bilan o'zlari zerikkuncha o'ynashadi. Bundan tashqari har kimning o'zi ham yaxmalak uchishi mumkin.

Yaxmalak uchish qishning gashtidir, bolalar uchun sevimli o'yin mashg'uloti sanaladi. Bolalarning chiniqishlarida, sog'lom o'sishlarida uning ahamiyati katta. O'yinda qizlar va o'g'il bolalar aralashiga qatnashaveradilar.

Chana uchish

Chana uchish ham qishki o'yin turlaridan. Ayniqsa, kichik yoshdagi bolalar uchun bu o'yin qiziqarli va sevimli mashg'ulot. Qor yoqqan paytlarida ular qiya-liklardan zavq-shavq bilan chana uchadilar.

Chanada bolalarni akalari, opalari tortishadi yoki tepaliklarda o'zlari chana uchishsa, uni tortishga hojat qolmaydi.



Qo‘rqmaysanmi?

Ikki bola o‘ynaydigan bu o‘yinda bolalarning biri tik qarashi, ikkinchisi unga:
— Bozor bordingmi? — desa, u:
— Ha! (Yoki «Yo‘q!») — deya javob qaytara beradi... Savol-javob shu zaylda davom etaveradi.

Bo‘rini ko‘rdingmi?
Bo‘ridan qo‘rqib,
Yig‘lab yurdingmi?

Bola shu so‘zlarni aytar ekan, qo‘lini tikilib qarayotgan bola ko‘zi oldida qo‘qib yuboradi. Bola kiprik qoqsa — qo‘rqoq, qoqmasa — botir sanaladi, endi savol berish galini u oladi. O‘yin shu taxlitda davom ettiriladi.

* * *

Yana boshqa bir turi:

Birinchi bola: — Ko‘lga borasanmi? *Ikkinchi bola:* — Ha.
Birinchi bola: — Cho‘lga borasanmi? *Ikkinchi bola:* — Ha.
Birinchi bola: — Bo‘ridan qo‘rqmaysanmi?
Ikkinchi bola: — Yo‘q!
Birinchi bola (ikkinchi bola ko‘ziga qo‘lini o‘qtalib silkitadi:

— Huv...v...puf!

Ikkinchi bola kiprik qoqsa — yutqizgan, qoqmasa — g‘olib sanalib, qo‘rqitish galini oladi.

Ko‘z boylag‘ich

Bu o‘yinda o‘tirgan bolaning orqasidan sezdirmay kelib, uning ikkala ko‘zi shap etib qo‘l kaftlari bilan yopib olinadi. So‘ngra ular o‘rtasida shunday savol-javob bo‘ladi:

— Buvijon, nimangiz yitdi?
— O‘ymog‘im bilan ignam yitdi.
— Bumi?
— Yo‘q!
— Bumi?
— Yo‘q!
— Man oluvdim.

Shu so‘zni ayta turib qo‘lini ko‘zdan oladi.

Bozor-bozor

Bolalar bozordagidek rasta-rasta bo'lib o'tirishadi. Oldilarida loydan, qumdan yasalgan «sabzavotlar», «mevalar», «idishlar» va hokazolar. Bir guruhi xaridor sifatida ular bilan savdolashadi. Bir bola kuzatuvchi bo'lib ushbu bozor manzarasini shunday tasvirlaydi:

— *O'toptilar, ketoptilar,
Sabzi, piyoz oloptilar.
Kattasini sotoptilar,
Maydasini yeyoptilar.*

O'yin shu taxlitda ishtirokchilar zerikkuncha davom ettiriladi.

Gir aylanish

Bu o'yin ham ko'chada, hovlida yo maydonda, asosan yoz va kuzda o'ynaladi.

O'yinchilar tikka turib, qo'llarini yelkalari balandligida uzatib:

— *Atala ichay,
Ko'zguga qaray,
Yiqilmay,*

deya gir aylana boshlaydilar. To boshlari aylanib muvozanatlarini saqlay olmagunlariga qadar gir aylanaveradilar. Kim uzoq muddat aylana olsa — o'sha g'olib sanaladi.

Chap berish

Bolalar keng maydonlarda o'ynaydigan bu o'yinda bir-birlariga tutqich bermaslik uchun chaqqonlik bilan chap berishga harakat qiladilar. Qochag'on bola tutag'onga:

— *Tutma, tutma, tutma,
San mani tutma, tutma.
Orqangdan bo'ri kelsa,
Nonni chaynamay yutma, —*

deya hali u yon, hali bu yon sakrab chap beradi. Tutag'on ham chaqqonlik bilan uni tutolsa, o'rin almashinib, o'yinni yana davom ettiraveradilar. To toliqqunlaricha o'ynaladi.

Sakra-sakra

Bu o'yinda bolalar birin-ketin qator tizilib, oyoq uchida o'tirishadi-da, so'ngra baravariga jo'rovoz bo'lib tubandagi qo'shiqni aytib sakrab-sakrab olg'a intilishadi:

— *Kakra, kakra, kakra, dedim,
Ariqchadan sakra, dedim.
Gulbutaga bog'lar edim,
Dumoqchamni chog'lar edim.
Zebixonim tutdi mani,
Kabob qilib yutdi mani.
Voy-dod,
Echkingni sot!
Sotolmasang, dumidan tort!*

So'nggi so'z aytilishi bilan har kim o'z oldida sakrayotgan bola ko'yligidan tutib tortqilashi va uni sakrayotgan joyida o'tirg'izib qo'yishga ulgurishi kerak. Shunda kim chaqqonlik bilan bunga yo'l bermay o'rnidan tik turolsa — o'sha g'olib sanaladi. O'yin bolalar charchaguncha davom etaveradi.





HARAKATNI NARSALAR ORQALI BOSHQARADIGAN O'YINLAR

Besh tosh

Qadimdan mavjud bo'lgan bu o'yin milliy o'yinlarimizdan biridir. O'yinni qiz bolalar ham, ayrim hollarda o'g'il bolalar ham, goho hatto aralashiga ham o'ynashadi. O'yin uchun beshta toshcha olinadi. Shu boisdan nomi «besh tosh». Xorazmda «chakmanchak» deb ham yuritiladi. Bu o'yinda to'rt-besh bola qatnashishi mumkin. «Birinchii», deb aytgan bola o'yinni boshlaydi. Qolganlari ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi deb sanab, o'z o'rinlarini egallaydilar va navbat kutadilar. O'yin quyidagi tartibda bo'ladi:

- | | |
|------------------------|------------------------|
| 1. <i>Bosh.</i> | 7. <i>Do 'ppos.</i> |
| 2. <i>Qopchiq.</i> | 8. <i>Olma.</i> |
| 3. <i>Bir olar.</i> | 9. <i>Moma.</i> |
| 4. <i>Ikki olar.</i> | 10. <i>Chiq etar.</i> |
| 5. <i>Uch olar.</i> | 11. <i>Chiq etmas.</i> |
| 6. <i>To 'rt olar.</i> | 12. <i>Sandiq.</i> |

BOSH. Besh tosh o'yinida besh dona kichik dumaloq tosh olinadi. Besh toshni kaftga olib hammasini birdan havoga otiladi va beshalasi ham qo'lini orqa tomonida ilinib olinmog'i shart. Beshta toshdan uchta qo'lingiz orqasida ilib olinadi, qolgani yerga tushdi, deylik. Shunda qo'lning orqasida qolgan donalardan bittasini havoga otib, tushguncha yerdagilarni bitta-bitta terib olishga ulgurish lozim. Bunda agar beshta tosh ham havoga otilib, hammasi qo'lning orqasida ushlab olinsa, bir ochko yutgan hisoblanadi.

QOPCHIQ. Bunda beshta toshcha birdaniga havoga otiladi va qo'lini orqa tomoni bilan tutib olinishi kerak. Uchta tosh qo'lning orqasida qolib, ikkitasi yerga tushsa, shu qo'l orqasidagi uchta tosh baravariga havoga otilib, kaft bilan ushlab olinishi kerak. So'ng bir dona toshni havoga otib, yerdagilari bittalab olinadi.

BIR OLAR. Beshta toshni yerga sochib, bittasini osmonga otib, har bir otganda yerdan bittasini terib olish shart. Demak, to'rt marta otib, bitta-bitta terib olinadi.

IKKI OLAR. Ikki olar ham besh toshni yerga tashlab, bittasi qo'lga olinib osmonga otiladi, har otganda yerdagi toshlar juft-juft qilib terib olinadi.

UCH OLAR. Bunda hamma toshlar yerga tashlanib, bittasi osmonga otiladi. Har otilganda, yerdan uchtalab terib olinadi. Uchta olingani uchun uch olar deyiladi.

TO'RT OLAR. Bunda beshta tosh kaftda ushlaniib, bir donasi osmonga otiladi va kaftdagi to'rtta tosh tezlik bilan juft qilib qo'yiladi. Toshcha ikkinchi bor otilib, yerdagi juft toshchalar shiddat bilan qayta terib olinadi. Bunda birorta toshchaniing sachrashiga yo'l qo'yilmaslik lozim. Aks holda yutqazilgan hisoblanadi.

DO'PPOS. Beshala toshni qismda tutib, bittasi osmonga otiladi va to'rttasini yerga juft qilib qo'yiladi. Keyingi galda olingan toshlardan bittasi chetga qo'yiladi, shu taxlitda o'ynab, hammasini olish kerak. Oxirida qolgan toshni havoga otib, qo'lniing kaftini yerga urib, havoga otilgan tosh ushlaniadi.

OLMA. Beshala toshni osmonga otib, qo'lniing orqasi bilan tutib olish kerak. Qo'lniing orqasida uchitasi qolib, ikkitasi yerga tushadi. Qo'lniing orqa tomonida uchta tosh turgani holda yerga tushgan toshlar terib olinadi.

MOMA. Beshala toshcha birvarakayiga yerga sochib tashlanadi. Va o'ynovchiga: «Momangni ko'rsat», — deyiladi. O'ynovchi xohlaganini «moma» deb ko'rsatishi mumkin. Beshala toshni yerdan olib osmonga otilganidan so'ng, bosh barmoq bilan ko'rsatkich barmoqni ishkomb qilib yerga tirab, toshlarni birma-bir ishkomb tagidan o'tkaziladi. «Moma» tosh bir marta urilganda o'tkazilishi kerak.

Lekin shuni unutmaslik kerakki, tosh ishkombdan avvalgi o'tgan toshlarga tegmasligi kerak. Agar tegsa, o'yin kuygan bo'ladi.

CHIO ETAR. Toshchalar yerga sochib tashlanadi. So'ng bittasini olib osmonga otiladi-da, yerdan bittasi olinadi. Hammasi shu tarzda olingach, har gal otilgan tosh yerdan olingan toshga tegib, chiq etib ovoz chiqaradi. Shuning uchun ham bolalar tilida «chiq etar» deb ataladi.

CHIO ETMAS. Bunda ham toshlar sochilib tashlanadi, birin osmonga otib, yana bittasini darhol yerdan olish kerak. Lekin osmondan tushgan tosh qo'lda turgan toshga tegmasligi shart. Toki ovoz chiqmasin. Shuning uchun ham bu «chiq etmas» deyiladi. Yerdagi toshchalarni har gal olganda, har birini alohida-alohida holda barmoq orasiga qistiriladi. Keyin yana toshcha osmonga otilib, barmoqlar orasidagi bittalab urib tushiriladi.

SANDIO. Bunda beshta tosh hovuchga olib osmonga otiladi. Ikki qo'lniing panjalari o'zaro chatishtirilib orqa tomoniga tushgan toshlar tutiladi. Yana osmonga otib, hovuchlarning o'ngida tutib olinadi. Bunda toshchalarni yerga tushirmaslikka harakat qilish kerak.

O'YIN OXIRI. Aytaylik, biror o'yinchi umumiy marrani to'la bajaradi. Shundan keyin u sherigiga bir marta o'ynashga ruxsat beradi. Sherigi shunda ham bajara olmasa, yutgan odam uni «dastyor» qiladi. Dastyorlikning tartibi quyidagicha:

O'yinda g'olib chiqqan bola beshta toshni mag'lub bolaning qo'li orqasiga tirab, unga besh xil nom qo'yadi. Masalan: ketmon, o'roq, childirma, mushtlama va siypalama (ismlar, albatta, mantiqqa ega bo'lishi kerak. Keyin o'sha bola beshta toshni havoga otib hovuchiga tutib oladi. Agar hammasini yerga tushirmay tutib olsa, u dastyorlikdan qutuladi. O'yinni yana boshidan boshlashga to'g'ri keladi. Bordi-yu o'sha bola ikkita toshchani tushirib yuborsa-chi? Chunonchi, ketmon va mushtlama sanog'idagi toshchalar tushsa... G'olib yerdagi toshchalardan birini olib (masalan, ketmonni olgan bo'lsa) uni osmonga otadi-da, tosh tushguncha uning qo'lini urib «ketmonlaydi», mushtlama bo'lsa, bir marta mushtlaydi. Shunday qilib o'yin yakunlanadi.

* * *

Xorazmcha chakmanchak tubandagicha o'ynaladi: to'rtta toshchani yerga qo'yib, bittasi yuqoriga otiladi. U tushguncha yerdagi toshchalar avvaliga bittadan, keyin ikkitadan, so'ngra uchtdan va nihoyat har to'rttalasi tezlik bilan olinmog'i shart. Bu harakatlarning har biri oldidan toshcha yuqoriga otiladi, yerdagilar bilan barobar u ham tushirilmay tutib olinmog'i shart. Beshala toshcha ham shu zaylda qo'lga olingach, bola bir qo'lini yerga qo'yib, ikkinchisi bilan toshchalarni o'sha yerga qo'ygan qo'li ustidan tashlaydi va bitta-bittadan qo'li tagidan o'tkazadi. Keyin barcha toshchalarni ikki qo'li orasiga olib, orqasiga sochadi-da, qayta tutib oladi. Shunda qo'lida nechta toshcha qolgani hisobga olinadi. Qo'lida toshcha qolmasa o'yinni ikkinchisi davom ettiradi. Eng oxirida kimning qo'lida qancha toshcha turgani hisobiga ko'ra g'olib aniqlanadi.

* * *

Boshqa bir turini, asosan, ikki-uchta qiz bola o'ynaydi. Beshta qayroqcha olinib, har bir kishi soqqa tanlaydi. So'ngra bir qo'lining bosh va ko'rsatkich barmog'ini darvozasimon holatda yerga tirab qo'lidagi soqqasi bilan toshchalarni urib ikki barmog'i orasidan o'tkazadi. Agar ajratilgan toshni ham o'tkazgach, qo'lida nechta tosh bo'lsa aylantirganda kaftining yuza qismida qolgan har bir tosh unga teng bo'ladi. Demak, hammasi qolsa — besh tosh, ellikka teng bo'ladi. Kim eng ko'p ochko to'plasa, o'sha yutgan hisoblanadi. O'yin to'rt faslda ham o'ynaladi.

* * *

Boshqa bir turida ikki yoki to'rt bola ishtirok etadi. Agar to'rtta bola bo'lsa, ikkitadan bo'lib ajraladilar. Bitta bola qo'lga cho'p yashiradi va raqibiga tutadi. Raqibi topsa — o'yinni boshlaydi, topolmasa — bolaning o'zi boshlaydi.

Toshlarning hammasi yerga tashlanadi. Bitta tosh «kuchukcha» qilib belgilanadi. Har safar tashlanganda:

*Besh tosh otdim uzoqqa,
Borib tushdi tuzoqqa.
Besh toshimni ololmay,
Endi jonim qiynoqda, —*

deyilib, toshchalar havolatib otiladi. Toshlar yerga tushgach, avval bitta-bitta, keyin ikkita-ikkita, so'ngra uchta-uchta-yu bitta, nihoyat, to'rttasi-yu bittasi olinadi. Keyin bola bir qo'lining ko'rsatkich barmog'ini o'rta barmoqqa o'tkazib, bosh va o'rta barmog'ini yerga tiraydi va oraliq hosil bo'ladi. Toshlar yerga tashlanadi, «kuchukcha» qilib belgilangan tosh olinib osmonga otilib, toshlarni bir-biriga tekkizmasdan oraliqdan o'tkaziladi. O'yinning keyingi bosqichiga o'tiladi. Toshlar hammasi hovuchga olinadi. Toshlar hovuchda yuqoriga otiladi. Qo'ning orqa tomoni bilan yana hovuch qilinib toshlar ushlab olinadi. O'yinning keyingi bosqichida toshlar bir qo'lga olinib yuqoriga otiladi. Toshlar to pastga tushguncha qo'l ag'dariladi va orqa tomon kaftida hamma toshlarni ushlashga harakat qiladi. Qo'lga nechta toshni ushlasa — shuncha ochko to'planadi. Pastga tushgani hisobga olinmaydi. O'yinchilardan qaysi birisi ko'p ochko to'plasa, o'sha g'olib hisoblanadi. Bu o'yinni faqat qizlar o'ynaydi. O'yin to'rt faslda ham uyda, ochiq havoda o'ynalaveradi.

Kuchukcha

Bu o'yin ham «besh tosh» o'yinining bir turidir. Unda bolalar ikkita-ikkita bo'lib o'ynaydilar. O'yinda beshta tosh saralab olinadi. Chap qo'lining ko'rsatkich barmog'i o'rta barmoqning ustiga qo'yiladi. Bosh va o'rta barmoqni yerga tirab «darvoza» hosil qilinadi. O'ng qo'ldagi toshlar «darvoza» oldiga sochib yuboriladi. O'yinchi kuzatib turgan ikkinchi o'yinchidan «Qaysi biri kuchuk?» — deb so'raydi. U esa toshlardan birini «kuchuk» deb ko'rsatadi. Ko'rsatilgan «kuchuk» turaveradi. O'yinchi bitta toshni qo'lga oladi va yuqoriga otadi. Tosh qaytib tushguncha o'yinchi bitta toshni surib «darvoza»dan kiritadi. Toshlarni «darvozadan» o'tkazib bo'lgach, eng oxirida «kuchuk»ni bir surishda o'tkazishi kerak. «Kuchuk» «darvoza»dan kirgach, o'yinchi endi toshlarni hovuchiga olib, toshlarni birdaniga yuqoriga otib, qo'llarining orqasini tutib turadi. Toshlar kelib qo'lining orqasiga tushadi. Shu zahoti yana qo'l orqasi bilan toshlarni yuqoriga otib, qo'llarining kaftini tutib turadi. Kaftga nechta tosh kelib tushsa — shuncha ochko hisoblanadi. Agar o'yinchi o'yin paytida toshlarni tushirib yuborsa, «kuchuk»ni bir surishda «darvoza»dan kiritolmasa — xato hisoblanadi. O'yinni esa ikkinchi o'yinchi davom ettiradi.

To'p tosh

O'yinda ikkita bola qatnashadi. Kim oldin beshta tosh yig'ib kelsa, o'yinni o'sha boshlaydi. Birinchi o'ynovchi besh toshchani «darvoza» qilib qo'yilgan panjaralari oldiga tashlaydi. Ulardan birini ikkinchi qo'lga oladi. Uni kuzatib turgan o'rtog'i qolgan to'rtta toshchani bittasini «asos» deb ko'rsatadi. Shundan so'ng birinchi bola toshchalarni «darvoza»ga kirita boshlaydi, «asos» hammadan keyin kiritiladi va boshqa toshchalarni kiritayotganda u qimirlamasligi kerak. Shundan so'ng hamma toshchalarni yig'ib, kaftiga olib yuqoriga irg'itadi va kaftining orqasida nechta toshcha qolsa, o'shancha ochko olgan bo'ladi. Agar kaftining orqasida bitta ham toshcha qolmasa, o'yinni o'rtog'i davom ettiradi. Eng ko'p ochko to'plagan bola g'olib hisoblanadi. «To'p tosh» barcha fasllarda ko'chada, hovlida, uyda o'ynaladi.

Ushti

Bu o'yinda ikkita o'g'il bola qatnashadi. Ko'pincha o'smirlar yozda o'ynaydigan bu o'yin uchun og'irligi yarim kiloli marmar yoki qattiq toshdan yo'nilgan to'p yasaladi. Shu marmar yoki tosh to'p ushti deyilgan. O'yinchilar dastlab 5–6 metrli masofada maxsus chuqurcha qaziganlar, so'ngra navbatma-navbat o'sha chuqurchani mo'ljallab ushtini yumalatganlar. Kim chuqurchani aniq nishonga olib, ushtini unga tushira olsa — o'sha g'olib sanaladi. G'olib tomon har bir yutug'i uchun mag'lub tomondan garovga belgilangan narsani olib turgan. Garov — tanga, kitob yoki kelishuvga binoan xohlagan narsa bo'lishi mumkin.

Ushti faqat qo'l bilan yumalatilgan.

Hango'z

Bu o'yinda ko'proq juft sondagi o'g'il bolalar qatnashadi. O'yin uchun 200 gramm vazndagi gujum yoki tut daraxtidan randalab to'piq yasalgan bo'ladi, shu yog'och to'piq hango'z deyiladi. Hango'zni urish uchun esa uchi egilgan maxsus tayoq dasta ham tayyorlangan.

Asosan ochiq maydonda, yozda o'ynaladigan bu o'yinda o'g'il bolalar cheklashmashoq aytib ikki raqib tarafdagi bo'linadilar. So'ngra 2–5 metrli diametr ega doira chizib, o'rtasiga chuqurcha qaziganlar. Doira diametrining katta yo kichikligi o'ynayotgan bolalar sonining oz yoki ko'pligiga bog'liq. Nihoyat o'n besh yoki yigirma qadamli marra belgilangach, hango'z o'yinga tashlanadi. Bir taraf uni shu doira ichida saqlab turmog'i, raqib taraf esa uni chuqurdan urib, doiradan chiqarmog'i va belgilangan marragacha olib bormog'i lozim. Himoyachilar esa bunga yo'l qo'ymasligi, aksincha, o'z tomonidagi marraga olib borishga

intilmog'i darkor. Hango'z qaysi taraf o'n bir marta o'z marrasiga avval yetkiza olsa — o'sha taraf g'olib sanaladi. Mag'lublar yengilgani uchun g'oliblarni orqalarida ko'tarib belgilangan marragacha borishgach, o'yin yana qaytadan boshlanadi. Shu taxlitda bolalar charchagunicha o'yin davom etishi mumkin.

Kalpo'shto'ppi

Buni cheklanmagan miqdordagi o'g'il bolalar yozda, asosan, ochiq va keng maydonlarda o'ynashgan. O'yin uchun boshqa ikkita kallapo'shto'ppi orasiga paxta tiqib tikilgach, to'p-koptok bunyodga keltirilgan. Shu kalpo'shto'ppi deyiladi. So'ngra diametri 3—5 metrli doira chizilib, o'sha kalpo'shto'ppi uning qoq o'rtasiga qo'yilgan.

Bolalar sanama aytib, galda turuvchini aniqlashgach, barcha bolalar doira atrofi bo'ylab tizilishgan. Galda turuvchi kalpo'shto'ppini tepib doiradan chiqarishga urinsa, doira atrofida gilar uni chiqarmaslikka uringan. Kalpo'shto'ppining doiradan chiqishga kim yo'l qo'ysa — o'sha uni tepib chiqaruvchi bilan o'rin almashgan. O'yin shu zaylda bolalar toliqquncha davom etavergan.

Koptok

Koptok o'yinining turlari ko'p. Bu o'yinni qizlar sevib o'ynashadi. Ular koptokni bir qo'llab yerga uradilar. Belgilangan miqdorgacha to'pni tushirmasdan ursa, o'sha qizaloq yutgan hisoblanadi.

Koptok o'yinlari juda qiziqarli bo'ladi. O'yin qizlarni mohirlikka o'rgatadi. O'yinda uch-to'rt qiz bola qatnashadi. U ko'pincha bahor, yoz fasllarida o'ynaladi.

O'rta qatnash

Bu o'yinda sakkizta bola qatnashadi. Shu bolalar sig'adigan aylana chiziladi. Bolalar aylananing atrofida turib, koptokni yerga tushirmasdan o'ynashlari shart. O'yin jarayonida aylana ichiga koptok tushsa, uni tushirgan bola aylana ichiga kirib o'tiraveradi. O'ynayotganlar esa aylana ichidagilarni koptok bilan urishga harakat qiladilar. Shunda agar koptok biror bolaga tegib ketsa, o'yin davom etaveradi, bordi-yu, o'rtadagilardan birortasi koptokni aylana ichiga tushirib yuborsa, aylana ichidagi bolalarning hammasi o'rinlaridan turadilar. Mana shu yerda koptok tushirgan bolaga emas, balki uning sherigiga — agar o'ynayotgan oxirgi bola bo'lsa — bir ochko beriladi.

O'rta qatnash koptokni ushlamagan bo'lishsa, hech qanday ochkoga ega bo'lmaydi. O'yin shu tariqa davom etadi. Bu o'yin kuz va yoz fasllarida ko'p o'ynaladi.



To'p otish

Bu o'yinni odatda to'rt-olti yoki sakkizta bola o'ynaydi. Ular teng sonli ikki tarafga bo'linadi. O'yin quyidagicha belgilanadi: Bir bola qo'lga xas yashirib, ikkinchi tomonning boshlig'iga ko'rsatadi. Qaysi tomon topsa, o'yinni boshlaydi. Boshlovchi vakillar ikki chetga taqsimlanib o'tiradilar. Ikkinchi tomon vakillari esa o'rtaga tushishadi. O'rtadagilarni birinchi tomondagi bolalar koptok bilan uradilar. Kimga tegsa, o'sha o'yindan chiqadi. Kimki koptokni ushlab olsa, bir ochko yutgan hisoblanadi. To hamma o'yinchilarni koptok bilan urib chiqarmaguncha o'yin tugamaydi. Urib chiqarsa, bolalar o'rin almashtiradilar. Shu tariqa o'yin davom etaveradi.

Urrib qochar

O'yinda oltita bola qatnashadi. Ular dastlab oralaridan o'yinboshi saylaydilar. U xuddi hokimday ish tutadi. O'yin shunday boshlanadi: ikki joyda bolalar sig'adigan aylana chiziladi. Ularning biri ichiga to'rt bola kirib turadi, bir o'yinchi esa doiradan tashqarida qoladi. Shu doira tashqarisidagi o'yinchi qo'lidagi koptokni doira ichidagilarga qarab otadi. Shunda doira ichidagi bolalardan biri koptokni urib yuboradi va shu zahoti o'zi ikkinchi doira ichiga chopib kirib oladi. Doira tashqarisidagi bola y ana doiraga koptokni otadi. Doira ichidagi ikkinchi bola ham to'pni urib yuborib, o'zi narigi doira ichiga qarab yuguradi. U doiraga birinchi kirgan bola esa, paytdan foydalanib, yana avvalgi chaqqonlik bilan doiraga kirib olishga urinadi. To'p otgan bola to'pni chaqqonlik bilan ushlab, o'sha avvalgi doirasiga qaytayotgan bola ura olsa, koptok tekkan bola o'yindan chiqib turadi. Qolganlar o'yinni davom ettiraveradilar. Oxirida to'p otuvchi bola bilan doirada yakka o'zi qolgan bola joy almashadilar va o'yin qaytadan haligi chiqib turgan bolalarni qo'shgan holda davom ettiriladi.

Oldim

Bu o'yinga olti bola qatnashadi. Ulardan biri koptokni osmonga otib, yonida turgan do'stlaridan birining nomini aytadi. To'p yerga tushguncha ismi aytilgan boladan tashqari hamma har yerga yugurib qocha boshlaydi. Ismi aytilgan bola to'pni tutib olishi bilan «oldim!» — deb qichqiradi. Hamma shu zahotiyoq o'z joyida taqa-taq to'xtaydi. Qo'lida koptogi bor bola ularning birortasini mo'ljallab koptokni otadi. Koptok unga tegsa, o'sha bola bir ochko yutqizgan bo'ladi. Shunaqa usulda kim ko'proq yutqizib qo'ysa, o'sha bola o'yinning oxirida yo she'r o'qib beradi, yoki raqsga tushib beradi. O'yin shu zaylda davom etadi.

O‘ylab top?

O‘yinda olti yoki sakkizta bola qatnashadi. Ular davra qilib, koptok o‘ynaydilar. Koptokni kim ushlab olsa, o‘sha bola biror narsaning otini aytib, koptokni o‘z ro‘parasidagi bolaga tashlaydi. U darhol o‘sha aytilgan narsaning teskarisini aytishi kerak. Bordi-yu, aytolmasa yoki yanglishsa, o‘yindan chiqib turadi. Ayta olsa, yana o‘yinni davom ettiradi. O‘yin bir bola qolguncha davom etadi va eng oxirida qolgan bola g‘olib hamda dono sanaladi.

Kim echki?

O‘yinda bolalar soni chegaralanmaydi. Bolalar davra bo‘lib koptok o‘ynaydilar. Agar to‘p yerga tushsa, bolalar qotib qolishadi. Shunda kim kulsa yo tebransa, o‘sha «e» sanaladi. Yana tebransa yo kulsa, endi unga «ch» qo‘shilib, «ech» hisoblanadi. Bundan keyin yana tebransa yo kulsa «ki» qo‘shimchasi qo‘shiladi va «echki» bo‘lib o‘yindan chiqadi. O‘yin to oxirgi bola qolguncha takrorlanaveradi.

Havoyi to‘p

O‘ynovchilar quloqch yozib doira hosil qiladilar. Ulardan biri doira o‘rtasida turib o‘ynovchilarga to‘p otadi. Ular ham o‘z navbatida to‘pni onaboshiga otadilar. Lekin to‘p yerga tushmasligi kerak. Aks holda onaboshi o‘rin almashtiradi.

* * *

O‘yinning boshqa bir turida onaboshi to‘pni uch marta havoga otib, o‘zi ilib olishi kerak. Boshqalar bunga xalal berishlari va o‘zlari ilib olishga harakat qilishlari darkor. Shunda uni ilib ololmaydi, yiqitib yuborgan bola yutqizgan sanaladi. Yutqizgani uchun u doira o‘rtasida turib, bolalar qo‘ygan shartlar — ho‘kiz bo‘lib ma‘rash, it bo‘lib vovullash, raqsga tushish, ashula aytish yoki onaboshini ma‘lum masofagacha ko‘tarib olib borib kelish kabilardan birortasini bajarishi lozim.

O‘yin bahor, yoz va kuzda o‘ynaladi.

O‘rtaga tushish

O‘nta yoki undan ortiq bola aylana hosil qilib, to‘pni bir-biriga oshiradi. To‘p yerga tushmasligi uchun chaqqonlik bilan qaytarishga to‘g‘ri keladi. Kim to‘pni tushirsa, o‘rtaga tushadi. Atrofdagilar to‘pni bir-biriga oshirib, ba‘zan to‘p bilan o‘rtadagi bolani urib ham olishadi. Agar shunday paytda o‘rtadagi bola to‘pni tutib olsa, o‘rtadan chiqadi, o‘rniga unga to‘pni otgan bola o‘tadi. O‘yin yana davom etadi. Shunisi ham borki, atrofdagilar o‘rtadagi bolani urmoqchi bo‘lib to‘pni

irg'itishganda to'p o'rtadagi bolaga tegmay yerga tushsa, bunday vaziyatda o'sha bola ham o'rtadagi bolaning yoniga kiradi. Qachonki o'rtadagilar to'pni ushlasagina o'rtadan chiqqan oladilar. Bu o'yin bahor, yoz, kuz fasllarida ko'chada o'ynaladi. O'yinga o'g'il bolalar bilan birga qiz bolalar ham ishtirok etadilar.

Tandir-mandir

O'yinni bahor, yoz va kuzda ko'chada, hovlida, keng maydonda o'g'il va qiz bolalar aralash holda yoki alohida-alohida o'ynashlari mumkin. Bolalar soni cheklanmagan.

O'yin vositalari: koptok va yerga chizilgan doira. Doira ichkarisida to'g'ri chiziqlar chiziladi. O'yinchi bolalar soniga teng uchburchak hosil qilinadi. Bolalar shu uchburchaklar ichida havolatib otilgan to'pni tutishlari lozim. To'pni otuvchi doiradan uch metrcha masofadagi uzoqlikda turadi. U to'pni doira markazini mo'ljallab havolatib itqitishi shart. U to'pni ota turib:

— *Tandir-mandir,*
To'pni tut, Shokir,
Nodir, Zokir va h.k.

Yoki:

— *Tandir-mandir,*
Eng chaqqon kimdir?
Otdim man to'pni,
Tutgan qandin yer, —

deya hayqiradi. Kimning nomi tilga olinsa — o'sha ushlashi shart. To'p tashlanganda nomi tilga olingan boladan boshqa bolalar to'p qo'lga ilinguncha doiradan tashqariga chiqib qochadilar. To'pni egasi tutib, «To'xtang!» amri berilguncha ular chopadilar. To'pni tutgan bola «To'xtang!» degach esa, hammalari o'z joylarida qotib turadilar. To'pni tutgan bola doira chizig'idan o'ziga yaqin turgan bolagacha uch qadam (hatlab, sakrab, oddiygina odimlab — bunda masofaning uzun yo yaqinligi hisobga olingan) yurib to'xtaydi va shu joydan nishon olib yaqinidagi bolani to'p bilan uradi. To'p moljalga tegsa, navbatni to'p tekkan bola olib, maydonga to'p tashlaydi.

Shuni aytish kerakki, to'p bilan nishon olayotgan chog'da joylardagi qotib turgan bolalar chopib borib doiradan avvalgi o'rinlarini olishlari lozim. Yana shuni ham borki, bordi-yu, mo'ljal-nishon bo'lgan bola to'pni tutsa-yu shaxt bilan uni otgan bolani nishonlab ura olsa, to'p tegsa — u holda yana avvalgi bola galda turaveradi, to'p otish navbatini o'zida saqlaydi. O'yin bolalar zerikkuncha davom etaveradi.

Kartoshka va makaron

Bu o'yinda sakkiz yoki to'qqizta bola qatnashishi mumkin. Ular davra qurib, koptok o'ynaydilar. Koptok kimning qo'lidan tushib ketsa, o'sha bola o'rtaga o'tiradi. Davradagilar koptok bilan o'rtadagi bolani uradilar. Koptok unga tegmasa, otgan bola doira o'rtasiga o'tib o'tiradi. Davrada faqat ikki o'yinchi qolgungacha o'yin davom etadi. Koptok ulardan qaysi birining qo'lidan tushsa, o'sha doiraning o'rtasiga o'tib o'tiradi. Ikkinchi bola esa ochko oladi. Birinchi bola doira ichida o'tiradilar. O'tirganlar esa duv turib, yana koptok o'ynashga tushadilar. Kimning qo'lidan koptok tushib ketsa, ochkosi ketadi. O'yin shu taxlitda davom etadi.

Kartoshka

Bu o'yinda o'n ikkita yoki undan ortiq bola ishtirok etadi. Ular qator tizilib turib, «bir, ikki, bir, ikki...» deb oxirigacha sanashadi; «bir» deganlar 1-komandaga, «ikki» deganlar 2-komandaga ajraladilar. Bir-biridan 5–6 metr uzoqlikda ikkita chiziqli chiziladi. 1-komanda a'zolari ikkiga bo'linib, ikki chiziqli turishadi, 2-komanda a'zolari o'rtaga turishadi. 1-komanda a'zolari o'rtadagilarni to'p bilan urib chiqarishlari kerak. O'rtadagilar o'zlarini to'pdan himoya qilishadi, to'p kimga tegsa, o'sha o'rtadan chiqib turadi. O'rtadagilarning hammasi «urib» chiqarilgach, komandalar o'zaro o'rin almashtiradilar. Bu o'yin ba'zan «o'rtaga tushish» nomi bilan ham yuritiladi. O'yin qizlar tomonidan ham, o'g'il bolalar tomonidan ham yilning issiq kunlarida ko'chada va ba'zan hovlida o'ynaladi.

* * *

«Kartoshka» o'yinining boshqa bir turida ham o'g'il va qiz bolalar aralashiga ishtirok etadilar. Ular davra bo'lib turadilar. O'yin to'pni bir-birlariga oshirish bilan boshlanadi. To'pni bola yoki ro'parasidagi yerga tushirmasdan yetkazishi shart. To'p yerga tushsa, uni tushirgan bola o'rtada «kartoshka» bo'lib o'tiradi. U o'tirgan joyida u yoqdan bu yoqqa irg'itilayotgan to'pni ushlab olishi shart. Ushlasa — o'rtadan chiqadi, ushlay olmasa — o'rtada o'tiraveradi. Uning yoniga to'pni yerga tushirganlar kelib o'tiraveradilar.

Davradagilar o'rtadagi «kartoshka»larni to'p bilan uradilar. O'yin ochiq havoda, bahor, yoz, kuz fasllarida keng maydonlarda o'ynaladi. O'yinda bolalar soni cheklanmaydi.

To'pdan saqlan!

O'yinda o'n-o'n ikkita bola qatnashadi. Yerdan bir metr balandlikdagi taxta ustiga eng bo'yi uzun bola chiqariladi. Uning qo'lida salkam bir metrlik ip to'r, uning uchiga esa kichkina to'p solingan bo'ladi. Bola taxta ustidan turib qo'-

lidagini aylantiraveradi. Qolgan bolalar navbat bilan taxta ostidan nariga o'tishlari kerak, ya'ni to'p aylanib yuqoriga chiqqan zahoti chaqqonlik bilan taxta ostidan nariga o'tishlari kerak. To'p kimga tegsa, o'yindan chiqib turadi. Eng oxirida to'p tegmagan birgina bola qoladi. O'sha g'olib hisoblanadi. Bu o'yin bahor, yoz, kuz fasllarida ko'chada o'ynaladi. Uni qizlar ham, o'g'il bolalar ham o'ynaydi.

Baykom

Bolalar bu o'yinni boshlashdan oldin ikki tomonga bo'linib oladilar. Bo'lingach, ularning boshliqlari tanganing ikki tomonini tanlab tashlaydi. Kimning tangasi tushsa — o'sha tomon o'yinni boshlaydi. O'yinda oltita tosh va bir koptok bo'ladi. Toshlarni mo'ljalga oladilar. Agar toshlardan birortasi tushsa, yana bir marta to'p tashlaydilar, ikkita tosh tushsa — ikki marta to'p tashlaydilar. Beshalasi ham tushsa — o'yinchilar qochadilar. Ikkinchi tomon esa ularni koptok bilan urishi kerak, to'p tekkan bola o'yindan chiqadi. To'p tegmagan bola esa hushyorlik bilan kelib toshlarni avvalgi holatiga keltirib tursa, ular g'olib sanaladi va o'yinni yana boshidan boshlaydilar. Agarda turisholmasa, aniqrog'i, bunga ulgurishmasa va hamma o'yinchilarga koptok tegsa — ular yutqizgan sanaladilar. Bunday vaziyatda ikkala tomon o'rinlarini almashtiradilar. O'yin shu tariqa davom etadi.

Qalpoq tepdi


Bu o'yin koptok o'yinining qadimiy turlaridan. U bolalar jo'rligida aytiladigan tubandagi qo'shiq bilan ajralib turadi:

— *Qizim, qizim, qizoyim,
Eski to'nim yamomadi,
Sochlari ham uzomadi,
Bog'iga kirsam xo'jak.
Jug, jug, jug, xo'jagim demadi.*

Bolalar shu so'zlarni aytib turadilar. Bir bola esa o'rtada yotgan qalpoqni boshqalarning tepib ketishidan qo'riqlaydi. Bordi-yu, birorta bola tepib, chiqarib qo'ygudek bo'lsa, boshqalar tepib ketib qolishadi. Qolgan bolalar esa:

— Churr, chur, chur, — deb tezlik bilan marraga kelib turadilar.

O'yin ochiq havoda, o'g'il bolalar ishtirokida o'ynaladi. Ularning soni sakiztagacha bo'lishi mumkin.



Shar yorish

Bu o'yin bayramlarda, to'ylarda, turli xil shodiyona kunlarda o'ynaladi. O'yinni tashkil qilish uchun bayramni, to'yni yoxud shodiyona kechani boshqaruvchi kishi ikkita bolani chaqirib, sahnaga chiqaradi. Ularning qo'liga bir xil kattalikdagi shardan bittadan berib, o'yin shartini tushuntiradi. Bolalar boshqaruvchining ishorasi bilan sharni puflab shishira boshlaydi, Sharni kim birinchi bo'lib puflab yorsa, o'sha g'olib sanaladi va tegishli sovg'a oladi.

Chillak

Bu o'yinni o'g'il bolalar o'ynaydi. O'yinda ko'pincha ikkita bola qatnashadi. O'yinni boshlashdan oldin yerga uzunligi 15–20 sm, eni 5–6 sm qilib ariqcha tayyorlanadi. Bitta uzunligi 40–50 sm keladigan tayoq va bitta uzunligi 15–20 sm dan ikki tomoni yo'nilgan cho'p olinadi. 40–50 smlik tayoq — chillakdasta, 15–20 sm lik cho'p chillak deyiladi. Chillak ariqchaga ko'prikchadek qilib qo'yiladi, chillakdasta bilan havoga ko'tarilib xohlagan masofaga irg'itiladi. Irg'itilgandan keyin chillakning o'rniga chillakdasta qo'yiladi. Ikkinchi bola shu irg'itilgan chillakni ushlasa, unga ochko beriladi va o'sha bola o'yinni davom ettiradi. Keyin o'sha bola turgan joyidan chillakni chillakdastaga qaratib otadi. U chillakdastani qo'lidagi chillak bilan urishi kerak. Urib bilsa — o'yin galini o'sha bola oladi, urib bilmasa — irg'itgan bola chillakdastani qo'liga olib, chillakni tushgan joyidan chillakdasta bilan uchidan urgan holda havolatib, belidan urib uzoqqa yuboradi, bu hol uch marta takrorlanadi. Keyin ariqcha bilan chillakning oralig'i chillakdasta yoki chillakning o'zi bilan o'lchab ko'riladi, soni hisobga olib boriladi. Bu chillakni irg'itib turgan bolaning ochkosi hisoblanadi.

O'yin oxirida ko'p ochko to'plagan bola kam ochko to'plagan sherigiga «Belgilangan masofagacha nafas olmasdan yugurib borib kel», deydi. Agar buyruq bajarilmasa, o'sha bola keyingi o'yinlarga kiritilmaydi.

Shunda yutqizgan tomon chuqur nafas oladi-da, yugura turib:

*Shoyi ko'ylak kiymayman,
Hilpillatib yurmayman,
Kalish-mahsi kiymayman,
G'archillatib yurmayman.
Botinkamni kiymayman,
Do'qillatib yurmayman.
Oyoqyalang chopaman,
Chopaman, doving beraman,
Zum... bola... bale... zum... m...m...*

Yoki

*Qo'llarida qizil gul
Yashnab keladi.
Taglarida duldul ot
Kishnab keladi.
Qo'llarida ketmoni
Chopib keladi.
Moshiniga oq shoyi
Yopib keladi.
Qo'ltig'ida kitobi*

*O'qib keladi.
Qo'lda qalam, qo'shiqlar
To'qib keladi.
Zum.. m.. .zum...m...
Havoda chaqmoq!
Kim kech qolsa,
O'shadir ahmoq...
Zum.. m.. .zum... m... —*

deya o'sha masofani chopib o'tishga erishishi lozim. Nafasi yetmasa, tin olsa, unda qaytadan shu joyda chillakni yerga tushirmay chillakdasta bilan necha marta urilsa, yana chillakdasta bilan chillak shuncha marta urib irg'atiladi, chillak oxirgi qilib urib irg'atilgan masofa marra qilib belgilanadi. Yutqizgan endi shu marradan yuqoridagi qo'shiqni qayta ayta turib, zumlab chopishni boshlaydi. Unutmaslik kerakki, bunda masofa uzun bo'lsa, bir yoki ikki to'xtam belgilanishi mumkin. Shundayam u shartni bajarolmasa, yana hammasi qayta takrorlanadi. Bordi-yu yutqizgan g'irromlik qilib, dovni berishdan bosh tortsa, keyingi o'yinlarga kiritilmaydi.

* * *

Chillak o'yinining boshqa bir turida katta aylana chizilib, o'rtasidan 15–20 smli ariqchasimon chuqurcha o'yiladi. Chillak unga ko'prikchaday qo'yilib, chillakdasta bilan havoga itqitilib, qoq belidan zarb bilan uriladi. Raqib bola uni tushgan joyidan borib oladi, so'ng chillakdasta bilan aylanganicha o'lchab keladi. Masofani aniqlagach, endi o'zi o'sha harakatni takrorlaydi. Bu masofani birinchi bola o'lchaydi. Bunda kim chillakni uzoqroq masofaga urib yetkizolgan bo'lsa o'sha g'olib sanaladi.

* * *

O'yinning uchinchi bir turida chillakni urib havolatilganda, uni yerga tushirmay tutib olgan g'olib sanaladi va o'yin galini oladi.

* * *

Yana bir turida uzoq masofadagi chillakni chuqurchali aylana ichiga otib tushirgan ham g'olib sanaladi va o'yin navbatini oladi.

O'yin keng joyda ikki yoki undan ko'p, ammo faqat juft miqdordagi o'g'il bolalar taraf bo'lib, ko'pincha kuz va qishda o'ynaladi.

Akkol

Bu o'yinda ko'pincha ikkita bola qatnashadi. Ulardan biri 50 sm, ikkinchisi 5 sm lik kichkina tayoqcha tayyorlaydi. O'yin kengroq maydonlarda, asosan bahor va yozda o'ynaladi. Buning uchun dastlab chuqurligi 3–4 sm, diametri 20 sm bo'lgan «xona» tayyorlanadi. «Xona» bilan akkol tashlanadigan joy — o'yin maydonining oxiri 10–12 metr qilib belgilanib olinadi. O'yinchilarning bittasi «xona»da turib, qo'lidagi 50 sm li tayoqcha bilan qo'riqchilik qiladi. Maydon tashqarisida o'ynovchi akkolni o'sha «xona»ga tushirmoqqa intilib, unga qaratib otadi. «Xona»ni qo'riqlovchi otilgan akkolni qo'lidagi tayoqcha bilan urib yuborib, «xona»ga kiritmasa, o'yin davom etaveradi. Bordi-yu, akkolni urib qaytara olmay, «xona»ga kiritib yuborsa, u holda maydon tashqarisiga chiqib, «xona»ga akkol tashlaydi. Akkol tashlayotgan o'yinchi esa «xona»ni qo'riqlashga o'tadi. O'yin shu xilda o'rin almashinib davom ettiriladi.

Qol-qolak

Bu o'yinni bolalar juft-juft bo'lib o'ynaydilar. Bolalar o'zlariga qulay bo'lgan bir metr uzunlikdagi cho'pni olganlar. Yaxshilab yo'nib, ba'zan dastasini teshib chiroyli ip ham o'tkazib olganlar. Ikkinchi tayoqcha bir qarich uzunlikda bo'lib, ikkala tomoni ham uchlik qilib yo'nilgan. O'yin qurollari tayyor bo'lgach, to'rtburchak va katta-kichik ikkita chiziq chiziladi.

To'rtburchak bilan katta to'g'ri chiziqlarning orasi uch qadam. Katta to'g'ri chiziqqa — chap oyoqni, kichik chiziqqa — o'ng oyoqni qo'yib, sal egilgan holda kichik tayoqcha uloqtirilgan. So'ngra ikkinchi tayoqcha uloqtirilgan. Bu tayoqcha to'rtburchak ichidan chiqmagan holda birinchi tayoqchaga tegishi kerak. O'yinchi borib katta tayoqchani o'ng qo'lga oladi va kichik tayoqchani uchiga zarb bilan uradi. Zarbdan tayoqcha uchib ancha joyga ketadi. O'yinchi esa joyidan turib tayoqchani qancha uzoqlikka ketganini qo'lidagi tayoqcha bilan o'lchab chiqadi; bir qol, ikki qol, uch qol, to'rt qol... Buni sherigi kuzatib turadi. Agar tayoqchalarni uloqtirayotgan paytda ular ustma-ust tushmasa, to'rtburchak ichidan chiqib ketsa, tayoqchani bir marta urgan paytda uchib ketmasa, xato hisoblanadi. O'yinni ikki bola davom ettiradi. Ikkinchi o'yinchi ham xatoga yo'l qo'ysa, o'yinni yana birinchi bola davom ettiradi. Shunday qilib o'yin davom etgan. Buni ko'proq o'g'il bolalar o'ynaydilar.

Bu o'yinda sakkiz yoki o'nta bola qatnashadi. Bolalar aylana bo'lib sanashadi, oxirida qolgan bola o'yinni boshlaydi. U bitta tayoq topadi, tayoqning ustiga o'n ikkita cho'p teradi. Tagiga esa tosh qo'yadi. Bu tayoqning bir tomoni ko'tarilib turadi. Bolalardan biri tayoqni bosib yuboradi. Shunda tayoqning ustidagi cho'plar har tomonga sochilib ketadi. Bolalar to cho'pchalarni terguncha yashirinib oladilar. O'rtada o'tirgan bola esa cho'pchalarni terib joyiga qo'yadi-da, boshqa bolalarni izlashga tushadi. U kimni ko'rsa, o'sha zahoti «tuk-tuk» deya o'sha boladan boshqa bolalarni izlashga kirishadi. Shunda birorta bola chopib kelayotgan haligi tayoqni ura olsa, o'yindan chiqib turgan bola yana o'yinga kiradi. Bordi-yu hech kim tayoqchani topa olmasa, unda bolalar: «Nechanchisi?» — deb savol beradilar. Navbatdagi bola esa qaysi bolani xohlasa, o'tirgan joyiga qarab sanab, masalan: «To'rtinchisi!» — deydi. To'rtinchi raqamli bola tayoqni topishi kerak, topa olmasa, o'zi o'rtaga chiqadi. Endi o'yin yana boshidan boshlanadi. Bu o'yin, asosan, kuzda o'ynaladi.

Lakkak yoki lakkakboz

O'yinni ikki yoki to'rt, asosan, juft sonli bolalar o'ynaydi. Bordi-yu bolalar soni undan ko'paysa, ikki onaboshi tanlanadi, ular bolalarga «adashib keltinglar», deb buyuradi. Bolalar juft-juft bo'lib, o'zlariga yashirin nom qo'yib, «adashib kelishadi»-da, onaboshilarga navbatiga qarab, o'z yashirin nomlarini aytib cheklashishadi:

— «Qarg'a» yo «Zag'izg'on»?

— «Olma» yoki «nok?»

— «Lolami?», «Chuchmoma?»

Onaboshilar navbatlashib, qaysini tilga olsa, o'sha bola uning yoniga o'tadi, nomi tilga olinmagani esa ikkinchi onaboshi yoniga o'tadi. Shu tarzda ikki raqib taraf o'yinni boshlashadi.

Dastlab ip yoki lakkak tashlashadi. Lakkakning oxiridan kim ushlasa, ikkinchisi boz bilan lakkakni uch marta uradi. Shunda u qo'lidan chiqmasa — o'yinni o'zi boshlaydi, chiqsa — bozni urib tushirgan taraf boshlaydi.

Boz ikki musht uzunlikda, lakkak 50–80 sm uzunlikda bo'ladi. Lakkakning bir uchidan ushlanadi, ikkinchi uchidan yuz ochishadi. Yuzning orqa tomoni qiya yo'nilgan bo'ladi.

Lakkakning yuziga qo'yilib boz uriladi, bordi-yu urolmasa — «bir qur», «ikki qur» va «uch qur» deb sanaladi. Shu uch marta «qur»da ham urolmasa, navbati o'tgan hisoblanadi.

Bordi-yu boz urilib havolanib tushayotganida maydonda turganlar uni eta-

gida tutib olishsa — «qoqib olsa» — bozni otganning navbati o'tadi. Navbati o'tganni qoqib olgan» tomon «ovga chiq» deydi. «Ovga chiqqan» tomon bozni tutib ololmasa, uni tushgan yeridan ko'tarib olib, doira ichidagi inga otadi. Boz doira ichiga tushsa yoki doira o'rnidagi toshga tegsa, «ov»dagi bola taraf o'yin boshlash galini oladi. Bordi-yu inga bozni tushirolmasa, lakkakda boz tushgan joy bilan in oralig'ini o'lcaydi. Shunda lakkak bo'yi yetsa — «ov»dagi bola taraf o'yin galini oladi, yetmasa — bozni «chaqi-chuq» qiladi. «Chaqi-chuq» qilolmasa — o'yinni davom ettirolmaydi. B uni «chiqim chiqarish» deyiladi. «Chaqi-chuq» uchdan ortiq bo'lsa — bozni lakkak bilan oralab shuncha uradi. Bozni lakkak bilan oralab olib urishni «alash olish» deydi. «Chaqi-chuq»da tushurolmay boz necha marta urilgan bo'lsa, lakkak bilan uni oralab olib urish ham shuncha bo'ladi. Nihoyat boz so'nggi urishdan so'ng qayerga borib tushgan bo'lsa, o'sha joydan ingacha qadamlab sanab kelinadi. Ana shu masofa bir dam yoki ikki dam olgan holda «hayillab», yoki «zumlab», yoki yana «hay...y...y, zum...m...m...» lab chopgancha bosib o'tiladi. Bunda, zumlayotgan bola qo'lida boz bo'ladi. U bir chuqur nafas bilan chopqillamog'i shart. Bordi-yu nafasi yetmay, ora yo'lda nafas olsa, hammasi yana qayta boshlanadi. Guruh-guruh o'ynalganda, «zumlash» masofasi necha qismga bo'linsa, estafetadagidek, o'sha qismlarning har birida guruhning alohida vakili turadi. Bunda shunisi shartki, zumlab chopayotgan bola belgilangan masofani bosgach, uni kutayotgan sherigi qo'lga bozni tutqizguncha «zumlamog'i», o'z navbatida sherigi ham zumlab turib bozni olib chopmog'i lozim.

O'yin shu taxlitda toliqquncha davom etib, asosan bahor oyida ko'proq o'ynaladi.

O'ra koptok

Uch va undan ortiq o'g'il bola ishtirok etadigan bu o'yin joyi maxsus tayyorlanadi. Joyning old tomoni berk, yuqoriga qarab qiya tekislik shaklida bo'lib, qiyalikning baland qismida o'rtacha chuqurchalar qaziladi. O'rtacha chuqurchalar soni o'yin ishtirokchilari soniga teng bo'lib, har biri bir o'yinchiniki tarzida qat'iy belgilab chiqiladi.

Cheklashganda yutgan bola o'yinni boshlaydi. U yungdan, lattadan to'qilgan yoki tikilgan koptokni pastdan yuqoriga qaratib dumalatadi. Koptok kimning o'ra-si — chuqurchasiga tushsa, o'shaning ustiga minib olinadi. Gal o'rasiga koptok tushgan bolaga o'tadi. U ustidagi bolani ko'tarib turib, koptokni pastdan yuqoriga qaratib dumalatadi. Koptok to boshqa birovning o'ra-si — chuqurchasiga tushmaguncha ustidagi bolani ko'tarib turib qayta-qayta yumalataveradi. Koptokni o'ra-chuqurchaga tushira olsa — o'sha o'ra-chuqurcha kimniki bo'lsa, endi u ustida-

gini tushirib, o'zi o'sha o'ra-chuqurcha egasi ustiga minib oladi. Shu tariqa har gal koptok qaysi o'raga tushsa — o'sha miniladi. Bunda koptok bir o'raga tushib, chiqib ketib ikkinchisida qolishi mumkin. Shart shuki, koptok qaysi o'raga tiqilib qolsa — shunisi hisobga olinadi.

O'yin bolalar charchaguncha yoki zerikkuncha shu xilda yil bo'yi o'ynalishi mumkin.

Salavot

Bolalar bir necha joydan koptok sig'adigan qilib chuqurcha o'yadilar. Keyin ikki guruhga bo'linib, chek tashlaydilar. Birinchi guruh ikkinchi guruhning ustiga minib oladi va qo'lidagi koptokni haligi chuqurga yo'naltiradilar. Koptok chuqurchaga tushib qolsa yoki biron bolaga tegib qolsa, mingan bola tushadi va mindirgan bola uni minib chuqurcha tomon yo'naltiradi. Bolaning minish oldidan aytadigan so'zlari quyidagicha:

— *Minaman, ko'tarasan,*
— *Ko'tarolmasang o'livorasan,*
Yo bo'lmasa qochvorasan,
Astak, pastak, salavot!

O'yin ana shu xilda davom etaveradi. U ochiq havoda o'g'il bolalar ishtirokida o'ynaladi.

Bu Sharqning mashhur chovgon — ot ustida o'ynaladigan o'yinlarining bir ko'rinishi, bolalarning ot ustida emas, balki bir-birini ot qilib minib o'ynaladigan, ya'ni chovg'onning aniq nusxasi emas, yangi elementlar qo'shilgan, mazmunan o'zgargan turidir.

Chuqurchaga tushish

Bu o'yinda bolalar soni qancha ko'p bo'lsa, shuncha qiziqarli bo'ladi. O'yinda bolalar soni qancha bo'lsa, shuncha koptokcha sig'adigan chuqurcha qaziladi. Chuqurchalar bir qatorda bo'lishi shart. Ularning bir-biridan uzoqligi 20–25 sm dan oshmasligi lozim. Bolalar chuqurchalardan 6–7 metr uzoqda turib, har kim o'z chuqurchasiga koptokni otadi. Agar u o'z chuqurchasiga koptokni tushirsa, unga bitta toshcha qo'yadi. Bordi-yu koptokni sherigining chuqurchasiga tushirsa, unda yutuq o'rtog'ining foydasiga tegishli sanaladi. O'yin shu tariqa 15–20 daqiqa davom etadi. Oxirida kimning chuqurchasida toshcha ko'p bo'lsa, o'sha yutgan hisoblanadi. Bu o'yinni ko'pincha yoz va kuzda ko'chada o'ynaydilar.

To'ppi

To'ppi o'yini ham koptok o'yinining qadimiy turlaridan biridir. Bolalar bahor, kuz, qishning yog'ingarchiliksiz kunlarida ko'pincha qo'y-qo'zilarini boqib, keng sayhonliklarda shu o'yinni o'ynaydilar.

Ularning to'plari matodan tikilib, ichiga eski lattalar solingan bo'ladi. To'plar qo'lda otib yoki tepib o'ynash uchun mo'ljallangan. Hozirgi zamonaviy sport o'yinlarining turi bo'lgan futbol, basketbol, voleybolning rivojlanishida shu o'yinning hissasi borligi aniq.

O'yinda qatnashuvchilar, asosan, o'g'il bolalar hisoblanadi. Ular sakkizta yoki o'nta bo'lib ikki tomonga bo'linadilar. O'yin ular xohlagancha davom etadi. Bolalarning sog'lom, baquvvat bo'lib o'sishida to'ppi o'yinining roli katta.

Jami-jams

O'yinda besh-oltita bola qatnashishi mumkin. Buning uchun o'yin boshlovchi aniqlanishi kerak. Bu quyidagi sanama yordamida aniqlanadi:

Mushuk dalaga chiqdi, Aravasi buzildi,

Unga nechta mix kerak? 1, 2, 3, 4. 5, 6, 7...

Ketdi!

«Ketdi» so'zi kimga to'g'ri kelsa, o'sha o'yin boshlovchi bo'ladi. O'rtaga uchburchak chizilib, uch atrofiga va o'rtasiga aylana chiziladi. Uch tosh uchburchakka qo'yiladi. O'yinboshi koptok bilan mana shu uchburchakni himoya qilishi kerak. Qolganlar uchburchakdagi toshlarni o'rtadagi aylanaga ustma-ust qo'yishlari kerak. Toshlarga tegayotgan paytda o'yinboshi koptok bilan uni ura olsa, o'sha bola o'yindan chiqadi. O'yin oxirigacha toshlar ustma-ust qo'yilishi kerak. Yoki o'yinboshi hammani o'yindan chiqaradi.

O'yinboshi yutqizsa, yana toshlarni himoya qiladi, o'yinni o'zi davom ettiradi, yutsa — bir kishini tanlab, o'z o'rniga qoldiradi. O'yin har ikki tomondan chaqqonlikni talab qiladi. O'yinning nomidan ma'lumki, toshlar jamisi ustma-ust qo'yilguncha o'yin davom etadi.

Konfet qog'oz

Bolalar o'zlarining yiqqan konfet qog'ozlarini olib keladilar. Har bir bola bittadan konfet qog'ozini to'rtburchak shaklidagi taxtachaning ostiga qo'yadi-da, so'ng kichkina to'p bilan uradi. Kim taxtachani to'g'ri nishonga olib ursa, o'sha yutgan bo'ladi. Taxtacha ostidagi konfet qog'ozlarini yutgan bola oladi. O'yin shu xilda ochiq havoda davom etadi.

Bu bolalarning nishonni to'g'ri ura bilish va merganlik mahoratining shakllanishida katta rol o'ynaydi.

Chillim kes

O'yinda o'nta yoki undan ortiq bola qatnashadi. Katta aylana chiziladi. Uning o'rtasiga bir to'p qo'yiladi. To'pni besh kishi qo'riqlaydi. Ular to'pni tepib aylanadan chiqarishi kerak. Shunga muvaffaq bo'lishsa, yutuq ularniki. To'pni qo'riqlovchilar hujumchilardan bittasini bexosdan tepib qo'ysa, ular yana to'pni qo'riqlashga qolaveradi. O'yin shu xilda davom etaveradi.

Shtandir-shtandir

Bu o'yinda besh-olti bola qatnashishi mumkin. Bu yangi o'yin turi bo'lib, ko'ptok yordamida o'ynaladi. Raqam yordamida chek tashlanib o'yinboshi aniq-langach, uning qo'liga kichkina ko'ptok beriladi. O'yinboshi o'z joyida aylana chizib, uch marta uni aylanib bo'lguncha qolgan bolalar ancha joyga qochishadi.

Onaboshi «To'xta», deyishi bilan ular yugurishdan to'xtaydi. Onaboshi o'yinchi bolalardan biri bilan o'zi orasidagi taxminiy masofani hisoblab chiqadi va besh qadamligini aytadi. Onaboshi besh qadam tashlab, ko'ptokni unga tegizib yuboradi. Agar masofa kam yoki ko'p chiqsa, onaboshi yana o'z o'rnida qoladi. Ko'ptok tegsa, onaboshi ko'ptokni olib, o'ynovchilardan birining nomini tutib: «Shtandir-shtandir, Matluba», — deydi va ko'ptokni yuqoriga otadi. Matluba qo'liga ko'ptokni ilib olgunicha boshqalar yuguradi. U ko'ptokni tutib «to'xta» degach, boshqalar to'xtashadi. O'yin shu zaylda davom etadi. U bolalardan chaqqonlikni talab etadi.

Devorga to'p urar

Bu o'yinni ko'pincha qizlar o'ynaydi. To'pni oldin devorga, keyin yerga urib o'ynaydilar. Avval birinchi, ikkinchi, uchinchi... deb sanaydilar, uni birinchi raqamli o'yinchi boshlaydi. O'yin jarayonida to'pni devorga, yerga qo'li bilan, so'ngra boshi bilan urib, keyin to'pni belidan, oyog'ining tagidan aylantirib olib yana devorga urib o'ynaydi. Shu payt qo'lidan to'p tushib ketsa, o'yinni ikkinchisi davom etadi.

Uch-to'rtta qiz qatnashadigan bu o'yin ochiq havoda o'ynaladi. Bu ularning jismonan baquvvat bo'lib yetishishlarida katta ahamiyatga ega.

To'p tayoq

O'g'il bolalar sevgan bu o'yinda kichkina to'p va 40–50 sm uzunlikdagi tayoq bo'ladi. To'pni qo'lda ushlab turib shu tayoq bilan uriladi.

O'yinda to'rttadan o'n oltitagacha bola qatnashadi. Ular ikki guruhga bo'lindilar. Har ikkala guruhning o'z onaboshisi belgilanadi.

O'yinni birinchi guruh boshlaydi. Belgilangan joyda turib to'p tayoq bilan uriladi. Keyin to'pning qancha uzoq masofaga tushganligi qadamlab sanaladi. Qaysi guruh olisroq masofaga itqitsa — o'sha ko'p ochko oladi. Ochkosi ko'p guruh yutgan hisoblanadi.

Qocharma

O'yinda ikki va undan ortiq qiz bola qatnashadi. Ikkita qiz o'ynaganda birinchisi to'pni xohlagan masofaga otadi, ikkinchisi yugurib borib shu to'pni olib kelishi kerak. O'yin navbatma-navbat davom etadi.

Agar o'yinda o'ntacha qiz qatnashsa, ikki guruhga bo'linib o'ynaydilar. Bo'linish cheklanish yo'li bilan amalga oshiriladi. Birinchi guruhdagi beshala qiz qator turadi, birinchi o'rinda turgani to'pni otadi. Beshta raqib qiz ham qator turadi va birinchi o'rinda turgan qiz qarshi tomon otgan to'pni yugurib borib tutishi va keltirib ikkinchi qizga berishi lozim. O'yin shu xilda davom ettiriladi.

Oshiq

Oshiqlar molning tizza suyagidan olinadi. Ular yaxshilab qiriladi va yuzi yaltiroq qilib tozalanadi. Qay tomonini kim olishini davradagilar belgilaydi. Oshiqlar tashlanib, tashlagan kishiga javobi aytiladi.

Oshiq qadimiy o'yin turlaridan hisoblanadi. O'yinda qatnashuvchilar o'g'il bolalar bo'lgan. Devordagilarning soniga qarab miqdor belgilangan. O'yin uy ichida yoki hovlida davra olib o'ynalgan.

* * *

Bu o'yinning boshqa bir turida ikki-uchta bola o'ynaydi. Har bir bola bittadan oshiq-bujul qo'yadi. O'yinboshi uni nishonga olib, soqqasini otadi. Soqqasi tegsa, oshiqni oladi; tegmasa — yerda kimning oshig'i tizilgan bo'lsa, ularning har biriga bittadan oshiq berib chiqadi. Endi ikkinchi bola o'yinni boshlaydi. Nishonni to'g'ri ola biladigan bolalar o'yinda yutadilar. Uni faqat o'g'il bolalar o'ynaydi. O'yin bahor, yoz, kuz fasllarida o'ynaladi. Bu o'yin qadimdan mavjud bo'lib, oshiq o'yini deb yuritilgan.

Tizma

Tizma o'yinining «uch tizma» yoki «to'rt tizma» deb ataladigan turlari bizda o'ynaladi. Uch tizmada to'rtburchak chiziladi va uzunasiga bir chiziq tushiriladi, ikkita diagonal o'tkaziladi. Uchta tosh bilan yuriladi. Kim shu toshchalarni bir qatorga tizza, o'sha bola sherigini qoldirgan hisoblanadi.

To‘rt tizimda bitta toshcha ko‘p bo‘ladi. Bunda kimki har to‘rtta toshchani bir qatorga tera olsa, sherigini qoldirgan hisoblanadi.

O‘yinda ikki-uchta bola qatnashadi. O‘yin hovlida bahor, yoz fasllarida soya-salqinda o‘ynaladi. O‘yin bolalarning qobiliyatini, zehniini o‘stirishga yordam beradi.

Jamba

Bu o‘yin ham ikki tarafga bo‘lingan holda o‘ynaladi. Taraflarga onaboshi tayinlangach, bolalar jutf-juft bo‘lib, o‘zlariga nomlar qo‘yib oladilar. Juftlik onaboshiga: «01 salom», — deb murojaat qiladi. Onaboshilar: «oldik», — deb javob qiladilar. Juftliklar baravariga: «Jambil, rayhon?» — deb so‘rashadi. Onaboshilar o‘z navbatlariga ko‘ra qaysisini olsa, o‘shaning otini olib, masalan: «Rayhon»ni olaman», — deydi. Shunda «Rayhon» uning yoniga o‘tadi. Sherigi esa 2-tarafga. Shu tariqa hamma taqsimlanib ikkiga bo‘linadi. So‘ngra o‘yinni qaysi taraf boshlab berishini aniqlash maqsadida bir cho‘pcha olinadi.

Bunda onaboshilardan biri xasni qo‘liga yashiradi, ikkinchisi esa uning qaysi kaftdaligini topsa — o‘yinni o‘sha taraf boshlaydi, bordi-yu topmasa, u holda o‘yinni o‘zi bosh bo‘lgan taraf boshlaydi.

O‘yin qoidasi: aylana chizilib, o‘rtasida beshta yapaloq tosh ustma-ust terib qo‘yiladi. Taraflar terilgan toshga navbatma-navbat koptok otadilar. Qaysi tarafdagi bolalar toshlarni koptok bilan urib tushirsa, o‘sha tarafdagi bolalar aylana ichidagi toshlarni qayta terib qo‘yishga harakat qilishi kerak. Shu vaqtda raqib taraf onaboshisi koptokni olib, tosh terayotgan bolalarni mo‘ljallab urishga harakat qiladi. U qaysi bolani urolsa, o‘sha bola o‘yindan chiqishi kerak. Agar birinchi taraf a‘zolaridan birontasi shu payt toshlarni terib qo‘ysa, «jamba», deb qichqiradi. O‘sha taraf yutgan bo‘ladi. Yutgan taraf yutqizgan tarafdagi bolalarga qarab: «Qaldirg‘och, qanoting yo‘q», — deydi. Bunda har bir yutuq 1 ochkoga teng hisoblanadi. 10 ochko to‘plagan taraf g‘olib hisoblanadi. Shundan so‘nggina o‘yinni yangidan boshlashadi. O‘yin ko‘chada, keng maydonda o‘ynaladi.

Jamin

O‘yinga qatnashuvchi bolalar bir, ikki hisobi bilan ikki guruhga bo‘linadilar. Har guruhda uchtdan bola bo‘ladi. Chiziq chiziladi va o‘n qadam sanalib, uchta quti ustma-ust qo‘yiladi. Qaysi guruh o‘yinni boshlashi kerakligini aniqlash uchun bir bola qo‘liga cho‘pcha yashiradi, ikkala guruhdan qaysi biri uni topsa, o‘yinni o‘sha boshlaydi. O‘yinni boshlagan guruh a‘zolari qutichalarni mo‘ljalga olib to‘p bilan urib yiqitishi kerak. Bordi-yu, yiqita olmasa, shu guruhning ikkinchi o‘yinchisi davom ettiradi. Ikkinchi guruh a‘zolari qutichalar orqasida turadi va yiqitilgan

qutichalarni ustma-ust qo'ydirmaslikka harakat qilib, ularni to'p (titan urib turadi. Ular xalaqit berayotgan bolani urish uchun to'pni otib yuborsa, shundagina guruhdagi ikkinchi bola keladi-da, qutichalarni ustma-ust qo'yadi. Buning uchun ular tez harakat qilishlari kerak. Birinchi guruhning barcha a'zolari to'p bilan urib ulgurganlaridan so'nggina ikkinchi guruh o'yinni davom ettirish huququni oladi.

O'yinda qiz bolalar ham qatnashishi mumkin. O'yinni o'n bir-o'n ikki yoshdagi bolalar o'ynashi mumkin.

Jambul

O'yinda uch-to'rtta bola qatnashadi. Ular dastlab yerda uchburchak chizib, uchala burchagiga qo'yish uchun to'rt dona yapaloq toshcha tashlaydilar. Uchburchakdan ikki qadam narida marra chizig'i chizadilar va uchburchak ichiga aylana chizib, uning o'rtasiga o'sha to'rt toshchadan uchtasini ustma-ust terib qo'yadilar. So'ngra sanama aytib o'yin boshlovchini aniqlaydilar. O'yin boshlovchi o'sha marra chiziqda turib, ustma-ust turgan uchta toshchani uradi. Urib tushirolmasa — o'sha uchta toshchani uchburchakning uchta burchagiga bitta-bittadan terib qo'yadi. So'ngra belgilangan marraga borib, burchaklardan biridagi toshchani mo'ljalga oladi, ura olsa — o'zi qochadi; nishonga tegizolmasa o'ynayotgan safdoshlarini quvishga kirishadi. Kimni tutsa o'sha toshchalarning nishongiri bo'ladi. Hamma toshchalarni urolgan bola g'olib sanaladi. O'yin shu taxlitda bolalar toliqquncha davom ettirilgan.

Quvlashma

Bu o'yin ham ba'zan aralash, ba'zan o'g'illar, ba'zan qizlar tomonidan alohida o'ynaladi. O'yin to'y-tantanalarda, marosimlarda o'ynaladi.

O'yinda bolalar soni ba'zan cheklansa-da, ba'zan sakkiz-o'ntagacha bo'lishi mumkin. Unda shunday sanama aytiladi:

*Otdim-botdim chumon-chu,
Chum chelakka botdim bu.
Ferma xo'roz fermaru,
Nadraxanni chani-chas.*

Yoki:

*10, 20, 30, 40, 50, 60, 70, 80, 90, 100
Yuzdan chiqqan chiroyli qiz.*

Birinchi — o'g'il va qiz bolalarga, ikkinchisi — faqat qizlar uchun sanash so'zlari hisoblanadi. Hamma bolalar shu tarzda sanab bo'lingach, oxirida bittasi chiqmasdan qoladi. O'sha navbatda qolgani — «qumlangan» sanaladi. «Qumlan-

gan» sanoqdan chiqqan bolalarni quvlab tutishi kerak. Quvlab qaysi bolani tutsa, uning ismini aniqlab aytishi kerak. Shundagina u qumlanib, bolalarni quvlab tutish vazifasini zimmasiga oladi. Nomni noaniq aytsa, yana o'zi quvlab tutishda davom etadi. Shu tarzda o'yin bolalar charchagunlaricha davom etadi.

Bu o'yin bolalarning jismonan baquvvat, serharakat bo'lib o'sishlarida katta ahamiyatga ega.

Atum-batum

Besh yoki undan ortiq bola bu o'yinda ishtirok etadi. Ular to'planib quyidagicha sanamani aytib galda turuvchini aniqlaydilar:

*Atum-batum,
Quvvatlatum,
Loyga botdim,
Loydan chiqib
Seni otdim.
Piq, piq,
Sen chiq!*

Bitta bola qolguncha sanash davom ettiriladi. Oxirida qolgan bola boshqalarni quvib tutishi kerak. U biror bolani tutgandan so'nggina vazifasini o'shanga topshirib, o'zi boshqalarga qo'shilib qochadi. Tutilgan bola esa ularni quvadi va tutishga harakat qiladi. O'yin shu xilda davom etaveradi. Bu o'yin, asosan, yoz, kuz, bahorda o'ynaladi. Unda qizlar ham, o'g'il bolalar ham ishtirok etadi.

Quloq cho'zma

Bu o'yin ham chidamli bo'lish va tomdan chakka o'tmasin uchun — pishitish maqsadida bahorda tomدا o'ynaladi. Unda o'n-o'n beshtagacha o'g'il bola qatnashishi mumkin.

O'yinni kattaroq uy egasi boshqaradi. U chaqa yoki tangalardan ma'lum miqdorda hovuchlab bolalarga ko'rsatadi-da, so'ngra uni dastro'moliga tugib, tom ustiga otadi. Bolalardan epchilrog'i uni yo ilib oladi, yo yerga tushgan joyidan oladi-da, uy egasini quvishga tushadi.

O'yin ishtirokchilari esa quvayotgan bolani tutib, qulog'ini cho'zib, uy egasini tutib olishiga to'sqinlik qiladilar. Bola shu to'siqlarni yengib, uy egasini tutolmasa — dastro'molidagi pul uniki bo'lib qoladi. Bordi-yu, quloq cho'zish qiynog'iga chiday olmay dastro'molni tashlab yuborsa, boshqa bola uni ilib olib, uy egasini quvishga kirishadi. Nihoyat, pul yutilgan, uy egasi yangidan dastro'molga pul tugadi va o'yin shu taxlitda davom ettirilaveradi.

Podsho-vazir

Ko'p hollarda, asosan, o'g'il bolalar, ba'zi hollarda qizlar bilan aralash o'ynaladigan bu o'yinchilar soni cheklanmagan bo'ladi. O'yin, asosan, qishda o'ynaladi.

Bunda oshiq tanlanib, tashlanadi. Kimning oshig'i tikka tursa — o'sha podsho; olchi tursa — o'sha vazir bo'ladi.

Podsho va vazir aniqlangach, oshiq yana tashlanadi. Kimning oshig'i chikka tushsa o'sha o'g'ri hisoblanadi. Shunda vazir podshoga murojaat etadi:

— Taqsir, o'g'ri tutdim. Podsho so'raydi:

— Kim?

Vazir «o'g'ri» bo'lgan o'yinchi ismini aytadi. Podsho unga jazo beruvchi hukm chiqaradi. Vazir shu hukmni ijro etadi yoki ettiradi. Hukmlar tubandagicha bo'lishi mumkin:

— O'g'ri o'ynab bersin!

— O'g'ri ashula aytsin!

— O'g'ri qoshini qoqsin!

— O'g'ri noz qilsin!

— O'g'rining orqasiga uch (to'rt) darra urilsin!

— O'g'rining peshonasiga chertilsin.

Hukm bajarilgach, o'yin yana qayta boshlanadi.

Ko'z bog'lashma

Bu o'yin bolalar orasida keng tarqalgan. O'yinni bolalar ikki guruhga bo'linib o'ynaydilar. Unda o'g'il va qiz bolalar baravar qatnashaveradilar. O'nta qiz bir tomon, o'nta o'g'il bir tomonda turadi. Bolalar sonining o'ntaligi qat'iy emas, o'zlari xohlagancha bo'lishi mumkin. O'rtaga bitta qiz yoki o'g'il bolani chiqarib, ikkala tomon o'rtasiga qo'yib, o'sha o'rtaga chiqqan bolaning ko'zini ro'mol yoki boshqa mato bilan bog'laydilar. Keyin o'sha ko'zi bog'langan bolaning oldiga qarama-qarshi tomonda turganlardan bittasi chiqadi va ko'zi bog'liq turgan bolaning oldiga borib ovoz chiqarmasdan tura-di. Boshqa bir bola ko'zi bog'liq turgandan: «Yoningga borgan kim» — deb so'raydi. Yonida turgan bolaning ismini ayta olmasa, kiyimni ushlab ko'rishga ruxsat beriladi, unda ham topolmasa, ko'zi bog'liq turgan tomondagilar yut-qizgan hisoblanadi.

O'yinda birin-ketin, navbat bilan bittadan o'rtaga chiqiladi va ko'zi bog'lanadi. O'yinda ishtirok etganlarning hammasi o'rtaga chiqib, ko'zi bog'lanib bo'lgandan keyin g'olib tomon e'lon qilinadi.

Bu o'yinning ikkinchi varianti ham mavjud bo'lib, bunda bitta qiz yo o'g'il bolaning, yoinki ikkita qiz-u ikki o'g'il bolaning ko'zi bog'lanadi. O'yin ishti-rokchilari davra qurib o'tiradilar. Ko'zi bog'langan ikkita bola davra o'rtasida bo'ladilar. Ular bir-birlarini tutishga intilib, birisi:

— Naima! — deydi.

Ikkinchisi:

— Shundaman! — deb javob qaytaradi. Naimani tutish uchun ovoz kelgan to-monga qarab yuradi. Ular bir-birini tuta olsalar, o'rinlariga boshqa ikki bola kira-di. O'rinlariga kiradiganlar xohlovchi sifatidagilar bo'lib, bir marta ko'zi bog'lan-sa, ikkinchi marta bog'lanmaydi, O'yin shu tarzda davom etaveradi.

O'yin, asosan, havo issiqroq paytlarda, ko'pincha yozda katta maydonchalar-da o'ynaladi. O'yin kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallangan.

Layli-mayli

Bu o'yinda bolalar soni chegaralanmagan. Bola qancha ko'p bo'lsa, o'yin shunchalik qiziq o'tadi. Bolalar davra bo'lib turadilar. Navbatma-navbat ikkitadan o'rta-ga chiqadilar. Ularning ko'zini ro'mol bilan bog'lashadi. Bittasi: «Layli?» — bo'lib sherigini qidiradi. Ikkinchisi esa: «Layli bo'lsa mayli!» — deb undan qo-chib yuradi. Birinchi bola ikkinchisini ovozidan tanib ushlab olsa, yutgan bo'ladi. O'yin shu tariqa yana davraga boshqa bolalarning chiqishi bilan davom etaveradi. Bu o'yin, ayniqsa, yozda ko'p o'ynaladi.

Oyga qarashma

Buni o'g'il va qiz bolalar aralash holda o'ynaydi. O'yinga sakkiz-o'ntacha bola qatnashadi. O'yin quyidagicha: xohlagan bir bola orqasiga, ya'ni oyga qarab kiradi. U toparmon sanaladi. Qolgan bolalar qator o'tiradilar. O'tirgan bolalarning bittasiga bir dona gugurt cho'pi berilib, shu cho'pni bolalardan birortasining sochi ora-qasiga yoki ko'ylagi etagiga yopishtiriladi. Yashirish tugashi bilan orqasiga qarab turgan bolaga:

*Oshing pishdi,
Chivining tushdi, —*

deyishadi. Toparmon cho'p o'tirgan bolalardan qaysi biriga yashirilganini topishi kerak. Topsa — yutgani, topolmasa — yutqizgani. Yutqizib qo'ysa, yana oyga qa-rab turadi. O'yin shu tariqa davom etaveradi. O'yin ko'pincha kechasi oy chiqib turgan paytlarda, yig'inlarda, to'y-marosimlarda o'ynaladi.

O'yinning yana bir turi mavjud bo'lib, KESAK YASHIRISHMA deb atala-di. Bunda ham xuddi oyga qarashma o'yinidagi holat takrorlanadi, faqat gugurt cho'pi o'rniga kesak yashiriladi.

Dog'-dog'

Bunga faqat o'g'il bolalar qatnashadi. Ularning soni o'n ikki-yigirmatagacha bo'lishi mumkin. So'ngra bolalar olti yoki o'ntadan bo'lib taraflarga bo'linadi. Bo'linish sanama aytish asosida amalga oshiriladi:

*Pesta chaqdim dona-dona,
Sen ketasan Hindistona.
Olti mushuk so'ydim,
Ko'zini senga qo'ydim.
Bir, ikki,
Olma tekki,
Sen tur,
Sen chiq!*

Eng oxirida bir bola chiqmasdan qoladi. O'sha bola qaysi tomonda bolalar soni kam bo'lsa, shu tarafga qo'shiladi. So'ngra kichkina cho'pchami yoki toshchani olib, biror bolaning qo'liga yashiradi. Har bir tarafdin bittadan bola o'rta qo'liga chiqadi. Ular navbat bilan cho'p kimning qaysi qo'lidaligini taxminlab aytishi lozim. Qaysi bolaning aytganlari to'g'ri chiqsa, uning tarafdagilar oldinroq joylarni egallaydilar. Raqib taraf a'zolari ularning «Bo'ldi!» degan buyrug'ini kutib turadi.

Yashiringan tarafdin bittasi «Bo'ldi!» degach, raqib taraf hujumga o'tadi. Yashiringan taraf a'zolaridan qay birini raqib tarafdagilar ko'rishsa, o'sha bolaning ismini aytib (masalan: Zokir, dog' o'ldin) chaqirmog'i lozim. Shunda o'zining ko'ringaniga ishonch hosil qilgach, qayta yashirinmaydi. Boshqa yashiringanlar ham shu zaylda aniqlanadi. Nihoyat, hamma aniqlagach, raqib taraf yutgan bo'ladi va taraflar navbat almashadilar.

O'yinni bolalar xohlaganlaricha, yilning issiq fasllarida, ochiq havoda, ba'zan kunduzi, ba'zan kechqurunlari o'ynaydilar.

Danak bekritish

Bu bolalarning eng qiziqarli o'yinlaridan biridir. U chamalash asosida biror miqdorni belgilashga qaratilgan topishmoqli o'yindir.

Bola qo'liga siqqancha danak oladi va bolalarga qarab chek tashlaydi:

— Qo'limda nechta danak bor? Yoki:

— Cho'ntak, chamantak, mannorim nechta?

Shundan keyin har bir bola o'z chamasini taxminan aytadi. Keyin danak yashiringan bola qo'lini ochadi va danaklarni yerga to'kadi. Kim danak sonini

to'g'ri topgan bo'lsa, hamma danakni o'sha oladi. Kam aytgan ham, ortiq aytgan ham farqini o'z danagi hisobidan to'laydi.

O'yinda ikkitadan beshtagacha bola qatnashishi mumkin. O'yin ko'proq o'rik pishig'ida o'ynaladi. O'yinga qiz va o'g'il bolalar aralash qatnashadi. Bolalarning matematikaga, umuman, hisob-kitobga bo'lgan qiziqishini oshirishda o'yinning ahamiyati katta.

* * *

O'yinning boshqa bir turida, asosan, ikki bola qatnashadi. Ularning har biri yigirmatadan danak oladi. Birinchi bola qo'lini orqasiga qilib shu yigirmata danakdan bir qismini hovuchlaydi va o'rtog'idan so'raydi:

— Mushtumda nechta danak bor?

O'rtog'i chamalab danak miqdorini to'g'ri topsa, uning barchasini oladi va g'olib sanalib, endi danak yashirish galini oladi. Bordi-yu to'g'ri topolmasa, nechta kam yoki ortiq aytgan bo'lsa, o'sha farqni o'z danagidan to'laydi. Bu holda danak yashirishni yana birinchi bolaning o'zi davom ettiradi. O'yin shu xilda to bolalardan biri barcha danaklarini yutqizguncha davom etaveradi. O'yinni qish faslida ham o'ynash mumkin.

Qandak

Danak o'yini turlaridan bo'lgan bu o'yinda to'rtta bola ishtirok etadi. Ularning har biri raqam asosida nomlangan bo'ladi: birinchi bola — bitta-bitmasta; ikkinchisi — ikki-dukki; uchinchisi — uchta-uchmasta; to'rtinchisi — to'rtta-to'rtmas-ta kabi. Har bir bola danak solingan do'ppisini yonida tutadi. So'ngra topishmoq aytib, kim birinchi bo'lib topsa, o'sha do'ppisidagi danaklardan sanamay siqimlab oladi-da, to'rt joyga to'rt donadan qo'yib chiqadi. Hovuchidagi danaklar teng tushsa, qolgan uch o'yinchi unga to'rt donadan danak beradi. Bordi-yu, danaklarni qo'yayotganida oxirgi o'ringa bitta tegsa — danaklarning hammasini bitta-bitmasta; ikkita tegsa — ikki-dukki; uchta tegsa — uchta-uchmasta oladi. O'yin shu zaylda danaklarni bolalarning birortasi yutib olgunicha davom etaveradi.

Juftmi, toq?

Bu juda oddiy o'yin bo'lib, uni mavsumiy o'yin desa ham bo'ladi. O'riklar pisha boshlagan vaqtdan to o'rik pishiqchiligi tugaguncha qizg'in davom etadi. Bolalar daraxtlarning soya-salqinlarida o'tirib o'ynaydilar.

Birinchi bola kaftini o'rik danagiga to'ldirib, mushtumini qisadi va «Juftmi-loq?» deb so'raydi. Ikkinchi bola taxminan uning juft yoki toqligini aytadi. Agar juft degan bo'lsa, yashiringan danaklar sanog'i juft chiqsa, bordi-yu, toq degan

bo'lsa, sanoq toq chiqsa, u yutgan bo'ladi. Bordi-yu, noto'g'ri bo'lsa, o'sha sanoqni to'ldirib danak beradi. Qattiq nazorat ostida danaklar sanalishiga e'tibor qilinadi. Agar taxmin to'g'ri chiqsa, o'sha danaklarni ikkinchi bola bitta ham qoldirmay o'ziniki qilib oladi.

Bu o'yinda reallik, tajribadan ko'ra taxmin, tavakkalchilik, dangalchilik asosiy o'rinda turadi. Uni qiz va o'g'il bolalar aralashiga o'ynayveradi.

Bukur

Bu yong'oq o'yini bo'lib, ikkita bola ishtirokida amalga oshadi. Bolalar o'zaro kelishib, dastlab maxsus joyda o'nta chuqurcha qazishadi. So'ngra cheklashib, qay birlari o'yin boshlashlarini hal qilishadi.

O'yin gali kimga tushsa, chuqurchalardan besh-yetti metrlik masofada turib, ularni mo'ljallab o'nta yong'oq otadi. Ikkovlon nechitasi chuqurchaga tushganini hisoblashgach, ikkinchi bola gal olib, chuqurchalarni mo'ljallab o'nta yong'oq otadi. Chuqurchalarga kim ko'proq yong'oq tushirolsa — o'sha g'olib sanaladi va yutqizgan tomon undan nechta chuqurchaga kam tushirgan bo'lsa — o'sha miqdorda yong'oq to'lovi beradi.

* * *

Bu o'yinning ikkinchi bir turida bir bola yong'oqlarini saf qilib tizadi, ikkinchisi esa to'rt-olti metrlik masofadan yong'oq yumalatib yong'oqlarni nishonga oladi. Shunda kimning mo'ljali ko'proq nishonga aniq tegsa — o'sha g'olib sanaladi. Bunda ham yutqizgan tomon g'olibga nechta kam tekkizgan bo'lsa — shuncha miqdorda yong'oq to'lovi beradi. Bu o'yinni yong'oq yumalar deb ham yuritishadi.

O'yinlar ko'pincha kuzda — yong'oq pishiqchiligida o'ynaladi.

Kesak qo'ydi

Bunda bolalar davra olib o'tirishdan oldin chek tashlashadi. Chekchi kimning barmog'ini ushlab olsa, o'sha kesak qo'yuvchi bo'ladi. Kesak qo'yilishidan oldin bolalar qo'llarini oldinga cho'zib, kaftlarini birlashtirib turadilar. Kesak qo'yuvchi kesakni birorta bolaning qo'liga, cho'ntagiga, ichki kiyimlari orasiga yashiradi. Toparmon o'sha kesakning kimdaligini to'g'ri topsa — kesak qo'yuvchi, kesak yashirilgan bola esa — toparmon bo'ladi. Bordi-yu topolmasa, o'yinni oldingi bola davom ettiraveradi. O'yin ochiq havoda, bahor, yoz paytlarida o'ynaladi.

Tosh kimda?

Bu o'yinda o'n yoki undan ortiq bola ishtirok etadi. Ular to'planishib, «boshliq» va «teskari»ni aniqlash uchun shunday sanashadi:

*Chumchuqcha uchdi,
Sadiga tushdi.
Sadi salomcha,
Duxtari fasoncha,
San chiq, bachcha.*

Birinchi chiqqan bola — «boshliq», ikkinchisi esa — «teskari» bo'ladi. Qolganlar qator tizilib, ikkala qo'llarining kaftini bir-biriga yopishtirib turadilar. Ikkinchi chiqqan bola — «teskari» bularga teskari qarab turadi. «Boshliq» qo'lga toshcha olib, tizilib turganlardan birining qo'lga soladi va «teskari»dan «Tosh kimda?» deb so'raydi. Agar «teskari» tosh kimdaligini topolsa, o'zi tosh soluvchi bo'ladi. Agar topolmasa, yana teskariga qarab turib, tosh kimdaligini aniq aytma-guncha o'yinga qo'shilmaydi.

«Tosh kimda?» o'yini deyarli barcha fasllarda uyda, hovlida va ko'chada o'ynaladi.

«Ovchi» va «O'rdak»

O'yinchilar bir, ikki hisobi bilan ikki guruhga ajraladilar. Birinchi guruh ikki chetda turadi, ikkinchi guruh esa o'rtada. Chetda turgan bolalar — «ovchi», o'rta-dagilar — «o'rdak».

Birinchi guruh o'rtadagi «o'rdak»larga tegizishni mo'ljallab koptokni she-riklariga oshiradi. Koptok kimga tegsa, o'sha o'yindan chiqadi. Koptokni oshirgan paytda o'rtadagi bolalar uni ilib olsa, ular bir ochko to'plagan bo'lishadi. O'yin «ovchi»lar «o'rdak»larni ovlab bo'lguncha davom etadi. Ov tugagach, o'rinlarini almashadilar. «Ovchi»lar «o'rdak» bo'ladi, «o'rdak»lar — «ovchi». O'yin ochiq havoda shu tarzda davom etaveradi.

* * *

O'yinning boshqa bir turida ma'lum masofa belgilanadi. Bolalar doira shaklida tiziladilar, bir yoki ikki bola doira ichida va yana shuncha bola uning tashqarisida turadi. Doira ichidagilar — «o'rdak», tashqarisidagilar — «ovchi» hisoblanadilar.

«Ovchi»lar «o'rdak»ni kichkina to'p bilan urishlari kerak. To'p «o'rdak»ka tegsa, u o'rtadan chiqadi: o'rniga «ovchi»lardan bittasi «o'rdak» bo'ladi. «O'rdak» esa davradan tashqari chiqib, «ovchi» vazifasini bajaradi. To'p «o'rdak»ka tegma-sa, to'p tekkunicha o'rtadan chiqishmaydi.

O'yin bolalar soni cheklanmagan holda ochiq havoda o'ynaladi.

O'q-yoy

Bolalar o'zlari o'q va yoy yasaydilar. So'ngra 8–10 metr masofada to'rtbur-chak shaklida faner taxta qo'yadilar yoki devorga doira chizib, nishonni belgilaydilar. Belgilangan masofadan turib nishonga yoydan o'q otadilar. Kim nishonni to'g'ri olsa va ko'p urisa, o'sha yutib chiqqan hisoblanadi.

O'yin ochiq havoda o'ynaladi, unga uchtdan o'ntagacha o'g'il bola ishtirok etadi. O'yin bolalarda merganlik malakasini shakllantiradi.

G'isht (karbich) urishma

Bu ham merganlik o'yinining bir turi bo'lib, o'g'il bolalar o'ynaydilar. Xohlagan masofaga g'isht otiladi. Ikkinchi bola shu g'ishtga o'zining g'ishtini otib tekizishi kerak. Tekkiza olsa — yutgan sanaladi, o'sha birinchi g'isht otgan bolani uning g'ishti borib tushgan masofagacha ko'tarib boradi.

O'yinda ikki-uchta bola qatnashadi. U bolalarning baquvvat bo'lib o'sishlari va nishonni to'g'ri ko'zlashlarida ahamiyatlidir.

Askar tuzish

Bu o'yin ikki o'g'il yoki ikki qiz bola ishtirokida o'ynaladi. Buning uchun dastlab kvadrat chiziladi. Kvadrat esa o'z navbatida, to'rtta bir-biriga teng kvadratchaga taqsimlanadi.

O'yin ishtirokchilarining har birida uchtdan toshcha bo'lishi shart. O'yinchilar toshchalarni kvadratlarning turli burchaklariga terib chiqishadi. Birinchi bo'lib ulgurgan bola «yurishni» boshlaydi, ya'ni o'z toshchalaridan birini birinchi aylanachadan ikkinchisiga ko'chiradi. So'ngra raqibi, yana o'zi, keyin o'rtog'i ko'chiradi. Shunday qilib kimning uchchala toshi kvadratning bir tomoni-da avval qator bo'lib tizilib qolsa, o'sha bola birinchi bo'lib askar tuzgan sanaladi. Demak, u g'olib hisoblanadi. Shundan keyin o'yin yana boshdan o'ynalishi mumkin. «Askar tuzish» bahor, yoz, kuzda ko'chada va hovlida o'ynaladi.

Sakrashmachoq

O'yinda, asosan, qiz bolalar qatnashadi. Rezina ip yordamida qizlar har xil tarzda sakraydilar. Masalan:

1. Bir oyoqlab sakrash:

Bunda bir oyoqni ko'targan holda besh martadan sakraydilar.

2. Ikki oyoqlab sakrash:

Bunda ikkala oyoq yordamida besh martadan rezina ipni oyog'idan o'tkazadi.

3. Teskarisiga sakrash:

Bunda ham ikki oyoqlab besh martadan teskarisiga (orqa tomondan oldinga) rezina ipda sakrash kerak.

O'ynovchining oyog'iga ip o'ralashib qolsa, u yutqizgan hisoblanadi. Shartlarini bajargan o'ynovchi yutgan hisoblanadi. O'yin kuz va bahor fasllarida o'ynaladi.

Xivichda sakrash

Bu o'yinni ikkita qiz bola o'ynaydi. Ular dastlab ikkita ho'l xivichning uchini bir-biriga bog'lashadi. Kim oldin bog'lab ulgursa, o'yinni o'sha boshlaydi. U xivichning ikki dastasidan ushlab, tez aylantirib, sakray boshlaydi. O'rtog'i uning sakrashini sanab turadi. Xivich oyog'iga ilinib qolsa, ular o'zaro o'rin almashtiradilar. Oyog'iga xivichni tegizmay, kim ko'proq sakrasa, o'sha g'olib sanaladi.

O'yin issiq kunlarda ko'cha va hovlida o'ynaladi.

Davradan chiqma!

O'yinga o'n ikki yoki undan ortiq bola qatnashadi. Ulardan eng kattasi qo'liga 1,5 metrlik yo'g'on, uchi tugilgan ipni davra o'rtasiga tushib, yer yuzasi bo'ylab aylantira boshlaydi. Qolganlar esa aylana (yarim aylana) hosil qilib, ip oyoqlari ostiga kelishi bilan yuqoriga sakrab, uni o'tkazib yuborishlari kerak. Agar ip kimning oyog'iga urilib to'xtab qolsa, o'sha o'yindan chiqib turadi. O'yin oxirigacha davradan chiqarilmagan bola g'olib hisoblanadi. Bu o'yin yoz faslida ko'chada o'ynaladi.

Lanka

Bu o'yinda, asosan, o'g'il bolalar ishtirok etadi. Unda ikki bola bir-biriga raqib sifatida qatnashadi. Ular echki terisidan 5 tiyinlik tanga hajmida qirqib olishadi. Uning silliq tomoniga mum bilan 5 tiyinlik tanga yoki yassi silliq toshcha yopishtiriladi. Natijada lanka paydo bo'ladi. Lankani necha juft urish chegarasi kelishib olingach, o'yinni kim boshlashini aniqlash maqsadida kelishadilar. Buning uchun bitta yassi toshcha olib, bir tomonini qo'llashadi; ho'l tomoni — biriniki, quruq tomoni — ikkinchi bolaniki. Toshcha havolatib tashlanadi. Ho'l tomoni yuzaga bo'lib yerga tushsa — birinchi bola; aks tomoni yuzaga bo'lib yerga tushsa — ikkinchi bola o'yinni boshlaydi. Cheki o'ynagan bola lankani olib, o'ng oyog'i bilan urib, yuqoriga irg'ita boshlaydi. Shartga ko'ra o'ynayotgan paytda lankaga qo'li tegmasligi kerak. Oyog'i bilan lankani yuqoriga urib irg'itganda uni yerga tushirmaslikka harakat qilishi lozim. Ikkita bola lanka tepishni «Bir par, ikki par, uch par...» deb sanab turadi. Lanka yerga tushgan zahoti ikkinchi bolaga gal tegadi. Birinchi bo'lib marradagi sanoqqa yetgan tomon yutgan hisoblanadi. O'yin yil davomida hovlida va ko'chada o'ynaladi.

Lanka o'yinining boshqa bir turida o'g'il bolalar ikki, uch, to'rtta bo'lib ham o'ynaganlar. Bunda ular aylana chizib, uning ichidan chiqmagan holda o'ng oyoqni yon tomonga bukib, lankani yuqoriga tepib o'ynaganlar. Sheriklar esa kuzatib, lanka o'ynayotgan bolaning lankani necha marta tepganini baland ovoz bilan sanab hisoblab turganlar. Agar o'yin paytida lanka yerga tushib ketsa, xato hisoblangan. Bunday vaziyatda o'yinchi chetga chiqib o'tirgan. O'yinni navbatdagilar davom ettirgan.

Lanka tashlash o'yini o'zgacha. Bunda o'ynovchilardan biri oyog'ini orqaga burib lankani tashlaydi. So'ng uni yerga tushirmasdan orqaga burilgan oyoq bilan sakrab turib o'ynay boshlaydi. Lanka yerga tushsa, o'yin gali navbatdagi bolaga o'tadi. Lankani yerga tushirmay eng ko'p sakragan bola yutgan hisoblanadi.

Chertmoq¹

G'ijduvonda bu o'yinni «jirttak» deb atashsa, boshqa joylarda «chertmoq o'yni» deb ham yuritiladi. O'yinda, asosan, qiz bolalar qatnashadi. O'yin faqat bahor faslida o'ynaladi. Yerga bo'r yordamida quyidagicha sxema chiziladi:

56
47
38
29
110

O'yinda uch-to'rtta qiz bola qatnashadi. Raqam yordamida o'yinboshi aniqlanadi. Jirttak sifatida bo'sh quticha, ko'pincha lak qutichasidan foydalaniladi. Birinchi o'ynovchi jirttakning muvozanat saqlashini hisobga olib, ichini tuproq bilan to'ldiradi. So'ngra birinchi xonaga tashlab, o'zi bir oyoqlab sakrab haligi qutichani sekin tepib xonadan xonaga olib o'tadi. 5 va 6-xonalarda ikki oyog'ini ham yerga qo'yib, qutini olib, nafasini rostlaydi. So'ngra qutini 7-xonaga tashlab o'yinni davom ettiradi. 10-xonadan tashqariga chiqadi. Navbat bilan 2–3-xonalarga tashlab, o'yinni davom ettiradilar. Agar quticha katakdan chiqsa yoki oyoq bilan chiziq bosilsa, «jikka» deyiladi va o'yinni navbatdagi kishi davom ettiradi. Hamma xonalarni birinchi bo'lib o'ynab egallagan kishi yutgan hisoblanadi.

¹ Bu o'yin bolalar o'rtasida «galka» nomi bilan ham yuritiladi.

O'yinning boshqa bir turida yerga chizilgan kataklar soni oltita bo'lib, uch-tasi — borish, uch-tasi — qaytish yo'li sanaladi. Bunda jirtakni bir oyoqda sakrab turib tepib borish, tepish paytida chiziqni bosmaslik shart. Jirtak chiziq ustiga to'xtasa yoki hakkalaganda chiziq bosilsa yoki jirtak chiziqdan tashqariga chiqib ketsa, o'yinni raqib qiz davom ettirish huquqiga ega. O'yinni boshlashdan avval o'ynovchilar o'z tartiblarini shunday belgilashadi:

Biri: «Bizdan bosh», desa, ikkinchisi: «Qalam qosh», — deydi. Uchinchisi: «Ilon bosh», — desa, to'rtinchisi: «Chiroyli qosh», — deydi.

O'yinni kim «Bizdan bosh», degan bo'lsa, o'sha boshlaydi. U olti gala katakni olti marta sakrab turib jirtakni tepgan holda aylanib chiqmog'i shart. Shuni uddalasa, keyin ko'zini yumib: «Magmi?» — deya sakrab jirtakni tepishni davom ettiradi. U chiziqni bosmagan taqdirda kuzatuvchilar: «Mag», — deya o'yinni davom ettirishiga monelik qilmaydilar. Agar chiziqni bossa: «Mag emas», — deya o'yinni «Qalam qosh», degan ikkinchi o'yinchiga olib beradilar. O'yin shu xilda qizlarning biri katakchalarni to'la egallaguncha ochiq havoda davom ettirilaveradi.

O'yin bahor va yozda o'ynaladi.

Chiziqni bosma!

Bu o'yinda ikkita qiz bola qatnashadi. Yerga bo'yi 2,5–3 metr uzunlikdagi to'g'ri to'rtburchak chiziladi. Teng o'rtasidan ikkiga bo'linadi. Hosil bo'lgan xonalarning har biri yana beshtadan xonalarga bo'lib chiqiladi. Natijada o'ng va so'l tomonda beshtadan — jami o'nta xona hosil bo'ladi. Kim oldin o'yinni boshlashini aniqlash uchun yassi toshcha olib cheklashishadi. (Cheklashish tartibi «Lanka» o'yinidagidek.) Birinchi bo'lib o'ynash huquqini olgan qiz chap tomondagi xonalar ichidan bir oyoqlab sakrab-sakrab borib, xuddi shunday holatda o'ng tomondan qaytib keladi. Bu jarayonni o'rtog'i kuzatib turadi. Qaytib kelgach, chap tomondagi xonalardan ikkala ko'zini yumib, chiziqlarni bosmay yana sakrab yuradi va o'ng tomondagi xonalardan qaytib kelishi kerak. Shu jarayonda chiziqni bossa, o'yinni o'rtog'i davom ettiradi. O'yin shu tartibda navbat bilan o'ynaladi.

O'yin, asosan, yozda o'ynaladi.

Kim topqir?

O'yinda besh yoki undan ortiq bola ishtirok etadi. O'yinboshini aniqlash uchun bolalardan biri ularni tubandagicha sanaydi:

*Atona, batona, kitona,
O'sma ekar janona,
Babin qizi Nazira,
As-pas, chiqdi qafas!*

«Chiqdi qafas» sanog'i kimga tushsa, o'sha o'yinboshilik xizmatini zimmasiga oladi. O'yinboshi yerga kvadrat chizadi, kvadratni 20 yoki undan ortiq mayda kvadrat — katakchalarga bo'ladi. Shundan so'ng qolgan bolalarga teskari qarab turishni buyuradi. Qolganlar teskari qaragach, katakchalarning biriga bilinar-bilinmas belgi qo'yib, bolalarga: «Topinglar», deydi. Qo'yilgan belgini birinchi bo'lib topgan bola o'sha katakchani olgan hisoblanadi. Bolalar yana teskari qarashadi, yana belgi qo'yiladi. Yana uni topgan bola o'sha katakchani egallab, o'z nomining bosh harfini yozib qo'yaveradi. O'yin to uchta katakcha qolguncha davom etadi. Eng ko'p katakcha egallagan bola topqir hisoblanadi. O'yin, asosan, issiq kunlarda ko'cha va hovlida o'ynaladi.

Nuqtani top!

Bu o'yinni bolalar ikkita-ikkita bo'lib o'ynaganlar. Avval ular yerga shakl chizganlar.

Bolalardan biri to'rtburchakning bir tomoniga, ikkinchisi qarama-qarshi tomoniga o'tirib olgan. Ulardan biri nuqtani topuvchi bo'lib ko'zini yumib o'tirgan, ikkinchisi nuqta qo'yuvchi bo'lib, katakchalardan biriga bilinar-bilinmas nuqta qo'yib:

*Ko'zingni och!
Nuqtani top! —*

degan.

Nuqta topuvchi ko'zini ochib, katakchalarni kuzatgan. Nuqtani topsa — nuqta qo'yuvchi unga o'sha katakchaga «5» qo'ygan, topolmasa — nuqta qo'yuvchining o'zi nuqtani ko'rsatib, o'sha katakchaga «2» qo'ygan. O'yin kataklar to'lguncha davom etgan. Kevin baholarni sanab chiqqanlar: «5»lar soni bilan «2»lar soni teng bo'lsa — 1 ochko hisoblangan. «5»lar «2»lardan ko'p bo'lsa — ochkolari ham ko'p hisoblangan. Nuqta topuvchi ochko ololmasa, bolalar o'rinlarini almashtirib, yana o'yinni davom ettirganlar.

Bunda ham ikki oyoqlab besh martadan teskarisiga (orqa tomondan oldinga) rezina ipda sakrash kerak.

O'ynovchining oyog'iga ip o'ralashib qolsa, u yutqizgan hisoblanadi. Shartlarni bajargan o'ynovchi yutgan hisoblanadi. O'yin kuz va bahor fasllarida o'ynaladi.

Xivichda sakrash

Bu o'yinni ikkita qiz bola o'ynaydi. Ular dastlab ikkita ho'l xivichning uchini bir-biriga bog'lashadi. Kim oldin bog'lab ulgursa, o'yinni o'sha boshlaydi. U xivichning ikki dastasidan ushlab, tez aylantirib, sakray boshlaydi. O'rtog'i uning sakrashini sanab turadi. Xivich oyog'iga ilinib qolsa, ular o'zaro o'rin almashtiradilar. Oyog'iga xivichni tegizmay, kim ko'proq sakrasa, o'sha g'olib sanaladi.

O'yin issiq kunlarda ko'cha va hovlida o'ynaladi.

Davradan chiqma!

O'yinga o'n ikki yoki undan ortiq bola qatnashadi. Ulardan eng kattasi qo'liga 1,5 metrlik yo'g'on, uchi tugilgan ipni davra o'rtasiga tushib, yer yuzasi bo'ylab aylantira boshlaydi. Qolganlar esa aylana (yarim aylana) hosil qilib, ip oyoqlari ostiga kelishi bilan yuqoriga sakrab, uni o'tkazib yuborishlari kerak. Agar ip kimning oyog'iga urilib to'xtab qolsa, o'sha o'yindan chiqib turadi. O'yin oxirigacha davradan chiqarilmagan bola g'olib hisoblanadi. Bu o'yin yoz faslida ko'chada o'ynaladi.

Lanka

Bu o'yinda, asosan, o'g'il bolalar ishtirok etadi. Unda ikki bola bir-biriga raqib sifatida qatnashadi. Ular echki terisidan 5 tiyinlik tanga hajmida qirqib olishadi. Uning silliq tomoniga mum bilan 5 tiyinlik tanga yoki yassi silliq toshcha yopishtiriladi. Natijada lanka paydo bo'ladi. Lankani necha juft urish chegarasi kelishib olingach, o'yinni kim boshlashini aniqlash maqsadida kelishadilar. Buning uchun bitta yassi toshcha olib, bir tomonini qo'llashadi; ho'l tomoni — biriniki, quruq tomoni — ikkinchi bolaniki. Toshcha havolatib tashlanadi. Ho'l tomoni yuzaga bo'lib yerga tushsa — birinchi bola; aks tomoni yuzaga bo'lib yerga tushsa — ikkinchi bola o'yinni boshlaydi. Cheki o'ynagan bola lankani olib, o'ng oyog'i bilan urib, yuqoriga irg'ita boshlaydi. Shartga ko'ra o'ynayotgan paytda lankaga qo'li tegmasligi kerak. Oyog'i bilan lankani yuqoriga urib irg'itganda uni yerga tushirmaslikka harakat qilishi lozim. Ikkita bola lanka tepishni «Bir par, ikki par, uch par...» deb sanab turadi. Lanka yerga tushgan zahoti ikkinchi bolaga gal tegadi. Birinchi bo'lib marradagi sanoqqa yetgan tomon yutgan hisoblanadi. O'yin yil davomida hovlida va ko'chada o'ynaladi.

O'yinning boshqa bir turida yerga chizilgan kataklar soni oltita bo'lib, uch-tasi — borish, uch-tasi — qaytish yo'li sanaladi. Bunda jirttakni bir oyoqda sakrab turib tepib borish, tepish paytida chiziqni bosmaslik shart. Jirttak chiziq ustiga to'xtasa yoki hakkalaganda chiziq bosilsa yoinki jirttak chiziqdan tashqariga chiqib ketsa, o'yinni raqib qiz davom ettirish huquqiga ega. O'yinni boshlashdan avval o'ynovchilar o'z tartiblarini shunday belgilashadi:

Biri: «Bizdan bosh», desa, ikkinchisi: «Qalam qosh», — deydi. Uchinchisi: «Ilon bosh», — desa, to'rtinchisi: «Chiroyli qosh», — deydi.

O'yinni kim «Bizdan bosh», degan bo'lsa, o'sha boshlaydi. U olti gala katakni olti marta sakrab turib jirttakni tepgan holda aylanib chiqmog'i shart. Shuni uddalasa, keyin ko'zini yumib: «Magmi?» — deya sakrab jirttakni tepishni davom ettiradi. U chiziqni bosmagan taqdirda kuzatuvchilar: «Mag», — deya o'yinni davom ettirishiga monelik qilmaydilar. Agar chiziqni bossa: «Mag emas», — deya o'yinni «Qalam qosh», degan ikkinchi o'yinchiga olib bera-dilar. O'yin shu xilda qizlarning biri katakchalarni to'la egallaguncha ochiq havoda davom ettirilaveradi.

O'yin bahor va yozda o'ynaladi.

Chiziqni bosma!

Bu o'yinda ikkita qiz bola qatnashadi. Yerga bo'yi 2,5–3 metr uzunlikdagi to'g'ri to'rtburchak chiziladi. Teng o'rtasidan ikkiga bo'linadi. Hosil bo'lgan xonalarning har biri yana beshtadan xonalarga bo'lib chiqiladi. Natijada o'ng va so'l tomonda beshtadan — jami o'nta xona hosil bo'ladi. Kim oldin o'yinni boshlashini aniqlash uchun yassi toshcha olib cheklashishadi. (Cheklashish tartibi «Lanka» o'yinidagidek.) Birinchi bo'lib o'ynash huquqini olgan qiz chap tomondagi xonalar ichidan bir oyoqlab sakrab-sakrab borib, xuddi shunday holatda o'ng tomondan qaytib keladi. Bu jarayonni o'rtog'i kuzatib turadi. Qaytib kelgach, chap tomondagi xonalardan ikkala ko'zini yumib, chiziqlarni bosmay yana sakrab yuradi va o'ng tomondagi xonalardan qaytib kelishi kerak. Shu jarayonda chiziqni bossa, o'yinni o'rtog'i davom ettiradi. O'yin shu tartibda navbat bilan o'ynaladi.

O'yin, asosan, yozda o'ynaladi.

Kataklardagini topib ta'rifla!

O'yinda ikki va undan ortiq bola qatnashadi. Sanama aytilib, galda qoluvchi aniqlangach, uning ko'zi ro'mol bilan bog'lanadi. Ro'mol bo'lmasa, u orqasini o'girib, kaftlari bilan to maxsus taklif bo'lmaguncha ko'zlarini yopib turadi — boshqa bolalar esa yerda sakkizta katakcha chizib, ularning ichida har xil hayvonlarning izini soladilar. So'ngra ko'zi bog'liq bolaning ko'zini ochib, shu izlarni topishni va ular qaysi hayvonniki ekanini aniqlashni buyuradilar. U shularni aniq topolsa g'olib, o'yinni ikkinchi bola davom ettirishga kirishadi, bordi-yu topolmasa — nechta izni aniq topib aytgan bo'lsa, ular haqida shuncha she'r yo topishmoq aytib berishi shart.


* * *

O'yinning ikkinchi bir turi bundan murakkabroq bo'lib, o'rta yoshli bolalarga mo'ljallangan. Bunda endi 20–30 tacha katak chizilib ular qat'iy raqamlangan bo'ladi. O'yin ishtirokchilari ana shu kataklar tartib raqamini qat'iy bilishlari shart. Ammo bu kataklarning har biri boshdan oxirigacha yo mevalar, yo sabzavotlar, yo poliz ekinlari, yo qushlar, yo hayvonlar, yo hasharotlar, yo gullar nomi bilan nomlangan bo'lib, onaboshidan boshqa o'yinchilar buni bilmasliklari lozim. Onaboshi u yoki bu meva, sabzavot, poliz ekini, xullas, kelishuvdagi narsalar nomini aytadi. Toparmonlardan qay biri nomi tilga olingan narsa haqida ko'p she'r, topishmoq yoki maqol aytsa — o'sha g'olib, hech narsa aytolmagan lola esa o'yindan chiqariladi. To oxirgi sanoqqa yetguncha she'r, topishmoq yoki maqol ayta olgan o'yinchi toparmongina haqiqiy g'olib sanaladi.

Gohida kataklar raqamlanmay, ularga to'g'ridan to'g'ri kelishuv asosidagi narsalar nomi ham yozilishi mumkin. Bu o'yinda qancha ko'p bola qatnashsa, shuncha yaxshi.

Gulni top!

O'yinda ikki yoki undan ortiq bola ishtirok etadi. Devorga bo'r bilan katta aylana chiziladi. Uning ichida kichkina gulning rasmi chiziladi. Bu ishlarni bolalar alohida-alohida bajarishadi. Birinchi bo'lib chizib ulgurgan bola onaboshi bo'ladi. U o'rtog'ini aylana va gul chizilgan devordan 8–10 metr uzoqqa olib borib, ko'zini ro'mol bilan bog'laydi va uch marta aylantirib: «Gulni top», — deydi. Shundan so'ng ko'zi bog'langan bola aylana ichidagi gulni borib topishi va o'chirishi kerak. Onaboshi esa uni kuzatib turadi. O'rtog'i gulni topolsa, bolalar o'zaro o'rin almashishadi. Agar topolmasa, o'yin qaytadan boshlanadi. Bu o'yinni bahor faslida qiz va o'g'il bolalar aralashiga o'ynaydilar.



Ko'z yumarak

O'yinga sakkiz yoki undan ortiq bola qatnashadi. Ular to'planishgach, quyidagi sanamani aytishadi:

*Attum-battum,
Loyga botdim.
Loydan chiqib,
Miltiq otdim.
Miltig'imning o'qi yo'q,
Traktorning toki yo'q.
Paq-puq, taq-tuq, san chiq!*

Sanama bir necha marta takrorlangach, bolalar birin-ketin chiqaveradi. Eng oxirida qolgan bolaning ko'zi ro'mol bilan bog'lanadi. Katta aylana chiziladi, hamma bolalar shu aylana ichida o'zlarini ko'zi bog'liq boladan himoya qilishadi. Ko'zi bog'liq bola kimni tutib olsa, o'shaning ko'zi ro'mol bilan bog'lanadi, endi u bolalarni tutishga kirishadi. O'yin jarayonida aylana ichidan chiqib ketgan bola o'yindan chiqariladi.

Shax-shaxa

Bunda bolalar olti yoki sakkizta bo'lib o'ynaydilar. Bolalar o'zlariga sherik tanlab oladilar. O'yinboshi to'g'ri chiziq chizib, bolalarni bir safga tizib chiqadi. Keyin quyidagi sanamani aytadi:

*An, tan, tina,
Samaluta binam,
Samaluti tikka-tik,
Alik, baliq, bom,
Dadebma salom!*

Tortishmachoq

Bolalar ikki raqib tarafga bo'linish uchun o'zlariga ikkita onaboshi tayinlaydilar. So'ngra o'zlariga ot qo'yib onaboshilar oldiga keladilar. Bu o'yinning chek tashlash qismi bo'lib, har ikki bola baravariga so'z aytadi:

- Ona, ona, kim ona?
- Men ona.
- Sizga gul kerakmi, barg?
- Gul!

- Unday bo'lsa, gul men bo'laman.
- O't, bizdan ekansan.

Nihoyat bolalar ikki guruhga bo'lingan, bir-birlarining orqasidan turib quchishgan holda tizilishgach, guruhlar bir-birini tortishga kirishadi. Bunda qoq o'rtadan ikki guruhni ajratib turadigan to'g'ri chiziqli tortilgan bo'ladi. Bu asosiy marra hisoblanadi. Shu sababli uni bosgan bola qarshi guruh ixtiyoriga o'tadi. O'yin hamma bolani o'z tomoniga tortib olgan guruhning g'alabasi bilan tugaydi.

O'yin ochiq havoda, issiq kunlarda qiz bolalar alohida, o'g'il bolalar alohida o'ynaydilar.

Arqon tortish

O'rtadan to'g'ri chiziqli tortiladi. Keyin 5–10 metrli arqon olinadi. Kuch sinashuvchi raqiblar ikki tomonga bo'linib, arqonni tortadilar. Qaysi tomon kuchsizlik qilsa va raqibi tomonga chiziqli o'tib ketsa, yengilgan hisoblanadi.

Ro'molga qarab sakrash

Bolalar aylana bo'lib turadilar. O'yinni boshlamaslaridan oldin bolalar tomondan o'yinboshi belgilanadi. U aylana o'rtasida turib, bolalardan birini chaqiradi. O'yinboshi ro'molni bo'yi baravar ko'targan holda ushlab turadi. Boshqa bir bola sakrab shu ro'molni olishi kerak. Doira hosil qilib turgan boshqa bolalar o'ngacha sanashga kirishadilar. Shu sanoq davrida u ro'molni ololmasa, o'yindan chiqadi. Bordi-yu ololsa, yana borib joyiga turadi. Ochiq havoda, bahorda, yozda o'ynaladi, bu o'yin shu tarzda davom etaveradi.

Ipdan sakrashma

Qiz bolalar sevib o'ynaydigan bu o'yin bahor kelishi bilan ochiq havoda o'ynaladi. Har bir qizda bittadan ip bo'ladi. Qizlar navbatma-navbat ipdan sakraydilar. Kim to'xtovsiz belgilangan vaqtgacha sakrasa, o'sha g'olib hisoblanadi. Yoki bittasi sakrayotganda ikkinchisi uning sakrashini sanab turadi. Qaysi raqamda to'xtab qolsa, o'yinni ikkinchi qiz davom ettiradi. O'yinni boshlagani qaysi raqamda to'xtaganini esida saqlamog'i shart. Odatda ikki qiz qatnashuvchi bu o'yin shu tarzda davom etadi.

* * *

O'yinning boshqa turi ham bor bo'lib, unga uch yoki to'rtta qiz qatnashadi. Ikki qiz uzun ipning ikki uchidan ushlab havolatib aylantira boshlaydi, o'rtadagisi esa undan sakray boshlaydi. Sakrash chog'ida ipni aylantirib turgan qizlar: «Roza,

Femza, Mart, Aprel...» deya sanashga kirishadi. Qaysi soʻz sanalayotganda sakrab turganlar charchab yoki ipdan oʻtolmay qolsa, shu zahoti oʻyinni toʻxtatishadi va qizlar oʻrin almashishadi. Oʻyin shu xilda takrorlanaveradi.

Oʻyin vaqti cheklanmagan. Bolalarning jismonan baquvvat va chaqqon boʻlishlarida oʻyin katta ahamiyatga ega.

Arqondan sakrash

Mazkur oʻyinda uchta qiz bola ishtirok etadi. Yerga chiziq chiziladi. Qizlar yugurib kelib shu chiziqdan sakrashadi. Kim eng koʻp uzoqqa sakrasa, oʻsha oʻrtaga tushadi. Qolgan ikki qiz uzunligi 2–2,5 metrlik arqonni ikki uchidan tutib aylantiradi. Uzoqqa sakragan qiz esa oʻrtaga tushib, sanab-sanab arqondan sakraydi. Agar arqon oyogʻiga ilinib qolsa, oʻrtadan chiqib arqonni aylantiradi. Oʻyin shu xilda davom etadi. Eng koʻp sakragan qiz gʻolib hisoblanadi.

Oʻyin bahor, yoz, kuz fasllarida koʻchada va hovlida oʻynaladi.

* * *

Oʻyin boshqa bir turida uch va undan ortiq bola qatnashadi. Arqonning bir uchini bir bola, ikkinchi uchini boshqa bola ushlab aylantirib turadi. Har sakraganda «olma, anor, behi...» deb mevalarning nomini aytaveradilar.

Arqondan bir vaqtning oʻzida ikki kishi ham sakrashi mumkin. Eng koʻp sakray olganlar gʻolib hisoblanadi.

Uloq

Bu oʻyinda, asosan, oʻn bir kishi qatnashadi. Beshta eshakni qizlar va yana beshta eshakni oʻgʻil bolalar minadi. Oʻyinchilarning eng kattasi devorning ustiga chiqib uloq tashlaydi. Kim uloqni olsa, u eshakdan tushib uch marta taʼzim qiladi.

Koʻbori

Sakkiz-oʻn ikkitagacha toʻplangach, bolalar uzunroq tayoqchani topib, bir uchiga lattalarni uchma-uch bogʻlab uzun arqon tayyorlaganlar va bogʻlaganlar. Ikkinchi uchiga esa eski supurgi yoki yozda xom supurgining shoxlaridan sindirib olib bogʻlaganlar. Shu supurgi otning dumi rolini bajargan. Ot tayyor boʻlgach, bolalar unga mingan holda arqonni bir qoʻlda ushlab, ikkinchi qoʻlda qamchi (xivich) olib, bir chiziqda saf tortib turganlar. Oʻyinni boshqaruvchi bola: «Bir, ikki, uch, yuguringlar!» — degach, bolalar otni savalab koʻchaning u boshidan bu boshiga borib kelganlar.

Koʻborida, yaʼni yugurishda kimning oti oldin oʻtsa — oʻsha gʻolib hisoblanadi. Uch martagacha gʻolib chiqqan «otliq» boshliq boʻlgan. Buni ham oʻgʻil bolalar oʻynagan.

Chu, toychog'im!

Bu o'yinni o'g'il bolalar bahor paytida sevib o'ynashadi. Tol daraxtidan uzun xivichlar olib minishadi. Ularning soni cheklanmagan bo'ladi. Qator turib xuddi otga minganday xivichlar ustida turib: «Chu, toychog'im, chu!» — deya yugurishadi, otday kishnashadi. Bu o'yinni, ayniqsa, kichik yoshdagi bolalar sevib o'ynashadi.

Ot

Bu o'yinda bir nechta bola qatnashadi. Ularning har biri bittadan uzun cho'p va kaltaroq tayoqcha oladi-da, quyidagi qo'shiqni shovqin solib kuylaydi:

*Dukur-dukur ot keldi,
Oyoqlari qoq keldi.
Keling, do'stlar, minaylik,
Tezroq borib yetaylik.*

«Yetaylik» so'zini eshitish bilanoq hamma baravariga oldinga qarab yuguradi. Qo'llaridagi cho'plarga otga mingandek minib, tayoqchalar bilan qamchi solgan bo'ladilar. Kim mo'ljallangan marraga birinchi bo'lib yetib olsa, o'sha g'olib sanaladi. O'yin shu zaylda davom ettiriladi.

Aravakash ot!

Qiz bolalar to'rt-beshta bo'lib, bir qarich uzunlikdagi cho'pni olganlar, yaxshilab tozalab, ikki uchidan uzun ip bog'lab o'yin quroli yasaganlar.

Qizlardan biri cho'pchani og'zida ushlab ipchalarni qo'ltiq ostidan o'tkazgan holda «ot» bo'lib turgan. Ikkinchisi esa, bir qo'lida ipni ushlab, ikkinchi qo'lga xivich olib turgan. Ikkinchi «aravakash» «ot»ni chuh-chuhlab haydagan. Marraga oldin yetib kelgan «aravakash» g'olib hisoblangan. «Ot» va «aravakash» vaqt-vaqti bilan almashib turishgan. Qizlar ba'zan ko'chada, ko'pincha hovlida o'ynaganlar.

Ro'mol qo'ydi

O'yin boshlanishidan oldin quyidagicha chek tashlanadi:

*Atala-batala tutoni,
Surma alijahoni.
Qozi qizi Nazira,
Saqich bersam olmaydi.*

Sen kir, sen chiq!

Chek tashlash paytida bolalar bitta ko'rsatkich barmoqlarini chekchining kaf-tiga qo'yib turgan bo'ladilar. Chekchi bola oxirgi satrni aytishi bilan hamma birvarakayiga qo'lini tortib olishi kerak. Bunda kim orqada qolsa, o'sha ro'mol qo'yuvchi bo'ladi va o'yinni boshlaydi.

O'yin davomida hamma bolalar davra olib, qo'llarini orqaga qilib o'tiradilar. Orqada qolgan bola ularning atrofini aylanib, qo'lidagi ro'molni bildirmay davra-dagilardan birining orqasiga qo'yib ketadi va:

— Ro'molimni tashlab ketdim, bir o'rtog'im olsin-da! — deyishi bilan hamma orqasini timirskilaydi. Ro'molni sezib qolsa, darhol olib qo'ygan bolaga «joyingni top» deb, uni quvib, urib ketadi. Sezmasa, ro'mol qo'yganning o'zi davrani bir ay-lanib, ro'molni oladi. Yana o'zi ro'mol qo'yuvchi bo'ladi.

O'yin bahorda, yozda daraxtlarning soya-salqinlarida, qishda esa uyda o'yna-ladi. O'yinchilar soni yetti-sakkiztagacha bo'ladi.

O'yinni bolalar o'zlari charchab, zerikkunlarigacha davom ettirishlari mumkin. Bu o'yinga ko'proq qiz bolalar qiziqishadi.

Tugma qo'yish

Bu o'yin «Ro'mol qo'ydi» o'yiniga o'xshab ketadi. Bunda ham bolalar davra olib o'tirishdan oldin yuqoridagiday qilib chek tashlashadi. Chekchi kimning ko'rsatkich barmog'ini ushlab qolsa, o'sha bola tugma qo'yuvchi bo'ladi.

Tugma qo'yilishidan oldin bolalar qo'llarini oldinga cho'zib, kaftlarini bir-lashtirib turadilar. Tugma qo'yuvchi bola davrani uch yoki to'rt aylanib, tugmani birorta bolaning qo'liga yashiradi, ya'ni qo'yadi. So'ngra davradagi bolalarning birortasidan: «Tugma kimda?» — deb so'raydi. Bola to'g'ri topsa, o'zi tugma qo'yuvchi bo'ladi, topolmasa — yana oldingi bola davom etadi.

O'yin uyda ham, ochiq havoda ham o'ynalaveriladi.

Yog'ochga mindi yoki lo'kkichimomo

Bu o'yinni bolalar bir g'ola ustiga qo'yilgan uzun taxta yoki yog'ochning ikki uchiga o'tirib olib, baland chiqib, past tushib o'ynaydilar.

O'yin ochiq havoda o'ynaladi. Unda qiz va o'g'il bolalar aralashiga qatnasha-veradilar. Ularning soni o'rtacha oltitagacha bo'lishi mumkin.

Dor uzra yurish

Bu o'yin yozda soya-salqin maydonlarda, daraxtzorlarda o'ynaladi, uni, aso-san, o'g'il bolalar o'ynashadi.

O'yin uchun dastlab oralig'i 3–5 metr bo'lgan ikki daraxt tanlanib, ularning biridan ikkinchisiga baquvvat arg'amchi solinib, dor hosil qilinadi. Dorning balandligi 30, 40 va 60 sm gacha bo'lishi mumkin. Ip o'rnida simdan ham dor solinishi mumkin. So'ngra bolalar navbat bilan shu dor uzra u daraxtdan bu daraxtga borishadi. Boshqa bolalar esa jo'rovozlikda:

*Umbul-baqa-bam, dor o'yna,
Dordan yiqilib yig'lab yurma! —*

deyishib dor uzra yurayotgan bolani quvvatlab turishadi.

Dordan yiqilmay masofani bosib o'tgan bola g'olib sanaladi.

Qo'chqorbob

Bu o'yin bahor paytida o'ynaladi. Bahor kelgach, dov-daraxtlar kurtak chiqarib, turli yovvoyi o'tlar nish urib, unib chiqa boshlaydi. Bedazorlarda esa naysimon o't sabz ura boshlaydi. Uning nomi sariq gul. Qizchalar shu sariq gullarni terib olib, naycha tayoqchasini qo'llari bilan ikki tarafga ajratib tortadilar. Shunda u qo'chqorning shoxiga o'xshab ajraladi. Qizchalar unga qarab: — Qo'chqorbob, qo'chqorbob, — deya qichqirishadi. Chunki u qo'chqor shoxiga o'xshaydi. Shu vajdan bu o'yinni ham shunday deb atashgan.

Qovun-qovun

Bunda bolalar katta to'rtburchak chizib, uning ichida tuproqdan bir necha to'dachalar yasaganlar va uni poliz deb ataganlar. Bir bola polizning qorovuli bo'lgan. Bolalar birgalashib qorovulga g'o'zapoya, cho'p, hashaklardan uycha yasab ham berganlar. So'ngra qorovul polizdagi qovunlarni sanab chiqib, uychasi yonida o'zini uxlagancha solib yotadi. Qolgan bolalar (to'rttadan o'ntagacha), ya'ni qovun o'g'rilar pana joyda yashirib turadilar. Qorovul uyquga ketgach, o'g'rilar yugurib kelib polizni payhon qila boshlaydilar. Xuddi shu paytda qorovul birdan uyg'onib, qo'liga tayog'ini olib:

*— Och bo'rilar kelishdi,
Qovunlarni yeb ketishdi, —*

deya qichqirib shovqin solgan holda o'g'rilarning izidan quvadi. O'g'rilar qocha boshlaydi. Agar qorovul o'g'rilardan bittasi yoki ikkitasini tutib olsa, uni «tavba qildim» deguncha savalaganday bo'lib, asta-sekin tayog'i bilan uradi. So'ng polizni tuzattirib qorovulxonaga qamab qo'yadi.

Qo'lga tushgan o'g'ri uycha ichida o'tiravergan. Bolalar o'yin paytida birinchi bo'lib qo'lga tushgan bolaning ustidan kulib, ko'pincha uni masxara qilganlar.

Bu o'yinda bolalar chaqqon bo'lib, qo'lga tushmaslikka harakat qilganlar. Qorovul to'rtta o'g'rini tutgandan keyin uni almashib, o'yin yana davom ettirilgan.

So‘nggi so‘z tushgan bola o‘yinboshi bo‘ladi. Yana sanama aytilib, endigi sanoqdan chiqqan bolaning ko‘zi ro‘mol bilan bog‘lanadi. Ko‘zi bog‘liq bola bargni bandidan tishlab davra o‘rtasiga chiqib turadi. Qolganlar uning atrofida davra hosil qilib o‘tirishadi. O‘yinboshi davradagilardan birini imo qilishi bilan o‘sha bola o‘rtadagi ko‘zi bog‘liq bolaning og‘zidagi bargni ikkinchi tomonidan og‘zi bilan tishlab sekin tortib olib, o‘z joyiga borib o‘tiradi va bargni yashiradi. Shundan so‘ng o‘yinboshi o‘rtadagi bolaning ko‘zini ochadi va: «Bargni kim oldi?» — deb so‘raydi. Agar u bargni olganni to‘g‘ri topa olsa, o‘sha bolaning ko‘zi bog‘lanib, og‘ziga barg beriladi. Agar topolmasa, yana o‘zi o‘rtaga turaveradi. Bu o‘yinni, asosan, bahor, yoz fasllarida qiz va o‘g‘il bolalar aralash o‘ynaydilar.

Juma-juman

O‘yinda o‘n yoki undan ortiq bola to‘planishgach, ulardan biri o‘rtaga chiqib to‘planganlarni sanay boshlaydi:

- *Naziraxon, Nazira,*
Otni qayerga bog‘lading?
- *Otxonaga bog‘ladim.*
- *Necha paqir suv ichdi?*
- *Olti paqir suv ichdi.*
- *Qolganini kim ichdi?*
- *Iq, biq, sen chiq!*

Sanoqdan birinchi chiqqan bola — Juma, ikkinchi chiqqani — Juman bo‘ladi. Qolganlar qo‘l ushlab davra hosil qilishadi. Juma va Jumanlarning ko‘zlari ro‘mol bilan bog‘lanib va davraning qarama-qarshi tomonlaridan ichkariga kirgizishadi. Juma Jumanni qidirib topishi kerak. Juman esa unga tutqich bermasligi lozim. Juma Jumanni tutsa, yana sanama aytilib, davraga boshqa Juma-juman chiqariladi. Agar Juma Jumanni tutolmasa, davra o‘rtasiga turib yo she‘r aytmog‘i yoki qo‘shiq kuylamog‘i, yoxud raqsga tushmog‘i shart. Asosan, qizlar ishtirokidagi bu o‘yin yilning issiq fasllarida ko‘chada va hovlida o‘ynaladi.

Bu o‘yin bolalar orasida Anyuta-Katyuta nomi bilan ham ma‘lum.

Uy-uy

Bu o‘yinni ko‘pincha kichik yoshdagi bolalar o‘ynaydi. O‘ynovchilarning soni cheklanmagan. O‘lkamizga bahor kirib kelishi bilan bolalar qumdan turli xil uychalar yasay boshlaydilar. Ular uylarni bir-birlariga qarab, qay biri chiroyli bo‘lsa, shunday yasashga urinadilar. So‘ngra uychalarga poyloqchi qo‘yib, o‘zlari ishga ketganday bo‘ladilar. Poyloqchiga shunday tayinlaydilar:

*Lola, chaman, gul,
Upa-atir sur(t),
Oyim kelguncha
Uyni poylab tur.*

Ular orqa o'giranlari zahoti poyloqchi hamma uychalarni buzadi. Uy egalari poyloqchini quva soladilar-da, o'zlari yana qaytadan qumdan uychalar yasashga kirishadilar.

O'yin shu tarzda davom etaveradi.

Hammompish yoki uy-uy

Bahor kelgan paytlarda bolalar hammompish o'ynaydilar. Ular ariq lablariga qum olib borib, uni suvda ivitib, har xil uychalar yasaydilar. Bu uychalar qushlarga yasaladigan inlarga o'xshab ketadi. Shu boisdan uni uy-uy o'yini ham deyishadi.

O'yinni ko'pincha qizlar o'ynashadi, ularning soni to'rt-beshta bo'lishi mumkin.

Tuproq tortishma

O'yinda ikki bola qatnashadi. Qiz bola ham, o'g'il bola ham qatnashishi mumkin. Ikki bola bir joyga romba shaklida tuproqni to'playdi. Tuproqning o'rtasi ozgina chuqurcha qilinib, shu chuqurchaga mayda kesakcha qo'yiladi. Keyin ikkovi o'tirib olib har biri tuproqni o'ziga qaratib torta boshlaydi. Shu jarayonda kim kesakchani tushirsa, yutqizgan hisoblanadi.

O'yin ochiq havoda, bahor va yoz fasllarida o'ynalib, bolalarda ehtiyotkorlik tuyg'usini tarbiyalaydi.

Non yopish

Bunda bolalar ikki, uch-to'rtta bo'lib o'ynaganlar. Yozda ariqlarning ichidan yoki sug'orilgan yerning chetidan loy olganlar. Loydan zuvalachalar yasab ularni bir joyga terib qo'yganlar. So'ngra devorga katta aylana chizganlar, bu «tandir»ga ham suv sepkanlar. Keyin «pazanda» zuvalalarni qo'li bilan bosib yozgan, cho'p yoki tovuq pati bilan chakichlab «kulcha» yasab, navbat bilan «tandir»ga yopaverib shunday deganlar:

*— To'liqinjonning to'yi bu.
Biz taxladik moy kulcha.
Moy kulchaki — xuddi bol,
Xohlaganing saylab ol.*

Yoki:

*Ruxsor tug'ilgan kuni
Biz pishirdik moy kulcha.
Moy kulchaning moyi bor,
Xohlaganing tanlab ol!*

So'ngra kulchalar devorda ancha vaqt turgach, ularni uzib olib, oftobga yoyib qo'yganlar. Quriganlarini terib olganlar. Keyin: «Kim chiroyli non yopibdi?» — deb bir-birlarining kulchalarini solishtirib ko'rganlar.

Yana bolalar loydan har xil narsalar: choynak, piyola, likopcha, hayvonlarning shaklini yasaganlar.

Panqiltovuq

O'yinda ikki bola qatnashadi. O'ynovchilar loy olib keladilar va pishitadilar. Piyolaga o'xshash shakl yasaydilar. O'yinni boshlamaslaridan oldingi sanoqda birinchi bo'lgan bola uni boshlaydi. Yasagan shaklini yerga qarab uradi, shunda u paq etib ovoq berib, o'rtasidan yorilishi kerak. Yorilsa, yonidagi sherigi o'sha yoriq joyni loydan to'lg'izadi. So'ngra o'zi ham haligi holatda o'yinni takrorlaydi. Bordi-yu loy piyolacha yerga to'ngarib urilganda yorilmasa, qarshi tomon loy bermaydi. Ammo har urganda yorilaversa, sherigi loyni olib, o'z loyiga qo'shaveradi. Oxirida qaysi birining loyi tugasa, o'sha bola yutqizgan hisoblanadi.

Loy bilan urish

Bu suvda o'ynaladigan o'yinlarning bir turiga kiradi. O'yinda kim oldin suvdan chiqsa yoki kim keyin suvga tushsa, o'shani loy bilan urishadi yoki hamma a'zolarini loyga bo'yashadi.

Loy bilan urilgan bola o'sha loy otgan bolalar qochganida ularni quvib tutishi kerak. Tutsa, o'sha tutilgan bolani loy bilan urishga kirishadilar. O'yin shu zaylda, xohlagancha davom etaveradi.

Kim epchil?

Bu o'yinda ikki bola qatnashadi. O'rta 15 sm li tayoqchani yarmi yerga qoqiladi. Shunda birinchi bola o'rta chiqib, haligi tayoqchani chap qo'li bilan ushlaydi, o'ng qo'li bilan esa chap qulochini ushlaydi. Shu holatda tayoqni qo'yib yubormasdan o'n ikki marta aylanishi kerak. Ikkinchi bola uning aylanishini sanab turadi. Keyin ikkinchi bola shu vazifani bajaradi. O'yinni mohirlik bilan tez va xatosiz bajargan bola g'olib sanaladi.

Kim zo'r?

Bu o'yinda ikki bola yetarli. Dastlab ular yerda katta doira chizadilar. So'ngra uning ichiga har ikkalalari kiradilar. Ular qarama-qarshi turgan holda bitta uzun tayoqning ikki uchidan ushlab, bir-birlarini itara boshlaydilar. Qay birlari raqibini doiradan itarib chiqarsa, o'sha g'olib hisoblanadi. O'yin shu zaylda har gal yangidan boshlanadi. O'yin, asosan, yoz kunlari salqin joylarda o'ynaladi.

Qurma tayoq

Bu qadimiy o'yinlardan hisoblanadi. O'yin ishtirokchilari, asosan, o'g'il bolalar. Bunda to'rt-oltita bola bir bo'lib o'ynaydi, har 1–1,5 metr masofada chiziqlar chiziladi. Chiziqlar soni besh-sakkiz, hatto o'ntagacha bo'lishi mumkin Chiziqning oxirgisidan 1-chiziqda tikka qilib qo'yilgan tayoqni urib yiqitish asosiy shart. Tayoq tegmay o'tsa, o'sha tayoqni irg'itgan bola yutqizgan sanaladi, ikkinchi bola o'yinni davom ettiradi. O'yinni bolalar charchaguncha, zerikkuncha davom ettirishlari mumkin. Bu o'yinning bosh maqsadi — nishonga to'g'ri ura bilish, miltiq turlarini bexato ishlatish, dushmanga zarba berishdan iborat.

O'yin to'rt faslda ham o'ynalishi mumkin. Qishda havo yaxshi bo'lgach, yog'ingarchilik bo'lmagan paytlarda o'ynaladi. O'yin ochiq havoda, keng sayhonliklarda o'ynaladi.

Tayoqcha

Bu o'yinga, asosan, uchtdan yettitagacha o'g'il bola qatnashadi. Bolalar uyidan 40–50 sm uzunlikda uchi yo'nilgan tayoqchalar olib kelgan bo'lishadi. O'yin uchun tayoqchalar yerga kiradigan joy tanlanadi. Bolalardan bittasi birinchi bo'lib tayoqchasini yerga uradi. Ikkinchi bola uni urib yiqitishi yoki yerga kirmay yiqilib yotgan bo'lsa, joyidan qimirlatishi kerak. Kim shu shartni bajarsa, tayoqchani o'sha oladi va o'zi tayoqchasini yerga uradi. Shart bajarilmasa, uchinchi bola davom ettiradi. O'yin shu xilda davom etaveradi. Uni yilning qish va bahor fasllarida o'ynashadi.

O'n ikki tayoqcha

Bu o'yinga o'n ikki nafar bola qatnashadi. Boshda ular o'yin uchun alohida tayyorgarchilik ko'radilar. Bitta bir metrli uzun va yo'g'onroq xoda, o'n ikkita 25–30 sm li qalamsimon tayoqchalarni hozirlaydilar. So'ngra birorta tosh yoki g'isht topib, o'sha 1 metrli xodani qoq o'rtasidan uning ustiga yotqizib qo'yadilar-da, uzun xodaning bir uchi ustiga o'n ikkita qalamchasimon tayoqchalarni terib chiqadilar.

Shundan so'ng bolalar saflanib, soqchini aniqlash uchun sanama aytishga kirishadilar. Sanoqda chiqmagan bola soqchi sanaladi. U tayoqchalarga bolalarni yo'latmasligi shart.

Ammo sanoqdan chiqqan bolalardan qay biri soqchi ko‘zini shamg‘alat qilib tosh yoki g‘isht ustiga ko‘ndalang qo‘yilgan xodaning ko‘tarilib turgan uchini shiddat bilan bosib, narigi uchidagi o‘n ikkita tayoqchani sochib yuborishi kerak. So‘ngra o‘zi va boshqa bolalar qochib yashirinmoqlari lozim. Soqchi atrofga nazar solib, yashiringan bolalardan qay birini ko‘rsa, o‘sha zahoti uning nomi va yashiringan joyini aytib, sochilgan tayoqchalardan birini olib avvalgi tartibicha qo‘ymog‘i kerak. Shu zaylda u har bir bolani ko‘rganda bitta tayoqchani yerdan olib o‘rniga qo‘ygunga qadar yugurib kelib uzun xodani yana bosib, terilgan tayoqchalarni sochib yuborishga ulgursa, tag‘in qochib yashirinish huquqiga ega. Bunda soqchi ishini yana qaytadan boshlaydi. Soqchi agar ehtiyotkorlik bilan barcha bolalarni topib, barcha tayoqchalarni o‘rniga qo‘yishga ulgursa — g‘olib sanaladi. O‘yinni qayta boshlash uchun yangi soqchini aniqlashga kirishiladi. Bunda sanash vaqtida avvalgi soqchi yana galda qolishi mumkin.

O‘yin jarayonida soqchi yashiringan bolani ko‘rmasdan turib tayoqchani qo‘lga olishi, shuningdek, soqchi ko‘rganligini e‘lon qilib, nomiga tayoqchani terganidan so‘ng uzun xodani bosish ham qat‘iy man qilinadi.

O‘yin bahor, yoz va kuzda keng maydonlarda o‘ynaladi.

Mo‘ljalga urish

Bu o‘yinda bir nechta bola qatnashadi. Bunda bo‘r bilan yerda bir metr bandlikda devorga diametri 25 sm keladigan aylana chiziladi. O‘ynovchi bola olti qadam masofadan devorga qarab turadi. Sherigi esa uning ko‘zini bog‘lab, unga uzunligi 1 metrcha keladigan tayoqchani beradi. O‘yinni tayoqchani «Oldinga cho‘zib, ko‘zi bog‘liq holda to‘g‘ri oldinga qarab boraveradi. Shunda tayoqchani uchini to‘g‘ri olib borib, devordagi aylana ichiga tekkiztiradi. Shunda u g‘olib sanaladi.

Ko‘prikcha

O‘yinda beshta bola ishtirok etib, quyidagi sanamani aytishadi:

O‘rmon o‘tdim, o‘q otdim,

Pichoqchamni yo‘qotdim.

Milisa kelayotganda

Daraxtga chiqib qottim!

«Qottim» kimning sanog‘iga to‘g‘ri kelsa, o‘sha navbatda qoladi va pahlavon» deyishadi. Qolganlar esa bitta g‘ishtni yerga tikka qo‘yib, 2 metrcha uzunlikdagi yog‘ochning bir uchini shu g‘ishtdan sal chiqarib, ikkinchi uchini yerga turadigan qilib qo‘yishadi, so‘ngra yog‘ochning ustiga yigirma ikkita kichkina

choʻpcha yotqizib chiqishadi. Bu ishlar tugagach, «Pahlavon» yugurib kelib, katta yogʻochning gʻishtdan chiqib turgan tomonidan zarb bilan yerga bosadi. Yogʻochning ustidagi choʻpchalar toʻrt tomonga sochilib ketadi. Bolalar yana choʻpchalarni terishga harakat qilishadi, «Pahlavon» esa ularni quvadi, koʻprikchani qayta tiklashga qoʻymaydi. Agar bolalar koʻprikchani qayta tiklasalar, «Pahlavon»ni yenggan boʻladilar. Oʻyin qaytadan boshlanadi. «Koʻprikcha» yoz faslida koʻchada oʻynaladi.

Satilchamda zamburugʻ

Oʻyinda oʻn besh yoki undan ortiq bola ishtirok etadi. Oʻyinni boshqaravchi «Shamol» deb yuritiladi. «Shamol»ni aniqlash uchun quyidagi sanama aytiladi:

*Pomidorga pomidor,
Onam bergan pomidor,
Pomidorim yettita,
Ishonmasang sanab koʻr!
1, 2, 3, 4, 5, 6, 7...
Ketdi!*

«Ketdi» sanogʻi kimga tushsa, oʻsha «Shamol» boʻladi. Qolganlar qator tizilib, «Shoxcha», «Bargcha» deb cheklashishadi. «Shoxcha» deganlar bir tomon, «Bargcha» deganlar ikkinchi tomonga ajralishadi. Oʻyin boshlanishidan oldin yerga 1,5 metr balandlikdagi yogʻoch vertikaliga oʻrnatiladi. Yogʻochning yuqori qismida 0,5 metrlik yogʻoch yerga parallel holatda qoqiladi. Har bir tomonning bittadan chelagi boʻladi. «Shamol» yogʻochning yonidan turib «huv» deyishi bilan har ikki tomon bolalari chelakni olib, «Shamol» oʻsha tomon chelagining dastasiga 10–12 sm lik ip bogʻlab yogʻochga osib qoʻyadi. Tomonlar oʻz oʻrinlariga qaytadilar. Chelakcha ilingan joydan 6–8 metr uzoqlikda aylana chiziladi. Dastlab chelagi osilgan tomon bolalari qoʻliga beshtadan toshcha oladi va navbat bilan aylana ichidan turib chelakka toshchalarni tushira boshlaydi. «Shamol» esa chelakni toʻxtovsiz silkitib turadi. Hamma toshchalarini chelakka otib boʻlgach, «Shamol» nechta toshcha chelakka tushganini sanab, oʻsha miqdorni bolalarga aytadi va raqamni yerga yozib qoʻyadi. Navbat ikkinchi tomonga beriladi. Ular ham yuqoridagilarni bajarishgach, chelakka tushgan toshchalar sanaladi. «Shamol» qaysi tomon koʻp toshchani chelakka kiritgan boʻlsa, oʻsha tomonni gʻolib deb eʼlon qiladi.

Oʻyin yilning barcha fasllarida koʻchada oʻynalishi mumkin. Ayniqsa, bahor faslida bu oʻyin koʻp oʻynaladi, chunki bolalar toshchani oʻrniga zamburugʻ ishlatishadi. Oʻyinni oʻgʻil bolalar ham, qiz bolalar ham sevib oʻynaydi.

Sadoqbozlik

Asosan o'g'il bolalar o'ynaydigan bu o'yinda ishtirokchilar soni cheklanmagan bo'ladi. Bunda har bir o'yinchida to'rt-beshtadan sadoq bo'lmog'i shart. Ular ikki xil bo'ladi. Bir xili — patsadoq (qushlarning dumi patlaridan), ikkinchi xili — qog'oz sadoqlar bo'lib, asosan, qog'ozdan tayyorlanadi.

Sadoqlar olma, olxo'ri, olcha, o'rik novdalaridan uzunligi 30–50 sm gacha qilib tayyorlanib, yo'g'on tomonidan qalamdek uch chiqariladi. Ikkinchi tomoni to'rtga bo'linib, unga to'rtburchakli qog'oz yopishtiriladi. Yoki tovuq, xo'roz, qarg'a patlaridan to'rttasi qirqib o'rnatiladi. Bunday sadoq — patsadoq, qog'oz o'ranatilgani — qog'ozsadoq deyiladi. Patsadoq qimmatroq sanaladi, bolalarning o'zaro kelishuviga ko'ra, bir patsadoq uchtdan beshtagacha qog'ozsadoqqa teng sanalishi mumkin.

Sadoqni uch tomonidan — uchdan ikki qism joyidan uchi tugunlangan ip bir marta o'ralib, ipning qolgan qismi ko'rsatkich barmoqqa o'ralgach, sadoq uch tomonidan qo'lga ushlangan holda otiladi. Bunda bolalar safga tizilishib, navbat bilan ketma-ket holatda sadoqlarini bir tarafga qarata otishadi. Shunda kimning sadoq'i uzoqqa uchib tushsa, o'sha barcha o'yin ishtirokchilarini yutgan hisoblanadi.

Kim mergan?

Bu o'yinda ham ikkita bola qatnashadi. Ular uzun taxta ustida o'ntadan tosh terib, «poyezdcha» yasashadi. So'ngra o'n metr uzoqdan turib har kim o'zi terib qo'ygan toshlarini — «poyezd»chani urib tushiradi. Birinchi bo'lib «poyezd»chani buzib bo'lgan bola g'olib hisoblanadi. U haqiqiy «mergan» sanaladi. O'yin yoz faslida ko'chada o'ynaladi.

* * *

O'yinning boshqa bir turida bolalar tekis stol ustiga yoki yerdan bir metr balandlikdagi taxta ustiga bittadan olma qo'yib chiqadilar. Har kim o'z olmasiga o'z nomining bosh harfini yozgan bo'ladi. Stoldan (yoki taxtadan) 8–10 metr uzoqda uzun chiziq chizadilar. Mana shu chiziqdan turib har kim o'zi qo'ygan olmani roгатkadan tosh otib stoldan tushirishi kerak. Birinchi bo'lib tushirgan bola — birinchi o'rinni, ikkinchisi — ikkinchi o'rinni oladi. Birinchi o'rinni olgan bola «mergan», eng oxirida qolgan bola esa «lapashang» deyiladi.

O'yin bolalarga aniq mo'ljalga olishni o'rgatadi, u besh yoki undan ortiq o'g'il bolalar tomonidan o'ynaladi. O'yinga qatnashuvchi har bir bolada bittadan olma va bittadan roгатka, beshtadan toshcha bo'lishi kerak.

«Kim mergan?» o'yinini barcha fasllarda ko'chada yoki hovlida o'ynaladi.

Osiyo-osiyo

O'yinda ikki bola ishtirok etadi. Ularning har biri yerga spiral shaklida alohida-alohida ariqcha qazishadi. Spiralning eng kichik aylanasi, ya'ni ariqcha tugash joyida bayroqcha o'rnatiladi. Ariqchaning boshlanish joyidan suv quyishadi, suv aylanib-aylanib oqib bayroqchani yiqitishi kerak. Bayroqchasini suv birinchi tushirgan bola g'olib hisoblanadi.

«Osiyo-osiyo» o'yinini issiq yoz kunlarida bolalar sevib o'ynashgan. U ariq yaqin bo'lgan joylarda o'ynaladi.

Varrak uchirish

Varrak uchirish bolalarning sevimli bahorgi mashg'uloti. Uni yoz, kuz fasllarida ham o'ynash mumkin bo'lsa-da, bizda ko'proq bahor faslida o'ynaladi. Bundan tashqari varrak uchiradigan shamollar ham bahor oyida bo'ladi.

Bolalar o'zi ipga qog'oz o'tkazib varrak yasashadi. Ular tomga chiqib shamolni chaqirishadi:

— *Shamol, bag'ri kamol,
Varragimni olib ket!*

Gurlandlik bolalar bu o'yinni «patparak» deydi. Ular dastlab uch marta hush-tak chalib, so'ng shamol chaqirishning tubandagi qo'shig'ini hayqirib aytishadi:

*Qamish tubi qaltirar,
Yelkan boshi shaldirar.
Tur, shamol, tur shamol,
Patparagim uchur, shamol.*


Varrak qanchalik balandlasa, shunchalik xursand bo'lishadi. Varrakni o'g'il bolalar uchiradi. Har bir bola o'z tomida uchiraveradi.

Qo'g'irchoq

Bu o'yin ilgari mavjud bo'lib, hozirgi qo'g'irchoqlar chiqqunga qadar qizlarning o'zlari har xil materiallardan qo'g'irchoq yasaganlar, ularga ko'ylakchalar tikkanlar.

Hozirgi qo'g'irchoq o'yinining turlari oldingilarga nisbatan birmuncha tarqiqiy qilgan. Ular qo'g'irchoqlariga atab turli she'rlar, qo'shiqlar aytishgan:

*Qo'g'irchog'im Lolaxon,
Malohati bir jahon.
Yuzida bordir xoli,
Quvonchlari bir jahon.*



Yoki:

*Qo'g'irchog'im – do'mbog'im,
Aqligim – oppog'im.
O'yinchog'im – yumshog'im,
Qo'g'irchog'im – o'yinchog'im.*

Yoki:

*Qo'g'irchog'im Natasha,
Yeb qo'yibdi ko'p kasha.
Endi nima qilamiz?
Do'xtirni chaqiramiz.
Allo, allo, do'xtirjon,
Bizda bitta kasal bor.
Uning oti qo'g'irchoq,
Familiyasi o'yinchoq.*

Qizlar qo'g'irchoqlarini ko'tarib yurib bir-birlarinikiga borishni va ularnikida mehmon bo'lishni yaxshi ko'radilar.

Qizlar bu o'yinni ko'pincha mehmonga borgan paytlarida, bog'chalarda ko'pchilik bo'lib, uyda esa opa-singillari bilan yoki bir o'zlari yolg'iz holda o'ynaydilar.

Ular o'z qo'g'irchoqlarini uxlatishadi, yuvintirishadi, sochlarini yuvib-tarashadi, urishishadi, unga kiyim tikishadi, kiyintirishadi. Shu zaylda uy-ro'zg'or ishlarini va bola tarbiyalashni o'rganib boradilar.

Qorbobo

Qorbobo bolalarning qishda o'ynaydigan sevimli o'yinidir. Qishda qor qalin yoqqan paytlarda bolalar uchta-to'rtta bo'lib qorbobo yasashadi. Qorbobo-ning boshiga eski chelak kiygizadilar, burnini sabzidan yasaydilar, qo'liga supurgi tutqazib, qosh-ko'zlarini qora bilan bo'yaydilar. Shunda «jonli» qorbobo paydo bo'ladi.

Qorbobo havo isiguncha erimasdan turadi. Havo isigach, asta-sekin erib ketadi.

O'yinda qizlar va o'g'il bolalar aralashiga qatnashadilar. Qizlar qorni to'plab, yumaloqlab keltirsalar, o'g'il bolalar joy-joyiga o'rnashtirib qo'yadilar. Yangi yil bayrami arafasida bolalar o'zlari yasagan qorbobolari atrofida Yangi yil, Qorbobo haqida she'rlar o'qiydilar, ashula aytadilar.

Qorbobo qishning eng zavqli, eng sevimli o'yinidir.



HARAKATNI SO‘Z BOSHQARADIGAN O‘YINLAR

Oq terakmi, ko‘k terak?



Bu juda qadimiy va ommaviy o‘yinlardan bo‘lib, bahor va yoz fasllarida ko‘proq o‘ynaladi. Unda bolalar soni o‘n sakkiz-yigirma nafargacha bo‘lishi mumkin. O‘g‘il va qiz bolalar aralash holdayam, alohida holdayam o‘ynashlari mumkin. To‘planganlar dastlab ikkita onaboshini belgilab, so‘ng juft-juft bo‘lib, o‘zlariga nom qo‘yadilar-da, onaboshilarga qay birini olishini so‘rab murojaat etadilar:

— *Onaboshi, onaboshi,*

— *Yigitlarning qalamqoshi.*

Xo‘rozni olasanmi, tovuqni?

Onaboshilardan biri xo‘rozni desa, «xo‘roz» uning yoniga o‘tadi, «tovuq» boshqa onaboshi ixtiyoriga boradi. Shu taxlit cheklashish asosida bolalar ikki raqib tarafga bo‘lingach, ularida 10–12 metrli masofa qoldirib, yuzma-yuz turgan holda saf tortishadi. Hammalari qo‘lma-qo‘l ushlashganlari holda saflarini mustahkamlashadi. Birinchi safdagilar o‘zaro jo‘rovoqlikda shovqin solib ikkinchi safdagilarga shunday murojaat qilishadi:

Oq terakmi, ko‘k terak?

Bizdan sizga kim kerak?

Ikkinchi safdagilar raqiblaridan ojizrog‘ini tanlab:

— *A‘lochi Dilbar kerak,* —

deyishadi hayqirib. Nomi tilga olingan qiz raqiblari safidagi bo‘shroq joyni tanlaydi-da, so‘ngra chopib kelib o‘sha joyga o‘zini uradi. Qo‘llarini «uzib» — safni yorib kira olsa — o‘sha qo‘li «uzilib» qolgan raqibni olib borib o‘z safiga qo‘shadi; bordi-yu, yorib o‘ta olmasa, o‘zi shu safda qoladi. Chaqiruv navbati endi raqib tomonga o‘tadi. O‘yin to bir safdagi bolalar to‘la ikkinchi safga o‘tguniga qadar davom etadi. Qaysi saf to‘lsa — o‘shalar g‘olib sanaladi.

Bu o'yinning xilma-xil aytimlari bor. Mana ularning namunalari:

— *Qamar, qamar, qamchini,*
Qovurg'aning yanchini.
Oq terakmi, ko'k terak.
Bizdan sizga kim kerak?
— *Kichkina Salim' kerak.*

* * *

— *Sohibjamol uydan chiqsa,*
Hammani qaratadi.
Oq terakmi, ko'k terak,
Bizdan sizga kim kerak?
Jilmayibgina turgan,
Bo'tako'z Zumrad kerak.

Oq terakmi, ko'k terak,
Bizdan sizga kim kerak?
Sayrab turgan dil kerak.
Dillarning qaysi biri?
Gulandomdir o'tkiri.

* * *

Biz boyagi hovlida,
Bo'lib tarafma-taraf,
Navbat bilan aytishdik,
Taraf-tarafga qarab:
Oq terakmi, ko'k terak,
Bizdan sizga kim kerak?
Bizga kerak maktabda
Eng a'lochi Alisher.
Oq terakmi, ko'k terak,
Bizga Alisher kerak!

* * *

Ola-bula kapalak,
Orqa sochim jamalak.
Oq terakmi, ko'k terak,
Bizdan sizga kim kerak?
Xayri qizaloq kerak!

¹ Istalgan nom bilan chorlash mumkin.

— *Oppoq-oppoq oq terak,
Ko 'm-ko 'k, ko 'm-ko 'k, ko 'k terak.*
— *O 'zi a 'lo o 'qiydi,
Tartibli ham odobli.*
*Hammani sevar,
Tikishda chevar,
Barchadan chaqqon,
Barchaga yoqqan
Go 'zal Ozoda kerak!*

Bululum-bululum

Asosan qiz bolalar o'ynaydigan bu o'yin bahor, yoz va kuzda ko'cha, hovli va ochiq maydonlarda ijro etiladi. Bolalar soni cheklanmagan bo'ladi. Qiz bolalar to'planishgan zahoti ikki onaboshini belgilashadi-da, bir qismi qochag'on, ikkinchi qismi tutag'on bo'lishadi. Boshda onaboshilar o'rtasida shunday aytishuv bo'ladi:

1 - o n a b o s h i : — *Bululum-bululum bozi,
Bizlar kimning qizi?*
2 - o n a b o s h i : — *Shokirbekning qizi.*
1 - o n a b o s h i : — *Shokirbekning nesi bor?*
2 - o n a b o s h i : — *Uchar-uchar qushi bor.*
1 - o n a b o s h i : — *Birginasini bersang-chi?*
2 - o n a b o s h i : — *O 'zing tutib ko 'rsang-chi?*
 *Tutganing seniki,
Qochgani meniki.*

Bolalar qocha turib jo'rovozlikda shunday kuylashadi:

— *Bululum, bululum, bir tanga,
Borib oling qirq tanga.*
— *Qani bizni toping-chi?*
— *Qani tutib oling-chi?*

Qochag'onlar tutilgach, o'rin almashingan holda o'yin davom ettirilaveradi.

Olmacha do'm-do'm

Olma pichiqchiligi davrida ko'pincha olmazorlarda o'ynaladigan bu o'yinni o'g'il va qiz bolalar aralashiga o'ynashadi. Bunda bolalardan birovni olma sotuvchi, qolganlar xaridor bo'lib, ular orasida shunday aytishuv aytiladi:

Sotuvchi: — *Olmacha do 'm-do 'm,*
Kilosi bir so 'm.

Xaridorlar: — *Olmangizdan bitta bering?*

Sotuvchi: — *Bobom urishadilar.*

Xaridorlar: — *Bobongiz o 'lsin!*

Sotuvchi: — *Xudo saqlasin.*

So'ngra hamma bolalarga bittadan olma ulasha turib aytishuv aytadilar:

— *Rubobni chaling,*
Qizlar o 'ynasin!

Hamma o'yinga tushadi.

* * *

Yana bir turi «Osmondagi oy» nomi bilan keng tarqalgan. Undagi qo'shiq tubandagicha:

— *Osmondagi oy,*
Magazinchil boy,
Nima qilyapsiz?
— *Olma teryapman.*
— *Olmangizdan bermaysizmi?*
— *Bobom uradilar-da!*
— *Unday demang-e,*
— *Doirani chaling-e,*
O'ynangiz, qizlar!

Chittigul

O'yinga, asosan, o'n ikki yoki o'n beshta qiz bola qatnashadi. Ular qo'l ush-lashib, aylanishib, shunday kuylashadi:

Chittigul-e, chittigul,
Etagingga gul bosay,
Ha-yu, chittigul,
Ha-yu, chittigul.
Qo'ling qo'lbog'da bo'lsin
Beling belbog'da bo'lsin.
Ha-yu, chittigul,
Ha-yu, chittigul,
Tapir-tupur ot keldi.
Chiqib qarang, kim keldi?

Ha-yu, chittigul,
Ha-yu, chittigul.
Arobada un keldi,
Childirmada gul keldi.
Ha-yu, chittigul,
Ha-yu, chittigul.
Gul yaxshi-yu, gul yaxshi,
Gulning popugi yaxshi.
Ha-yu, chittigul,
Ha-yu, chittigul.
O'rtada o'ynagan qizning
Haydar kokili yaxshi.
Ha-yu, chittigul,
Ha-yu, chittigul.

Yoki:

Ha, ko'zi, ko'zi, ko'zi,
Yenglari yo'rmado'zi.
Yenglarini oldilar,
Sandiqchaga soldilar.
Ha-yu, chittigul,
Ha-yu, chittigul.
Toshxon qiz, o'zi, o'zi,
Boshida yo'rmado'zi,
Oyisiga qarashgan.
Ha-yu, chittigul,
Ha-yu, chittigul.

Naqarot ijrosi badalida hamma o'rta to'plandi, qo'llarini yuqoriga ko'tarib silkitadi, shunda kim orqada qolsa, o'sha o'yindan chiqariladi. Bu o'yin bahorda ko'chada, ba'zan hovlida o'ynaladi.

Ha kishma-kishma, kishma...

Bahorda qizlar o'ynaydigan bu o'yinda ikki qizaloq yuzma-yuz turib, qo'lma-qo'l panja solishib, gavdalarini orqaga, oyoqlarini esa oldinga — bir-birlarinikiga uchma-uch qo'ygan holda yonlamasiga sakrab-sarkab tubandagi qo'shiqni aytib aylanishadi:

Ha kishma, kishma, kishma...
Bir la'li marjon kishma.
Marjonlari bo'ynimda,
Chechaklari zulfimda.

Ko'ylaklarim — sandiqda.
Tepdim, sandiq ochildi,
To'rga bodom sochildi.
Bodomlarni terguncha
Qizil gullar ochildi.
Qizil gulning ximchasi,
Bozor nonning kulchasi.
Past qo'rg'oncha, baland tog',
Past qo'rg'ondan o'taylik,
Xolli gilam tutaylik.
Xolli gilam ustida
Nopar ipak eshaylik.
Nopar ipak tagunchak,
Mohlar oyim kelinchak.
Mohlar oyim tugibdi,
Oq ko'ylagin yuvibdi,
Boyterakka ilibdi,
Boyning o'g'li ko'ribdi,
Boyning o'g'li — boyvachcha,
Oyog'ida no'g'oycha.
No'g'oychani olinglar,
Oq sandiqqa solinglar.
Oq sandiqni qulfi yo'q,
Amir buvam zulfi yo'q.
Amir buvam o'libdi,
Arobasi qolibdi.
Arobasin iziman,
Otamning boy qiziman.
Otam meni o'qitdi,
Orqa sochim to'qitdi.
Orqa sochim olovday,
Damlab qo'ygan palovday.
Keling oshga,
Keling choshga, hoy!

Va yana:

Ha kishma, kishma, kishma,
Ko'ylaklaringda kashta.
Yirtilsa — yirtilaversin,
Yana tikaman qishda.

Gap shundaki, har bir sakrashda uning ritmiga mos tarzda bir satr aytilishiga alohida rioya qilishadi. Ora-sira satrlar takrori jarayonida o'tirib-turib, yana yonlamasiga sakrab-sakrab aylaniladi.

O'yin shu zaylda ishtirokchilar toliqquncha davom etaveradi.

Oq sholi-ko'k sholi

«Oq sholi-ko'k sholi» o'yinini ko'proq qizlar o'ynaydilar. Bu o'yin bir-birini orqalab ko'tarish asosida qurilgan. Ikkita qiz bola orqama-orqa turishib, qo'llarini bir-birlarining qo'litiqlari ostidan o'tkazib halqa qilib ushlab, bir-birlarini navbatma-navbat ko'tarishadi. Ko'tarilgan kishi ikki oyog'ini burchaksimon yuqoriga ko'tarmog'i shart.

*Birinch*i qizaloq ko'tarayotib: — Oq sholi, — deydi.

Ikkinchisi ham ko'tarayotib: — Ko'k sholi, — deydi.

Yana birinchisi ko'tarayotib: — Oq sholini oqlayli — desa,

Ikkinchisi ko'tarish galini ado eta turib:

— Ko'k sholini ko'klaylik! — deydi.

Birinchisi: — Guruchidan Oyxonning
To'yigacha saqlaylik!

Ikkinchisi: — Xo'p... p!

Birinchisi: — Xo'p... p!

Ikkinchisi: — Oq sholi!

Birinchisi: — Ko'k sholi! — deydi.

Bu o'yin objuvozda sholi oqlashni, objuvoz harakatini eslatadi. O'yin hovlida, bog'da va keng maydonlarda o'ynaladi. Unda, asosan, ikki qiz qatnashadi.

Sandiqcha-yu quticha

Bu o'yinni ko'proq qiz bolalar o'ynaydilar. Ular orqama-orqa turib, qo'llarini bir-birlarining qo'litiqlari ostidan o'tqizib, bir-birlarini bellari ustiga oshirib ko'tarishadi. Har biri galma-gal ko'tarar ekan, harakat ritmiga omuxta qilib tubandagi qo'shiqni bir satrdan aytib borishadi:

— *Sandiqcha-yu quticha,*

— *Qutichada to'ticha*

— *To'ticha uchib ketdi,*

— *Kelincha ko'chib ketdi.*

— *Kelincha xamir gordi,*

— *Kelincha o'tin yordi.*

— *Xamiri achib qopti,*
— *Kelincha patir yopdi.*
— *Patirdan oling, oling*
— *Dugonam, yaxshi qoling.*

So'nggi satr aytilishi bilan ko'tarib-tushirish to'xtatiladi. O'yin ikki tomon charchaguncha qayta-qayta davom ettirilishi mumkin.

O'yin ochiq havoda, ko'pincha bahor va kuzda o'ynaladi.

Boy xotin

O'nta yoki undan ortiq qiz bola ma'lum joyni belgilashadi-da, so'ngra hammalari o'sha joyga yugurib borishadi. Orqada qolgan qiz «Boy xotin» bo'lib o'rtaga o'tiradi, qolganlari uning atrofidan aylanib:

Almosh¹ uchadi boqqa,
Kuylar ketadi toqqa.
Ur, oyog'ini sindir,
Zindon yo'liga tashla,
Zindon yo'lining toshi,
Yangamning qalam qoshi,
Yangam yasanib chiqdi,
Qushlar pitirlab qochdi,
Hoy yanga, hoy yanga,
Ko'ylak bichib bilmaysiz,
Qirq ignani sindirib,
Aslo odam bo'lmaysiz, —

deyishlari bilan «Boy xotin» ularni quvib ketadi. Kimni tutsa, o'sha uning o'rniga «Boy xotin» bo'lib o'rtaga tushadi. Tutolmasa, yana o'zi navbatda qolaveradi. O'yin shu xilda davom etadi. «Boy xotin» yoz oylarida ko'chada o'ynaladi.

Kaftga urari

Bu o'yinda bolalar qancha ko'p bo'lsa, shuncha zavqli bo'ladi. Ular aylana holatida tizilib, qo'llarini cho'zib, bir-birlarining kaftlariga kaftlarini qo'yib turishadi. So'ngra o'zlarini raqamlab sanashgach, birinchi bola: «Laylak», — deya kafti bilan sherigi kaftiga urib qo'yadi. O'z navbatida u darhol: «Uchdi», — deya narigi sherigining kaftiga shapatilashi shart. Uchinchi bola: «Daraxtga», — deydi-da, sherigi kaftiga o'z kafti bilan urib qo'yadi, shu zahoti u: «Qo'ndi», — deya

¹ Arg'imchoq.

to'rtinchi bola kaftiga kaftini tekkizadi. Beshinchi bola: «Tuxum», — deb turib, oltinchi bola «qo'yadi» va yettinchi bola «nechta», deya bir-birlari kaftlariga qo'yishadi. Navbati kelgan bola istalgan sonni, inchunin, deylik 10 raqamini aytib yonidagi sherigi kaftiga kaftini tekkizishi shart. Shundan so'ng bolalar bir-birlarining kaftiga urib 9 sanog'iga boradilar. Eng muhimi, ana shu 9 sonini aytguvchi bola sherigi kaftiga chaqqonlik bilan urib 10 raqamini aytib ulgurishadi. Agar ulgursa — sherigi o'yindan chiqib turadi, bordi-yu u ulgurmay, sherigining o'zi chaqqonlik qilib uning kaftiga kafti bilan urishga ulgursa — demak, u o'yindan chiqib turadi. O'yin shu zaylda aylana bo'ylab to oxirida bir bola qolguncha davom etadi, eng oxirida qolgan bola chaqqon va g'olib sanaladi.

Yoshlam-yoshlam

Bu o'yinda bir nechta bola qatnashadi. Bolalar doira shaklida qo'llarini orqalariga qilib o'tiradilar. Ulardan biri qo'lga ro'molcha olib:

Yoshlam, yoshlam, yoshlam...
Tashlab o'tdim ro'molcham
Bir o'rtog'im ostida.
Bildirmasdan tashladim
Bir o'rtog'im ostiga.

Yoki:

— Attum-battum,
Gugurt-lattum.
Ro'molchamni
Tashlab ketdum
Bir o'rtog'im yoniga.

Yana:

— Soloy-soloy,
Tashlab qolay
Ro'molchamni
Kimning yoniga?

Yana:

— Bog'lam-bog'lam,
— Jonim bog'lam.
— Qo'ylar qayda?
— Olatog'da.
— Nima yeydi?
— O't yeydi.
— O'ti qayda?

— O'tlog'ida.
— Nima qiladi?
— Yog' qiladi.
— Yog'i qayda?
— Yog'log'ida.
— Qachon kelar?
Yoz kelar.
Yozni o'tkazsa,
Qish kelar.
— Yozi xat yot,
Qishi ham yot.
Ro'molchamni
Asta taylam,
San sezmayin ket! —

deb doira atrofidan aylana boshlaydi. Shu yo'sinda o'tirganlardan birining orqasiga sezdirmay ro'molchani tashlab ketadi. Shunda orqasiga ro'molcha tushganini o'sha bola bilmay qolsa, davra o'rtasiga tushib ashula aytmog'i yoki o'ynab bermog'i shart. Bordi-yu ro'molcha tashlaganini bilib qolsa, darhol o'sha ro'molcha tashlaganning orqasidan quvmog'i va o'sha ro'molcha bilan urmog'i kerak. Bordi-yu urolmasa-yu, qochgan bola chopa kelib uning o'rniga o'tirib olishga ulgursa, u holda o'sha bola endi o'yinni davom ettirishni o'z zimmasiga oladi. Urolmasa ham, o'z joyiga o'tirishga ulgurolmasa ham, baribir o'sha ilgarigi bola yana o'yinni davom ettirishga majbur. O'yin shu zaylda bolalar zerikkunlaricha davom etaveradi.

Taylam-taylam

Bu o'yinda o'n yoki undan ortiq bola qatnashadi. Ular bir joyga ro'molcha ilib qo'yishadi, so'ngra ma'lum masofadan turib hammalari birdaniga ro'molchaga yugurib kelishadi. Kim birinchi kelib ro'molchani olsa, o'sha o'yinni boshlaydi. Qolganlar davra hosil qilib o'tirishadi. Ro'molchani olgan bola davrani aylanib kuylay boshlaydi:

*Taylam-taylam,
Ro'molchamni tashlab ketaman.
Taylam-taylam,
Ro'molchamni tashlab qochaman.*

Shu taxlitda u davrani bir-ikki aylanadi, so'ngra o'lirganlardan birining orqasiga ro'molchani sezdirmay tashlab qochadi. Orqasiga ro'molcha tashlangan bola uni quvib yetmog'i va o'sha ro'molcha bilan urmog'i kerak. Agar tutolmasa, o'rtaga chiqib she'r aytishi, ashula kuylashi yoki o'yinga tushishi kerak. Tu-

tib olsa, o'yinni o'zi (ya'ni orqasiga ro'molcha tashlangan bola) davom ettiradi. «Taylam-taylam» o'yini bahor, yoz, kuz fasllarida ko'chada, hovlida o'ynaladi. Bu o'yinni ko'proq qiz bolalar sevib o'ynaydilar.

Tashlim-tashlim

Tashlim-tashlim bahorda o'ynaladigan o'yinning nomi bo'lib, qiz va o'g'il bolalar aralash holda o'ynashadi. Ko'pincha buni olti yoshdan o'n ikki yoshgacha bo'lgan bolalargina o'ynashadi.

Hamma bolalar doira shaklida o'tiradilar. Ulardan biri qo'lga ro'mol olib doiraning tashqarisida ro'molni qo'lida aylantirib yuguradi. O'tirgan bolalar esa qarsak chalib, jo'r bo'lib quyidagi qo'shiqni aytadilar:

*Tashlim-tashlim ro'molim,
Tashlab ketsin o'rtog'im.
Shu ro'molning egasi —
Bahoroyim mevasi.*

Qo'shiq kuylab bo'lingach, qo'lidagi ro'molni bir bolaning orqasiga tashlab qochadi. Bola ro'molni orqasidan qo'lga olib, uni tashlagan bolani quvlaydi. Qochgan bola quvlayotgan joyiga kelib o'tirishi kerak. Uni kelib o'tirgunicha quvlayotgan bola ushlab olsa, ikkovi ham davraning o'rtasiga kirib ashula yoki she'r aytishi kerak. She'r aytganlaridan keyin ushlagan bola joyiga borib o'tiradi, ro'molli bola esa yana oldingidek o'yinni davom ettiradi. Bordi-yu quvlagan paytda ushlay olmasa, ushlay olmagani uchun qo'shiq aytadi, keyin yana o'yinni davom ettiradi.

O'yin toza havoda, keng maydonlarda o'ynaladi.

Otilgan do'ppini kim oldin olib keladi?

Qizaloqlar bahorda o'ynaydigan bu o'yinda yugurish musobaqasi amalga oshirilgan. Bunda sanama aytib, onaboshi aniqlangach, u do'ppini qulochkashlab olisga otgan. Boshqalar chopib borib o'sha do'ppini olib kelishi shart. Do'ppini olib kelganlar onaboshi aytadigan tubandagi qo'shiqda ifodalangan shartni esda tutishlari va unga amal qilishlari lozim:

*Tillo sandiq ochildi,
Tagiga bodom sochildi.
Ul bodomni terolmay,
Qanotlarim qayrildi.
Qanot bering, uchaylik,
Oqsaroyga tushaylik.*

*Oqsaroyning oq toshi,
Oqsoqol buvam qoshi,
Chakalakzorning boshi,
Arra-marra,
Bo'yningizga bir marra,
Bir do'ppim bor — besh,
Orqasidan qaytish.
Orqasidan kim qaytmasa,
Bir chimchilab olish.*

Ko'rinadiki, otilgan do'ppini kim ushlab olsa, marra— chakalakzorning boshigacha chopib borib, qaytib kelishi, ora yo'ldan orqasiga qaytmasligi, kim bu shartni uddalay olmasa, yengilgan sanalib, orqasidan bitta chimchilash bilan jazolanishi belgilangan.

Shartni ifodalovchi qo'shiqning boshqa biri tubandagicha:

*Chumoli, chumoli,
Chumoli yeydi oli.
Chumolining uyasi,
Mis ko'zaning kuyasi.
Mis ko'zani bir tepsam,
Ichidan bodom sochildi.
Bodomlarni terguncha,
Qanotlarim qayrildi.
Qanot bering, uchaylik,
Sirdaryoga tushaylik.
Sirdaryoning suvi bor,
Uchar-uchar qushi bor.
Uchib ketsin havoga,*

*Yoyilib tushsin daryoga.
Daryo suvi qurisin,
Itbalig'i churisin.
Hasan-Husan urishdi,
Qizil qonga bo'yashdi.
Qizil qonni kim yuvdi?
Fotima-Zuhra yuvdi.
Fotimasiga qo'sh dutor:
— Kuylab o'taman, — deydi.
Zuhrasiga qog'irchoq!
— O'ynab o'taman, — deydi.
Arra-marra,
Bo'yningizga bir marra!*

Bunda, shartga ko'ra, belgilangan marra qo'shiq kuylab yoki raqsga tushib o'talmog'i lozim.

Kim shartni bekam-u ko'st qilib hammadan avval bajarsa, o'sha g'olib sanaladi. O'yin bolalar toliqquncha davom etaveradi.

Qiz olib qochish

Asosan qizlar o'ynaydigan bu o'yinda qizlar qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi. Bunda sanama aytib, o'g'irlanadigan qiz aniqlangach, uni o'g'irlovchilar ham belgilanadi. O'g'irlanadigan qiz chekkaroqda yolg'iz o'zi cho'zilib yotgan bo'lib, «o'g'rilar» uning so'rog'iga chiqishadi. Shunda uning daragini biluvchi va «o'g'rilar» o'rtasida shunday aytishuv bo'ladi:

*Anov kapa kimniki?
Mamadilla boyniki.
Yuring, qizlar, boraylik,
Baxmalidan olaylik.
Baxmalidan bermasa,
Qizini olib qochaylik.*

«O‘g‘rilar» yotgan qiz boshiga sekin-sekin kelishadi:

*— Oq qizim, oppoq qizim,
Ko‘k qizim, ko‘m-ko‘k qizim.
Oppoq qizim yotibdi,
Ko‘m-ko‘k qizim qotibdi.*

«O‘g‘rilar» sharpasidan yotgan qiz go‘yoki seskanib uyg‘onganday bo‘lib:

*Katta bobom o‘libdi,
Arobasi qolibdi.
Arobasi iziman,
Otamning oy qiziman.
Otam meni o‘qitdi,
Orqa sochim to‘qitdi.
Orqa sochim zulpi bor,
Darvozaning qulpi bor, —*

deyishi bilan hammalari jo‘r bo‘lishib:

*— Darvozani ochinglar,
Cho‘lga qarab qochinglar!
Cho‘lning yo‘li ingichka,
Endi kirdim o‘n uchga! —
Jahidi-hidi, istansa,
Jahidi-hidi, istansa! —*

deyishib, sakrab-sakrab o‘ynab qochishadi. Bu o‘yinda aytiladigan tag‘in boshqa bir aytishuv tubandagicha:

*Tomga chiqdim, tosh otdim,
Ro‘molimni yo‘qotdim.
Shunday go‘zal akamni
Rubob chalib uyg‘otdim.
Uyg‘otmasam bo‘laykan,
Askarlikka olaykan.
Askarlikning qizlari*



*Qizil-qizil yuzlari.
Saqich bersak oladi,
Qars-qurs qilib chaynaydi,
Ukasiga bermaydi,
G'arch-g'urch boylaydi.
Jahidi-hidi, istansa,
Jahidi-hidi, istansa!*

Nihoyat, qiz stansiyaga olib kelingach, quvonchdan hammalari raqsga tushishadi. O'yin shu xilda intiho topadi.

Ayiqpolvon

Bu o'yinda sakkiz yoki o'nta bola qatnashadi. Bolalardan biri o'rta chiqib: «Qani, hamma aylana bo'ylab tursin», — deydi. O'zi esa go'yo uxlayotgan ayiqqa o'xshab yotib oladi. Bolalar ashula aytadilar:

*Ayiqpolvon bog'iga,
Olma tergani bordik.
Olma terib turganda biz
Achchig'ini chiqardik.*

Ayiqpolvon ashulani eshitib, bolalarni quva boshlaydi. Birinchi ushlagani o'yindan chiqadi, ikkinchi ushlaganiga esa «jazo» beradi. Jazo odatda biron o'yin yoki qo'shiqni ijro etish evaziga o'ynaladi. So'ng yana ayiqpolvon cho'zilib yotadi. Bolalar tag'in o'sha qo'shiqni takrorlashadi. Mana shu tariqa o'yin davom etadi. Bu o'yin bahor, yoz, kuzda ko'p o'ynaladi.

Mehmon-mehmon

O'yinga faqat qizlar qatnashadi. Ular soni besh, oltitadan oshmasligi kerak. Bunda qizchalar ikki-uchtadan bo'linib, bir-birovlarinikiga mehmon bo'lib boradilar. Dastavval bir-birlarini mehmondorchilikka taklif etadilar. Bu mulozamatni quyidagi qo'shiqlari bilan izhor etadilar:

*— Qo'shnijon-u, qo'shnijon!
— Labbay, qo'shnim Sevarxon.
— Uyga chiqing, tez, chaqqon,
Kelishdi uyga mehmon.
Taq-tuq, tasadduq!*

Mezbonlar esa mehmonlar uchun dasturxon yozib, unga turli «noz-ne'mat»larni tortgan bo'ladi. Har zamon-har zamon mehmonlarni dasturxonga taklif qilib shunday deyishadi:

*Tarelkada shokolad,
Yemaysizmi, dugonajon.
— Biznikiga mehmon bor,
Siz ham boring, dugonajon!*

Shu zaylda davom etgan mehmondorchilik nihoyasiga yetadi.
Qizlar bu o'yin bahonasida mehmonnavozlik sir-u asrorini o'rganadilar.

Kulcha non

Bu o'yinda qiz va o'g'il bolalar aralash o'ynaydilar. Ular davra olib, o'rtağa biror qiz yoki o'g'il bolani chiqarishadi. Boshqalar qo'lma-qo'l ushlashgan holda doira yasab aylana turib, shunday qo'shiqni jo'r bo'lib kuylashadi:

*Gulixonning to'yiga
Biz pishirdik kulcha non.
Qalinligi shuncha!*

Davradagilar bir qo'li pastda, ikkinchisini yuqorida parallel holda uzata turib, qalinlik ishorasini ko'rsatishadi.

Yupqaligi shuncha!

Endi qo'llarini bir-biriga yaqin qilib, parallel holda cho'zib, yupqalik ishorasini ifodalashadi.

Endi shuncha!

Yana qo'llarini halqa qilib, non shaklini ifodalashadi. So'ngra baravariga shunday kuylashadi:

*Hey yaka-yak, yaka-yaka-yak,
Baravar uring qarsak!*

Davra o'rtasidagi bola raqsga tushadi. O'rtog'ini o'yinga tortadi. O'yin shu tazda davom ettiriladi.

Lolagul

O'n-o'n olti kishi qo'l ushlab, davra quradi. O'yinchilardan eng kichigini o'rtağa qo'yadilar. Bolaning ismini so'raydilar. U, masalan, Charosoy deb aytadi. Bolalar jo'r ovozd:

Charosoyni uyiga,

*Shu tug'ilgan to'yiga
Biz keltirdik lolagul,
Lolagul, lolagul.*

Barcha qo'lini yuqoriga ko'taradi:

Eni mana bunday!

Barcha qo'li bilan enini ko'rsatadi:

Bo'yi mana bunday!

Barcha bo'yini ko'rsatadi qo'l ishorasi bilan:

*Go'zalligi kunday,
Qani o'ynang-chi, bunday!
Hey, o'yna, o'yna, o'yna-yey,
Gulni chakkangga qo'y, ma-ye! —*

deya Charosoydan bitta o'ynab berishini so'raydilar. Charos bolalarning istagini bajaradi, qo'shiq aytadi yoki raqsqa tushadi. O'yin shu xilda navbatma-navbat davom etadi.

Boylandi

Bolalar to'planishgach, ikki onaboshini belgilashadi va cheklashib ikki tarafga bo'linishadi. So'ngra onaboshilar o'zaro shunday aytishuv boshlashadi:

1-onaboshi: — Qo'ying qayda?

2-onaboshi: — Qo'yliqda.

1-onaboshi: — Tuzing qayda?

2-onaboshi: — Tuzliqda.

1-onaboshi: — Qo'ying nima yeydi?

2-onaboshi: — O't yeydi, beda yeydi.

1-onaboshi: — Qo'ying nima beradi?

2-onaboshi: — Yog', go'sht, sut, jun beradi.

1-onaboshi: — Shu qizingga (o'g'lingga) nima beradi?

Karnaymi? Surnaymi? Childirmami? Nog'orami?

2-onaboshi: — Surnay!

1-taraf (tilga olingan nomni aytdi): — Sharifaxon boylandi, boylandi.

1-onaboshi: — Sharifaxon boylandi.

2-taraf: — Nima uchun boylandi?

1-taraf: — O'yin (raqs, biror hayvonga muqallid) uchun boylandi.

Boylangan bola shu shartni ado etgach, endi 2-onaboshi shu savol-javobni boshlaydi. O'yin shu xilda navbatma-navbat davom etaveradi.

Qo'rg'on olish

Bu o'yin ham «Boylandi»ga o'xshash. Bunda ham bolalar to'planishib, dastlab ikki o'yinboshini belgilashadi, so'ngra cheklashishib ikki taraf hosil qilishadi. Onaboshilar shunday aytishuv boshlashadi:

— Abdurahmon qoqvosh!

— Labbevosh!

— Tuyang qayda?

— Ola tog'da!

— Nima yeydi?

— Yantoq.

— Nima beradi?

— Moy.

— Moyi qani?

— Maydonda.

— Qatig'i qani?

— Katlonda.

— Suti qani?

— Sutlonda.

— Nurmat akamning qiziga (istalgan bola nomi) karnaymi, surnay? Karnay deyilsa — nomi tilga olingan bola karnay ovozi, surnay deyilsa — surnay ovozi taxlidan ado etmog'i shart.

O'yin shu taxlit galma-gal davom etaveradi.

Quyonim-quyonim

Bu o'yinda o'n yoki undan ortiq bola ishtirok etadi. O'yinni boshlashdan oldin ular bir chiziqda qator tizilib turadilar, ma'lum marra belgilangach, birdaniga o'sha joyga yugurib ketadilar. Marraga birinchi yetib kelgan bola «quyon» bo'lib o'rtaga kiradi, qolganlar uning atrofiga qo'l ushlab, aylanib ashula aytadilar:

*Quyonim, quyonim,
Nega buncha yig'laysan ?
O'rningdan tur-chi,
Yuz-qo'lingni yuv-chi,
Oynaga qara-chi,
Sochingni tara-chi,
Saftimizga kela qol,
Xohlaganingni tanlab ol!*

«Quyon» qo'shiqning har misrasi aytilganda uning mazmuniga xos harakat qiladi, oxirida davradagilardan birini tanlab, o'z o'rniga chaqiradi, o'zi esa davra-

dagilarga qo'shilib, yuqoridagi qo'shiqni aytadi. O'yin, asosan, qizlar tomonidan o'ynaladi. O'yin bahor, yoz, kuzda ko'chada o'ynaladi.

Quyuncham

Bolalar davra bo'lib turadi. Davra o'rtasida bir bola quyuncha bo'lib, boshini ushlab o'tiradi. So'ng bolalar quyunchani atrofidan aylanib ashula ayta boshlaydilar:

*Quyuncham, quyuncham, nima bo'ldi?
Ko'zgingalaring nega yoshga to'ldi?
Qoshgingangga o'sma qo'ymabsan,
Ko'zlaringga surma surmabsan.
O'rningdan tur, doirani ur,
O'ynab-kulib davringni sur!*

Quyuncha bo'lgan qiz sakrab o'rnidan turadi-da, go'yoki oynaga qaragandek, sochini taragandek harakat qilib raqsga tushib ketadi. Atrofdagi bolalar qarsak chalib:

*Oq quyonim alomat-o,
Otini qo'ydim Salomat,
Tinmay chopib o'ynaydi,
Charchashni hech bilmaydi, —*

deb quvnoq ashula aytadilar. Quyuncha esa ashula tugaguncha o'ynaydi.

Shoqol-shoqol

Bu o'yinda bolalar soni cheklanmaydi. O'yin ayni qovun-tarvuz pishiqchiligi davrida ko'p o'ynaladi.

Sanama aytib, poliz soqchisi aniqlangach, boshqalar shoqol sanalib, qovun palaklari ostiga kirib olishadi. Poliz soliqchisi ularni ko'rarkan, shunday deydi:

*Yotibdimi bir palakning
Ostina, ostina?
Ko'p shoqollar keldi bobom
Qastina, qastina.
Shoqol degan o'zi yurar
Piyoda, piyoda.
Shoqol degan yurar edi
Qiyoda, qiyoda.
Voy kofar, voy kofar!*

*Qorong‘u kecha bo‘lsa... bir-birin
Voy topar, voy topar!*

Miltiq o‘qtagan bo‘lib jazava bilan deydi:

Qasar-qusur, qasar-qusur...

Shoqollarning qay biri joyida cho‘zilishi, qay biri shataloq otib qochishi shart. O‘yin shu xilda takrorlanaveradi.

Bo‘rilar va echkilar

Bolalar yig‘ilishgach, dastlab Bo‘riboshi va Serkani tanlab tayinladilar, so‘ngra cheklashib ikki guruhga ajraladilar. Guruhlarning Bo‘riboshi tomonida shakllangani — Bo‘rilar, Serka tomonidagilari esa — Echkilar deyiladi.

Bo‘rilar echkilarni avrab-aldab yemoqchi bo‘ladilar. Shu niyatda ular echkilarga deydilar:

*— Bo‘ri, echki inoqdir,
Birga-birga quvnoqdir.
Keling-keling, hammamiz,
Birlashib sayr etamiz.*

Echkilar ham anoyi emas. Ular niyatini allaqachon fahmlashgan:

*— Xo‘p aldatib bo‘psiz-da,
Qo‘ng‘izvoyni yebsiz-da.
Burni uzun bo‘rivoy,
Bizni ushlab bo‘psiz-da!*

Bo‘rilar echkilarni quvlashga tushadi. Barcha echkilarni tutishgach, o‘yin qaytadan o‘rin almashingan holda boshlanadi.

O‘yinda bolalar soni cheklanmaydi. Uni yilning bahor, yoz va kuz fasllarida o‘ynashadi.

Mushuk-sichqon

O‘n besh yoki undan ortiq bola o‘yinda qatnashadi. Ulardan yoshi kattarog‘i o‘rtaga chiqib, to‘planganlarni sanay boshlaydi:

*Stakanga suv quydim,
to‘lib-toshdi,
Samarqandga qiz berdim, olib qochdi.
Iq, biq...
San chiq!*

Sanamaning so'nggi so'ziga to'g'ri kelgan bola «sichqon» bo'ladi; sanovchi yana sanamani takrorlaydi, endi ikkinchi chiqqan bola «mushuk» bo'ladi. Sanama aytish shu bilan to'xtalib, qolgan bolalar sanovchining ishorasi bilan darhol qo'l ushlashib, davra hosil qiladilar. «Sichqon» goh davra ichida, goh davra tashida uni aylanib qochadi; «mushuk» uni quvib tutishi kerak. Davradagilar «mushuk»ning davraga kirib-chiqishiga xalaqit berib turadilar. Bolalar shu jarayonda shovqin solishadi:

*Mushuk-sichqon o'ynaymiz,
Qo'limizni ushlashib.
Sichqon bo'lsa —yol bering,
Mushukvoydan qutulsin!*

Yoki mushukka murojaat qilishib:

*— Pishakvoyjon, pishakvoy,
Dumni uzun pishakvoy.
Kelgin, sichqon tutamiz,
Tutamiz-u buta(y)miz¹, —*

deyishadi tegishib. Mushuk har qachon sichqonni tutsa:

*Pishak-mushuk,
Mushuk-sichqon.
Sichqon qochdi,
Mushuk tutildi!*

Yoinki:

*Mushuk bordi dalaga,
Sichqon qochdi etikka.
Onasi ochdi darvozani,
Yemish bo'ldi mushukka, —*

deya hayqirishadi. Shundan so'ng «mushuk» va «sichqon» bo'lgan bolalar davradagi joylariga o'tishadi. Yangi «mushuk» va «sichqon»ni tanlash uchun yana sanama aytiladi. Shu asosda o'yin yangidan boshlanadi. Agar o'yin davomida «mushuk» «sichqon»ni tutolmasa, o'rta tushib yetti marta miyovlaydi. Bu o'yinni o'g'il va qiz bolalar birgalikda bahor, yoz, kuz fasllarida ko'chada o'ynashadi.

¹ Bog'laymiz.

Qopqon

Bu o'yinda o'n yoki o'n ikkita, hatto undan ortiqroq bola qatnashishi mumkin. Avvalo, ular cheklashib ikki tomonga bo'linadilar. O'yin quyidagicha boshlanadi:

Birinchi taraf doira bo'lib turadi, ularni «qopqon» deb ataydilar. Unga raqib tashqaridagi taraf esa «sichqon» bo'ladi. «Qopqon» tarafdagi bolalar bunday deydi:

— *Sichqonlar, sichqonlar,
Jonga tegdi sichqonlar.
Qani qo'ying qopqonni,
Qo'lga tushsin sichqonlar,
Mana, qo'ydik qopqonni,
Qo'lga tushar sichqonlar.*

«Qopqon»lar shu so'zlarni jo'rovozlikda hayqirib aytib, qo'llarini baland ko'taradilar. Shunda «sichqonlar» doira ichiga kirib chiqaveradilar. «Qopqon» tarafidagi bolalardan biri: «Qopqonni yoping!» — deyishi bilan «qopqon»lar qo'llarini tushirib o'tiradilar. Shu vaqtda doira ichida qolgan bolalar — «sichqon»lar o'yindan chiqariladilar. Chunki ular qopqonga tushgan hisoblanadilar. O'yin to hamma «sichqon»lar qo'lga tushguncha takrorlanaveradi. G'oliblar aniqlangach, yana qayta boshlanadi. Bu o'yin yozda va kuzda ko'chada, hovlida o'ynalaveriladi.

Shahringni ayt?

Bu o'yinda bolalar soni cheklanmagan. Ular qanchalik ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi. Ularning orasidan o'yinboshi saylanadi. Bolalar doira hosil qilib aylanaveradilar. Doira o'rtasida turgan o'yinboshi:

— *Elini, elini,
Tomga qo'ydik kelini.
Yaxshi bola biladi
Shaharini, elini,
Guldur-gup! —*

deydi. «Guldur-gup» deyilishi bilanoq doira harakati taq to'xtaydi, barcha bolalar jim bo'lib, qimirlamay turishi zarur. Sukunatni kim buzsa, o'yinboshi unga qarab: «Sen jimlikni buzding, shahringni ayt!» — deydi. Bola esa biron-bir shaharning nomini aytadi. Shunda o'yinboshi undan shaharini maqtab berishini talab qiladi. Shunda bola o'sha nomini o'zi aytgan shaharni maqtab yuboradi yoki uning haqida biror she'rmi, ashulami aytib bermog'i lozim. Shu tariqa o'yin davom etaveradi.

Opa-opa, anjir...

Bu o'yinda o'n to'rt yoki undan ortiq bola ishtirok etadi. Ular qator tiziladilar va juft-juft bo'lib bir boshdan «anjir», «zanjir», deya ikkitadan o'ta boshlaydilar. «Anjir», deganlar bir tomonga, «zanjir», deganlar ikkinchi tomonga to'planib turadilar. Shunda «zanjir» tarafi a'zolari qo'l ushlashib ularning atrofmi o'ray boshlaydilar. Bu payt «anjir» tarafining barcha a'zolari bunga befarqroq qarab, o'zaro jo'r bo'lib shunday qo'shiq kuylay boshlaydilar:

— *Opa-opa, anjir-a,
Darvoza zanjir-a,
Darvozani ochinglar,
Cho'lga qarab qochinglar!*

* * *

— *Opa-opa, anjir,
Darvoza zanjir.
Darvozaning zulfi bor,
Zuljiga soliq qulfi bor.
Darvozani kim ochdi?
Abdusamadbek ochdi.
Abdusamad o'libdi,
Og'zi qonga botibdi.
Buxoroning qizlari
Tamoshaga chiqibdi.*

Yoki:

— *Opa-opa, anjir,
Darvoza zanjir.
Darvozani ochinglar,
Cho'lga qarab qochinglar!
Cho'lning yo'li keng ekan,
Bizni tutib olinglar!*

Parchalardagi so'nggi so'zlar «chiqibdi», «olinglar» va «qochinglar» aytilishi bilanoq yarim doira shaklida turgan «zanjir» tarafi chaqqonlik bilan aylana hosil qilib, «anjir» tarafi a'zolarini o'rab olishi kerak. Agar «anjir» tarafi a'zolaridan bi-rontasi aylanadan qochib chiqib ketolsa, u taqdirda «anjir» tarafining barcha a'zolari ozod bo'lishadi va taraflar o'zaro o'rin almashib o'yinni davom ettiradilar. O'yin bahor, yoz va kuzda ko'proq o'ynaladi.

Oltin darvoza

Bu o'yinda ham bolalar ikki raqib guruhga ajralishlari darkor. Buning uchun dastlab ikki onaboshi belgilanadi, ularning biri — «yashil», ikkinchisi — «qizil» bo'ladi. Bolalar ularning oldiga juft-juft bo'lib kelishgach, onaboshilardan biri: — «Qizil»ni olasanmi? Yoki «yashil»nimi? — deydi. Bolalarning «yashil» degani — «yashil» onaboshi yoniga, «qizil»i — «qizil» onaboshi yoniga o'tadi. Guruhlar ana shu zaylda shakllanib bo'lgach, ikkinchi guruhdan ikkita bola oldinga chiqadi-da, o'ng va chap qo'llarini bir-birlariga qo'yib, yuqoriga ko'targan holda darvoza hosil qiladilar. Boshqa bolalar shu darvoza ostidan o'tisha boshlashadi. Shunda qo'llari darvoza vazifasini o'tayotgan bolalar:

— *Darvoza, darvoza,
Oltin qulfli darvozadan
Hammani o'tkazamiz,
Faqat, faqat bir kishini
O'tkazmaymiz, o'tkazmaymiz!*

Yoki:

— *Oltin darvozadan
Bolalar, o'taveringlar,
Hammalaringizni o'tkazamiz,
Bittangizni qo'ymaymiz, —*

deya eng so'nggi bolani saqlab qoladi.

*Qarsagim qarsak...
Bozorga borsak...
Qovunni yorsak...
Mazza qip yesak.
Yemog'ingni qo'y!
Qarsagim qarsak...
Polizga kirsak,
Qovunga to'ysak!
Qarsagim qarsak...*

Qarsak chaling, qarsak!

*Qarsagim, qarsak,
Bog'larga borsak.
O'ynasak, kulsak,
Taq-tuq, tasadduq!*

Zanjir-zanjir

Buni bolalar ko'pchilik bo'lib o'ynaganlar. Ular qo'lma-qo'l ushlab aylana bo'lib turganlar. Bir bola zanjirni ochuvchi hisoblanib, chetga chiqib o'tirgan. Bolalar uni «zanjirchi» deb atashgan. So'ngra «zanjirchi» bilan «zanjirlar» (aylana bo'lib turganlar) orasida aytishuv boshlangan:

Zanjirchi: — Zanjirni boyladim,
Zanjirlar: — Alle, alle!.. (Jo'r bo'lib).
Zanjirchi: — Qanorga joyladim.
Zanjirlar: — Balli, balli!..
Zanjirchi: — Jigar-jigar...
Zanjirlar: — Joni jigar!..
Zanjirchi: — Dilginam kuydi-yo...
Zanjirlar: — Kela qol, o'tgin.
Zanjirchi: — Kimning darvozasidan?
Zanjirlar: — Ma'muraxon darvozasidan!

So'ng «zanjirlar» nomi aytilgan bola «darvoza»sidan, ya'ni qo'li ostidan qo'llarini zich ushlagan holda o'tganlar. Xuddi shunday har bir aytishuvdan keyin bitta-bitta bolaning ismi aytilib «darvozasidan» o'tiladi. Natijada zanjirga o'xshagan shakl hosil bo'ladi. Zanjir o'ralib bo'lgach, «zanjirchi» uni ocha boshlaydi. Agar «zanjirni» ochsa, yana o'zi «zanjirchi» bo'ladi. Mabodo ocholmasa — unda o'rniga boshqasi «zanjirchi» bo'ladi. Bu o'yinni ko'proq qiz bolalar o'ynagan.

Kim chopag'on?

Bu o'yinda maxsus marra belgilanib, unga kim eng oldin chopib kelishi asos qilib olingan. Buning uchun bolalar yig'ilishgach, oralaridan onaboshini belgilashadi. U o'yin shartini e'lon qiladi va chopib o'ynaladigan masofani belgilab, sovrin uchun olmami, konfetmi — biror narsani aytadi-da, ushbu qo'shiqni aytib boradi:

*Karim kamonga ketdi,
Sobir somonga ketdi.
Tolib, Tessa — ikkovi
Ikki tomonga ketdi.
Qay biri oldin kelsa,
Manov sovg'ani olsin,
Hush!*

Oxirgi so'z aytilishi bilan startda turgan bolalar chopishga kirishadi. Albatta, qo'shiqda tilga olingan bolalar nomlari o'yin ishtirokchilari kim bo'lishiga qarab

o‘zgarib turadi. Kim oldin marraga yetib kelsa, sovrin-sovg‘ani oladi va g‘olib sanaladi.

O‘yin shu taxlitda bolalar charchagunlarigacha davom etadi.

Kim o‘zar?

Bu o‘yinda o‘g‘il va qiz bolalar taraf-taraf bo‘lib o‘ynashadi. Taraflar soni bir-biriga teng bo‘lishi kerak. Ular yuzma-yuz turgan holda saf tortishadi. Taraflar bir-birlari bilan shunday aytishishadi:

Qizlar:

— *Huv balandda tog‘olcha,
Pishib erta yetildi.
Olchalarni tergancha
Qanotlarim qayrildi.
Qanot bering, uchaylik,
Karmanaga tushaylik.*

O‘g‘illar:

— *Karmananing qizlari,
Qizil-qizil yuzlari.
Olma bersam yemaydi,
Saqich bersam chaynaydi,
Qars-qurs chaynaydi.*

O‘g‘il bolalar qo‘shig‘ini tugatishi bilan qizlar ulardan achchig‘langanday bo‘lib, ularni quva ketishadi. Har bir qiz bola o‘z ro‘parasidagi o‘g‘il bolani tutishi kerak. O‘g‘il bolalarning hammasi tutilgach, yana qaytadan aytishishadi. Bu gal o‘g‘il bolalar qizlarni tutishadi. O‘yin bahor, yoz va kuzda juda ko‘p o‘ynaladi.

Atala-patala

Bu o‘yinda bolalar aylana bo‘lib to‘planadilar. O‘yinboshi quyidagi sanamlarni aytadi:

*Atala-patala,
Noni qishtala qoq.
Sarimsoq,
Dimoq choq!*

Yoki:

*Atala-patala kak oyna,
O’sma ali jahoyna,
Mamlakat-u Nazira,
Chaspalaki chasp!*

O'yinboshi har bir so'zni aytganda bir bolaning ko'kragiga turtib qo'yadi. Oxirgi «choq» yoki «chasp» so'zi qaysi bolaga to'g'ri kelsa, o'sha bola davradan chiqib turadi. O'yinboshi sanamani qayta-qayta aytaverib, bolalarni birma-bir davradan chiqaraveradi. Oxirida bitta bola qoladi. Davradan chiqqan bolalar — «qochoq»lar. Qolgan bitta bola esa — «qochoq»larni tutuvchi bo'lib, tutong'ich deyilgan. O'yinboshi yugurishga ruxsat bergach, «qochoq»lar har tomonga qochgan. Tutuvchi esa ularning izidan quvib, «qochoq»lardan birortasini tutsa, o'shani o'z joyiga qo'ygan va o'zi «qochoq»larga qo'shilib yugurgan. Shu xilda «qochoq»larni tutuvchi almashinib turib o'yin davom etavergan.

Igna-igna

Bu o'yinda bolalar besh-oltita bo'lib to'planadilar. Bir bola o'rtada turib, chap qo'lini baland ko'tarib «ayvoncha» qilib turgan. Boshqa bir bola «to'g'nag'ich» bo'lib turgan. «To'g'nag'ich» bo'lgan bola quyidagi sanamani tez-tez aytgan:

*Igna-igna,
Uchi tugma.
Samarqandning qaldirg'ochi,
Igna qoshlim,
Chiqdi gulim!*

«Igna»lar hushyor bo'lib, diqqat qilib turganlar. «To'g'nag'ich» «gulim» so'zini zarb bilan aytganda qo'lini birdan yozgan. Shu paytda «igna»lardan birortasi «to'g'nag'ich»da qolsa, chetga chiqib turgan. Shu tartibda «to'g'nag'ich» «igna»larni tutib olgan. Eng oxirida qolgan «igna» «to'g'nag'ich» bo'lgan. O'yin shunday davom etgan.

Yanglishdingmi, chiqib tur!

Bu o'yinda sakkiz yoki undan ortiq bola qatnashadi. O'yinning farqli xususiyati shundaki, uni boshqaruvchi katta yoshli, tajribali kishi bo'lishi kerak. Bolalar davra hosil qilib yoki qator tizilib o'tiradilar. Boshqaruvchi bolalarga o'yin shartini shunday e'lon qiladi:

— Hozir men sizlarga narsalar nomini aytib turaman. Shulardan qay biri uchadigan bo'lsa — sizlar «pirri» deysizlar, uchmaydigan bo'lsa — indamaysizlar. Javob berishga kechikkan bola o'yindan chiqariladi.

So'ngra boshqaruvchi uchadigan va uchmaydigan narsalar nomini bir-bir aytaveradi:

- Qaldirg'och.
- Pirri.
- Chumchuq.

— Pirri.

— Gul.

— ...

— Bulbul.

— Pirri.

— Daraxt.

— ...

— Uy.

— ...

O‘yin jarayonida adashgan yoki javob bermagan bolalar o‘yindan chiqib turaveradi. O‘yin to birgina bola qolguncha davom etadi. G‘olib esa, o‘yin oxirida qolgan bola hisoblanadi. O‘yin yilning deyarli barcha fasllarida ko‘chada ham, hovlida ham, uyda ham o‘ynalishi mumkin.

Oyoq tortish

Bolalar oyoqlarini cho‘zib qator o‘tiradi. Xohlagan bittasi ularning oyoqlarini quyidagicha sanay boshlaydi:

*Avak-duvak, eshimkavak,
Safar, Lola lingak,
Sen tur, sen chiq.*

Yoki:

*Oq tovuq, ko‘k tovuq,
Oyoqlari shiqirdovuq.*

Kimning oyog‘iga oxirgi so‘z sanog‘i tushsa, o‘sha bir oyog‘ini tortib oladi. Shu xildagi sanamalar nihoyasida kimningdir bir oyog‘i sanoqdan ortib qoladi. O‘sha bola sanash galini oladi va qaytadan sanay boshlaydi.

Avvalakam

O‘ynovchilar nechta bo‘lsa ham oyoqlarini uzatib o‘tiradilar. Masalan, o‘n beshta bola o‘ynamoqchi. O‘ynovchilardan bittasi onaboshi bo‘lib, o‘yinni boshqaradi.

*— Avvalakam,
Duvvalakam.
Chori-chaman,
Bin amal,
Qora qo‘yim qayda edi?
— G‘ozlar bilan bog‘da edi.*

— *Bog‘da nima qiladi?*
— *Bog‘da bodom teradi.*
— *Tog‘ malak, suv malak,*
Pildir pis, oyog‘ingni qis! —

deya uzatilgan barcha oyoqlarni sekin urib chiqadi. «Qis» so‘zi kimning oyog‘i sanog‘iga to‘g‘ri kelsa, darhol oyog‘ini tortib olmog‘i lozim. O‘yin eng oxirgi oyoq qolguncha davom etadi. Onaboshi ana shu oyoqni ko‘tarib: «Yergami, toqqami?» — deb so‘raydi. Agar o‘ynovchi «yerga» desa, yerga qo‘yadi, «toqqa» desa, ko‘tarib yuboradi. Keyin onaboshi davra qurib o‘tirishni aytadi. Hamma o‘ynovchilar davra qurib o‘tiradilar. Onaboshi hamma o‘ynovchilarga birma-bir «Oyoqlaringni qirsillat!» deb buyruq beradi. O‘ynovchilardan birortasining oyog‘i qirsillamasa, onaboshi uni jazolaydi. Oyog‘i qirsillamagan o‘yinchi belgilangan vaqtgacha oyoqlarini juft qilib qimirlatmasdan o‘tirishi kerak.

Tarqalmachoqlar

«Bolalar o‘yindan tarqalish paytini ham esdan chiqarmaganlar, shu joyiga ham badiiy bezak berganlar», — deb yozadi F. Jahongirov o‘yin yakunlamalari haqida. So‘ngra, u shu turdagi qo‘shiqlardan ayrim namunalarni g‘oyaviy jihatdan nazardan o‘tkazsa-da, ularning folkloristik xususiyatlarini, chunonchi, janriy tabiatini sharhlamaydi. U bunday qo‘shiqlarni «o‘yin oxiri» deb ataydi va aytish mumkinki, o‘zbek folklorshunosligida birinchilardan bo‘lib ularga nom qo‘yadi va ular haqida ma‘lumot berishga intiladi. Chindan ham bunday qo‘shiqlar hamisha u yoki bu o‘yinininggina emas, balki umuman o‘yinining tamoman belgili vaqtga qadar tugaganligi ayon bo‘lgach, bolalar shunga kelishib, uy-uylariga tarqalishga qaror qilishgach, tarqalish harakati ritmiga omuxta tarzda goho jo‘rovoz shaklida, goho har kim o‘z holicha shovqin solib deklomatsiya qilgan holda ijro etiladi. Binobarin, ularni «o‘yin oxiri» deb atash to‘g‘ri bo‘lmay, tarqalmachoqlar deyish mantiqqa muvofiqdir.

Ma‘lumki, bolalar o‘yin jarayonida olgan olam-olam taassurotlari og‘ushida ehtirolarga to‘lib-toshgan holda uy-uylariga tarqaladilar. Shu ko‘tarinki kayfiyat ularni «kuylatadi», o‘yindan mamnunlik tuyg‘ularini toshiradi. O‘yindan tarqalish qo‘shiqlari ana shunday to‘lib-toshib kuylashning oqibati hisoblanadi.

O‘tmishda bolalar yozning salqin kechalarida xo‘rozlar qichqirgungacha o‘ynaganlar. Ular o‘yinga berilib, allamahol bo‘lib qolganini payqamaganlar. Shunday kezlarda xo‘rozning qichqirig‘i ularni hushyor torttirgan va uydagilardan dakki yemasliklari uchun o‘yinni tugatishga, har kimni o‘z uyiga tarqalishga majbur etgan. Shunga qaramay, o‘yindan mamnunlik hissi ular saxovatini ham toshirib yuborgan. Natijada bolalar saxovatpeshalik bilan o‘sha, ularga tarqalish «signali» berib qichqirgan xo‘rozn bir-birlariga hadya etgilari kelib ketgan:

*Uy-uyingga,
Katta to'yingga,
Bir xo'rozim bor,
Qaysi biringga?*

Yoki:

*Uylik uylikka,
Tumlik tumlikka.
Bir xo'rozim bor,
U ham uylikka!*

Bolalar tarqalmachoqlarda qay vaziyatda tarqalayotganliklarini, aniqrog'i, o'yindan chiqib ketayotganlari sabablarini ham ifodalaganlar. Chunonchi, o'yinda g'olib chiqqan bola tasodifan chaqirilib qolindi, deylik. Bu vaziyat bola uchun qanchalik noxush bo'lmasin, u o'zining g'olib sifatida chiqib ketayotganini maxsus ta'kidlab turib, g'olibning chiqib ketishga haqli ekanligini uqtirayotganday bo'ladi:

*Aldab-aldab boplandi,
Boplandi-yu, toblandi.
Bo'ldi, men ko'p o'ynadim,
O'yindan chiqib ketdim.*

O'yinning qat'iy qoidasi bor, unga hamma bir xil amal qilmog'i lozim. O'zi yutqiza turib, o'yinni tashlab ketishga hech kimning haqqi yo'q. Bordi-yu, yutqizgan bola galni berolmay chiqib ketishga urinsa, u qochoq sanalib, shunday malomat qilinadi:

*Davrma-davrga,
Chiqaylik dashtga.
Kelganda bizga navbat
Qochganlar nomard!*

Galni bermay qochish — o'yinning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. O'yin ishtirokchilari noroziligi oshgan kezlarda ana shu malomat tahqirlashga ham aylanishi mumkin:

*Laylak keldi, yoz bo'ldi,
Qanoti qog'oz bo'ldi.
Bizning galni bermaganning
Echkisi bo'g'oz bo'ldi.*

Afsuski, tarqalmachoqlar kam yozib olinganidan ularning barcha xususiyatlarini ta'riflashning imkoniyati yo'q. Biroq bu xildagi qo'shiqlarda bolalarning o'yindan olgan xush yoki noxush taassurotlar og'ushida qaytishlari motivi yetakchidir. Bu

esa shu turdagi qo‘shiqlarning bolalar psixologiyasini kuzatishda muhim manba sifatidagi qimmatini oshiradi. Shu sababli ulanu to‘plash va o‘rganishni jadal-lashtirish lozim.

N a m u n a l a r

* * *

Tor kostum tavo¹ bo‘ldi,
Marjonim shado² bo‘ldi.
Xush kelibsiz, o‘rtoqlar,
O‘yinimiz ado bo‘ldi.

* * *

Uy-uyiga
Tepa to‘yiga!

* * *

Uy-uyiga,
Kapa to‘yga.
Bir pichog‘im bor — suyunchisiga!

* * *

Biz edik, biz edik,
O‘ttiz ikki qiz edik.
Shu o‘yinni bilolmay,
To‘rt tomonga to‘zidik.

* * *

Uy-uyingga,
Katta to‘yingga.
Bir xo‘rozim bor,
Qaysi biringga?

* * *

Aldab-aldab boplandi,
Bopladi-yu, toblandi.
Bo‘ldi, men ko‘p o‘ynadim,
O‘yindan chiqib ketgum.

* * *

Davrma-davrga,
Chiqaylik dashtga.
Kelganda bizga navbat,
Qochganlar nomard!

* * *

Hoy o‘rtoqjon, o‘rtoqjon,
Birga-birga o‘ynadik.
Qo‘shiq aytib baralla,
Do‘stligimiz kuyladik.
Mana endi kun botdi,
Qarg‘alar uyiga aytdi.
Biz ham endi aytaylik,
Qo‘shig‘imizni.
Hoy To‘lqinjon, olg‘a o‘t,
Meni endi erta kut!

* * *

Ketamiz, ketamiz,
Loyga piyoz ekamiz.
Piyozchining qizini
Erga berib ketamiz.

¹ To‘zidi.

² Shoda.



GULDUR-GUPLAR. CHANDISHLAR. TEZ AYTISHLAR

MA'NAVIY O'YINLAR

Guldur-guplar



O'zbek bolalari repertuaridagi bu ma'naviy o'yin Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysida — «guldur-gup», Buxoro vohasida, Qashqadaryo va Surxondaryoda — «jildir-jip», «juldur-jup», jo'sh shevasida so'zlashuvchilar orasida — «hapini» deb yuritiladi. Guldur-gup — momaqaldiroq ovozi (guldur-gulduri)ning birdan tinishi (gup — so'nish sadosi)ga, jildir-jip — ariqda oqqan suv ovozi (jildir-jildir)ning birdan tinishi (jip — suv harakati to'xtashi)ga ishora ma'nolariga ega bo'lib, shovqin-suronning birdan tinishiga undovchi mo'jazzgina qo'shiqlar turidir. «Jildir-jip», «hapini» terminlarining qo'llanishi nisbatan lokalroq xarakterga ega bo'lganidan «guldur-gup» mafhumi ilmiy taomilga kengroq qo'llanayotirki, bu rus bolalar folklorshunosligi shunday hodisani ifodalovchi «molchanka» istilohiga mohiyatan teng ekvivalent bo'la oladi. F.Jahongirov uni «og'iz boylash» deb tarjima qilib, cheklashmachoq turi tarzida izohlaydi. Buning asossizligi shundaki, og'iz boylash — ro'za mahali ovqatlanmaslik, asirning og'ziga latta tiqish ma'nolariga egaligidan folklorshunoslik termini darajasida ottenka bermaydi. Ikkinchidan, bolalar poetik folklorining o'ziga xos mustaqil janri sifatidagi bu hodisani ifodalovchi atama xilma-xil variantlarda o'zbek bolalari o'rtasida mavjudligidan bu xildagi tarjima — so'zga ehtiyoj yo'q. Qolaversa, guldur-guplarning mustasno hollardagina cheklashish funksiyasida qo'llanilishi uni cheklashmachoq turi deb qarashga asos bo'lolmaydi. Chunki cheklashmachoq bolalarni ikki qarama-qarshi (raqib) tarafga ajratsa, guldur-gup bolalar oldida gapirmaslik, jim turish shartini qo'yadi:

*Dim-dim-dim,
O'raga sichqon ko'mdim.
Gapirganning og'ziga
Bir shapaloq urdim.*

Shartlar ba'zan behad og'ir va tahqirlovchi bo'lishi mumkin:

*Mushuk o'ldi,
Dumi qoldi.
Kim gapirsa,
Uni yeydi.*

Ko'rinayotirki, shart bolalarni guruhlarga ajratishni mo'ljallagani yo'q, bil'aks hamma o'yinchilarga taalluqli, binobarin, uni bajarish barchaga majburiy. Shu shartni bajarishga kimning bardoshi yetmasa, beqarorlik qilib shivirlasa yoki gapirib qo'ysa, kulib yuborsa — o'sha yutqizgan hisoblanadi. Yutqizgan shartdagi tahqirga loyiq sanalib, onaboshi yoki o'yin ishtirokchilari qanday xohish bildirisha, o'shani so'zsiz bajaradi. Xohish esa, ertak, topishmoq aytish, qo'shiq kuy-lash, raqsga tushish, belgilangan muddatda muallaq turish, belgilangan masofaga chopib yoki emaklab borib kelish, biror o'yinchini ko'targan holda olib borib-olib qaytish va shunga o'xshashlardan iborat bo'lishi mumkin.

Tabiatan quvnoqroq, sho'xroq yo bardoshsizroq bolalar guldur-gup shartini tez-tez buzib turadilar. Gohi ikki-uch o'yinchi baravariga shivirlashi, kulib yuborishi mumkin. Bu onaboshi zimmasiga qo'shimcha hushyorlik yuklaydi: qay darajada bo'lmasin eng oldin shivirlagan yoki kulganni aniqlash — o'yin adolatini himoya qilishning bosh sharti. Shu zaruriyat taqozosiga ko'ra onaboshi ayrim holdalarda guldur-gupdagi shartni bajarishdan o'zini ozod etadi. Bu niyatini guldur-gup shartiga qo'shib e'lon qilmog'i darkor. Shundagina uning niyati qonuniy xolislik kasb etadi. Bunday kezlarda «Mendan oldin kim gapirmasa» sharti alohida ta'kidlanib, onaboshining shartni bajarishdan ozod etilgani o'yin ishtirokchilariga ma'lum qilinadi:

*Otini-ye, otini,
Qo'ya turgin shotini.
Mendan oldin kim gapirsa,
Ko'r gadoyning xotini.*

Shartni ifodalovchi oxirgi so'zning intonatsiyasi alohida shiddatga ega. Shu lahzadan e'tiboran shart kuchga kirgan hisoblanadi va o'yin ishtirokchilari og'izlariga tolqon solganday jim turishlari lozim. Guldur-guplarda jim turish muddati belgilanmaydi, bu o'yinchilar bardoshiga bog'liq. Guldur-guplar bolalarga so'zning qudratini, insoniy munosabatlardagi mas'ullikni, so'z va harakatning uyg'unligini idrok etishlariga ko'maklashadi, so'zda ifodalangan shartni bajarish jarayonida ularni bardoshlilik ruhida tarbiyalab, irodalarini toblantiradi.

N a m u n a l a r

Guldur-gup,
O'raga sichqon tushdi,
Guldur-gup!

* * *

Jildir-jip,
Jildir-jip,
Gapirganning og'ziga cho'p.

* * *

Hapini, hapini, hapini,
Tomga qo'ydim shotini.
Shaldiroqdan suv ichgan,
Shaldir buvam xotini.
Guldirakdan suv ichgan,
Guldir buvam xotini.
Mendan burun gapirgan,
O'smatkarning xotini.
Hap, og'zingni yop,
Qulfi sizlarda,
Kaliti manda!

Chandishlar



O'zbek bolalar poetik folklorida keng tarqalgan bu hodisa Buxoro vohasida «laqillatma» deyilsa, respublikamizning boshqa ko'p joylarida «chandish» deb yuritiladi. Rus folklorshunosligida «poddevka» deb yuritiladigan bu hodisani prof. G. S. Vinogradov «bolalar satirik lirikasi» namunasi sifatida ilk bor ilmiy ta'riflagan va u taklif etgan mazkur termin fanda o'zlashib qolgan. Ruscha «pod-det» — so'zda tutilish tushunchasini ifodalovchi bu ma'fumga «chandish» istilohi teng ekvivalent bo'la oladi. So'zda laqillatish, chandib olish hisobiga «g'aflatdagi» sherigini hushyor torttirish, shu asosda unda so'zda, uning ma'nosiga sezgirlik uyg'otishni ifodalovchi bu tushunchani folklorshunoslikda ilk bor termin sifatida

prof. H. Razzoqov qoʻllagan. Biroq u bu terminni bolalar folklorida mavjud janrni ifodalovchi maʼnosida emas, balki askiya turini farqlash maʼnosida qoʻllagan.

M. N. Melnikov oʻz salaflarining chandishlarning satirik xarakterdaligiga oid qarashlarini rad etib: «Chandishlar satira namunasi boʻla olmaydi. Agar satirani «voqelikni salbiy hodisalardan gʻazabli kulish, ularni ayovsiz fosh etish... qolaversa, jamiyki eskirgan, umrini yashagan, oʻlinga mahkum narsalarga qarshi kurash vositasi»¹ deb tushunadigan boʻlsak, bu xususiyat chandishlarda yoʻq. «Chandishlar — bu boshqalarni ermak qilish hisobiga xursand boʻlishga qaratilgan beozor hazillar. Ular ermak qilishga moʻljallangan soʻz oʻyinlaridan boshqa narsa emas», deb izohlaydi. Chandishlarda hazil elementi gʻoyat primitiv boʻlib, koʻpincha chinakam yumor darajasiga koʻtarila olmay, ayrim hollarda harakatdan ham ajralmagan: «Sutmi, qaymoq?», «Kulchangni tayloqcha qilib beraymi?» oʻyinlarida soʻz emas, balki harakat chandish vositasiga aylangan, soʻz harakatni boshqargan, xolos: «Sutmi, qaymoq?»da bir yoki bir necha bola oʻtirganida orqavarotdan sezdirmay nogahoniy kelib qolgan boshqa bir bola oʻtirganlardan birortasining ikki koʻzini kaftlari bilan yopib, soʻraydi:

— Sutmi, qaymoq?

Koʻzi yopiq bola javob beradi:

— Sut.

— Ogʻzingga tut, — deya qoʻlini koʻzdan oladi. Bordi-yu koʻzi yopiq bola «qaymoq» deb javob berganida koʻzni yopgan bola unga «orqangga qayroq» deb, kaftlarini qaboqlar ustiga kuchliroq bosib ogʻritib tortib olishi lozim edi. Bundan koʻzi ogʻrigan bola sira ogʻrinmas, xafa boʻlmas, balki hazilga yoʻyib, kulib turib oʻynashda davom etaverar va ancha hushyor tortib qolardi. Chandishlar shu xildagi soʻz oʻyinlari boʻlib, bolalarning nimanidir bajarolmaydigan, nimanidir bilmaydigan yoki zarur boʻlganda oʻzini tuta olmaydigan tengqurlaridan quvonib kulishlari vositasi (M. N. Melnikov) sifatida xizmat qiladi.

H. Razzoqov chandishlarga bolalar askiyasi turi sifatida qarab, ular «bolalar ogʻzaki ijodiga xos yumordir. Unda ikki yoki bir qancha bolalar «raqib» tarafkash bolalar bir-birlarining xarakteri, xulqi, jismoniy tuzilishi, oilaviy ahvoli (baʼzan ota, onalarini ham qoʻshib)ni oʻziga xos murgʻak, qoʻpol, ibtidoiy soʻz oʻyinlari, qochirim, majoz, baʼzan pornografiya bilan turli xunuk narsa va hodisalarga oʻxshatadilar. Bunda qizgʻin fikr, aql musobaqasi davom etadi», deya xarakterlaydi. Bunda u chandishlarning yumoristik hodisa tarzida bir yoqlama eʼtirof etgan, janr mohiyati soʻz oʻyinida zuhur etishini nazardan soqit qilgan. Holbuki, yumorga aloqasi boʻlmagan chandishlar ancha keng tarqalgan, ularda ohangdoshlikni yuzaga keltiruvchi qofiyabozlik ibtidoiy soʻz oʻyini tusini olgan:

— Doyi, degin.

— Doyi.

¹ Энциклопедический словарь. Т.3. – М., 1955, с. 170.

— Qani oying?

Soʻzni soʻzga qoʻfiyalash negizida bunyod etilgan bu xildagi ibtidoiy soʻz oʻyinlari kichik yoshdagi bolalar nutqida muhim rol oʻynaydi. Ular ulgʻaygan sari soʻzning maʼno nozikliklari, lutf, qochirim, majoz maʼnolarini ilgʻash mashqlarini takomillashtira borganlar. Natijada chandishlarda yumoristik ruh tovlanishi yuzaga kelgan.

Chandishlarning dialog shakli qatʼiy boʻlib, ikki bola ishtirokidagina amalga oshadi. Boshqalar tomoshabin sifatida chandishayotgan tengqurlarini kuzatadilar. Chandishlar oʻziga xos ilmoqdor va serjilo soʻz musobaqasi boʻlib, unda bolalar bir-birlarini soʻzda «tutishib», chandishib, soʻzning xilma-xil ohang va maʼno tovlanishlarini oʻzlashtiradilar.

Oʻzbek bolalari repertuarida chandishlarning toʻrt turi keng tarqalgan:

1. Sunʼiy dialogdan iborat chandishlar. Bunday chandishlar kompozitsion jihatdan ikki qismdan iborat boʻladi: birinchisi – sunʼiy bitilgan tugun. Sunʼiy bitilgan tugun istalgan soʻz boʻlib, uni oʻzgacha «degin», «de», «deb ayt», «aytgin» soʻzlari yordamida takrorlash taklif qilinadiki, bu dialogning sunʼiy xarakterini belgilaydi.

Ikkinchisi — bevosita chandishning oʻzi. Ikkala qismni oʻzaro mantiqiy bogʻlash ham aslida oʻsha soʻz — tugun zimmasida: bu birinchi tomon taklifi bilan ikkinchi tomonning oʻsha soʻzni takrorlashida namoyon boʻladi. Nihoyat, yana birinchi tomon oʻsha oʻzi taklif etgan soʻz — tugunga ilgakli qofiya topib, ikkinchi tomonni soʻzda «tutadi», chandiyladi. Bunday qoʻfiyalanish negizida chandishning kompozitsion qismlari bir-biriga mantiqan bogʻlanadi va bir butunlik kasb etadi:

— Moshin, deb ayt.

— Moshin.

— Otang keldi, yoshin!

2. Tabiiy dialogdan iborat chandishlar. Bunday chandishlarda tugunning tasodifiyligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bunda dialog tabiiy kechadi. Erkin suhbat jarayonida bir tomon ikkinchi tomonga nogahoniy savol berib qoladi. Xuddi shu savol tugun vazifasini bajaradi, unga qaytariladigan javob tabiiy ravishda chandishga zamin yaratadi:

— Mana bu nima?

— Taroq.

— Yuzingni yalasin baroq.

Koʻrinayotirki, sunʼiy dialog shaklidagi chandishlarda boʻlganidek, bunda birinchi tomon tugunni takrorlashni taklif etmayapti, shunchaki tabiiy yoʻsinda kechayotgan suhbat jarayonida tugʻilgan savoliga javob kutayapti. Bunday savol-javoblar koʻpincha matematik xarakterda boʻlib, javob yigʻindini ifodalaydi. Yigʻindini ifodolovchi raqam — chandishga asos vazifasini oʻtaydi:

- Ikki karra ikki nechchi?
- To‘rt.
- Kelin bo‘lib to‘rga o‘t!

G. Vinogradov tabiiy dialogdan iborat chandishlarning birinchi qismini — savolni ilgak, ikkinchi qismini chandish deb atagan. Bu tabiiy dialogdan iborat chandishlarda savol-javoblarning hal qiluvchi kompozitsion uzv (komponent) ekanligini tasdiqlaydi.

3. Aldanmachoq chandishlar. Bular aksari holatlarda harakat bilan bog‘langan bo‘lib, raqibni so‘zda emas, harakatda aldash va shu asosda chandishni yuzaga keltirish zahirida qurilgan bo‘ladi. Chunonchi, bir bola ikkinchisiga:

— *Tomdan tarasha tushdi,*
Boshimga tesha tushdi.
Boshimga qara-qara,
Qalpog‘i suvga tushdi, —

deya murojaat qilib, uni aldab, laqillatmoqchi bo‘ladi. U bunga ishonsa, aldangan tomon g‘olibligini namoyish etib:

— *Aldatdim, aldatdim,*
Atalani yalatdim. Devolchadan oshirdim,
Chang‘aloqqa yashirdim, —

deya o‘z quvonchini sakrab-sakrab turib, qarsak chalib ifodalaydi.

Aldanmachoq chandishlar ko‘pincha onaboshi va o‘nlab bolalar — o‘yin ishtirokchilarining she‘riy savol-javobi shaklidir. Onaboshi savol tashlaydi, bolalarning to‘g‘ri javoblarini ma‘qullab, rag‘batlantirib boradi, aldanganlarni — javobda chalishganlarni uzib oladi:

- Karim qayoqqa ketdi?
- Ola tayoqqa ketdi.
- Salim qayoqqa ketdi?
- Qizil bo‘yoqqa ketdi.
- Balli!
- Kakku ko‘kka uchdimi?
- Kakku ko‘kka uchadi.
- Baqa ko‘kka uchdimi?
- Baqa ko‘lga tushadi.
- Balli!
- Bo‘ri uzum yeydimi?
- Bo‘ri qo‘zi yeydi.
- Tulki sovun yeydimi?
- Tulki tovuq yeydi.

- Balli!
- Bulbul choʻlda sayrarmi?
- Bulbul bogʻda sayraydi.
- Burgut suvda suzarmi?
- Burgut togʻda yayraydi.
- Balli!
- Ilon uzum yeydimi?
- Ilon uzum yeydi.
- E... e... ahmoq shunday deydi.

Barcha toʻrtliklar ikkitadan savol va uning javobidan iborat. Dastlabki toʻrtlik aldab chandish uchun fon vazifasini oʻtovchi ekspozitsiyadir. Undagi «q» toʻvushi alliteratsiyasi oʻyin ishtirokchilarini keyingi ilgaklar silsilasiga roʻpara qilishni koʻzlaydi. Ikkinchi toʻrtlikning birinchi savol-javobi ham ilgaksiz. Ammo undagi «k» undoshi alliteratsiyasi navbatdagi savolda ilgak tayyorlaydiki, bu «baqaning koʻkka uchishidan» iborat mantiqsizlikda ifodalangan. Oʻynovchilar javobda «ilgakka qoqilmay» shu mantiqsizlikni tuzatadilar. Keyingi toʻrtliklardagi savollarning barchasi surunkasiga mantiqsizliklarga asoslana borib, goʻyo mantiqsizliklarning silsilaviy xurujiga aylangan. Va bolalarning hayot hodisalarini qay darajada anglab yetganliklarini sinashga moʻljallangan. Bolalar idrok etgan hayot hodisalari haqiqatmi yoki sarobmi — mantiqsizliklar negizidagi ilgaklar shu muammolarni yechishga qaratilgan. Bolalar idrok etgan qay bir hayotiy haqiqatga qatʼiy boʻlsalar, oʻsha haqiqatning toʻgʻriligiga ishonsalar, hatto u yoki bu toʻvushning alliteratsiyasi aldash zaminini taʼminlab turganida ham, yanglishmay, oʻsha mantiqsizlikni tuzatib — ilgakni toʻgʻri yechib borganlar. Haqiqat qatʼiy anglanmagan hollarda ular yanglishganlar, ular ongida haqiqatga oid tasavvur sarob bolganda javoblari notoʻgʻri chiqqan va onaboshi (qarshi tomon)ning chandishiga uchraganlar. Bunday aldanmashoq chandishlarni istagancha choʻzish mumkin. Ularda chandishmoq marrasi birinchi adashuvgachadir. «Ilon uzum yeydi» javobi shunday adashuv marrasi boʻlib, «Ahmoq shunday deydi» — chandishning oʻzidir.

4. Qistirma chandishlar. Bular oʻtkir luqma singari suhbatdosh gapiga qofiyalanish yordamida bogʻlanib, gapga gap qistirish shaklida chandish hosil qiladilar. Gapga gap qistirish hozirjavoblik zamidida shu lahzaning oʻzidayoq amalga oshmogʻi shart:

- Ishlar qalay?
- Opajoningni olay.

Chandishlar bolalarning soʻzni anglash, xalq tili nozikliklarini idrok etish yoʻlidagi oʻyin-mashqlari boʻlib, sheʼriy ijod texnikasini oʻzlashtirishdagi ilk izlanishlari natijasi hisoblanadi. Shu fazilatlariga koʻra chandishlar bolalarning poetik ijodkorligi xususiyatlarini oʻrganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

N a m u n a l a r

* * *

- Ulugʻ, degin,
- Ulugʻ.
- Duming yulugʻ.

* * *

- Bir, degin,
- Bir.
- Yerga kir.

* * *

- Uch, degin.
- Uch.
- Gaping puch.

* * *

- Toʻrt, degin.
- Toʻrt.
- Kallaginang moʻrt.

* * *

- Yetti, degin
- Yetti.
- Onang bozorga ketdi.

* * *

- Olim, degin.
- Olim.
- Oʻzing oʻzingga zolim.

* * *

- Asad, degin.
- Asad.
- Aftingni tuzat.

* * *

- Choʻp, degin.
- Choʻp.
- Chop, mushukni oʻp.

* * *

- Shapka, degin.
- Shapka.
- Tushunmaysan gapga.

* * *

- Tandir, degin.
- Tandir.
- Otang komandir.

* * *

- Iroda, degin.
- Iroda.
- Yoʻl yuraver piyoda.

* * *

- Ikki karra ikki nechchi?
- Toʻrt.
- Kelin boʻlib toʻrga oʻt.

* * *

- Narimon, degin.
- Narimon.
- Yotaversang, eshigingdan qarayman.

* * *

- Rauf, degin.
- Rauf.
- Charchadim, uf!..

* * *

- Rang-barang, degin.
- Rang-barang.
- Muncha bo‘lmasang garang?

* * *

- Mana bu nima?
- Dum.
- Og‘zing to‘la qum.

* * *

- Mana bu nima?
- Piyoz.
- Onangga xat yoz.

Tez aytishlar



O‘zbekistonning turli joylarida «tutal», «chalg‘itma», «chalg‘ituv», «chalish», «adashish» deb yuritiladigan bu folklor hodisasi turkman va qirg‘izlarda «yanilt-mach», tatarlarda «tiz aytkech» yoki «til chapalantirgich», tojiklarda «tez go‘yak» nomlari ostida keng tarqalgan. Tez aytish termin sifatida janrning birgina xususiyatini — bir nafasda shiddat bilan atalishini ifoda etsa-da, tez aytishdan kuzatiladigan maqsad nimaligini anglatmaydi. Ana shunday cheklanganlikka egaligiga qaramay, ruscha «skorogovorka» terminining tarjima ekvivalenti sifatida ilmiy taomilga singib ketgan.

O‘zbek tilida mavjud turli atamalarda tez aytishdan kuzatiladigan ikki maqsad bo‘rtib ko‘rinib turadi: birinchisi — tez aytishdan murod — chalg‘itish, so‘zda chalish yoki adashtirish, chalg‘itma, chalish yoki adashish deyilishi boisi shundan. Ikkinchisi — tez ayta turib chalishish — tutilishga teng. Shu sababli tutal deyilgan. Biroq chalg‘itish ham, chalish ham, adashish ham, tutilish ham o‘xshash tovushlardan iborat so‘zlardan tuzilgan, aniqrog‘i, alliteratsiya zamiridagi so‘zlar gammasini shiddat bilan bir nafasda aytish zamirida voqe bo‘lganligidan — tez aytish yetakchi xususiyatga aylanib folklor hodisasini ifodalovchi termin darajasida barqarorlik kasb etgan.

Tez aytish aslida kattalar og‘zaki ijodiga xos hodisa bo‘lsa-da, mohiyatan bolalar nutqidagi kemptikliklarni bartaraf etishga qaratilgan. Bolalar tez aytishlar vo-sitasida o‘z ona tillaridagi tovush va so‘zlarni ravon, burro, ochiq talaffuz etishni, tovushlarning ohangdorligini, so‘zlarning nozik ma’no ohanglarini his va idrok qilish, anglab hamda ilg‘ab olishni mashq qiladilar. Shu ma’noda tez aytish tovush va so‘z ustidagi poetik-mantiqiy mashqlar hisoblanadi.

Tez aytish bolalar ma'naviy ehtiyojlariga mosligidan uni tezgina o'zlashtira borganlar, asta-sekinlik bilan o'zlari ham uning bir qator yengil va oddiy namunalarini ijod qila boshlaganlar. Natijada davrlar o'tishi bilan tez aytish bolalar folklori arsenaliga o'tib qolgan. Zotan, tez aytish nutq tovushlari alliteratsiyasiga asoslanuvchi folklor janri bo'lib, o'xshash tovushli so'zlar yoki so'z birikmalarining bir nafasda shiddatli aytilishi jarayonida u yoki bu tovush yo so'z talaffuzida chalg'ish natijasida voqe bo'luvchi ma'no o'zgarishi negizida yuzaga keladi. Shu xususiyati tufayli o'tmishda tez aytish kattalar repertuarida uchragan va aksariyat holatlarda pornografik xarakterga ega bo'lgan. Bora-bora katta yoshli bolalar va o'smirlar repertuariga ko'chgan; ular bu xildagi tez tishlarni o'yin shartiga aylantira borishgan; kim uni to'g'ri aytolmasa, chalishsa, o'sha yutqizgan sanalib, g'oliblar qo'ygan shartni bajargan yoki o'yinda navbatda (galda) turgan. Buni Y.M. Peshcherovanning 1923–24-yillarda Toshkent atrofi, Sharqiy Buxoro va Zarafshonning yuqori qismi bo'ylab uyushtirgan etnografik ekspeditsiyasi davomida yozib olgan tez aytishlar shartiga aylangan bolalar o'yinlariga oid ma'lumotlar tasdiqlaydi. Qolaversa, professor H. Zarif e'lon qilgan o'n ikkita tez aytish kattalar yoki katta yoshli bolalar nutq imkoniyatlariga muvofiq. Ular orasida 34, hatto 47 so'zli tez aytishlar borki, ularni aytishga 7–12 yoshdagi bolalar nafasi yetmaydi. Binobarin, aytish mumkinki, XIX asrning ikkinchi yarmi va asrimiz boshlarida katta yoshdagi bolalar repertuariga o'tish jarayonida tez aytishlarda yengil-yelpi xususiyat so'na boshlagan. Bunda, ayniqsa, o'sha davrda kuchaya boshlagan ma'rifatparvarlik harakati ta'siri muhim rol o'ynagan. Xususan, ta'lim jarayonida tez aytishlardan foydalanish istagi ularning kichik va o'rta yoshdagi bolalar repertuariga o'tishini ta'minlagan. Natijada tez aytish bolalar folklori arsenaliga o'tib yashay boshlagan. Buni ayrim ko'p so'zli tez aytishlarning turli yoshdagi bolalar repertuarida ular imkoniyatiga moslashgan holda xilma-xil variantlarda uchrashi fakti tasdiqlaydi. Chunonchi, professor H. Zarif chop etgan «t» va «p» portlovchi undoshlari va «u» unlisi alliteratsiyasiga asoslangan «Bir tup tut...» tez aytish 28 so'zdan iborat.

Bir tup tut,

Bir tup tutning tagida bir tup turp.

Bir tup tut bir tup turpning tomirini turtib turibdimi?

Bir tup turp bir tup tutning tomirini turtib turibdimi?

Bu variant o'smirlar va katta yoshdagi bolalar repertuarida uchraydi, ularning nafas imkoniyatlariga mos. Tubandagi 16 so'zlik varianti o'rta yoshli bolalar repertuarida mavjud:

Bir tup turp,

Tutning tagida

Bir tup turp.

Tut turpni turtib turibdimi?

Turp tutni turtib turibdimi?

Ikkala variant ham «tub» va «turp» soʻzlari talaffuzi jarayonida «r» tovushining sirgʻalib tushishi zamiridagi chalgʻishiga asoslangan, shu zamindagi maʼno oʻzgarishini ilgʻamagan aytuvchi kulgiga qolgan. Kichik yoshdagi bolalar shu tez aytishning 6 soʻzli variantini aytishadi:

*Bir tup tut,
Toʻrt tup turp.*

Bolalarning yosh xususiyatlariga bu xildagi daxldorlik tez aytishlarda variantlilikni mushtarak xususiyatga aylantirgan.

Kam soʻzli tez aytishlarning aksariyati bir satrli, ikkilik, uchlik, toʻrtlik shaklidagi qoʻshiq boʻlib, ritmi tovushlar alliteratsiyasi asosida yuzaga kelgan:

«Joʻja choʻchib goʻja choʻqir...»

Yoki: *Oq ot oq oʻt yeydi,
Koʻk ot koʻk oʻt yeydi.*

Yana: *Charxim chakalak,
Tanobi charxim chakalak.
Charximda gunoh yoʻgʻ-u
Oʻzim hakalak.*

Alliteratsion ritm u yoki bu tovushning toʻgʻri va ravon talaffuzini taʼminlashga boʻysunganidan ularni shovqin solib shiddat bilan aytish (skandovka) zaruriyatga aylangan. Shu sababli tez aytishlarni kuylab boʻlmaydi. Bu xususiyat, ayniqsa, nasriy tez aytishlarda yanada ravshanroq tovlanadi. Ularning aksariyati koʻp soʻzli. Har bir soʻz oʻzaro oʻxshash tovushli boʻlganligidan ichki alliteratsion ohangdorlikni yuzaga keltirgan. Oʻz navbatida, ichki alliteratsion ohangdorlik tu-roqlanish asosida oʻziga xos poetik ritm hosil qilgan:

*— E joʻra, bizning quyoshlamada quyoshmalashib ket,
Quyoshlamalashsang ham quyoshmalashib ket,
Quyoshlamalashmasang ham quyoshmalashib ket.*

Tez aytishda poetik ritm istak ohangiga ega. Umuman, nasriy tez aytishlarda poetik ritm xilma-xil ohanglarni (gumon, soʻroq, buyruq, xabar) ifodalashi mumkin. Bu xususiyat ham sheʼriy, ham nasriy tez aytishlar uchun mushtarak boʻlib, ularning mazmundorligini, gʻoyaviyligini taʼminlagan. Bunda diksiyaning aniq va ochiqligiga, poetik taktga, mantiqiy urgʻuga alohida eʼtibor berish zarur. Shularning birortasiga rioya qilinmasa, oʻsha zahoti ritmdan chiqib ketiladi, maʼno yoki mazmunda mantiqsizlik yuzaga keladi.

Nasriy tez aytishlarning shunday namunalari ham borki, ularda poetik ritmdan voz kechilgan; ijtimoiy mazmundorligini boʻrttiruvchi alliteratsion ohangdorlik-kagina ega:

— Namanganda usta Musa puch pistafurush bor ekan. O'sha usta Musa puch pistafurushning oltmish uch pud puch pistasi bo'lsa ham o'sha usta Musa puch pistafurush, oltmish uch pud puch pistasi bo'lmasa ham o'sha Musa puch pistafurush.

Tez aytishda savdodagi qalloblikni fosh etish — yetakchi motiv; pistaning puchligini ta'kidlovchi «p» va «ch» tovushlari — alliteratsiya asosi. Binobarin, «puch pista» iborasi tez aytish uchun muddao husni — motivni ifodalovchi vositaga aylangan. Muddao, husni ham she'riy, ham nasriy tez aytishlarda tugun vazifasini o'taydi. Ular motivnigina emas, balki qaysi tovushni alliteratsiyaga solishni yoxud so'zni takrorlashni belgilovchi vosita sifatida so'z yoki so'z birikmasi shaklida namoyon bo'ladi:

*Qishda kishmish pishmasmish,
Pishsa kishmish qishmasmish.*

Yoki:

— Chustda usta Tursunmatning uchta tustovug'i bor. O'sha uchta tustovuq Chustdagi usta Tursunmatning uchta tustovug'imi yoki boshqa tusdagi uchta Tursunmatning uchta tustovug'imi?

Birinchi tez aytishda «kishmish» so'zi muddao husni bo'lib, «sh» undoshining alliteratsiyasiga zamin yaratgan va qish fasliga oid ma'lumotni tashishni ta'minlagan. Ikkinchi tez aytishda «uchta tustovuq» birikmasi — shu muddao husni; «ch», «t», «s» undoshlari alliteratsiyasi shu negizda hosil qilingn. Tez aytishda bu ibora lutf san'atini yuzaga keltirgan: dastlab tustovuqlar miqdorini — uchtaligini anglatsa, keyin tovuqning rangi — uch tusdaligiga ishoraga aylangan. Tovush alliteratsiyasini tez aytish ijrochiga shu nozik ma'noni ilg'ashga xalal yetkazadi, natijada u chalg'iydi. Bu xildagi rang-barang tvoush alliteratsiyalari, omonimlar, omofonlar, omograflar, paronimlar va taftologiyalar zamiridagi ma'no tovlanishlari pedagoglar va bolalar e'tiborini tortdi. 30-yillardayoq boshlang'ich sinflarda til va o'qish darslarida o'quvchilar talaffuzini burro etishda, tovushlarning nozik ohanglarini fahmlashlari hamda farqlashlarini ta'minlashda tez aytishlardan foydalanila boshlandi. Bu talay bolalar shoirlari va yozuvchilarini zamonaviy tez aytishlar to'qishga undadi. K. Chukovskiy, S. Mashak, D. Xarmslar tez aytish tipida barkamol qo'shiqlar ijod qilib, tez aytishning yozma adabiyot arsenalidan joy olishiga, shu asosda bolalar folklori va adabiyoti aloqadorligini mustahkamlashiga yo'l ochdilar. 3. Diyorning «Oq ayiqqa — soz qayiq» tez aytish she'ri o'zbek bolalar adabiyotida shu sohadagi ijodiy izlanishning ilk ijobiy namunasi bo'lgan edi. 50-yillardan e'tiboran «Tong yulduzi» gazetasi, «G'uncha», «Gulxan» va «Sao-dat» jurnallari adabiy tez aytishlarni tashviq qilishda o'rnak ko'rsata boshladilar. Bunday g'ayrat oqibatida tez aytishlarning adabiy hodisaga aylanish jarayoni bir-muncha tezlashdi. Murod Xidir, S. G'afurov, Y. Sultonov, A. Zayniddinovlar adabiy tez aytish janrida sezilarli natijalarga erishmoqdalar.

N a m u n a l a r

* * *

Oq choynakka oq qopqoq,
Ko'k choynakka ko'k qopqoq.

* * *

Ko'k choyni ko'k choynakka damlab ko'k ko'zli ko'ylagi ko'k Karimga berdimi yoki Qodirqul qora choyni qora choynakka damlab qora ko'zli ko'ylagi qora Qursiyaga berdimi?

* * *

O'ktam ko'm-ko'k ko'rkam ko'klam rasmini ko'p ko'k qalamda chizmoqchi.

* * *

Oq tepada oq kaptar. Ko'k tepada ko'k kaptar.
Oq tepadagi oq kaptar ko'k tepadagi ko'k kaptarga don berdimi, ko'k tepadagi ko'k kaptar oq tepadagi oq kaptarga don berdimi?

* * *

Olti juft oq chinni choynakka to'rt juft ko'k qopqoq, to'rt juft ko'k chinni choynakka olti juft oq qopqoq yopsa bo'ladimi?

* * *

To'p-to'p ko'k koptok,
Har bir ko'k koptokda bittadan katta ko'k koptok.

* * *

Tyanshan tog'ining tagida Tursunali traktorni tirillatib turibdi.

* * *

Non yasashasizmi, sholi sanashasizmi?

* * *

Olmaxon, olmadan olmani ol!

* * *

Namanganlik To'lagan to'la lagan handalak yegan.

* * *

Shu yerni to‘qmoqlasam ham to‘qmoqlayman, to‘qmoqlamasam ham to‘qmoqlayman.

Sodiq Sidiqqa soat sotdimi? Siddiq Sodiqqa soat sotdimi?

* * *

Toshkentlik Toshtemirning teshasi toshloqlik Toshboltaning teshasidanmas...

* * *

Osmonda ikkita kalxat: birining oq dumi kalta kalxat, birining qora dumi kalta kalxat. Oq dumi kalta kalxat qora dumi kalta kalxatga xalaqit beradi. Qora dumi kalta kalxat oq dumi kalta kalxatga xalaqit beradi.

* * *

Namanganda usta Musa pitch pistarurushning oltmish uch pud pistasi bor. Oltmish uch pud puch pistasi bo‘lsa ham o‘sha usta Musa puch pistafurush, oltmish uch pud pistasi bo‘lmasa ham o‘sha usta Musa puch pistafurush.

* * *

Shokosay-u shokosa,
Shokosa ichida nimkosa,
Nimkosani olay desam
Yana chiqdi bir kosa,
Bu kosani olaylik deb
Ovora bo‘ldik rosa.

* * *

Ahmad Rahmatga shaxmat berdimi?
Rahmat Ahmadga shaxmat berdimi?

* * *

Karim Karimaga karamni berdimi?
Karima karamni Karimga berdimi?

* * *

Qo‘ng‘iroq qo‘g‘irchoqnikimi?
Qo‘zichoqnikimi?

* * *

Lola allalaydi, Sobir arralaydi.

* * *

Novvoy non yopar,
Nonni novvot deb sotar.

MUNDARIJA

Xalq o'yinlari — bolalar uchun hayot maktabi.....	3
Harakatli o'yinlar	12
Ma'naviy (so'z) o'yinlar	20
Chorlamalar	22
Cheklashmachoqlar	27
Sanamalar	31
Sof harakatdan iborat o'yinlar.....	42
Harakatni narsalar orqali boshqaradigan o'yinlar	75
Harakatni so'z boshqaradigan o'yinlar	129
Guldur – guplar. Chandichlar. Tez aytishlar	161

OXUNJON S. AFAROV

O'zbek xalq bolalar o'yinlari

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent – 2013


Muharrirlar *Erkin Malikov, Vafot Fayzulloh*
Rassom Nigora Yuldasgarova
Badiiy muharrir va bezakchi *Feruza Basharova*
Texnik muharrir *Ra'no Bobxonova*
Musahhihlar *M. Ziyamuhamedova, Sh. Xurramova*
Sahifalovchi *Lidiya Soy*

Nashr litsenziyasi AI № 201, 28.08.2011-y.

Bosishga ruxsat etildi 22.04.2013. Bichimi 70x90 $\frac{1}{16}$.
Times New Roman garnituras. Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i 12,87.
Nashriyot-hisob tabog'i 7,44. Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 3066.
Bahosi shartnoma asosida.

**«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasi,
100000, Toshkent shahri, «Buyuk Turon» ko'chasi, 41.**







Oxunjon Safarov

filologiya fanlari doktori,
Buxoro davlat
universiteti professori.
Ellikdan ziyod ilmiy, uslubiy,
badiiy; «Buxoriylar yoxud
o'n ikki yulduz haqida qo'shiq»,
«Shirintoylar bahori»,
«Bolaligim qolgan ko'chalar»
kabi she'riy kitoblar muallifi.



ISBN 978-9943-00-976-9



9 789943 009769